$$4P_{12,2}^2 - 4P_{12,2} + 1 + 4P_{11,2} - 4P_{11,2}P_{22,2} \leq 0$$

However, the sign of inequality does not change.

$$(2P_{12,2} - 1)^2 \leq 4P_{11,2}P_{22,2} - 4P_{11,2}.$$

So,  $Vx = \sum_{ij=1}^n P_{ij,k}x_i x_j$  for the operator  $x$  to be majorized, the following conditions must be fulfilled.

$$P_{12,1} > \frac{P_{11,1} + P_{22,1}}{2}, (1 - 2P_{12,1})^2 \leq 4(P_{11,1}P_{22,1} - P_{22,1}).$$

$$P_{12,2} < \frac{P_{11,2} + P_{22,2}}{2}, (1 - 2P_{12,1})^2 \leq 4(P_{11,1}P_{22,1} - P_{22,1}).$$

**Conclusion.** Thus, we tried to show some properties of quadratic stochastic operators in this article. The main goal in this article is quadratic stochastic operators, doubly-stochastic matrix, equivalent operators and their application to majorization. These cases are still open in higher order simplex.

#### Reference:

1. A.W.Marshall, I.Olkin, B.C.Arnold. Inequalities: Theory of majorization and its application, springer, New York, 2011.
2. N.P.Sokolov. Spartial matrices and their applications (Russian), Gosudarstv. Izdat. Fiz.-Mat. Lit., Moscow, 1960, pp, 300, MR24-A122.
3. F.Shahidi, R.Ganikhodzaev and R.Abdulghafor. The dynamics of some extreme doubly stochastic quadratic operators. Middle east journal of scientific research. Malaysia, January 2013.
4. R.N.Ganikhodzaev. Research on the theory of quadratic stochastic operators (Russian). Doctoral dissertation. National University of Uzbekistan. Tashkent, 1993.
5. Y.U.Lyubich. Mathematical economics and functional analysis. (Russian). "Nauka". Moscow. 1974, p. 109 – 138.
6. J.E.Pecaric, D.Zwrick. N-convexity and majorization. Rocky mountain journal of mathematics. Volume 19. Number 1. Winter 1989.

Арзиқулов Элбой Азим ўғли (Республика Маънавият ва маърифат маркази хузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти мустақил изланувчиси)

## ИСТЕЪМОЛ МАДАНИЯТИ ФАЛСАФИЙ ТАДҚИҚОТ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

**Аннотация.** Ушбу мақоламизда истеъмол маданияти ҳақида фалсафий қарашлар, шунингдек, истеъмолчилик жамиятининг пайдо бўлиши ҳамда бугунги кунда истеъмол маданиятининг янги талқинда намоён бўлиши каби фикр-мулоҳазалар илгари сурилган.

**Аннотация.** В данной статье представлены философские взгляды на культуру потребления, а также возникновение общества потребления и представлена новая интерпретация культуры потребления.

**Annotation.** In this article, philosophical views on consumer culture, as well as the emergence of a consumer society and a new interpretation of consumer culture are presented.

**Калим сўзлар:** истеъмол, маданият, капитализм, товар, эҳтиёж, иқтисод, харид қилиш, цивилизация, ислоҳот, зарурат, глобализация.

**Ключевые слова:** потребление, культура, капитализм, товар, потребность, экономика, шоппинг, цивилизация, реформа, необходимость, глобализация.

**Key words:** consumption, culture, capitalism, commodity, need, economy, shopping, civilization, reform, necessity, globalization.

Истеъмол маданияти истеъмолчи билан у фойдаланадиган ёки истеъмол қиладиган товарлар ёки хизматлар ўртасида маълум муносабатларни яратадиган бозор томонидан осонлаштирилган моддий маданият туридир. Аънамага кўра, ижтимоий фанлар истеъмолга ишлаб чиқаришнинг арзимас қўшимча маҳсулоти сифатида қарашга мойил эди. Кенг маънода истеъмол маданиятини ижтимоий мавқеи, қадриятлари ва ҳаракатлари товарлар ва хизматларни истеъмол қилишга қаратилган маданият сифатида таърифлаш мумкин. Бошқача қилиб айтганда, истеъмол маданиятида нима қилаётганингиз, нимани қадрлашингиз ва қандай таърифланганлигингиз кўп нарсаларни қандай истеъмол қилишингизга боғлиқ.

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Истеъмол маданияти ҳақида фикр юритар эканмиз, бунда, энг аввало, буюк тарихга таянамиз. Жумладан, бу ҳаётда истеъмолчиликнинг маънавий-ахлоқий ва маданий асосларини илк кўринишлари қадимги Шарқда вужудга келган бўлиб у, асосан, Шумер, Бобил, Қадимги Миср, Қадимги Турон-Эрон ва Қадимги Ҳиндистондаги диний-фалсафий қарашлар билан ўзаро уйғунликка эга бўлган. Мазкур худудлар тарихи, иқтисодий маданиятини ёритиб берувчи манбаларда истеъмол маданиятининг дастлабки намуналари мифологик ва диний ғоялар билан боғлиқ равишда акс эттирилган. Бундай намуналарга Шумер гилтаҳталарига ёзилган матнларни, Мисрда «Мархумлар китоби», «Пхатотеп ўғитлари», Ҳиндистонда «Веда» ва бошқаларни келтиришимиз мумкин. Шунингдек, қадимги Юнонистон ва Римда эркин фуқароларда эркин истеъмол маданиятини шакллантириш йўллари ҳақидаги фикр-мулоҳазалар Сукрот, Афлотун, Арасту ва бошқаларнинг қарашларида ўз ифодасини топган.<sup>1</sup>

**Тадқиқот методологияси.** Жаҳонда истеъмол маданиятини юксалтириш соҳасига замонавий интеллектуал билим ва тажриба, ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Истеъмол маданияти ўзига хос иқтисодий маданият ҳамда миллий манфаатларни ҳимоя қилиш, тежамкорлик ва оқилона сарф-харажатни амалга оширишнинг уйғунлигини ифодаловчи тушунчадир. Истеъмол маданияти инсоннинг мураккаб манфаат ва эҳтиёжлари, динамикасини, инсон қадрини тушуниш, иқтисодий фаровонликни таъминлашнинг нозик, маънавий-ахлоқий ва маданий усулларини эгаллашдир. Халқаро миқёсда ёшларда истеъмол маданиятини ошириш ва баҳолаш стратегик аҳамият касб этиб, бу жараёнда маънавий-ахлоқий ва маданий таълим ва тарбия тизимини модернизациялаш, уни янги бозор муносабатлари талабларига интеграциялаш, молиявий ва иқтисодий компетенцияларни оширишга хизмат қилувчи илғор инновацион механизмларни ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

Жаҳон миқёсидаги университет ва илмий тадқиқот институтларида истеъмол маданияти тежамкорлик, тенглик, адолат, демократия, инсон ҳуқуқлари, бағрикенглик ва ҳамжиҳатлик тамо-

<sup>1</sup> Арасту. Поэтика. Нафис санъатлар ҳақида. Ахлоқи кабир (Қатга ахлоқ китоби). Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2004, 196-бет.

йилларига асосланган ва биргаликда яшаш ва баҳам кўришни қўллаб-қувватлайдиган иқтисодий маданият шакли эканлигини асослаш бўйича муҳим илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ёшларда истеъмол маданиятини юксалтириш механизмларини такомиллаштириш мақсадида мазкур йўналишда ҳар томонлама чуқур ўйланган, мустақкам ташкилий-ҳуқуқий шарт-шароитларнинг яратиш, жамият ҳаётида кечаётган ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий жараёнларни, фуқароларнинг истеъмол маданиятини юксалишини таҳлил қилиш ва баҳолаш, ижтимоий-иқтисодий янгиланишда давлат ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлигини кучайтириш бўйича аниқ ҳамда пухта тавсиялар ишлаб чиқиш, шахсларо ва гуруҳларо тинчликка қаратилган интеграциялашган жараёнларда ёшларни фаол иштирок этиш сингари вазифаларни изчил бажариш жараёнига замонавий ижтимоий-сиёсий технологияларнинг имкониятларидан кенг қўламда фойдаланишни янги сифат даражасига кўтаришни талаб этмоқда.

**Таҳлил ва натижалар.** Истеъмол маданиятини фалсафий тадқиқот объекти сифатида таҳлил этиш асносида, қуйидаги фикр-мулоҳазаларни атрафлича ўргандик. Мамлакатимиз олимлари ва бошқа экспертлар жамоаси томонидан ўтказилган тадқиқотлар ҳамда ижтимоий сўровлар шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунда давлатимиз раҳбарияти томонидан истеъмолчилик маданиятининг маъно-мазмунини чуқур англаган ҳолда, кенг қўламда ислоҳотларда муносиб иштирок этиш кайфияти кучайиб бормоқда.

“Истеъмолчи жамияти” китобининг муаллифи Жан Баудриляр истеъмол замонавий капиталистик жамиятнинг ўзига хос мантиғини ташкил этади, деб ҳисоблайди. Бунга қуйидагилар қиради. Биринчидан, ҳамма товар истеъмоли олдида тенгдир. Истеъмол жамиятида ҳаётдаги ҳамма нарса истеъмол маҳсулотига айланади. «Ҳеч нарса истеъмол қилиб бўлмайди». Истеъмол товарларининг ҳамма жойда мавжудлиги капитализмни оқлайди. Истеъмол жамияти капитализмнинг тенглиги ҳақидаги афсонани биринчи бўлиб намоёиш этади». Иккинчидан, истеъмол нафақат моддий маданиятда, балки маданий маънода ҳам намоён бўлади. Истеъмол шахсий ўзига хосликни акс эттиради.

Британиялик олим Селия Лури «Истеъмол маданияти 20-асрнинг иккинчи ярмида Европа ва Америка жамиятларида пайдо бўлган моддий маданиятнинг ўзига хос шаклидир» деб ҳисоблайди.

Юқоридаги фикр ва мулоҳазаларни умумлаштирган ҳолда, истеъмол маданияти инсон туғилганидан бошлаб, то у шахс сифатида шаклланиб етгунга қадар янгиланиб, сайқалланиб боради.

Истеъмол маданиятини капитализм даврида қарор топган молиявий фаровонликка интилиш, керак-нокерак моддий бойликларни тинмай тўплаб бориш деб эмас, ҳар бир истеъмолчининг ўз эҳтиёжларини оқилона қондириши, деб тушуниш лозим бўлади. Шу маънода, у кеча ёки бугун пайдо бўлган эмас. Ота-боболаримиз азал-азалдан ушбу тушунчани фарзандлари онгига «Нонни исроф қилма, увол қилма», «Иззат тиласанг – кўп дема, сиҳат тиласанг – кўп ема», «Беш панжангни озингга тикма» сингари мақолу маталлар билан сингдириб келинган.<sup>1</sup> Мана шунақанги ота-боболаримизнинг панд-насиҳатлари билан, уларнинг босиб ўтган машаққатли ҳаёт йўлларида ўзимиз учун зарурий хулосалар чиқарсак, ўйлаймизки, мақсадга мувофиқ бўлади.

Истеъмолчилик – бу шахсий қониқиш ва иқтисодий рағбатлантириш воситаси сифатида товарларни сотиб олишга ёрдам берадиган маданий намуна. Модель истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини қондиришдан ташқари товарларга бўлган истагини рағбатлантиришга асосланган. Бизнинг назаримизда, истеъмолчилик – истеъмолчи фаоллигининг давом этиши ва ортиши иқтисодиётга ёрдам беради, деб ҳисоблайдиган мафкурага ишора қилади. «Истеъмол маданиятининг объектив томонига маҳсулотнинг хусусиятлари, уни сотиб олиш, сотиш шартлари, яъни истеъмолчидан мустақил равишда мавжуд бўлган нарса қиради. Субъектив жиҳат шахснинг маҳсулот ва унинг хусусиятларига муносабатини, шахснинг маҳсулотни қандай қабул қилишини ва уни ўз дидига кўра қайта ишлаб чиқаришини акс эттиради».<sup>2</sup>

Истеъмолчилик капитализмнинг асосий муаммоларидан биридир. Социологлар Марксдан бери истеъмолчиликка танқидий нуқтаи назардан фикр юритадиган бўлишди. Марксизмда истеъмолчилик нарса ва одамлар ўртасидаги муносабатлар тубдан ўзгаришларга учраганлиги сабабли мавжуд. Капитализм пайдо бўлгунга қадар товарлар бевосита меҳнат натижаси бўлиб, товар ишлаб чиқариш ва айирбошлаш, одатда, бир жойда амалга оширилар эди. Истеъмол маданияти, товар маҳсулотларини сотиш, сотиб олиш ва намоёиш этишдан шахсий ва ижтимоий маънони яратиш ва

<sup>1</sup> <https://uzhurriyat.uz/2016/04/12/iste-mol-madaniyatini-yuksaltirish-yo-lida/>

<sup>2</sup> <https://youmebox.ru/uz/bez-vlozhenij/smotret-stranicy-gde-upominaetsya-termin-kultura-potrebleniya.html>



ривожлантириш замонавий ва постмодерн жамиятнинг марказий ўзига хос хусусиятидир.

Истеъмол маданияти деганда одамларнинг маънавий эҳтиёжларини қондириш учун, жумладан, таълим, маданий кўнгилочар, спорт ва фитнес, туризм ва бошқаларни ўз ичига олган маданий маҳсулотлар ёки хизматлардан фойдаланадиган истеъмол тури тушунилади. Билим иқтисодиёти шароитида истеъмол маданияти янги маънолар билан таъминланади ва истеъмол маданияти асосий оқим, юқори технологияли, оммабоплик ва глобаллашув хусусиятларини тақдим этади.

Истеъмол маданияти деганда маънавий-маданий маҳсулотлар ҳамда маънавий-маданий хизматларга эгаллик қилиш, уларни кадрлаш, улардан баҳраманд бўлиш ва фойдаланиш тушунилади. Истеъмол маданияти моддий истеъмолга асосланади. Истеъмол маданияти талабининг ўсиши доимо жамиятнинг маҳсулдорлик даражасининг ривожланишига боғлиқ, шунинг учун истеъмол маданияти даражаси замонавий моддий цивилизация ва маънавий цивилизация даражасини яна-да тўғридан-тўғри ва ёрқинроқ акс эттириши мумкин. Бу ерда тилга олинган «истеъмол маданияти», умуман, маданиятни истеъмол қилиш ёки шунчаки маданият деб белгиланган бирор нарса истеъмол қилиш эмас. «Ҳар бир инсон, деб ёзади Ал-Форобий, ўз табиати билан шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга муҳтож бўлади, у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёж туғилади. Шу сабабли яшаш учун зарур бўлган, кишиларни бир-бирларига етказиб берувчи ва ўзаро ёрдамлашувчи кўп кишиларнинг бирлашуви орқалигина одам ўз табиати бўйича интилган етукликка эришуви мумкин. Бундай жамоа аъзоларининг фаолияти бир бутун ҳолда уларнинг ҳар бирига яшаш ва етукликка эришув учун зарур бўлган нарсаларни етказиб беради».<sup>1</sup>

Америкалик иқтисодчи Маслоу қондирилиши керак бўлган эҳтиёж даражасига кўра, инсон эҳтиёжларини беш даражага ажратди, яъни физиологик эҳтиёжлар, хавфсизлик эҳтиёжлари, ижтимоий эҳтиёжлар, ҳурмат эҳтиёжлари ва ўзини-ўзи амалга ошириш эҳтиёжлари. Кейинчалик, у инсон эҳтиёжларини етти даражага кўтарди, улардан физиологик эҳтиёжлар, хавфсизлик эҳтиёжлари ва тегишли эҳтиёжлар бирламчи эҳтиёжлар, ҳурматли эҳтиёжлар ва ўз-ўзини амалга ошириш эҳтиёжлари оралик эҳтиёжлар, билим эҳтиёжлари ва гўзаллик эҳтиёжлари эса илғор эҳтиёжларга тегишли.

Маслоудан сўнг Америка хатти-ҳаракат мотивацияси мактаби психологи С.П.Алдефер 1969 йилда ўзининг «Инсон эҳтиёжларининг янги назариясининг эмпирик тести» мақоласида эҳтиёжлар иерархиясини тўлдириб, одамларнинг эҳтиёжларини иерархияга қўйди. Бу эса инсоний эҳтиёжларнинг қисқаришига олиб келди. Бу ҳолат ўзи табиатига кўра, уч турга бўлинади, яъни омон қолиш истаги, қариндошлик истақлари ва ўсиш истақлари деб аталади.

Европалик олимлардан И.Г.Гердер (1744–1803) инсоният цивилизацияси маданиятлар ва маданий ўзгаришлар тарихи эканлигини таъкидлайди. Инсон ва халқ ҳаёти бир-бирига чамбарчас боғлиқ занжир, гоҳо ушбу занжирга урушлар, низолар хавф солиб туради. Маданиятда «инсоният даҳоси мужассам», «Инсоният даҳоси ўз кўркини тинмай ўзгартиради, абадий гуллайди ва халқда, авлодларда, қалбларда, улар маданиятида барқарор яшайди».<sup>2</sup>

Ўрта Осиё халқлари тарихи маданиятини илк кўринишлари «Авесто»да, аҳамонийлар даври михсимон ёзувларида ва қадимги Юнон-Рим ёзма манбаларида ўлкамиздаги халқларнинг номлари, алоҳида жойлар, тоғлар, дарёлар ва қўлларнинг номлари, афсонавий қаҳрамонлар ва подшоларнинг номлари, аҳолининг турмуши, дини, маданияти, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий тузуми тўғрисидаги маълумотлар келтириб ўтилади. Шунингдек, «Авесто» китобида қадимги географик тушунчалар, ҳудудий, этник, қабилалар ва вилоятлар номлари, қадимги ва сиёсий тузум, зардуштийларнинг фалсафаси, дунё тарихининг ривожланиши ҳақида маълумотлар келтириб ўтилган.<sup>3</sup>

Тарихни ўрганишга цивилизацион ёндашув асосчиларидан бири, рус табиатшунос олими Н.Й.Данилевскийдир. «У ҳар бири алоҳида-алоҳида мавжуд бўлган, фаолиятнинг тўрт муҳим шакли ёки цивилизациялар «асоси» – диний, маданий, сиёсий, ижтимоий-иқтисодий асослар орқали намоён бўлувчи маданий-тарихий типлар ҳақидаги концепцияни илгари сурган. Маданий-тарихий типлар, биологик организмлар каби ташқи муҳит ва бир-бири билан узлуксиз қураш

<sup>1</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993, 186-бет.

<sup>2</sup> Гердер И.Г. Идеи к философии истории человечества. М., «Наука», 1977, с. 234.

<sup>3</sup> Ўрта Осиё минтақасидаги қадимги давлатлар, улар эгаллаган ҳудуд номи ва маъмурий тузилиши. [хтгп:// хоразмий.уз/оз/пагес/виеw/223](http://xorazmий.уз/оз/пагес/виеw/223)

жараёнида пайдо бўлади ҳамда вужудга келиш, вояга етиш, қариш ва ҳалок бўлиш босқичларидан ўтади».<sup>1</sup>

Истеъмол инсониятнинг абадий мавзуси бўлиб, инсон омон қолиши ва ривожланишининг асосидир. Кишилиқ жамиятининг барча фаолияти, хоҳ моддий, хоҳ маънавий бўлсин, одамларнинг ўсиб бораётган эҳтиёжларини қондириш, одамларнинг истеъмолини қондириш учундир. Лекин истеъмолчилик ҳар доим ҳам мавжуд эмас, балки ижтимоий тараққиётнинг маълум бир тарихий босқич маҳсулидир. «Маданият – жамиятнинг маҳсули, ижтимоий ҳаётнинг энг муҳим жабҳаларидан биридир. Маданиятсиз жамият бўлмаганидек, маданият ҳам жамиятдан ташқарида мавжуд бўлмайди».<sup>2</sup>

**Хулоса ва таклифлар.** Жамият ривожланиши учун кеча ким бўлганимизни, кимларнинг авлоди эканимизни чуқур англаб, улардан қолган бой маънавий меросларни кадрлай олишимиз, ажодларга муносиб авлод бўлишимиз лозим.

Истеъмолчиликни замон тараққиёти нуқтаи назаридан баҳолаш, уни ҳозирги меъёрлар билан ўлчаш эмас, балки унинг пайдо бўлишининг тарихий фонига асослаб ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади. Истеъмолчилик пайдо бўлган типик давр капиталистик бозор иқтисодиёти даври ҳисобланган бўлса, ҳозирги бозор иқтисодиёти даврида корхона нима ишлаб чиқаришини ҳамда қанча маҳсулот ишлаб чиқаришини эса сизу биз ўз эҳтиёжларимиздан келиб чиққан ҳолда белгилаймиз.

**Аҳолида истеъмол маданиятини ривожлантириш учун таклифлар:**

1. Аҳолининг, энг биринчи галда, ҳуқуқий саводхонлигини ошириш.
2. Қонун устуворлигини таъминлаш механизмларида инсон омилини камайтириш.
3. Жамиятда коррупцион ҳолатларда жазо чораларини кучайтириш.
4. Бозор иқтисодиётида ҳалоллик ва ошкоралиқни таъминлаш.

**Хонимов Шарофиддин (Ўзбекистон Миллий университети мустақил тадқиқотчиси)**  
**ЁШЛАРДА ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИКНИ ОШИРИШ ВА МАФКУРАВИЙ**  
**ИММУНИТЕТНИ МУСТАҲҚАМЛАШ ОМИЛЛАРИ**

***Аннотация.** Мазкур мақолада Янги Ўзбекистонда ёшларнинг жамиятимиздаги ўзгаришлар ва сиёсий жараёнлардаги фаоллигини яна-да ошириш ва “оммавий маданият”га қарши иммунитетни шакллантириш омиллари кўриб чиқилади.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются факторы повышения активности молодежи в изменениях в нашем обществе и политических процессах в новом Узбекистане и формирования иммунитета против «массовой культуры».*

***Annotation.** This article examines the factors of increasing the activity of young people in the changes in our society and political processes in the new Uzbekistan and the formation of immunity against “mass culture”.*

***Калим сўзлар:** ёшлар, фаоллик, иммунитет, креатив, ислоҳотлар, китобхонлик, ижтимоий-сиёсий фаоллик, жамият, тараққиёт, тарбия, ахлоқ.*

***Ключевые слова:** молодежь, активность, иммунитет, творчество, реформы, чтение, общественно-политическая активность, общество, развитие, воспитание, нравственность.*

***Key words:** Youth, activity, immunity, creative, reforms, reading, socio-political activity, society, development, education, morality.*

Бизга маълумки, мамлакатимизда миллий-маънавий тикланиш, ёшларимиз онги ҳамда дунёқараши миллий кадриятлар асосида бойитиб бориш, миллий маънавиятимизни турли таҳдидлардан асраш, ёшларни дунёқараши кенг, креатив фикрлайдиган, ташаббускор, ҳалол ва жонкуяр ҳамда муаммоли вазиятларда тўғри қарор қабул қиладиган қилиб тарбиялаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Айниқса, ёшларнинг пухта билим олиши, касб-хунар эгаллаши, миллий анъана ва кадриятларимизга ҳурмат руҳида камол топиши йўлида эътибор ва ғамхўрлик кўрсатиш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Дарҳақиқат, бугунги глобаллашув ва тез суръатлар билан ўзгариб бораётган мураккаб ва шиддатли даврда мамлакатимиз ёшлари маънавиятини юксалтириш ҳамда турли таҳдидлардан асраш, уларнинг халқаро майдонда со-

<sup>1</sup> Данилевский Н.Я. Россия и Европа. М., 1991, с. 58 – 100.

<sup>2</sup> <https://hozir.org/madaniyat.uz>

дир бўлаётган жараёнларнинг туб моҳиятини англаб етиши, ушбу воқеликлар юзасидан холис ва мустақил фикрга эга бўлиши, ёшларга эътиборни кучайтириш, уларни маданият, санъат жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларга ахборот технологияларидан фойдаланиш кўникмаларини сингдириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини ошириш каби масалалар долзарб аҳамият касб этмоқда.

XX асрнинг сўнги чорагига келиб, кўплаб ривожланган давлатларда ёшларга доир фаолият мустақил фаолият йўналишига айланди, унга доир умуминсоний тенденциялар ва устуворликларни белгилайдиган халқаро ҳужжатлар қабул қилина бошлади. Бугунги кунда маънавий баркамол ва ижтимоий-сиёсий фаол ёш авлодни тарбиялаш глобаллашув даврининг талабларига мос ва таҳдидбардош ёшларни вояга етказиш билан боғлиқ масалалар таҳлилига бағишланган асарлар ва тадқиқотлар мамлакатимизда ушбу йўналишда илмий изланишлар олиб бораётган олим ва мутахассислар фаолиятининг таркибий қисмига айланган дейиш учун барча асослар бор.

Мамлакатимизнинг хавфсизлиги, барқарор тараққиёти ҳеч бир Ўзбекистонликни бефарқ қолдирмаслиги керак. Чунки улар ўз, ягона Ватанининг тарихи қандай машаққатли, азобли асрларни ўтказиб, мустақилликка эришганлигини яхши биладилар. Шундай экан, Ватан – Ўзбекистоннинг посбони ҳам миллатидан, динидан, туғилган жойидан, касбу ёшидан қатъий назар, унинг ўзбекистонлик бўлишидир. Демак, мамлакатимизнинг хавфсизлиги учун энг биринчи кафолат – ўзбекистонликларнинг миллий истиқлол ғояси атрофидаги жипслигидир. Шу тариқа, миллий ғоя бизни ўтмишимиз, ҳозирги ҳаётимиз ва келажагимиз билан боғлаб туради. Шу сабабли Ўзбекистон халқининг миллий истиқлол ғоясига асосланган иммунитет – Ватан хавфсизлиги даражасининг муҳим кўрсаткичларидан бирига айланади.

Миллий истиқлол ғояси халқ фаровонлиги, юрт тинчлиги, Ватан равнақи, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик, комилликка таянар экан, ана шу ғояларга қарши қаратилган хатти-ҳаракатлар ташқи ва ички таҳдидларни олдини олади. Ташқи таҳдидлар – Ўзбекистоннинг давлат чегарасидан ташқаридан кириб келувчи, ички таҳдидлар эса Ўзбекистон давлати мамлакатнинг ичидан чиқаётган таҳдидлардир.

Одамнинг маънавиятига таҳдид соладиган хавфлар ва улардан ўзини онгли ҳимоя қилиш кўникмалари таълим-тарбия, ота-оналар ўғитлари, яхшилик ва ёмонликларни кўриши ва билиши жараёнида шакллана боради. Болага илк ёшидан бошлаб, нима яхши, нима ёмон, уларга қандай муносабат билдириш керак, деган саволларга асосланган боғча, мактаб тарбияси, ундан кейин ижтимоий тарбия йўлга қўйилсагина, ҳар бир миллат соғлом, ишончли, мустақкам иммунитетга эга бўлади. Иммунитет эса, ўз навбатида, одамни тўғри йўлдан “озиш”дан, турли йўлларга адашиб, кейин пушаймон бўлишлардан, бахтсизликдан, миллатни эса парокандаликлардан, парчаланишлардан, синфий, маҳаллий ёки бошқа бўлинишлардан асраб туради.

Демак, мафкуравий иммунитет давлат ва миллатнинг маънавий бирлиги, маънавий соғломлигини ҳимоя қилувчи ғоявий қалқон вазифасини бажаради.

“Иммунитет” сўзининг маъноси Ўзбекистон миллий энциклопедиясида куйидагича берилган: (лот.–бирон нарсадан халос, озод бўлиш, қутулиш) – тирик мавжудотларнинг ўз бутунлиги ва биологик ноёблигини бузувчи ёт омиллардан ҳимояланиши, қаршилик кўрсатиши, резистентлиги. Ёт омилларга бактерия ва уларнинг токсинлари, вируслар, замбуруғлар, содда жониворлар, гелиминтлар, кўчириб ўтказилган аъзо ва тўқималар, организмнинг ўзгарган ўз хужайралари (мас., ўс-масимон хужайралар) ва б. қиради. Бу омиллар организм учун ирсий бегона бўлган кимёвий агентлар – антигенларни тутиб қолади.<sup>1</sup>

Мафкуравий иммунитет маънавий, маърифий, сиёсий, иқтисодий билимларни оддийгина қабул қилиб олишини эмас, балки уларни онгли равишда тушуниб етишни, бу билимлардан замонавий ижтимоий воқеаларга мафкуравий курашлар воқелигидан келиб чиқиб, муносабат билдириш кўникмаларини шакллантириш, айрим носоғлом ғояларга жавоб бериш, уни қабул қилмаслик ҳолатидир.

Мафкуравий иммунитет миллий мустақилликнинг афзалликларига бўлган ишончга қурилади. Бу ишонч эса ишонтириш, тушунтириш натижасида ҳосил бўлади. Масалан, Ўзбекистон – дунёвий давлат. Дунёвий давлат фаолиятининг асосий тамойиллари, афзалликлари уларни диний давлат билан таққослагандагина, кенг ва тўлиқ тушунчаларни беради. Бу дунёвий миллий-демократик тузумнинг моҳияти ва афзалликларини англаб етишга олиб келади.

<sup>1</sup> Иммунитет. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/immunitet-uz/>

Ҳозирги фан ва технологиялар равнақи даврида бошқа кишиларнинг онги ва қалбига яширин, ғараз мақсад билан таъсир кўрсатишни ифодалашда манипуляция (manus – қўл), сўзи, яъни, объект устидан бирор мақсадда иш олиб бориш маъносида ишлатилмоқда. Бунда чакконлик, маҳорат талаб қилиниши кўзда тутилади. Шу сабабли “манипуляция”ни кўчма маънода “одамлар билан объект сифатида муносабатга киришиш” деб ҳам тушуниш мумкин. 1969 йил Нью-Йоркда чоп қилинган “Замонавий социология луғати”да бу ҳақда “бошқаларга билдирмасдан, асл мақсадни яширин тутган ҳолда, бошқалар устидан ҳукмронлик қилиб, ўзи истаган хулқ-атворни шакллантириш”,<sup>1</sup> дейилади.

Бунда, яъни ғоявий манипуляцияда қандай жараёнлар кечади? Аввало, ғоявий манипулятор (даъватчи)нинг мақсади–унга ўз тасаввурларини ўзгартиришга олиб келувчи белги, билимлар бера бошлайди. Натижада объект (шахс)нинг дунё, дин, ҳаёт, яшашдан мақсад каби тасаввурлари, қадриятлари тизимида даъватчи-манипулятор кутаётган тартиб пайдо бўлади ва етакчилик қила бошлайди. Бу эса шахснинг хулқ-атворига таъсир кўрсатади, шахс ўз характеридаги ўзгаришларни сезмайди ва “мен тўғри йўл тутаяпман, чунки ...”, деган асосга эга бўлиб қолади.<sup>2</sup>

Жаҳон тажрибасига назар ташласак, миллатнинг мафқураси бир эмас, балки бир неча авлоднинг умри давомида ишлаб чиқилиши ва такомилга эришувига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

Мафқуравий тарбия самарадорлиги, энг аввало, жамиятни мафқуравий тарбиялашдан натижа қандай бўлиши керак эканлигини аниқ белгиланишига боғлиқ.

Миллий мафқуравий иммунитет ҳар бир йигит-қиз, фуқародаги мустақилликнинг сиёсий моҳияти, ислохотлар ютуқлари ва муаммолари, ички ва ташқи сиёсатга доир чуқур билимларга таянади. Ҳар бир киши, ёки жамоа, жамият мафқуравий иммунитетини беш даражага бўлиб ўрганиш, баҳолаш ва шу асосда такомиллаштириш мумкин: Бунда:

◆биринчи, яъни, мафқуравий иммунитетнинг қуйи даражаси – шахс, жамоа, жамият юқоридаги билимлардан хабардор эмас, бузғунчи мафқуравий ғояларга бефарқ, лоқайд;

◆иккинчи даражаси – билимлар бор, лекин улар ҳис қилинмаган, системалашмаган, шу сабабли уларни бузғунчи мафқуравий ғояларга қарши ишлатишга тайёр эмас;

◆учинчи даража – мафқуравий билимларга эга, лекин улар назарий, шахс, жамият уларни қўллашга қийналади;

◆тўртинчи даража – асосли билимларга эга, вазиятни тўғри баҳолай олади, ички ва ташқи сиёсий, мафқуравий таъсирларга қарши иммунитетни шаклланган ва уни онгли равишда ишлатади;

◆бешинчи – олий даража – мукамал ғоявий, сиёсий, иқтисодий билимларга эга ва бу билимларни бемалол амалда қўллаб, бузғунчи мафқуравий, сиёсий ғояларни доимо, ҳамма жойда фаол фoш қила олади.<sup>3</sup>

Жаҳоннинг демократик мамлакатлари тажрибасида мафқуравий тарбиянинг бой имкониятлари, турли намуналари тўпланган. Ёш авлодни, бутун жамиятни ўз давлати, мамлакатининг мафқураси руҳида тарбиялаш–социологик, педагогик, психологик муаммо сифатида фаол ўрганилиб, тезкор замонавийлаштирилиб келмоқда.

АҚШда мафқуравий тарбия, яъни, “сиёсий ижтимоийлашув” концепциясининг мақсади ёшларни америкалаштиришдир. Бу – уларга ўз Ватани – АҚШ сиёсий системаси ва маънавиятини мукамал сингдириш, эътиқодига айланттиришнинг илмий-педагогик системаси. Мафқуравий тарбияни амалга ошириш учун адаптация курслари, турли ўйинлар орқали ўқувчилар америка жамиятининг бўлажак “намунавий фуқаролари” сифатидаги ахлоқий, мафқуравий вазифаларини, бурчларини адо этишга амалий тайёрланадилар.

Ҳар қандай ғоявий иммунитетнинг кучи унинг анланганлигидадир. Агар инсон ўз ғоясининг асл моҳиятини тушуниб етса, уни мантиқан исботлай олса ва ҳар қандай қарши саволга асосли жавоб топа билса, бундай шахс ўз эътиқодини ҳимоя қила олади ва ёт ғоялар таъсирига берилмайди.

Шундай қилиб, бугунги куннинг асосий вазифаси халқимизнинг маънавий дунёсини ҳимоя қилиш, халқаро майдонда содир бўлаётган жараёнларнинг асл моҳиятини англаш, замонамизнинг долзарб масалалари бўйича ҳолис ва мустақил фикрни шакллантиришдир. Мафқуравий иммунитетнинг ижтимоий аҳамияти билан боғлиқ ҳолда, шахс сифатида қабул қилинадиган шахсий, ин-

<sup>1</sup> <https://uz.opentran.net/rus-ozbek-tarjima/html>; <https://uz.wiktionary.org/wiki/>

<sup>2</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., “Янги аср авлоди”, 2001, 68-бет.

<sup>3</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., “Янги аср авлоди”, 2001, 126-бет.

дидуал эҳтиёжлар кадриятларга айланади ва инсон хатти-ҳаракатларини тартибга солади. Ёшларнинг ахлоқий мотивлари ижтимоий эҳтиёжларни қондириш билан боғлиқ, бурч, масъулият, фаолиятнинг ижтимоий аҳамиятини англаш, муайян позицияни эгаллаш истаги. Шу билан бирга, тор доирадаги мотивлар: моддий фаровонлик даражасининг ошиши, маданий даражанинг ошиши, бошқа одам билан ўзаро муносабатларнинг турли усулларига йўналиш ва бошқалар.<sup>1</sup>

Дарҳақиқат, мамлакатимизнинг бугунги сиёсатида ёш авлодни ахлоқий ва маънавий тарбиялаш устувор вазифалардан бири ҳисобланади, чунки янги дунёқарашга эга бўлган маънавий етук ёшлар жамият ривожига сезиларли таъсир курсатмоқда. Шу сабабли ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларни бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича беш муҳим ташаббусда илгари сурилган “улғайиб келаётган ёш авлоднинг илм эгаллашга бўлган иштиёқи ва интеллектуал салоҳиятини ошириш”<sup>2</sup> ҳамда “ёшларимизга муносиб таълим бериш, уларнинг илм-фанга бўлган интилишларини рўёбга чиқариш”<sup>3</sup> орқали ёшларнинг мафқуравий иммунитетини ошириш, уларнинг фаоллиги, маънавияти ва унинг муҳим таркибий қисми бўлган ахлоқий фазилатлар улкан бунёдкорлик ишларини амалга оширишда интеграл омил бўлиб хизмат қилади, келажакка бўлган ишончларини мустаҳкамлайди ҳамда уларни тараққиётга йўналтиради. Бу эса ҳар томонлама билимдон, маънавий жиҳатдан бой, баркамол авлодни тарбиялаш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади.

**Kadirova Dilbar Solihovna (O‘zbekiston Milliy universiteti prof. v.b.; e-mail:dilbarradirova1@gmail.com)**  
**MEHNAT ESTETIKASIDA NAFOSATNING NAMOYON BO‘LISHI**

***Annotatsiya.** Maqolada mehnat estetikasida go‘zallik, nafosatning namoyon bo‘lishi, mehnatning estetik faoliyat ekanligi, ishlab chiqarishda estetikaning namoyon bo‘lishi, mehnat sharoiti, mehnat vositalari, mehnat natijalarining mehnat estetikasida tutgan o‘rni, mehnat jamoasi va unda axloqiy-estetik muhitning ahamiyati, mehnat estetikasining inson ma‘naviyatini yuksaltirishga ta‘siri, mehnat muhiti, badiiy asarlarda mehnatning ifodalanishi va mehnatning yoshlar estetik tarbiyasiga ta‘siri masalalari o‘rganilgan.*

***Аннотация.** В данной статье изучается проявление красоты и прекрасного в эстетике труда, то, что труд является эстетической деятельностью, проявление эстетики в производстве, в условиях труда и в орудии труда, роль результатов труда в эстетике труда, значение трудового коллектива и его нравственно-эстетической среды, влияние эстетики труда на повышение духовности человека, трудовая среда, представление труда в художественных произведениях и влияние труда на эстетическое воспитание молодежи.*

***Annotation.** This article studies the manifestation of beauty and aesthetics in the aesthetics of labor, the fact that labor is an aesthetic activity, the manifestation of aesthetics in production, in the working conditions and in the tools of labor, the role of the results of labor in the aesthetics of labor, the importance of the labor collective and its moral and aesthetic environment, the influence of the aesthetics of labor on improving the spirituality of a person, the working environment, the representation of labor in works of art and the influence of labor on the aesthetic education of young people.*

***Kalit so‘zlar:** mehnat estetikasi, go‘zallik, estetik faoliyat, ijod, nafosat, ishlab chiqarish, mahsulot, mehnat sharoiti, mehnat vositalari, mehnat natijalari, mehnat jamoasi, axloqiy-estetik muhit, inson ma‘naviyati, mehnat muhiti, san‘at, yoshlar tarbiyasi, estetik zavq, dizayn.*

***Ключевые слова:** эстетика труда, прекрасное, эстетическая деятельность, творчество, тонченность, производство, продукт, условия труда, орудия труда, результаты труда, трудовой коллектив, нравственно-эстетическая среда, духовность человека, трудовая среда, искусство, воспитание молодежи, эстетическое наслаждение, дизайн.*

<sup>1</sup> Гаффарова Г., Абдуллаев А. Ахборотлашган жамиятда маънавий ҳаётнинг ўзига хос хусусиятлари (2021). Academic research in educational sciences. Special Issue, 2.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги ПҚ-4306-сон «Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. <http://www.lex.uz/docs/4320713>

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги ПҚ-4307-сон «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/docs/4320700>

**Key words:** *aesthetics of labor, beauty, aesthetic activity, creativity, refinement, production, product, working conditions, tools of labor, results of labor, labor collective, moral and aesthetic environment, human spirituality, working environment, art, education of youth, aesthetic pleasure, design.*

Ma'lumki, "Estetika" fanining maqsadi tabiat va san'at va inson faoliyatidagi go'zallikning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va go'zallikni idrok etish xususiyatlarini tavsiflashdan iborat. Estetika atamasiga uning tarixi mobaynida qarashlar turlicha bo'lgan. Uni goh "go'zallik falsafasi", goh, "san'at falsafasi" deb atashgan. Estetikani bir necha marta mustaqil fanlarga ajratmoqchi bo'lishgan. Masalan; estetik qadriyatlar nazariyasi, estetik idrok nazariyasi, san'at nazariyasi, lekin tajriba shuni ko'rsatdiki, ushbu nazariyalar o'zaro shunchalik chambarchas bog'liqlik, ularni ajratib tashlash deyarli mumkin emas. "Estetika bu insonlar uchun suv va havodek zarur bo'lgan bizni fikrlashga undaydigan mahorat, did, sa-viya va faxmimizni oshiradigan fandır. Agar insonda estetik salohiyat, did, farosat bo'lmasa u dunyo go'zalliklarini ko'ra olmaydi.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda estetika ko'proq sohaviy ko'rinishga ega. Masalan, musiqa estetikasi, dizayn estetikasi, landshaft estetikasi va h.k. Estetikaning qo'llanilish sohalari quyidagicha tasniflash mumkin:

**Fan, ilm sohasi.** Mustaqil fan sifatida. Turdosh fanlarda.

**Faoliyatlar sohasi.** Estetik faoliyatlar bilan amaliy shug'ullanayotgan inson ham estetik qonuniyatlari bilmog'i, ularga layoqati, didi, bo'lmoqligi lozim. Faoliyatlar sohalari estetikasi ikkiga bo'linadi.

**Badiiy faoliyatlarda.** Badiiylik bilan bog'liq sohalarning barchasi estetik qonuniyatlar amal qiladi. San'at, dizayn, go'zallik industriyasi, kosmetariya va h.k.

**Badiiy bo'lmagan faoliyatlarda.** Mehnat estetikasi, iqtisod. marketing va h.k. O'tgan asrlardan boshlab estetika sohasidagi texnika estetikasi, ishlab chiqarish estetikasi, badiiy dizayn nazariyasi kabi fanlar paydo bo'lgan bo'lib, ular bevosita mehnat estetikasi bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat rivojlangan sari insonlarning estetik ehtiyojlari ham yuqorilab boradi. Shu jihatdan bugungi kunda mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning nafaqat iqtisodiy, texnologik, ergonomik balki estetik jihatlariga ham katta e'tibor qaratilmoqda, chunki mahsulotning estetik jihati, insonga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan ma'naviy qoniqish hissi bilan bog'liqdir. Bu talablarning bajarilishi mahsulot ishlab chiqarish va sotishning maqsadga muvofiqligini, ishlab chiqaruvchining odamlarning doimiy o'zgarib turadigan did va talablariga o'z vaqtida javob berishini ta'minlaydi.

**Ishlab chiqarishda nafosatning namoyon bo'lishi.** Bugungi kunda yuqori sifatli mahsulotlar estetik parametrlarga ega bo'lishi lozimdir, lekin mehnat estetikasi ishlab chiqarilgan mahsulotning estetik xususiyatlarga egaligi bilan chegaralanib qolmaydi. Mehnat estetikasi ishlab chiqarishning barcha sohalarida go'zallik qonuniyatlarining qaror topishiga, estetik did va tuyg'uni shakllantirishga xizmat qiladi va u moddiy-badiiy madaniyatning bir shaklidir. Mehnat estetikasiga – mehnat va ishlab chiqarishni go'zallik va maqsadga muvofiqlik asosida tashkil etish; ishlab chiqarish binolari uchun estetik va mos arxitekturani loyihalash; dam olish joylarining intererlarini bezatish; qulay va chiroyli ish kiyimlarini yaratish; hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish va boshqalar kiradi. Ular esa, o'z navbatida, mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir qiladi. Misol uchun, ingliz qirollaridan biri asrimiz boshida gazlama ishlab chiqaradigan korxonalarining biriga borib, ish jarayonini ko'rishga qiziqib qoladi. Korxonada xo'jayinlari qirol kelishiga tayyorgarlik ko'rib, korxonani biroz obodonlashtirishga kirishadilar, devorlarni boyab, rang berishadi, o'zgartirishlar kiritganlar. Qirol kelib ketgandan keyin esa korxonada boshqaruvchilari mehnat unumdorligining oshganligini kuzatganlar va hayratga tushganlar. Shunday qilib, bu tajriba e'tibordan chetda qolib ketmadi.

**Tarixan,** inson mehnatining estetik xususiyatlari ilk bor Suqrot suhbatlarida, Aristotelning "Poetika"si, Vitruvining "Me'morchilik haqida o'n kitob" asarlarida tadqiq etilgan. Yevropaning industrial taraqqiyot davriga xos mehnat estetikasi muammolari I.Kant tomonidan falsafiy tahlil etilgan. Mehnat orqali insonning cheksiz imkoniyatlari ochiladi, odam o'zini ijtimoiy hayotning ishtirokchisi sifatida his qiladi. Aynan mehnat asosida shaxs va jamiyat estetik didining, estetik baho berish qobiliyatining va insonning go'zallik qonunlariga muvofiq "yaratish" qobiliyatining tarixan shakllanishi va rivojlanishi yuz berdi. Inson ushbu jarayonlarda ranglar va ranglar kombinatsiyasi, simmetriya, nisbatlar, ritmi his qilishni, garmoniyani estetik anglashni, voqelikka estetik munosabatni o'rgandi.

---

<sup>1</sup> Blackwell Companions to Philosophy. A Companion Aesthetics. Edited by Stephen Davies, Kathleen Marie Higgins, Robert Stecker and David E. Cooper. WILEY-BLACKWELL John Wiley Sons Ltd. Publication, 2017, p. 529.

**Mehnat sharoiti, mehnat vositalari, mehnat natijalarining mehnat estetikasida tutgan o'рни.**

Mehnat estetikasi jamiyat moddiy ne'matlarini ishlab chiqarish sharoitlari va uning natijalarini estetik o'zlashtirish jarayonini anglatadi. Mehnat jarayoni insonning ishlab chiqarish vositalarini boshqarishi, mehnat natijalari esa yaratilgan mahsulot-tovarlarning sifati, estetikasi, qulayligi uyg'unligi bilan belgilanadi. Moddiy ishlab chiqarish mahsulotlarida estetik parametrlar bir qator xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi.

**Birinchi**dan, obyektlarning shakli yaxlitlik, funktsiya birligi va moddiy asos talabiga javob berishi kerak. Faqat texnik jihatdan mukammal, iqtisodiy va ishlatilishi qulay mahsulotlarga estetik jihatdan ham to'laqonli bo'ladi.

**Ikkinchi**dan, mahsulotning ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini takomillashtirish va uning badiiy dizayn loyihasida dizayn g'oyalarining sifatli amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

**Uchinchi**dan, mahsulotning alohida qismlari va detallari birlashib kompozitsion jihatdan, proporsional, masshtabli va ritmik tuzilishga ega bo'lishi kerak. Misol uchun, tovarning asosiy ko'rsatkichi bu uning sifatidir. U inson faktori bilan bog'langan quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

– ishonchlik ko'rsatkichi (uzoq vaqt xizmat qilishi, yaroqlilik);

– ergonomik ko'rsatkichlar (gigiyenik, antropometrik, fiziologik va b. faktorlar), xavfsizlik ko'rsatkichlari (himoya vositalari) hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatli muhitning mavjudligi ularning estetik ko'rsatkichlar (aniq ko'zga tashlanuvchi informatsion, shaklining samaraliligi, kompozitsiyasining yaxlitligi va boshqalar)ga alohida e'tibor berishni taqozo qiladi (inson, avvalambor, shakliga qarab tovarni tanlaydi, sotib oladi).

**Mehnat jamoasi va unda axloqiy-estetik muhitning o'рни.** Mehnat jarayoni ikki jihatni qamrab oladi. Birinchi, kishilarning tabiat kuchlariga va obyektiv borliqdagi barcha narsalarga munosabatini, ikkinchi insonlarning mehnat jarayonidagi o'zaro munosabatlarini qamrab oladi. Mehnat estetikasining shakllanishidan ishlab chiqarish vositalarining zamonaviyligidan tashqari, mehnat jamoasidagi o'zaro axloqiy-estetik muhitning ham o'рни bor. Negaki, ahil jamoa, o'zaro axloqiy-estetik munosabat ish jarayonining sifati va estetikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin muomala kilish darajasi odamning ichki madaniyatiga, u esa, o'z navbatida, odamning axloqiy tarbiyasi bilan bog'liqdir. Odamlarning tarixan shakllangan muomala qoidalari quyidagilardan iborat: xushmuomalalik, odoblilik va mehribonlik, nazokatlilik (muloyimlik), kamtarlik, sabr-toqatlilik va bag'rikenglik. Agar ruhshunoslik fanining mehnat psixologiyasi bo'limi mehnat turiga xos xossalarning odamga ruhiy ta'sirini o'rgansa, etika fani esa turli kasb egalari qanday axloqiy qoidalarga rioya qilish kerakligini o'rganadi.

**Mehnat muhiti** deganda mehnat qilayotgan korxonasi, arxitekturasi, yorug'ligi, havo muhiti, shovqin, undagi mikroiklim omillari harorat, nisbiy namlik, atmosfera bosimi, intererning dizayni kiradi. Mehnat estetikasida dizayn ishlab chiqarish muhitining nafasat qonunlariga mos tarzda qayta qurishni taqozo etadi. Ustaxona yoki dam olish xonasining estetik ifodaliligi devorlar, shiftlar, dastgohlarning yoritilishi va rang sxemasiga, asbob-uskunalarini joylashtirish ritmiga bog'liq. Bunda rangning obyekt funksiyasi bilan bog'liqligi, ishlab chiqarish jarayonining texnologik xususiyatlari hisobga olinadi.

Rang odamga katta psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ish kunida ishlashning keskin o'zgarishini bartaraf etish maqsadida musiqadan faol foydalanish tavsiya etiladi. Ma'lum bo'lishicha, quvnoq ohang yurak faoliyatini va qon aylanish tezligini rag'batlantira oladi. Issiqlik bilan ishlaydigan mehnat muassasalari uchun qizil, to'q sariq va boshqa "issiq" ranglarni emas, balki ko'k, yashil ranglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki bu ranglar odamning jismoniy holatini yaxshilaydi va uning ish qobiliyatini oshiradi. Mehnat estetikasi bo'yicha mutaxassislarining tavsiyalariga rioya qilish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga, uni estetiklashtirishga, ishlab chiqarish muhitini insonparvar qilishga, odamlarga ko'proq quvonch va zavq bag'ishlashga imkon beradi.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayoniga qo'yiladigan talablar majmuasida, estetika **ergonomikaning rivojlanishini o'z ichiga oladi** – bu insonning sog'lig'i va mehnat qobiliyatini saqlagan holda, zarur shart-sharoitlarni yaratib, inson faoliyati uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida mehnat jarayonlarini o'rganadigan fan.

**Mehnat estetikasining inson ma'naviyatini yuksaltirishga ta'siri.** Mehnat moddiy ne'matlarningina emas, balki ma'naviy ne'matlarni ham vujudga keltiradi, kishining moddiy ehtiyojlarigina emas, ma'naviy ehtiyojlarini ham qondiradi. Inson ijodiy va yuksak maqsadlarni ko'zda tutib jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini erkin ishga solganda mehnatidan qoniqish hosil qiladi, zavqlanadi, rohatlanadi. Shunday qilib, mehnat estetikasi insonga kuchli va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatib, uning faoliyatiga estetik ma'no-mazmun baxsh etadi, ma'naviy kamol topishiga ko'maklashadi.

A.Sher qayd etadiki, mehnat–insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsad faoliyati. U kundalik ma'naviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson, ayni paytda, ham aqliy ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma'naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo'qoladi. Shu sababli mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin bo'lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim.<sup>1</sup>

Ma'lumki, inson kamoloti va komilligi masalalari Abu Nasr al-Forobiyning falsafiy konsepsiyasida moddiy olamdan mustaqil bo'lgan ma'naviy hodisa sifatida ilmiy asosga ega. Uning fikriga ko'ra, kamolot hech qachon moddaga ehtiyoj sezmaydi, komillik insonga xos xususiyat bo'lsa-da, lekin u tug'ma xususiyat emas. Inson komillikka jidd-u jahd bilan intilishi natijasida erishadi.<sup>2</sup>

**Mehnat va ijodning uyg'unligi** ijokorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratish kabilarda namoyon bo'ladi. "Narsalarning real mavjudligi – uning ishi, narsalarning ko'rinishi esa odamning ishi, ko'rayotgan narsasidan zavqlanuvchi ruh, endi ko'rganidan emas ishlab chiqqan narsasidan ham zavqlanadi",<sup>3</sup> deb yozadi Shiller. Atrofimizdagi har bir estetik obyekt yoki qadriyatlar o'z davrining, shu davrda yashagan inson mehnatining mahsuli va ijodidir. Shu jihatdan ham biz ushbu narsa buyumlarga qarab u davr ma'naviy-moddiy madaniyati, xalq ehtiyoji, didi haqida ma'lumot olamiz.

**Ilmiy faoliyat** ilmiy taqiqotning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, yangilikni topishga, yangi natijalar olishda davom etish, yangi bilim hosil qilishga qaratilgan faoliyat. Chunki "Ijod jarayonida yangi narsalar paydo bo'lish bilan bir vaqtda, insonning o'zi ham o'zgaradi".<sup>4</sup>

**Mehnat va estetik ideal.** Inson go'zallik, nafosat ijtimoiy-ma'naviy borliqning mudom hamrohi, tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Biroq inson ushbu mavjudlik bilan qoniqmagan, u borliqni yanada mukammal, yanada yetuk va go'zal ko'rishni, badiiy-estetik idealiga muvofiq kelishini istagan. Unda ushbu ehtiyoj hech qachon so'nmagan, u kishini mudom yangi-yangi izlanishlarga, mehnat faoliyatiga moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga da'vat etgan. Ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga, badiiy-estetik ideal qonuniyatlariga, talablariga muvofiq kechgan. Axloqiy-estetik idealning mehnat taraqqiyoti bilan ham bog'liqligi mavjud bo'lib, mehnat qurollarini rivojlanib borishi, inson mehnatini yengillashtiradigan turli texnik qurilmalarning kirib kelishi, axloqiy-estetik ideallarni ham o'zgarib, takomillashib borishiga olib keldi.

**Mehnat va san'at.** Estetika fanining tadqiqot obyektlaridan biri san'at ekan, san'atning kelib chiqishida ham mehnatning rolini unutmashimiz kerak. Qadimgi inson nafaqat g'orlarga, eng avvalo, mehnat qurollariga bezak berib boshlaganini ko'plab manbalarda uchratishimiz mumkin. Insoniyatning turli zamon va makonlarida mehnat bilan bog'langan arxetiplarni (arxetip deganda esa inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turg'un "sxema"lar, konstruksiyalar) ko'plab uchratishimiz mumkin (Zolushka, Morozka, Zumrad va Qimmat). Mehnat orqali san'at ham charxlanib borgan.

**Badiiy asarlarda mehnat.** Shopenhauyerning fikriga ko'ra, san'atning mohiyati shundaki, unda bir narsa, minglab hodisa uchun javobgar san'atda mehnat estetikasi 2 omil asosida kechgan:

1. Og'ir mehnatni yengillashtirish, erkinlashtirish maqsadida inson qadimdan uni badiylashtirishga, estetiklashtirishga intilgan. Bunga halq og'zaki ijodidagi mehnat turlariga bag'ishlangan qo'shiqlar yaxshi misoldir.

2. Mehnatning inson kamolotidagi o'rni masalalariga bag'ishlangan badiiy asarlar. "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalari mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Mehnat faoliyati – tabiat, san'at, ijod, o'yin, turmush estetikasi, jismoniy tarbiya va sport, yangi texnologiyalar bilan bir qatorda, estetik tarbiyaning vositalaridan biri. Go'zallik tabiatda, san'atda va jamiyatda o'z tajassumini topsa, jamiyatdagi go'zallik, eng avvalo, yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoiti shaxsiy manfaatlardan kelib chiqib, dunyoni qayta bo'lib olish, ta'sir doirasiga kiritish uchun o'ziga xos kurash borayotgan bir paytda, ma'naviy taraqqiyot va estetik madaniyatning muhim omili bo'lmish mehnat estetikasining o'rni yuksalmoqda.

<sup>1</sup> A.Sher. Estetika. Darslik, Toshkent, "O'zbekiston", 2014, 238-bet.

<sup>2</sup> Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Toshkent, "Yozuvchi", 2001, 13 – 15-betlar.

<sup>3</sup> Шиллер Ф.П. Фридрих Шиллер. Жизнь и творчество. М., "Художественная литература", 1955, с. 430.

<sup>4</sup> Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. Toshkent, "Sharq", 2004, 147-bet.



Yoshlarning bo'sh vaqtlarini band qilish, ularni mehnatga o'rgatish xususida ko'plab fikrlar bildiriladi, lekin bu o'rinda yoshlarni jalb qilishda mehnatning zavqli bo'lishi ham katta o'rin egallaydi. U esa nafosat qonunlariga rioya qilishni taqozo etadi. To'g'ri tashkil etilgan mehnat undan qoniqish va estetik zavq olish hissini keltirib chiqaradi. Aqliy va jismoniy mehnat estetik rivojlanishga faol ta'sir ko'rsatadi. Mehnat shaxsda ritm, temp, mutanosiblik kabi estetik elementlarni idrok etish, mashg'ulotdan quvonch olish, qulay estetik muhit yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi va shaxsni har tomonlama uyg'un rivojlantiradi.

**Shadmonov Aziz Azimovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti tayanch doktranti)**  
**O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHDA ERKINLIK G'OYALARINING**  
**AHAMIYATI**

**Annatsiya.** *Ushbu maqolada O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda erkinlik g'oyalari-ning ahamiyati ochib berilgan. Xususan, maqolada so'z erkinligi, vijdon erkinligi, matbuot erkinligining fuqarolik jamiyatini qurishdagi o'rni, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklari yoritilgan.*

**Аннотация.** *В данной статье раскрывается значение идей свободы в построении гражданского общества в Узбекистане. В частности, в статье освещается роль свободы слова, совести, свободы печати в построении гражданского общества. Также освещаются права и свободы человека.*

**Annotation.** *This article reveals the importance of the ideas of freedom in building a civil society in Uzbekistan. In particular, the article highlights the role of freedom of speech, conscience, and freedom of the press in building a civil society. Human rights and freedoms are also highlighted.*

**Kalit so'zlar:** *fuqarolik jamiyati, erkinlik, so'z erkinligi, inson huquqlari, vijdon erkinligi, demokratik jamiyat, matbuot erkinligi, demokratiya.*

**Ключевые слова:** *гражданское общество, свобода, свобода слова, права человека, свобода совести, демократическое общество, свобода прессы, демократия.*

**Key words:** *civil society, freedom, freedom of speech, human rights, freedom of conscience, democratic society, freedom of the press, democracy.*

Inson huquq va erkinliklari yuqori darajada ta'minlangan rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyati shaxsiy hokimiyat rejimiga, o'zboshimchalik, sinfiy nafraat, totalitarizm, odamlar ustidan zo'ravonlikka o'rin bo'lmagan, qonun, axloq, insonparvarlik va adolat tamoyillarini hamma hurmat qiladigan erkin, demokratik, huquqiy, sivilizatsiyalashgan jamiyatdir. Bu aralash iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'p ukladli raqobatli bozor jamiyati, tashabbuskor tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar munosabatlarining oqilona muvozanati ta'minlangan jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati fuqaro va uning erkinliklaridan boshlanadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish ehtiyojlari, avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va ularning hayotda amal qilishini mu-kammal ravishda tashkil etish zaruratidan kelib chiqqan.<sup>1</sup> "Fuqaro" so'zining o'zi shaxsning mustaqilligi, teng huquqliligi, sha'ni va o'z-o'zini hurmatlashining sinonimi sifatida yangraydi. Bunday jamiyat hamisha turli tabaqaviy bo'linishlar, odamlarning tengsizligi, huquqlarining cheklanishiga qarshi qo'yilgan. Fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan insonning "fuqaro" maqomiga ega bo'lishi unga shu jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan burch mas'uliyat yuklaydi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida inson huquqlarini ta'minlash bugungi kunda shartli ravishda to'rt yo'nalishda amalga oshirilishini taqozo etadi:

1) inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlari Konstitutsiyada qay darajada mustahkamlanganligini o'rganish;

2) Konstitutsiyada belgilangan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va burchlarini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari qanday holatda ekanligini o'rganish;

3) inson va fuqarolarning Konstitutsiya va amaldagi qonunlarda belgilangan huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va burchlarini amalga oshirishda jamiyatdagi siyosiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar faoliyatini o'rganish;

4) jamiyatning har bir a'zosini o'z huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va burchlarini bilishi, uni amalga oshirish imkoniyati va qobiliyatiga, ya'ni, huquqiy, siyosiy, ma'naviy ongi va tafakkurining qay

---

<sup>1</sup>Qirg'izboyev M. Demokratik ko'partiyaviylik va parlamentarizm tamoyillarini rivojlantirish masalalari. O'zbekiston: fuqarolik jamiyati sari. T., 2003, 204-bet.

darajada ekanligini hamda ularni yuksaltirishni o'rganish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsning huquqiy maqomi:

- 1) inson va fuqaro huquq, erkinlik va majburiyatlarining tengligi hamda teng huquqliligi;
- 2) konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi;
- 3) fuqarolar huquq va erkinliklarining cheklanishiga yo'l qo'yilmasligi;

4) huquq va majburiyatlar birligi prinsiplariga asoslangan holda mustahkamlangan. Shaxs nafaqat muayyan huquq va erkinliklar egasi, balki majburiyatlar sohibi hamdir. Turli-tuman huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lmish fuqaro faqat huquq va imtiyozlardan foydalanib qolmasdan, jamiyat, davlat va boshqa fuqarolar oldida muayyan majburiyatlar ham o'taydi.<sup>1</sup>

Akademik M.Sharifxo'jayev fuqarolik jamiyati qayerda, qachon mavjud bo'lishidan qat'iy nazar, uning quyidagi umumiy g'oya va prinsiplarga asoslanishini ta'kidlaydi: iqtisodiy erkinlik, turli mulk shakllari, bozor munosabatlari, inson va fuqarolarning tabiiy huquqlarini so'zsiz tan olish hamda himoya qilish; hokimiyatning erkinligi va demokratik xususiyati, qonun va odil sudlov oldida hammaning tengligi, shaxsning zaruriy huquqiy himoyasi, hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqaga asoslangan huquqiy davlat, siyosiy va mafkuraviy pluralizm, ochiq muxolifatning mavjudligi, so'z va matbuot erkinligi, davlatning fuqarolar hayotiga aralashmasligi, ular o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat va majburiyatlar, ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, hamkorlik va milliy totuvlik, odamlarga munosib hayot sharoiti yaratib berilishini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.<sup>2</sup>

Konstitutsiyada mustahkamlangan inson huquq va erkinlarini hamda burchlarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini inson va fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari, burchlarini amalga oshirish, buzilgan huquqlarini tiklash yo'llari, usullari, tartibini belgilab beruvchi, shuningdek, bu jarayonni huquqiy tartibga solishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi tashkil etadi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimiga kiruvchi qonunlarni, shartli ravishda, quyidagi to'rt guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

a) insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish tartibini belgilovchi va ularning himoya qilinishini ta'minlovchi qonunlar;

b) fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirish yo'llari, usullari va tartibini belgilab beruvchi hamda bu jarayonni huquqiy tartibga soluvchi qonunlar;

d) shaxsning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish yo'llari, usullari va tartibini belgilab beruvchi hamda bu jarayonni huquqiy tartibga soluvchi qonunlar;

e) fuqarolarning burchlari va ularni ado etish tartibini belgilovchi qonunlar.

Ijtimoiy sohaga oid adabiyotlarda ko'rsatilganidek, fuqaro va shaxs erkinligini huquqiy kafolatlashning o'zi hali uning amalda erkin fuqaro yoki ozod shaxs ekanligini to'la anglab yetganligini bildirmaydi. Uning amalga oshishi quyidagi omillarga bog'liq:

1) fuqaro va shaxs tomonidan erkinlikni, ozodlikni to'la anglab yetish;

2) fuqaro va shaxsning ma'naviy darajasi, ichki ma'naviy dunyosi;

3) o'z haq-huquqlarini bilishi va chuqur anglashi;

4) o'z kuchi va imkoniyatiga tayanishi, o'ziga ishonchi;

5) voqea va hodisalarga munosabatda o'z fikr va qarashiga egaligi, mustaqil yondashishi;

6) o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat bilan uyg'un holda ko'rishi;

7) har jihatdan barkamol, komil inson bo'lish.

O'zini erkin, ozod fuqaro yoki shaxs sifatida anglab, haqiqiy ozodligini, erkinligini chuqur idrok etgan har bir kishi Vatan oldidagi o'z burchini to'laroq idrok etadi. Unda erkinlik va ozodlikni anglash o'zaro uyg'unlashadi.<sup>3</sup>

Erkin, ozod fuqaro va shaxsni shakllantirish, birinchidan, jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasi, uning imkoniyatlariga, ikkinchidan, har bir insonning ma'naviy dunyosi, tafakkuri bilan uzviydir. Shuni ta'kidlash joizki, jamiyatning ma'naviyati qanchalik yuqori bo'lsa, uning a'zolari ozod va erkin bo'ladi. Ozodlik va erkinlik uchun kurashadigan, uni to'liq idrok etadigan va qadriga yeta oladigan insonlar va fuqarolar jamiyati doimo adolatli, kuchli hamda mustahkam bo'lib boradi. Bugungi kunda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Bu, avvalo, fuqarolarda erkinlik, ozodlikning qaramlikdan afzalligini anglashga qodir bo'lgan ong va tafakkurni shakllantirishdir.

<sup>1</sup> Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T., 2003, 138-bet.

<sup>2</sup> Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. T., 2003, 19-bet.

<sup>3</sup> Ergashev I., Sharipov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat. T., 2002, 13-bet.

Mamlakatning fuqarosi ekanligini his qilgan, huquq va erkinliklarga ongli munosabatda bo'lgan, demokratik qadriyatlarini asrab, himoya qilgan insonlarni haqiqiy ma'noda ozod va erkin, deb hisoblash mumkin. Mamlakat shunday odamlarga tayanadi va doimo ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham barchamizning asosiy vazifamiz – yoshlarimizga mustaqil fikri va dunyoqarashini shakllantirishda ko'maklashish, hayotda o'z pozitsiyasi va yondashuvini qat'iy belgilab olishiga yordamlashish, ularni ongli va bilimli qilib tarbiyalash, yon-atrofdagi voqealarga beparvo bo'lmaslik, daxldorlik tuyg'usi bilan yashashga o'rgatishdan iborat.

Mustaqil fikrlash, uni erkin aytishga harakat qilish va ayta olish erkin va ozod fuqaroga, shaxsga xos bo'lgan xususiyatdir. Ozod shaxs va fuqaro, inson tushunchalari ularning jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan voqea, hodisa va jarayonlarga, mavjud muammolarga nisbatan o'zining shaxsiy munosabatini mustaqil, hech bir tazyiqsiz erkin bildirishi bilan bog'liqdir.

**Юлдашев Фахриддин Абдуваситович (фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори,  
Фарғона Давлат университети)**

### **ФОРОБИЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН БАРКАМОЛЛИГИ ВА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАР МАСАЛАСИ**

***Аннотация.** Шарқ перипатетизми вакилларида бири ҳисобланган Абу Наср Форобий яратган буюк асарлари орқали ўрта асрлардаги Европа фалсафий тафаккури ўзининг ривожланиши даврини бошлаган, десак муболага бўлмайди. Қомусий олимнинг асарларида инсон омили масаласи баркамоллик ҳамда қадриятлар уйғунлиги билан йўғрилиб кетган. Ушбу мақолада Форобий қарашларида инсонни баркамолликка етишувни ахлоқий қадриятлар орқали юзага келишининг фалсафий жиҳатлари назарий таҳлил қилинган.*

***Аннотация.** Не будет преувеличением сказать, что средневековое европейское философское мышление начало свой период развития благодаря великим трудам Абу Насра Фараби, одним из представителей восточного перипатетизма. В работах ученого-энциклопедиста проблема человеческого фактора пронизана совершенством и гармонией ценностей. В данной статье проведен теоретический анализ философских аспектов становления человека через нравственные ценности в его предрассуденных воззрениях.*

***Annotation.** It would not be an exaggeration to say that medieval European philosophical thinking began its period of development thanks to the great works of Abu Nasr Farabi, who is considered one of the representatives of Eastern peripatetism. In the works of the encyclopedic-scientist, the problem of the human factor is permeated with perfection and harmony of values. This article provides a theoretical analysis of the philosophical aspects of human development through moral values in his preconceived views.*

***Калим сўзлар:** инсон, инсон баркамоллиги, ахлоқий қадриятлар, фозил инсон, бахт-саодат.*

***Ключевые слова:** человек, человеческое совершенство, нравственные ценности, добродетельный человек, счастье.*

***Key words:** man, human perfection, moral values, virtuous person, happiness.*

Абу Наср Форобийнинг фалсафий-илмий меросида инсон ва унинг моҳияти, инсон ҳаётининг ақлий қувватлар ва ҳис-туйғуга хос, кўнгил – руҳий фазилатлар орқали жамият билан узвий боғлиқлиги масаласи муҳим ўринни эгаллайди. Инсон ўзи нима, у чек-чегараси йўқ бепоён оламда қандай ўрин тутади, табиатдаги ёввойи ҳайвонлар, умуман, жониворлардан қандай хусусиятларига кўра фарқ қилади, инсон ҳаётининг моҳияти – бош мақсадни нима ташкил этади? Бу саволлар буюк файласуф олимни умр бўйи ўйлантирган масалалар эди. Айни шу маънода Форобий фалсафасида ақлий инсон ва фозил инсон ўртасидаги муносабатлар диалектикаси тўғрисидаги қарашлари ахлоқий қадриятлар масаласи билан уйғунлашиб кетган.

Форобий инсон камолотини вужуд майл-истакларида ва ҳайвонларда бўлган сезгилар соғломлигида эмас, балки инсонийликнинг асли, жавҳари бўлган ақлий ва руҳий қувватларида деб билади. “Ҳар бир ҳайвоннинг ҳам бадани, ҳис-сезгиси, фарқлаш қобилияти бор ва шулар туфайли (ҳайвон) ўзининг бадани, ҳис-сезгисининг соғломлигини сақлаб қолишга интилади, дейди Форобий, – аммо инсонда ҳиссий идрок этиладиган нарсаларнинг (нима учун, қандай мақсадда) мавжуд-

лигининг сабабларини англашга ва ер юзидаги барча нарса-ҳодисаларнинг сабабларини билишга бўлган интилиш бор. Ҳайвонда эса бундай интилиш йўқ”.<sup>1</sup>

Форобийнинг фикрича, инсон билимларга интилиши сабабли қобилиятларини ўстириб боради ёки инсон ўз қобилиятларини ўстириш учун билимларга интилади. “Инсоннинг билимга интилишининг сабаби нимада? деб ёзади Форобий “Арасту фалсафаси” рисоласида. –Инсонни ҳақиқатга йўналтирувчи, билиш, идрок этишга бўлган интилиш қобилияти ва биринчи, дастлабки билимлар унга нега (нима учун) берилган? Балки булар (оламни билиш, идрок этиш (тушуниш, англаш) фақат одамзотга хос хислатлардир? Балки, билиш – инсон моҳияти ёки инсон моҳиятининг таъсирларидан биридир? Агарда билиш – инсон моҳиятининг таъсиридан бири бўлса, инсон моҳиятининг ўзи энг юксак баркамолликка эришувчи интилишдан иборатдир?”<sup>2</sup>

Арасту фалсафасини ривожлантириш йўлидан борган Форобий шу рисоласида инсонлик моҳиятини очишга жуда чуқур кириб боради. Форобий бу мураккаб масалани ҳал этишда инсоннинг билимларга интилиши энг биринчи зарурий эҳтиёжлардан келиб чиқишини айтади. “Ҳақиқатан ҳам, одамлар зарурат сабабли ўзлари эҳтиёж сезган ҳолатлар (ҳодисалар)ни билишга, идрок этишга интиладилар. Нарсаларни идрок этиш (тушуниш), билишга зарурат туғилмай туриб (олинган) билим хайрли бўлмайди. Яна, билим сифати... зарурий даражадан ошиб кетмаслиги керак. Инсон интилаётган нарса ҳаддан зиёдми, йўқми ва инсонга табиатан хос бўлган бу ҳаддан зиёд хоҳишни чегаралаш ва босиб туриш керакми ёки, умуман, йўқотиш зарурми?”<sup>3</sup>

Арасту ҳам, Форобий ҳам ақлий фазилатларни қобилият дейдилар, ахлоқий фазилатларни эса илоҳий неъматларга боғлаб талқин қиладилар. Жумладан, Арасту “Никомах этикаси”нинг б-китобида рух (жон) фазилатларини икки турга бўлади:

1. Хулқ-атвордаги фазилатлар.
2. Фикрлашдаги фазилатлар.<sup>4</sup>

Муҳаммад Форобий “Фозил одамлар шаҳри” асарининг “Инсонларнинг бирлашувга, ўзаро ёрдамга эҳтиёжи борлиги ҳақида сўз” деб аталган 26-бобида инсон жамиятда камол топишини ахлоқийликка асосланиши ҳақида тушунтиради.<sup>5</sup>

Инсон табиатан шундай мавжудотки, у ўзи яшаши учун ва энг юқори камолотга етишиш учун кўп нарсаларга муҳтож бўлиб, бир ўзи уларни тайёрлай олмайди, шу сабабли у бир қанча одамлар жамиятига иши тушади. Жамият аъзоларидан ҳар бири барча инсонларга зарур бўлган нарсалардан бирортасини тайёрлаб беради. Демак, ҳар бир инсон шу маънода бошқа инсонга иши тушади. Бир жамиятда яшаб, бир-бирларига ёрдам берганларидагина инсонлар энг юқори камолотга эриша оладилар. Жамият аъзолари бирлашиб, ҳаракат қилганида ҳар бир инсон ҳаёти учун кўпгина нарсаларни тайёрлай оладилар. Шу сабабли одамлар кўпайиб, ер юзининг яшаш мумкин бўлган қисмларига ўрнашганлар, бунинг оқибатида турли жойларда одамларнинг жамиятлари вужудга келган.

Муҳаммад Форобий фалсафий меросининг энг қимматли томонларидан бири шундаки, у ҳар бир замондаги, давлат, жамият ҳаётининг маънавий соғломлиги, мусаффолиги, фуқароларнинг илғор, ватанпарварлик, адолатпарварлик, инсонпарварлик руҳидаги дунёқараши билан ахлоқий, маънавий бойлиги ёки янглиш дунёқараши, маънавий қашшоқлиги билан боғлиқдир. Форобий фикрича, ҳақиқат йўлини танлаш ҳар бир инсоннинг хулқидаги яхши хислатларга, фазилатларга боғлиқдир. Чин инсон эзгулик, адолат, ҳақиқат йўлини танлайди. Инсоннинг барча ишлари, хатти-ҳаракатлари, ақлий қувватлари гўзал, эзгу мақсадларга йўналган бўлса, уни оқил ва фозил инсон дейдилар. Агар инсон ақлий қобилиятларини ёвузлик, ёмонлик учун сарф қилса, уни айёр, маккор одам, дейдилар.<sup>6</sup>

Инсонлар ҳаётида, тақдирида илғор дунёқарашнинг буюк аҳамияти ҳақидаги Форобийнинг назарий фикрлари инсон учун юксак маънавият зарурлиги ғояси бугунги янги Ўзбекистоннинг та-

<sup>1</sup> Юлдашев Ф. Абу Наср Форобийнинг “Фи маъоний ал-ақл” асарида гносеологик масалалар. Монография, Тошкент, “Тамaddon”, 2012, 112-бет.

<sup>2</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т., “Янги аср авлоди”. 2016, 68 – 69-бетлар.

<sup>3</sup> Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар: Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. Т., “Янги аср авлоди”, 2015, 212-бет.

<sup>4</sup> Шу манба. 212-бет.

<sup>5</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т., “Янги аср авлоди”, 2016, 238 – 243-бетлар.

<sup>6</sup> Юлдашев Ф.А. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. 09.00.03-фалсафа тарихи. Самарқанд Давлат университети, 2018, 134 бет.

раққиёт стратегиясида белгилаб қўйилган “Инсон қадри учун” тамойили устувор ҳисобланаётган шароитда ҳам жуда қимматлидир. Модомики, Форобий асарларида шахс камолоти, жамият ва шахс масалалари алоҳида ўрин эгаллайди. Унинг асарлари тасниф этилганда, сиёсат илми, “шаҳар ҳақидаги илм, шаҳарни бошқариш илми”, яъни “илми ал-маданий” юриспруденция (фикх) ва мусулмон теологияси (илми калом) хусусида билдирган фикрлари ҳам ўз даврига нисбатан илғор қарашлардан иборат эди. Бинобарин, унинг фалсафий таълимоти, ижтимоий-ахлоқий, сиёсий масалаларни рационалистик позициядан туриб тушунтириши, мантиқий далиллаши, изчиллиги билан ажралиб туради.

Бахт-саодатга эришиш учун инсон камолот касб этмоғи, жамият унга бу борада ҳар жиҳатдан кўмак бермоғи, бошқача айтганда, жамиятда инсоннинг энг олий ва охири мақсадига эришмоқ учун етарли шарт-шароит яратиб берилган бўлмоғи лозим. Ана шу олижаноб мавқе-даражага қадар юксалмоқ учун инсон билимли, яхши тарбияланган бўлиши, бошқаларни ҳам ҳурмат қилдиган, инсонпарвар ва адолатпарвар бўлмоғи лозим. Форобий, шу тариқа, жамият ва шахс камолоти ва унинг аҳамияти, илғор жамият масалаларига доир ғоят қимматли фикрларини олға суради. Жумладан, унинг фикрича, аҳолини ақл орқали бошқариш икки хил бўлади:

◆бири шундай хулқ-одоб, турмуш усуллари, ахлоқ қоидаларини мустаҳкамлашга қаратилганки, улар ҳақиқий бахт-саодатга олиб боради. Шундай бошқаришга асосланган шаҳар яхши, фозил шаҳардир, унга асосланиб иш олиб борувчи халқ эса яхши, фозил халқдир;

◆иккинчиси—шундай хулқ-одоб, ахлоқ қоидаларини жорий этишга қаратилганки, гарчи бахт-саодатга олиб борадиган бўлиб кўринса-да, аслида, кишиларни адаштиради, нотўғри йўлга бошлайди. Бунга асосланган шаҳарлар жоҳил, авом шаҳарлардир, унга амал қилган халқлар эса оми, жоҳил халқлардир.<sup>1</sup>

Шуниси диққатга сазоворки, Форобий ҳар қандай оқилона бошқариш замирида гўзал хулқ-одоб, ахлоқ қоидалари ва уни мустаҳкамлашга қаратилган фаолиятни кўради. Бундай фаолиятнинг бирламчи талаби шуки, тарбиячининг ўзи тарбияланган бўлмоғи керак, аввало, хулқ-атвори нуқсонсиз, тарбия кўрган, билимли, маданиятли, бир сўз билан айтганда, фозил инсон бўлиши талаб этилади. Акс ҳолда, аҳолини бошқаришга қўйилган шахслар ахлоқий меъёрларни назар-писанд этмайдиган, уларни менсимайдиган инсонлар бўлса, бу унинг тарбия кўрмаганлигидан далолат бўлиб, улар аҳолини ҳақиқий бахт-саодатга олиб бора олмайдилар.

Файласуф олим, шу тариқа, гўзал инсоний фазилатлар, хайрли, эзгу ишлар, инсоний фазилатларни шакллантиришга оид йўл-йўриқлар, инсонни камолотга эришувидан маҳрум қиладиган салбий хислатлар, ҳар турли ёмон одатлар, нуқсонлар, бузук хатти-ҳаракатлар ҳақида фикр юритади. Форобий бу мулоҳазаларига яқун ясар экан, “мана шу билимларга маданий билимлар деб ном берамиз”, деб таъкидлайди. Олим нуқтаи назарича, маданий билим шундай билимки, унинг ёрдамида шаҳар халқлари ва шаҳарлик бўлмаган халқларни ўз ичига олган, яъни, инсон оламига хос бўлган барча хислатларни ўзида мужассам этган одамзод жисмидаги ҳар турли аъзолар каби маълум бўлади. Бу ўринда шуни эслатмоқ жоизки, олим маданий илм деганда шаҳарни ёки замонавий тил билан айтганда, кенг маънода ижтимоий ҳаётни, жамиятни тадқиқ этувчи илмларни назарда тутаяди, янада характерли жиҳати шуки, у жамиятни одам организмга қиёс қилади.<sup>2</sup>

Форобий фалсафасида кишидаги фазилатлар моҳияти ва уларнинг турлари кенг таҳлил этилади. Шулардан бири фикрий фазилатдир. Бироқ олим фикрий фазилатни фикрий қувватдан фарқлаб, уларнинг бир нарса эмаслигига эътиборимизни қаратади: “Фикрий қобилият шуки, у билан ўта кетган манфаатли предметлар билинади ва ихтиро этилади, фикрий қувват шуки, унинг билан ўта кетган зарарли нарсалар кашф ва ихтиро этилади. Шунинг учун бу фаолиятни фикрий қобилият деб эмас, балки кейинги ном билан – фикрий қувват дебгина аташ керак”.<sup>3</sup>

Олим назарий фикрларини яна-да ривожлантириб, фикрий қобилият билан туғма қобилиятни ўзаро таққослайди ва улар ўртасидаги муносабат ҳамда боғлиқлик хусусида тўхталади. Унинг

<sup>1</sup> Юлдашев Ф.Ю. Концепция познания аль-Фараби в истории философии. «Философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог». Сборник статей Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Уфа, 2020, с. 389 – 393.

<sup>2</sup> Аль-Фараби. Совершенный град. Мусульманская философия. Антология. Казань, изд-во ДУМ РТ; 2009, с. 106 – 206.

<sup>3</sup> Юлдашев Ф.А. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. 09.00.03-фалсафа тарихи. Самарқанд Давлат университети, 2018, 134 бет.

фикрича, қуввати жиҳатидан энг кучли бўлган фикрий қобилият билан кучли туғма қобилият биридан ажралмайди. Туғма қобилият инсонда устун (файласуф ибораси билан айтганда, “раис”) фазилат бўлса, у ақлий назарий қобилиятга айлангандан сўнг, шу ақл воситаси билан қобилиятларни айира билиш ва улар ёрдамида кутилган предметни кашф этиш ва ҳосил қилиш, ҳеч сўзсиз, мумкин бўлиб қолади. Файласуф фикрича, инсон қобилиятлар эгаси бўлмоғи ва ўз қобилиятларининг куч-қуввати, даражаси, турлари, неларга қодир эканлигини англаб етмоғи мақсадга мувофиқдир. Негаки, инсон фаолиятида содир бўладиган юксалиш ва таназзуллар, ютук ва хатолар, ижобий ёки салбий хусусиятлар, одатда, ана шу қобилиятлар туфайли келиб чиқади.

Қизиғи шундаки, файласуф санъат, касб-хунарга хос қобилиятларни бошқа ҳамма қобилиятларнинг энг кучлиси ва мукаммали деб ҳисоблайди. Унинг хулосасига кўра, бу шундай улуғ фазилатки, инсон уни эгаллаш учун бошқа ҳамма қобилиятларини, ижодий фаолияти, туғма фазилатини ҳам ишга солиши зарур бўлади. Шундай хусусиятга кўра, бу қобилиятни “барчага қобилиятларнинг раиси”, деб улуғлайди, раисликда ундан ўтадигани йўқ ва бўлиши мумкин эмас, деб ҳисоблайди.

Эътиборли томони шундаки, файласуф ижтимоий ҳаётда юз берган ёки содир этилган натижалардан уни содир этган шахсга томон эмас, балки инсондаги мавжуд қобилиятлардан содир этилиши ёки қўлга киритилиши мумкин бўлган натижалар томон боришни маъқул деб билади. Бу чиндан ҳам, мантиқан тўғри йўл бўлиб, жамиятда ижобий қобилиятларнинг устувор бўлиши учун шарт-шароит туғдиради. У ана шу мантиқдан келиб чиқиб, бир қатор ҳаётий мисолларга мурожаат қилади. Айтайлик, лашкарбошида ҳарбий билим, малака, кўникма билан бирга ҳарбий санъатга оид энг гўзал ва фойдали нарсаларни кашф этувчи фикрий қобилият ҳам бўлмоғи лозим. Лекин олим нуқтаи назарича, чинакам лашкарбоши бўлиш учун яна унда аскарликка, умуман, одамзодга тааллуқли бўлган умумий туғма қобилиятлар ҳам бўлиши керак. Акс ҳолда, лашкарбоши оддий аскар ёки аскарлар гуруҳи томонидан амалга ошириладиган вазифани нотўғри белгилайди, топшириқни мавҳум тарзда қўяди ва натижада ортиқча талафотларга йўл очади. Худди шунингдек, бу каби хатти-ҳаракатлар бошқа соҳаларда, масалан, тадбиркорликда, тижоратда ҳам содир бўлиши мумкин. “Мол-давлат эгасида бўлган фикрий қобилият фақат мол-давлатни қўлга киритиш учун энг қулай ва манфаатли йўлларни излаб топишдир”, деб таъкидлайди олим.<sup>1</sup>

Хулоса қилиб айтганда, Форобий жамиятнинг ахлоқий камолоти ва фаровонлиги билан шахс ахлоқий камолоти ва фаровонлиги диалектик, узвий бирликда, деб ҳисоблайди. Чунончи жамиятда яшовчи баркамол инсон зиммасига бошқа масъулият ҳам юкланган бўлади. Бу масъулият шундан иборатки, фозил шахс ўзида мавжуд бўлган гўзал одат, ирода ва шижоатни бошқаларга ҳам ўргатмоғи зарур. Бунинг учун эса, одатда, инсондан зўр куч, ғайрат, сабр-тоқат, ирода талаб қилинади. Шу муносабат билан, олим ижтимоий ҳаётда жамият аъзоларида ахлоқ, одоб, расм-русум, касб-хунар, одат ва иродани ҳосил қилиш йўл-йўриқларини тушунтиришга ўтади ва уни икки йўл билан амалга ошириши ҳақида маълумот беради. Булар таълим ва тарбия йўллари дир. Бу йўллар юксак ахлоқий кадриятларга асосланган бўлсагина, ҳар бир инсонни баркамоллик даражасига олиб чиқишга хизмат қилади.

**Teshaboyev Muhiddinjon (TDIU mustaqil izlanuvchisi, PhD)**

## **JAMIYATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI VA PRINSIPIAL MASALALARI**

***Аннотатсия.** Mazkur maqolada ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining muhim prinsipial masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining falsafiy-huquqiy muammolari tadqiq etilgan bo'lib, uni amaliy hayotga tatbiq etishning turli usullari ko'rib chiqilgan. Ijtimoiy hayotda adolatni ta'minlash masalalari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Maqolada jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy ahamiyatga ega tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье проанализированы важные принципиальные вопросы механизмов обеспечения социальной справедливости. Рассматриваются философско-правовые проблемы механизмов обеспечения социальной справедливости, различные этапы её практического вне-*

<sup>1</sup> Юлдашев Ф. Абу Наср Форобийнинг “Фи маъоний ал-ақл” асарида гносеологик масалалар. Монография, Тошкент, “Тамaddon”, 2012, 112-бет.

дрения. Вопросы обеспечения справедливости в общественной жизни исследованы на научной основе. В статье даются научно значимые рекомендации по совершенствованию механизмов обеспечения социальной справедливости в обществе.

**Annotation.** *Important fundamental issues of the mechanisms for ensuring social justice have been analyzed in this article. It also researches the philosophical and legal problems of the mechanisms for ensuring social justice, examines the various stages of its practical implementation. The issues of ensuring justice in public life have been researched on a scientific basis. The article provides scientifically significant recommendations for improving the mechanisms for ensuring social justice in society.*

**Kalit so'zlar:** *adolat, ijtimoiy adolat, adolatsizlik, jamiyat, qonunlar, tenglik, globallashuv, huquq, huquqiy madaniyat, muloqot madaniyati, ijtimoiy tanazzul, ijtimoiy muammolar, haqiqat, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy javobgarlik.*

**Ключевые слова:** *справедливость, социальная справедливость, несправедливость, общество, законы, равенство, глобализация, право, правовая культура, культура общения, социальная деградация, социальные проблемы, реальность, социальное неравенство, социальная ответственность*

**Key words.** *justice, social justice, injustice, society, law, equality, globalization, law, legal culture, communication culture, social degradation, social problems, reality, social inequality, social responsibility.*

Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash muammolari muhim prinsipial masalalardan biri bo'lib, bugungi zamonaviy dunyoda har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu masalani yetarlicha ilmiy asosda o'rganishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada jamiyatda aynan ana shu ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asoslari o'rganilgan bo'lib, uni tadqiq etishning turli ilmiy metodologik asoslari tahlil qilingan. Bunga bugungi kunimizdagi ijtimoiy adolat me'yorlarining buzilishi, ijtimoiy adolatni ta'minlash borasidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarning o'rta tashlanayotgani, zamonaviy jamiyatlarda adolatning qadrsizlanishini sabab sifatida ko'rsatib o'tish mumkin. Bu esa, albatta, muammoning naqadar murakkab ekanligini ko'rsatibgina qolmay, balki uning yechimlarini izlashning ilmiy mexanizmlarini yaratishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Bugunga qadar ushbu muammo turli nuqtayi nazardan o'rganilgan bo'lib, faylasuf olimlar, huquqshunos va siyosatshunoslar chuqur tadqiq etishgan. Ayni paytda, mazkur ilmiy muammoni o'rganish doirasida olim va faylasuflar tomonidan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda va xorijda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini o'rganish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi bu masalaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining prinsipial masalalari faqatgina falsafa yoki huquqshunoslik doirasi bilan cheklangan muammo sifatida emas, balki ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida ham o'rganilmoqda.

Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganishda adolat tushunchasining mohiyatini ham tadqiq etishni talab etadi. Huquqiy-falsafiy nuqtai nazardan olib qaraganda, adolat tushunchasi ham huquqiy, ham axloqiy, ham uni jamiyat bilan bog'liq holda tahlil qilish jihatidan falsafiy ahamiyatga ega bo'lib, umumiy qadriyat hisoblanadi. Shu ma'noda, adolat tushunchasi har birimiz yashaydigan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar mavjudligi asoslari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Tom ma'noda, adolatni ma'naviy-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy ong kategoriyasi, odamlarning ijtimoiy ideal, shuningdek, normalar va inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarini tarixan o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan va zarur bo'lgan tushuncha sifatida baholash mumkin. Adolat insonning yoki ijtimoiy guruhning amaliy roli va ularning ijtimoiy mavqeyi, ularning huquq va majburiyatlari, xatti-harakati va jazosi, odamlarning xizmatlari va bu boradagi jamoatchilik fikri o'rtasidagi muvofiqlikni talab qiladi. Bundan tashqari, ushbu munosabatlardagi nomuvofiqlik adolatsizlik deb tan olinadi.<sup>1</sup> Misol uchun, "Yangi falsafiy ensiklopediya"da adolatni ijtimoiy hayotning fikrlar, pozitsiyalar, manfaatlar va boshqalar kurashlari bilan bog'liq bo'lgan umumiy axloqiy sanksiyasi sifatida belgilaydi. Bundan tashqari, u adolatning ikkita shaklini: umumiy adolatni (ya'ni axloqiy-huquqiy hayotni) va maxsus (xususiy) adolatni ya'ni moddiy tovarlarni taqsimlashda ma'naviy jihatdan mutanosiblikni belgilaydi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Философский словарь. Адо А.В. и др. Под ред. И.Т.Фролова. 6-е изд., перераб. и доп. М., Политиздат, 1991, с. 559.

<sup>2</sup> Новая философская энциклопедия. В 4 т, т. 3, Н-С. Ин-т философии РАН; Нац. обществ.-науч. фонд; Предс. научно-ред. совета В.С.Степин. М., "Мысль", 2001, 693 с.

Boshqacha qilib aytganda, adolatli jamiyat bu “vijdonan” qurilgan jamiyat, ya’ni, ushbu jamiyatda qabul qilingan axloqiy ongga, uning a’zolari yaxshi va yomon g’oyalari muvofiq qurilgan jamiyat. Bundan tashqari, huquqiy davlatda “yaxshilik va yomonlik” huquqiy normalar ko‘rinishida tuzilgan. Shunday qilib, adolat tushunchasiga munosabatda ikki xil yondashuv mavjud bo‘lib, birinchisi, adolatning huquqiy talqinini odamlarning axloqiy ongidan sezib bo‘lmaydigan tarzda ajratish, shu bilan birga, adolat to‘g‘risidagi rasmiy ma’naviy va axloqiy g’oyalar o‘rtasidagi ma’naviy-huquqiy “kelishuv” tushunchasini aniqlash mavjud. Ikkinchisi “adolat” tushunchasining yana bir talqini mavjud bo‘lib, ya’ni, nafaqat “haqiqiy”, “to‘g‘ri”, lekin ayni paytda “qonuniy ravishda amalga oshirish” tushunchasidir.<sup>1</sup> Ushbu ta’riflarning qiyosiy tahlili bizga adolat va ijtimoiy adolat tushunchalariga yangicha yondashuvni shakllantirishga imkon beradi. Shubhasiz, ijtimoiy adolat avvalambor insonning ongida mavjud bo‘lgan va shundan keyingina obyektiv voqelikda mavjud bo‘lgan axloqiy kategoriya. Ushbu tezis ijtimoiy adolatga nisbatan faolmunosabatni nazarda tutadi. Ijtimoiy adolatning mavjudligi faqat insonning jamiyatdagi ijtimoiy harakatida ko‘rish mumkin. Bir qator sotsiologlarning fikricha, adolat kabi ijtimoiy adolat tushunchasini ham to‘laqonli ilmiy asoslash mumkin emas. Ilm, birinchi navbatda, mavjud, haqiqiy bilan shug‘ullanadi, ammo tegishli ravishda har doim mavjud va haqiqiy bilan qarama-qarshi bo‘lishi shart emas. Bundan tashqari, bu ularning tabiiy namoyon bo‘lishi va davomi bo‘lishi mumkin. Masalan, bunga misol qilib qarz oldi-berdi munosabatini olishimiz mumkin. Bunda qarz mavjud bo‘lgan narsadan kelib chiqadi, aslida to‘lov mavjud, ammo kelajakda ko‘rib chiqiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, adolatni tushunish tarixiydir, unga ko‘plab omillarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin (tarixiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqalar). Ammo bu o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bir qator barqaror aqliy xususiyatlar, axloqiy imperativlarning mavjudligini inkor etmaydi (masalan, sevgi va tenglik istagi ijtimoiy hayot tuzilishining adolatli tamoyili sifatida).

Ijtimoiy adolat kategoriyasi juda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega va chuqur ma’noga ega, chunki bir tomondan, jamoat ongida nima borligi va mavjudligi haqida axloqiy g’oyalar, boshqa tomondan esa qonuniy ruxsat etilgan normalar mavjud (siyosiy, huquqiy va iqtisodiy). Boshqacha qilib aytganda, biron-bir davlat tizimi, me’yoriy huquqiy hujjat yoki mulkchilik shakli, agar u aholining katta qismi ongida mavjud bo‘lgan ijtimoiy hayotning adolatli asoslari tushunchalariga mos kelmasa, mutlaqo qonuniy bo‘lmaydi. Uning eng umumiy shaklida aytish mumkinki, ijtimoiy adolat tarixiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan aniqlangan axloqiy kategoriya bo‘lib, u nima va nima bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlarni aks ettiradi. Ijtimoiy adolatning ma’nosi shaxs yoki ijtimoiy guruhning jamiyatdagi amaliy roli va ularning ijtimoiy mavqeyi o‘rtasidagi muvofiqlik talabini, balki bundan tashqari bu nafaqat shaxs, balki ijtimoiylik tushunchasini ham anglatadi. Qolaversa, ijtimoiy adolatning “haqiqatga muvofiqligi” degan ta’rifi nizoni hal qilish, odamlarning xulq-atvori obyektiv voqelikdan kelib chiqqan holda haqiqatga asoslanishi kerakligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy adolat muayyan masalalarni hal qilishda teng va tengsizning o‘ziga xos o‘zaro bog‘liqligi bo‘lib, yaxshilik va haqiqatga xizmat qilishi, konstruktiv tabiat va yo‘nalishga ega bo‘lishi kerak. Ijtimoiy adolat, Aflotunga ko‘ra, “tarqatish qobiliyati, har kimga o‘z qadr-qimmatini berish”, “tenglik”. Shuningdek, ijtimoiy adolat “hayotdagi qonunlarga bo‘ysunish qobiliyati”, “to‘g‘ri qonunlarga bo‘ysunish qobiliyatidir”.<sup>2</sup>

Aflotunning fikricha, ijtimoiy adolatning mohiyati quyidagilarda aks etadi:

birinchisi, har biriga o‘z qilmishiga qarab taqsimlash. Bu ijtimoiy adolatni taqsimlash funksiyasini ifodalaydi;

◆ ikkinchisi odamlarni amalda, harakatlar uchun tenglashtirish. Bu ijtimoiy adolatni tenglashtiruvchi funksiyani ko‘rsatadi;

◆ uchinchisi, qonunlarga, “to‘g‘ri” qonunlarga bo‘ysunish. Bu axloqiy burchni bajarish qobiliyatidan boshqa narsa emas.

Shunday qilib, ijtimoiy adolatni tenglashtiruvchi va taqsimlovchi qobiliyatini ochib beradigan birinchi ikkita funksiya uni javobgarlik prinsipi sifatida tavsiflaydi, bu esa shaxsning ijtimoiy subyekt sifatidagi xatti-harakatlariga to‘g‘ri obyektiv baho berishni, mukofotni xolisona aniqlash uchun asosni tashkil etadi. Ijtimoiy (huquqiy, jinoiy) javobgarlikning obyektiv tomonida namoyon bo‘lgan bu qobiliyat ijtimoiy adolatning obyektiv tomonini aks ettiradi. Ijtimoiy subyektning mas’uliyatli xatti-harakatlarida, uning xulq-atvoriga subyektiv baho berish (o‘zini o‘zi baholash) orqali amalga oshiriladigan “to‘g‘ri” qonunlarga

<sup>1</sup> Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русской лзыки. 80000 слов и фраз. Выражений, РАН, Ин-т рус. летом Я.В.В.Виноградова. 4-е изд., доп., М., “Азбуковник”, 1997 (1999), 943 с.

<sup>2</sup> Платон. Диалог. Пер. с древнегреческий. С.Ю. Шейнман-Тонштейн. М., «Мысль», 1986, 607 с.



bo'ysunish ijtimoiy adolatning subyektiv tomonini aks ettiradi. Ushbu qobiliyat ijtimoiy adolat va axloqiy qonunlarning uzviy bog'liqligini, unga bo'ysunish esa odamning e'tiqodi, ongli ehtiyoji, amaliy hayotda odamlarning ishlarida va xatti-harakatlarida axloqiy burchning namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Pifagor o'z davridagi qonunlar unga adolatsiz ekanligiga ishora qilib, talabalariga: "avvalo, qonunlardan ko'ra odob-axloqqa ega bo'lishga harakat qiling: axloq – bu birinchi ijtimoiy qonunlar", deb ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Ijtimoiy adolatning huquqiy-falsafiy asoslarini rivojlantirishga T.Gobbs, J.Lokk, D.Yum va I.Kant kabi mutafakkirlar eng katta ta'sir ko'rsatdilar. Ular ijtimoiy adolatni nafaqat mavhum huquqdan, balki individual harakatlardan nisbatan mustaqil bo'lgan ijtimoiy axloq va ijtimoiy institutlardan ajralib turadigan soha sifatida to'ldirdilar. T.Gobbs fikricha, shaxslar bir-birining huquqlarini hurmat qilishga tayyor, lekin boshqalar ularning huquqlarini hurmat qilishlariga amin emaslar. Bu shaxslarning tabiiy holati urush holatidan boshqa narsa emas. Bu holatda hech qanday jamiyat yo'q, lekin, eng yomoni, abadiy qo'rquv va zo'ravon o'limning doimiy xavfi mavjud va odamning hayoti yolg'iz, umidsiz, zerikarli va qisqa umrdir. Shuning uchun jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning yagona yo'li faqatgina ijtimoiy shartnoma va davlatga yoki fuqarolik holatiga o'tish bo'lishi mumkin.<sup>2</sup>

Lokk nazariyasi ko'ra esa jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash jamiyatda individuallikni inkor etmaydi. Aksincha, uning g'oyasi liberal ijtimoiy adolatni himoya qilishga qaratilgan.<sup>3</sup> D.Yum Lokkning empirik etikasini qayta ishlab chiqdi, uning ijtimoiy adolat nazariyasiga adolat ijtimoiy muloqotning asosiy shakli sifatida qaraladi. Yumning mazkur nazariyasi utilitizmning keyingi rivojlanishiga asos yaratdi.<sup>4</sup> Yum nazariyasi I.Kantning ijtimoiy adolat haqidagi nazariyasini rivojlantirish uchun asos bo'ldi. Kantning nuqtai nazar bo'yicha, inson erkin va avtonom bo'lgan irodaga ega. Aynan shu narsa insonni boshqa tabiatdan ajratib turadi, qadr-qimmatini beradi. Insonni inson qiladigan narsa bu qandaydir maqsadlar, turlicha qiziqishlar va yaxshilik tushunchalari emas, balki o'z-o'zidan harakat qilish qobiliyatidir. Bundan kelib chiqadiki, inson predmeti o'z maqsadlaridan oldin keladi va yaxshisi oldinda turadi. Adolat va ijtimoiy adolat o'ziga xos maqsad sifatida maqsadlar va manfaatlarga nisbatan ustun turadi va ulardan chekinib bo'lmaydi. Ammo Kant zamonaviy ma'noda, odillik nazariyasiga ega emas edi, chunki u axloqning ishlashini axloqdan ajratish, shuningdek, ijtimoiy institutlarning individual irodasiga bog'liq holda mustaqil ishlashini tasavvur qila olmagan.<sup>5</sup> Shu ma'noda, aytish mumkinki, ijtimoiy adolatga nisbatan jamiyat tarixining o'tish davrida qarama-qarshi tendensiyalar xarakterlidir.

Hozirgi zamonaviy dunyoda ijtimoiy adolatga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar mavjud: birinchi, fuqarolar, jamoat tashkilotlari tomonidan uning prinsiplarini amalga oshirishda faollikni oshirish; ikkinchi, turli xil "ijtimoiy adolat modellari"ni yaratib, odil sudlovning mohiyati va tabiatiga turli xil yondashuvlar; uchinchi, gumanistik xarakter bilan tobora ko'proq aniqlanadigan shaxs manfaatlariga yo'naltirilganlik, ham mazmuni, ham ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullari. Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun mamlakatimizdagi islohotlar jarayonlariga nimalarni tadbiiq etish mumkin? Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning o'zigaxos xususiyati shundaki, u ikki omil ta'sirida aniqlanadi va amalga oshiriladi. Ulardan biri bu bozor. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, na hukumat, na davlat miqyosidagi komissiya, na boshqa biron bir tashkilot mehnatning har xil turlarini sifat jihatidan o'lchab, yagona o'lchovni o'rnatmaydi. Ammo barcha farqlarni yo'q qiladigan shunday universal o'lchagich mavjud: bu bozor orqali harakat qiladigan qiymat qonunidir. Bozor haqiqiy ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun obyektiv chorani ta'minlaydi. Bozor insoniyat sivilizatsiyasining eng katta yutuqlaridan biri bo'lib, u har qanday jamiyatga nisbatan o'zgarmasdir. Yana bir omil bu demokratiyadir. Iqtisodiyotdagi demokratiya, avvalambor, ishlab chiqaruvchining bozorda, o'z mehnatiga obyektiv va adolatli baho berish erkinligida namoyon bo'ladi. Adolat inson munosabatlarining keng sohasiga ta'sir ko'rsatadigan eng murakkab ijtimoiy-falsafiy kategoriyalardan biridir. Iqtisodiyot, huquq, siyosat va axloqning o'zaro ta'siri, jamoat hayotining ijtimoiy hodisalari haqidagi umumiy tushuncha sifatida xizmat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, adolat toifasi turli ijtimoiy hodisalar va omillarni baholash uchun qo'llaniladi: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy; shaxsning jamiyat va boshqa odamlar bilan munosabati. Un-

<sup>1</sup> Таранов П.С. Философский афоризм. Заповеди, притчи, наставления. М., "Остожье", 1996, 574 с.

<sup>2</sup> Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского. Источник Гоббс Т., Сочинения, в 2 т, т. 2, М., "Мысль", 1991.

<sup>3</sup> Локк Дж. Сочинения. В 3 т, М., "Мысль", 1985, т. 1, 622 с.

<sup>4</sup> Юм Д. Трактат о человеческой природе. Пер. с англ. С.И.Церетели; под общ. ред., со вступ. ст. и примеч. И.С.Нарского. Минск, ООО «Попурри», 1998, 720 с.

<sup>5</sup> Кант И. Сочинения в шести томах [Под общ. ред. В.Ф.Асмуса. А.В.Гульги, Т.И.Ойзермана], М., изд-во «Мысль», 1994, т. 6, с. 223 – 543.

ga bunday yondoshish uning rivojlanishining tarixiy istiqbolini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy adolat har qanday ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish uchun amal qiladigan rasmiy mantiqiy jihati bo'yicha quyidagi umumiy prinsiplar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy munosabatlarning muayyan jamiyatning asosiy prinsipiga muvofiqligi prinsipi "ijtimoiy adolat" kategoriyasining mohiyatini ifoda etuvchi va uning ikkita boshqa prinsiplarining mazmunini belgilovchi asosiy prinsipdir. Bu ijtimoiy tizimning normal ishlashini ta'minlaydi, uni begona nafas va dushman ijtimoiy hodisalarning kirib kelishidan himoya qiladi. Ushbu tamoyilning mazmuni ushbu ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish mavjud bo'lgan davrda saqlanib kelinmoqda va uning mohiyatini ifoda etadi.

Ikkinchi tamoyil – ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir ijtimoiy tizim prinsiplariga muvofiqligini o'lchash prinsipi. Har qanday ijtimoiy tizim doimiy ravishda rivojlanib boradi va faqat uning barcha qismlarini doimiy ravishda moslashtirgan holda o'z mohiyatini saqlab qolishi mumkin. Shu sababli ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy adolat prinsipi ijtimoiy tizimning turli qismlarini ularning rivojlanishi jaryonida muvozanatni ta'minlaydi va mavjud jamiyatning barqaror ishlashiga imkoniyat yaratadi.

Uchinchi tamoyil – ijtimoiy adolatning me'yoriy va baho jihatlarini aks ettiruvchi prinsip. Adolat ma'naviy hayotning elementi sifatida barcha ijtimoiy munosabatlarni yaxlit baholaydi, barcha maqsadlar, vositalar va natijalarning ijtimoiy rivojlanishini baholash mezonidir. Shunday qilib, maqsadlar haqiqiy ehtiyojlarga mos keladigan bo'lsa, haqiqiydir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy adolatni hayotning barcha sohalarida shaxs va ijtimoiy hamjamiyat (jamo'a, millat va boshqalar) salohiyatini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning tarixiy shakllangan shakli (shartlari va usuli) sifatida aniqlash mumkin. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotni ta'minlaydigan taraqqiyotga bo'lgan ehtiyoj, shaxs yoki guruh natijalarining ijtimoiy ahamiyati odamlarning kelib chiqadigan tengsizligini oqlaydi. Jamiyat har bir kishiga ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va ro'yobga chiqarishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishda shaxs va turli ijtimoiy qatlamlar oldida javobgardir. Shaxs jamiyat uchun eng samarali rivojlanishi va qo'llanilishi uchun javobgardir. Ushbu tushuncha bilan ijtimoiy adolat ijtimoiy javobgarliksiz mumkin emas, chunki adolatsizlik teng huquqsizlik sifatida tushuniladi, inson va jamiyatning huquqlari va majburiyatlarining dialektik birligini o'z ichiga oladi.

**Boltayev Abdurahim (BuxDU dosenti, siyosiy fanlar nomzodi)**  
**IBN ARABIYNING BORLIQQA OID RISOLALARI TASNIFI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Muhyiddin ibn Arabiyning borliq, uning mohiyati, vujudga keltirgan omillar, unda insonning o'zini kabi masalalarni yoritgan asarlari tasnif qilinib, bu orqali mutasavvifning borliq haqidagi qarashlari tahlil qilindi.

**Аннотация.** В данной статье дается классификация трудов Мухиддина ибн Араби, проливающие свет на такие вопросы, как существование, его сущность, факторы, создавшие его, и место человека в нем, и через это проанализированы взгляды мистика на существование бытия.

**Annotation.** In this article, the works of Muhyiddin ibn Arabi, which shed light on issues such as existence, its essence, the factors that created it, and the place of man in it, were classified, and through this, the mystic's views on existence were analyzed.

**Kalit so'zlar:** Ibn Arabiy, borliq, koinot, vujud, Yaratuvchi, din, vaqt, zamon, Qur'on, hadis, mavjudot, inson.

**Ключевые слова:** Ибн Араби, бытие, вселенная, вуджуд, Творец, религия, время, эра, Коран, хадис, существо, человек.

**Key words:** Ibn Arabi, existence, universe, creation, creator, religion, time, Koran, hadith, existence, human.

Ibn Arabiy (1165–1240) tasavvuf ta'limotining nazariy-axloqiy masalalari, ijtimoiy hayotning dolzarb muammolaridan bahs yurituvchi to'rt yuzdan ortiq risolalar yozgan. Ushbu risolalarning doirasi va qo'lami keng. Shu bilan birga, ularning yetakchi va asosiy yo'nalishi tasavvufning falsafiy-ijtimoiy va axloqiy qarashlari bilan belgilanadi.

Mutasavvifning qoldirgan boy ilmiy merosi jahonning turli qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda. Tadqiqotimizda Eron kutubxonasi xazinasida saqlanayotgan 10 ga yaqin qo'lyozmalardan foydalanildi.

Ibn Arabiy merosining umumiy tasnifi quyidagi jadvalda keltirildi:



**Inson borlig'iga oid asarlar. "Kitabut tadbiratil ilahiyya fi islohil mamlakatil insoniyya"** كتاب  
تدبيرات الإلهية في إصلاح المملكة الإنسانية ("Inson mamlakatini isloh qilishdagi ilohiy tadbirlar"). Ibn Arabiy  
bu asarini tuzilishiga ko'ra boshqa asarlaridan farq qiladigan tarzda tuzgan. Muqaddimadan so'ng boblar  
boshlanmay, olti o'rinda "Xoslar uchun sir" mavzusi ostida o'z fikrlarini bayon qilgan. Shundan so'ng  
boblar boshlanib, tegishli tartibda fasllar ketma-ketligida yozilgan.

Asarning bosh maqsadi inson borliqning gulto'ji ekanligini bayon qilish bo'lib, bunda mutasavvif  
insonning vujudga kelishini ilohiy jihatdan tasvirlaydi. Asar shunday boshlanadi: "Insonni O'zining ilmi  
vujudidan ayni vujudiga chiqargan Allohga hamd bo'lsin. Bilginki, U, avval, bir javharni yaratdi, unga  
jalol ko'zi bilan boqdi. Javhar Uning nazaridan hayo qilib eridi, suv bo'ldi. Ichida ilmining javhar-u dur-  
lari paydo bo'ldi. So'ngra suvdan ozginasini tarnov bilan mijoz novdasiga quydi. Shu novdani inson deb  
atadi va unga surat berdi. Suratning ko'zini va qulog'ini teshdi. Uning vujudida olami akbar, ya'ni katta  
olamdagi hamma narsaning bor bo'lishiga hukm qildi. Uning tadbirini qilib, miqdorini belgiladi".<sup>1</sup>

Shu tartibda insonni paydo qilib, uni farishtalarga ko'rsatganini, farishtalarni sajdaga buyurganini,  
keyin yerga xalifa qilib yuborganini birma-bir sanab, har bir qilgan ishining javobi bo'lishi, o'lganidan  
keyin yana tiriltirishini ta'kidlaydi. Insonning bu dunyoga yuborilishidan maqsad nima ekanligini aytadi.  
Keyin o'quvchiga murojaat qilib deydi: "Nazar sol, Alloh sening ko'zlarini nurlantirsinki, bu ko'zlar  
bilan olami akbardagi narsalarning hammasi mulk va malakutdan iborat bo'lgan inson olamida borligini  
ko'rasan. Bu olamda u narsalar o'sish orqali namoyon bo'ladi. Insonda buni soch, tirnoq va shu kabilar-  
ning o'sishida ko'rasan. Katta olamda sho'r suv, shirin suv, achchiq va talx bo'lgani kabi inson olamida  
ham ular bor. Sho'r suv ko'zlarida, talx burnida, achchiq quloqlarida, shirin og'zida bo'ladi. Shuningdek,  
olami akbarda tuproq, suv, havo va olov bo'lganidek, inson olamida ham bu narsalar uning jismida xalq  
qilingan".<sup>2</sup> Bu xulosalariga Qur'ondan ko'plab oyatlarni asos qilib keltiradi.

Oltita o'rinda "Xoslar uchun sir" mavzusida Qur'onning ba'zi oyatlarini ta'vil qilgach, birinchi  
bobni boshlaydi. Bob nomi "Insonning jism mamlakati tafsiloti" deb nomlanib, unda insonning xalifa  
bo'lishi uchun o'nta zarur shartlarni sanaydi va ularni tushuntiradi. Bular: balog'at, aql, hurriyat, erkaklik,  
nasab, ko'z va quloqning sog'lomligi, jasorat va moddiy ta'minlanganlik, ilm, vara'.

Keyingi boblarda xalifa va yo'lbo'shchi bo'ladigan kishining sifatlarini keltirib, ma'naviy jihatlari  
hamda jismoniy jihatlarni tahlil qiladi. Tadrijiylik bilan borib, tana a'zolari va axloqni sog'lom qilish  
yo'llari va unda hosil bo'ladigan natijalar haqida gapiradi.

Ibn Arabiy bunday sifatlariga ega bo'lish uchun asosiy ibrat qilib, Muhammad payg'ambarini ko'r-  
satadi.

**"Nusxatul Haq" نسخة الحق ("Haqning nusxasi")**. Bu asar Ibn Arabiyning inson Haqning o'ziga  
o'xshash qilib yaratilganligi to'g'risida bo'lib, Ibn Arabiy bu asarni insonga to'g'ridan to'g'ri murojaat  
qilish uslubida yozgan. Bunda insonning Allohning yerdagi xalifasi bo'lishdek sharafga loyiq topilganligi  
to'g'risidagi Qur'on oyatining mazmunini sharhlaydi hamda payg'ambar alayhissalomning "Alloh Odam-  
ni o'z suratida yaratdi" deb boshlanuvchi sahih hadisni keltirib tushuntiradi. Bulardan tashqari, mavzuga  
aloqadaor o'nlab oyat va hadislardan ham foydalanib, insonning Yaratuvchiga o'xshash qilib yaratilgani-  
ni asoslaydi.

**"Fusus ul-hikam" فصوص الحكم ("Hikmatlarning shodalari")**. Asar katta hajmli bo'lib, unda Qur'-  
onda nomlari zikr qilingan payg'ambarlarning har birining payg'ambar qilib yuborilishidagi ilohiy hik-  
matlar ochib berilgan. Bu asar juda mashhur bo'lib unga ko'plab sharhlar yozilgan. Jumladan, yurtdosh-  
larimizdan Xoja Muhammad Porso ham Sharhi Fususul hikam nomli sharh yozgan. Asarning ikkinchi no-  
mi Kitabu naqshil fusos (qimmatbaho toshlardagi naqsh) ham manbalarda uchraydi. Asar Qu'onda pay-  
g'ambarlar to'g'risida kelgan oyatlarning ma'nolarini ochish orqali har bir payg'ambarning payg'ambar-  
lik silsilasidagi vazifasi va maqomi qanday bo'lganligini ko'rsatib beradi. Bu asarning ham umumiy maz-  
muni olamning yagona vujudan tashqarida emasligi g'oyasi, ya'ni "vahdatul vujud" g'oyasidan iborat.  
Buni "Odam so'zidagi ilohiy hikmat" deb nomlangan birinchi mavzuning o'zida ko'ramiz: "Bilginki, Al-  
lohning go'zal ismlari, ya'ni, asmaul husnaning har biri o'z zoti bilan olamning vujudini talab qiladi. Al-  
loh taolo olamni yaxlit jasad tarzida vujudga keltirdi va Odam alayhissalomga o'z ruhini kiritdi, ya'ni  
Odam bilan insoniy olamni vujudga keltirdi. "Va Odamga barcha ismlarni o'rgatdi" (Baqara, 31-oyat).

<sup>1</sup> رسائل ابن عربي. تحقيق و تقديم سعيد عبد الفتاح. المجلد الثاني. بيروت: الأنتشار العربي. 2002. 291-ص.

<sup>2</sup> رسائل ابن عربي. تحقيق و تقديم سعيد عبد الفتاح. المجلد الثاني. بيروت: الأنتشار العربي. 2002. 296-ص.

Darhaqiqat, Ruh odamdagi quvvatlar vositasida badanni boshqaradi”<sup>1</sup> (Ibn Arabiy risolalarining saylanmasi), Kitabu naqshil fusus. 394-bet).

Shu tartibda qolgan payg‘ambarlar ham zikr qilinadi. Har qaysi payg‘ambarning hikmati boshqa sifat bilan zikr qiladi. Masalan, Odamdan keyin Shisni keltiradi va “Shis so‘zidagi nafasiy hikmat”, uchinchisida Nuhni keltirib, “Nuh so‘zidagi subbuhiy hikmat”, to‘rtinchisida Idris payg‘ambarni mavzu qilib, “Idris so‘zidagi quddusiy hikmat” deb nomlab, har bir payg‘ambarning nomida yangi mazmunni kashf qiladi. Eng oxirida Muhammad payg‘ambarni keltirib, “Muhammad so‘zidagi fardiy hikmat” deb nomlaydi.

“**Kitabul mav‘izatil hasana**” كتاب الموعدة الحسنة (“**Go‘zal va‘zlar kitobi**”). Asar mazmuniga ko‘ra pand-nasihah tarzida bo‘lsa ham uslubiga ko‘ra bu turdagi boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Birinchi farqi bu yerda jamlangan va‘zlar ilohiy mazmunga ega. Ikkinchi farqi unda Yaratuvchining bandalariga nasihat va vasiyatlari, payg‘ambarlar va ulamolarning borliq va insonga oid qarashlari, insoniyatga qilgan turli va‘z-nasihatlari bayon qilingan.

Ibn Arabiy asarini quyidagicha boshlaydi: “Men bu asarimda Alloh ta‘olo, uning payg‘ambarlari va fozil bandalarining turfa xil va‘zlarini Alloh subhonahu va taolodan savob umidida qayd qildim”<sup>2</sup> (Ibn Arabiy risolalarining saylanmasi, Go‘zal va‘zlar kitobi. 77-bet). Shundan keyin birinchi o‘rinda Allohning o‘z bandalariga qilgan itob va nasihatlaridan boshlaydi: “Rivoyat qilinishicha, Alloh ta‘olo shunday degan: “Ey Odam bolasi, yaxshiliklarim mendan senga tushib turibdi, sendan menga esa qilayotgan shirkning ko‘tarilib turibdi. Seni ne‘matlarim bilan siylasam, sen meni ma‘siyat-gunohlaring bilan siylaysan”<sup>3</sup> (Ibn Arabiy risolalarining saylanmasi. Go‘zal va‘zlar kitobi. 77-bet).

Ibn Arabiy boshqa dinlar mohiyatini chuqur o‘rgangan. U mazkur asarida yahudiylarning diniy kitoblarida keltirilgan odamzotning yaratilishi to‘g‘risidagi diniy rivoyatlardan ham foydalangan. “Banu Isroilning ba‘zi kitoblarida Odamning yaratilishi, jasadining tuzilishi va Alloh azza va jalla qilgan tarkib to‘g‘risida shunday gapar uchraydi: “Alloh ta‘olo shunday deydi: “Albatta, men Odamni yaratdim va badanini to‘rtta unsuridan tarkib toptirdim. So‘ngra bu tarkibni uning bolasiga va butun zurriyotiga meros qildim. Bu tarkib ularning jasadlari bilan o‘sadi qiyomatgacha o‘ladi. Men jasadida tarkib toptirgan narsalar bular ho‘lik, quruqlik, issiqlik va sovuqlikdir. Bularni men tuproq va suvga qo‘shdim. So‘ngra nafs va ruhni pufladim. Odamning jasadidagi quruqlik tuproqdan, ho‘lik suvdan, issiqlik nafsdan va sovuqlik ruhdandir... har qanday jasad shu to‘rt xil aralashmadan iboratdir. Bular odamning mulki va suyanchig‘idir. Har birining miqdori jasadning to‘rtidan birini tashkil qiladi. Bu miqdor ko‘paymasa yoki kamaymasa, jasadning sog‘ligi mukammal va holati mo‘tadil bo‘ladi. Agar ulardan birortasi ziyoda bo‘lsa, qolganlari bilan tortisha boshlaydi va jasadga aziyat beradi, unga qarshi kurashda odamning toqati zaiflashadi” (Ibn Arabiy risolalarining saylanmasi, Go‘zal va‘zlar kitobi, 81-80-betlar).<sup>4</sup> Shuningdek, Ibn Arabiy inson tarkibida bo‘lgan bu o‘zgarishlarni aniqlash orqali tabobat qilib, uni muvozanatga keltirish mumkinligini yozadi. Unsurlardagi ziyodalik va nuqsonning inson aqli va ruhiyatiga ta‘sirini ochiqlab beradi.

Asar inson tabiati, ruhiyati va jasadidagi muammolarni ilohiy jihatlarini ochib, ularni hal etish usullarini bayon qilgan Ibn Arabiyga xos uslub bilan yozilgan.

**Ma‘naviy borliqqa oid asarlar.** “**At-Tanbihot**” التنبيهات (“**Tanbehtar**”). Mazkur asarda jami 35 ta tanbeh, ya‘ni, Ibn Arabiy eng muhim deb o‘ylagan masalalar ogohlikka da‘vat tarzida bayon qilingan. Masalan, 12-tanbeh shunday boshlanadi: “Bilginki, komil inson barcha ilohiy kitoblarning jamlanmasidir. Negaki, u katta olamning nusxasidir. Uning ruhi va aqli “Ummul kitob” – “asosiy kitob”dir. Qalbi esa “Lavh ul-mahfuz” – “barcha narsa yozilgan taqdir lavhi”dir. Uning nafsisi esa “Mahv va isbot” kitobi – “yomonliklardan tozalash va yaxshiliklar bilan to‘ldirish kitobi”dir. Uning nafsisi shunday bir mukarram, raqamlangan, pokiza bir kitobdirki, uning siridan faqatgina zulmat pardalaridan xalos bo‘lgan insonlargina voqif bo‘ladilar. Biz hozir katta va bosh ilohiy kitoblarinigina zikr qildik. Uning maydalari ham borki, ular vujud mavjudlik hukmi bilan bordirlar va o‘sha mavjudliklar ham ilohiy kitoblardir”<sup>5</sup> (o‘sha asar, 6-juz. 133-bet).

“**Kitab ul-vasoya**” كتاب الوصايا (“**Vasiyatlar kitobi**”). Mazkur asarda Ibn Arabiy so‘fiy birodarlari-ga Haq ta‘oloni anglash lozimligini vasiyat qiladi. Bu vasiyat kichik hajmli bo‘lib, uch betni tashkil qi-

<sup>1</sup> رسائل ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 2001. 394-ص.

<sup>2</sup> شيخ الأكبر ابن عربي الحاتمي الطائفي. مجموعة رسائل ابن عربي. الجزء 1 بيروت: دار المحجة البيضاء و دار الرسول الأكرم. 2000. 77-ص.

<sup>3</sup> شيخ الأكبر ابن عربي الحاتمي الطائفي. مجموعة رسائل ابن عربي. الجزء 1 بيروت: دار المحجة البيضاء و دار الرسول الأكرم. 2000. 77-ص.

<sup>4</sup> شيخ الأكبر ابن عربي الحاتمي الطائفي. مجموعة رسائل ابن عربي. الجزء 1 بيروت: دار المحجة البيضاء و دار الرسول الأكرم. 2000. 81-80-ص.

ص.

<sup>5</sup> 133-ص. شيخ الأكبر ابن عربي الحاتمي الطائفي. مجموعة رسائل ابن عربي. الجزء 6 بيروت: دار المحجة البيضاء و دار الرسول الأكرم. 2000.

ladi. Muallif har bir yangi vasiyatini “Ey birodar, bilginki”, jumlasini bilan boshlaydi. Vasiyatnomaning umumiy mazmuni butun borliqning yagona vujudidan iborat ekanligini ifoda qiladi. Ibn Arabiy buni vasiyatning boshlanishidayoq aytadi: “Mening vasiyatimni o‘qiyotgan ey ilohiy birodar! Seni Alloh o‘zidan bir ruh bilan qo‘llasin, tokim sen bu ruh orqali Uni, ya’ni Haq subhonahu va ta’oloni anglagin, va U ham seni O‘zi haqida xabardor qilsin deb”<sup>1</sup> (Kitabul vasoya (Vasiyatlar kitobi), 385-bet).

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ibn Arabiyning boy ma’naviy merosi va shaxsiy ibrati kelgusi avlodlarni o‘tmish ma’naviy merosidan bahramand qilishda muhim ahamiyatga egadir. Uning risolalari Islom qoidalarini to‘g‘ri anglashda, yurtimizda pok axloqiy qadriyatlarining qaror topishida, shubhasiz, muhim o‘rin egalaydi.

**Rajabov Alisher Shavkatovich (Buxoro davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi)  
MIRBOBO NAQSHBANDIY ORIF QALBI VA ORIF HOLINING HAQIQATI TO‘G‘RISIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XVII asr oxiri–XVIII asr boshlarida shimoliy Hindistonda kechgan diniy-tasavvufiy jarayonlar natijasi o‘laroq, vujudga kelgan naqbandshunoslikka oid “Mir’ot us-solikiyn” asari va undagi bosh mavzulardan biri “qalb” va uning inson kamolotida tutgan o‘rni hamda solikning ruhiy holatlari to‘g‘risida qarashlar tadqiq qilingan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается труд “Мир’от ус-Соликийн” об учении Накибандийя, возникший в результате религиозно-суфийских процессов, происходивших в северной Индии в конце XVII – начале XVIII в., и одна из главных тем в нем – “душа” и ее роль в развитии человека, а также взгляды на психическое состояние души.

**Annotation.** In this article, there was studied the work “Mir’ot us-Solikiyn” related to Naqband studies, which emerged as a result of religious and mystical processes in northern India at the end of the 17<sup>th</sup> century and the beginning of the 18<sup>th</sup> century and the gazelle written in it about Bahauddin Naqshband, the founder of the Naqshbandi sect.

**Kalit so‘zlar:** solik, tariqat, naqshbandiya, qo‘lyozma asar, Mirbobo Naqshbandiy, qalb, zikr, nafy va isbot, Mir Sayfuddin Rabboni.

**Ключевые слова:** последователь, тарикат, Накибандийя, рукописное произведение, Мирбаба Накибанди, сердце, зикр, нафий и доказательство, Мир Сайфулдин Раббани.

**Key words:** follower, tariqat, Naqshbandiyya, manuscript production, Mirbaba Naqshbandi, heart, remembrance, negation and proof, Mir Saifuddin Rabbani.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizga, ilmiy va ma’naviy merosga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Ko‘plab ajdodlarimizning ilmiy, badiiy, axloqiy ijod namunalari o‘rganildi, arab va fors tillarida yozilganlari tarjima qilindi. Ayniqsa, so‘nggi besh yilda bu ishlarga davlat darajasida e’tibor qaratildi. O‘z yurtimizda yashab ijod qilgan ajdodlarimizdan tashqari boshqa yurtlarda ham yashab, yurtimiz ilm-fani bayrog‘ini baland ko‘targan yurtimiz vakillarining ijodiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Ana shunday ajdodlarimizdan biri Mirbobo Naqshbandiy taxminan 1650–1715) bo‘lib, uning “Mir’ot us-solikiyn” (“Tariqat soliklarining oynasi”) asari o‘zbek ilmiy jamoatchiligi orasida hali tadqiq qilinmagan.

Yurtimizda vujudga kelgan naqshbandiya ta’limotining keyingi rivojlanish davrlariga nazar tashlasak, uning Hind diyorlariga qadar kengaygani va o‘z muxlislarining soni ham oshib borganini ko‘ramiz. Bu jarayon, ayniqsa, boburiylar hukmronligi davrlarida tezlashdi va Markaziy Osiyodan Hindistonga qadar bo‘lgan islom o‘lkalarida naqshbandiy pirlar va ularning muridlari va ixlosmandlarining safi oddiy xalq orasidan hukmron doiralarga qadar ko‘paydi.

Bu esa, o‘z navbatida, naqshbandiya tariqatining mazmun-mohiyatini o‘rganishga, uning nazariy asoslari bilan tanishishga bo‘lgan ehtiyojni ham oshirdi. Imom Rabboni, Mir Sayfuddin kabi naqshbandiya tariqatining silsiladagi pirlari o‘zlarining asarlari, boshqa tariqat pirlari yoki shariat peshvolari bilan qilgan yozishmalari, ya’ni, maktubotlari orqali bu ehtiyojni ma’lum ma’noda qondirishga harakat qilishdi. Ularning yozishmalarida tariqatning nazariy asoslari bayon qilinib, asosan, “Maktubot” nomi bilan tarqaldi. Muridlar bu maktublarni bir joyga jamladilar, kotiblar uardan nusxalar ko‘chirdilar va bu orqali islom olamining ko‘plab hududlariga yetib bordi. Mana shu kabi mashaqqatli vazifalarni nafaqat tariqat pirlari, balki ularning muridlari bo‘lgan so‘fiylar va mutasavviflar ham bajarishdi. Shundaylardan biri Mirbobo

<sup>1</sup> رسائل ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 2001. 385 ص.

Naqshbandiy bo‘lib, u naqshbandiya tariqatining nazariy asoslari va mazmun-mohiyatini bayon qiluvchi “Mir’ot us-solikiyn”, ya’ni “Tariqat soliklarining oynasi” nomli asar bitdi.

“Mir’ot us-solikiyn” (“Tariqat soliklarining oynasi”) asari to‘rt yuz betdan ortiq sahifani o‘zida, jamlagan, naqshbandiya tariqati tamoyillari asosida yozilgan kamyob asarlardan biri bo‘lib, bu asarning bitta qo‘lyozma nusxasi Eronning Tehron universiteti markaziy kutubxonasida 5629-raqami ostida saqlanmoqda.

Muallif Mirbobo ibn Mir Darvesh Naqshbandiy XVII asrning o‘rtalari va XVIII asrning boshlarida yashab ijod etgan Imom Rabboniyning nevarasi va naqshbandiya tariqatining silsiladagi piri Mir Sayfuddin Rabboniy (1639–1684)ning shogirdi bo‘lgan.

Asar to‘rtta bobdan iborat va har bir bob o‘z ichiga yana to‘rttadan faslni qamragan. Asarning bunday qurilishi bejiz emasligi ko‘rinib turibdi. Inson jismining ustqurmasi to‘rt unsur, inson hayotining to‘rt fasli, valiyligining to‘rt qutbi va shu kabi boshqa diniy-falsafiy va tasavvufiy ma’nolarni o‘zida mujassam etgan tushunchalar mavjud.

Asarning ikkinchi bobining to‘rtinchi fasli “Qalbning haqiqati, uning vazifasi” deb nomlanib, bunda muallif tariqatning bosh omillaridan biri qalb, uning inson kamolotida tutgan o‘rni, vazifalari va qalbning mohiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. Qalbning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qiladi. U bu faslni qalbni tasnif qiluvchi ruboiy bilan boshlaydi.

**Ruboiy [2]:**

در راه خدا دو کعبه آمد منزل  
یک کعبه صورت یک کعبه دل  
تا بتوانی زیارت دلها کن  
بهتر ز هزار کعبه آمد یک دل

**Mazmuni:**

*Xudo yo'lida ikkita yuruvchilar uchun ikkita Ka'ba bor,  
Biri surat va shaklga ega Ka'ba, ikkinchisi dil Ka'basi.  
Qo'lingdan kelsa, birinchi navbatda dillarni ziyorat qil,  
Chunki bitta dil minglab Ka'badan afzaldir.*

Mazkur ruboiy Xoja Abdulloh Ansoriy (vaf. 1006)ga taalluqli bo‘lib, Ansoriyning ijodi naqshbandiyalar orasida katta e’tiborga ega bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi.

Mir Bobo Naqshbandiy qalbning inson nazdida naqadar balandligini asoslashda davom etib, Fariduddin Attor (1145–1221)ning ijodiga murojaat qiladi: “Shayx Fariduddin Attor o‘zining “Toj ul-qisas” asarida payg‘ambar alayhissalom bu hadisni keltirgan:

فالكعبة بقدها قد بناها الخليل  
و قلب المؤمن بناء الرب الجليل

**Tarjimasi:**

Muqaddas Ka’bani Ibrohim Xaliloh, ya’ni Allohning do‘sti qurgan bo‘lsa,  
Mo‘min kishining qalbini qudratli Parvardigor, ya’ni Allohning o‘zi qurgan”.<sup>1</sup>

Muallif bu bilan to‘xtalib qolmaydi. U so‘fiylar orasida keng iste’molda bo‘lgan she’riy misralardan ham iqtibos keltiradi. Bu bilan u qalbning so‘fiylar ta’limotida naqadar yuksak maqomga ega ekanligini isbotlaydi. U yozadi:

دل بدست آورکه حج اکبر است  
از هزاران کعبه یک دل بهتر است

**Mazmuni:**

Bir kishining diliga yo‘l topmoqlik eng ulug‘ hajdir,  
Mingta Ka’badan bitta dil yaxshiroqdir.

Shuningdek, u yana “Qalb Allohning xazinasidir”, degan hadisni misol keltiradi. Bunga hamohang tarzda yana “Payg‘ambar alayhissalom aytdilarki”, deb bu hadisni ham keltiradi: “Qalb uch turlik bo‘ladi: dunyo bilan mashg‘ul qalb, oxirat bilan mashg‘ul qalb va Mavlo, ya’ni Alloh bilan mashg‘ul qalb. Dunyo bilan mashg‘ul qalbgga shiddat va balolar nasib etadi, oxirat bilan mashg‘ul bo‘lgan qalbgga esa oliy martabalar va darajalar nasib etadi, Mavlosi bilan mashg‘ul qalblarga esa dunyoyu oxirat va yana Mavlosi nasib etadi”. Muallif bu ketma-ketlikni davom ettirib, qalbning mazmunini kengroq sharhlash uchun ha-

مرآت السالکین میر بابا ابن میر درویش نقشبندی کتبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 207ص<sup>1</sup>

dis keltirishda davom etadi: “Har bir narsaning sayqallovchisi bordir. Qalbning sayqallovchisi bu “La ilaha illalloh” zikridir”.<sup>1</sup>

U qalbning vazifasi va bajaradigan ishi to‘g‘risidagi fikrini nazmda ifodalab, Mavlaviy Jomiy ijodidan misol keltiradi. Bu kabi asoslarni keltirganidan keyin muallif, nihoyat, o‘z davrining naqshbandiya tariqati piri va murshidi hisoblangan o‘z ustozidan ham iqtibos keltirishni boshlab, qalbgaga sayqal berishning naqshbandiyaga xos yo‘llari to‘g‘risida gapira boshlaydi. U yozadi: “Ey tariqatning soliki va Haq yo‘lining tolibi bilginki, bizning pirimiz (Alloh uning sirini muqaddas qilsin) ayrim soliklarga buyurar edilarki, “Solik xilvatga kirsin va ko‘zini yumsin, og‘zini komida band qilgan holda bir nafas olib, nafas yetgunicha xayolni jamlab, “kalimai nafi isbot”ni (ya‘ni, “La ilaha illalloh”ni)” aytin. “La” degan paytida kindigidan boshiga tomon ishorat qilsin, “ilaha” deganida o‘ng elkasi tomondan ishorat bilan aylantirib, chap ko‘krak osti bilan qalbgaga kelganda zarb bilan “illalloh” ni aytin. Shu tarzda har safar toq-toq marta aytib, adadni yigirma bir martaga yetkazsin. Nafas chiqarayotgan paytda “Muhammadur rasululloh”ni yana chap ko‘kragi ostidan qalbgaga ishorat bilan aytin”.<sup>2</sup>

Mirbobo Naqshbandiy shu tarzda iqtibos keltirib, zikrning amaliy jihatlarini ustoz tilidan to‘liq tushuntiradi. Tushuntirish davomida zikrning qalbni poklashdagi ahamiyati to‘g‘risida she‘riy parchalar keltiradi. Qalbni tozalash jarayonida inson ruhiyatida kechadigan o‘y-xayollarni to‘rt turga bo‘lib ko‘rsatadi: shaytoniy, nafsoniy, malakiy va rahmoniy.

Shuningdek, mazkur asarning uchinchi bobi, to‘rtinchi faslida orif holining haqiqati haqida fikr yuritiladi. Bu joyda muallif “fanoul fano”, ya‘ni “fanoning fanosi” degan tasavvufiy istilohdan foydalanadi. Uning fikricha, so‘fiy vujudan foni bo‘lsa, bu hol yuz beradi.

بدان اي سالک طالب تا سالک در صفات است گاهي در عالم جلال و گاهي در عالم جمال در گذارش و نوازش ميباشد ليکن چون بذات رسد وجود سالک فاني و مضحل گردد فناء بالفناء حاصل آيد و اين عبارت محو شدن وجود فاني است

Mirbobo Naqshbandiy buni shunday tushuntiradi: “Ey, Haq tolibi bo‘lgan solik, bilginki, solik agar sifat, ya‘ni, sifatlar holatida bo‘lsa, unga goho jamol olamid, goho jalol olamid navozishlar bo‘lib turadi. Lekin, u Zotga etsa, solikning vujudi foni va muzhal (qurib qolgan) bo‘ladi va “fano bil fano”, ya‘ni fano bilan foniylilik etadi. Bu ibora foni bo‘lgan vujudning mahv bo‘lishi deganidir”.<sup>3</sup>

Mirbobo Naqshbandiyning naqshbandiya tariqati tamoyillariga mos ravishda qilgan tahlili uning uslubiga mos tarzda nazmiy parchalar bilan asoslanadi. Mutasavvif bu ma‘noni ifoda etuvchi bir nchecha she‘riy parchalardan iqtibos keltiradi:

از هستي خود اگر گهي دور شوي  
بر شکر بيخودي چو منصور شوي

#### **Mazmuni:**

Goh-goh o‘zingning borlig‘ingdan kecha olsayding,

O‘zingdan kechishlik rohatidan Mansur Halloj kabi shukr qiluvchi bo‘lar eding.

Bu ma‘noni kuchaytirib, Mirbobo Naqshbandiy Mansur Hallojning do‘sti va hammaslagi Shayx Shibliyning so‘zlarini keltiradi:

چنانچه حضرت شيخ شبلي قدس الله سره فرمايد كه سي سال است كه من با خدا راز ميگويم و ازو ميشنوم و مردم ميدانندكه با ماست

“Shayx Shibliy (Alloh uning sirini muqaddas qilsin) aytadi: “O‘ttiz yil bo‘ldiki, men Xudo bilan gaplashaman va Undan so‘z tinglayman. Odamlar esa meni o‘zlari bilan birga deb o‘ylaydilar”.<sup>4</sup>

Naqshbandiya ta‘limoti insonlarni qiziqtirib kelgan ilohiy masalalarga o‘ziga xos tarzda javob berdi. Shariatga zid kelmagan, ayni paytda ilg‘or va insonning aqliy va ruhiy imkoniyatlariga mos keladigan darajadagi javoblari bilan aksariyat sohaga qiziquvchilarni qoniqtira oldi. Shuning uchun ham mazkur tariqat hozirgi kungachcha dunyoning ko‘plab hududlarida o‘zining izdoshlari va ergashuvchilariga ega bo‘lib kelmoqda. Bu ishda esa yuqorida aytib o‘tilgan bu tariqatning fidoyi insonlarining xizmati katta bo‘ldi.

Naqshbandiya tariqati to‘g‘risida yozilgan ko‘plab asarlar qatorida Mirbobo Naqshbandiyning ham “Mir‘ot us-solikiyn” (“Tariqat soliklarining oynasi”) asari, shubhasiz, o‘z o‘rniga ega va u o‘zining yozilish uslubi va unda bayon etilgan masalalar ko‘lami va chegaralari bilan ham alohida ajralib turadi.

Mirbobo Naqshbandiy bayon qilgan orif holining bayoni va uning haqiqati tushunchalari aynan naqshbandiylikning bosh g‘oyalari va tamoyillarini o‘zida ifoda etadi. Bu esa boshqa tariqatlardan juz‘iy

<sup>1</sup> رأت السالكين. مير بابا ابن مير درويش نقشبندي. كتبخانه مركزي و مركز استاد دانشگاه تهران: 209-208 ص

<sup>2</sup> مرأت السالكين. مير بابا ابن مير درويش نقشبندي. كتبخانه مركزي و مركز استاد دانشگاه تهران: 210-208 ص

<sup>3</sup> مرأت السالكين. مير بابا ابن مير درويش نقشبندي. كتبخانه مركزي و مركز استاد دانشگاه تهران: 261- ص

<sup>4</sup> رأت السالكين. مير بابا ابن مير درويش نقشبندي. كتبخانه مركزي و مركز استاد دانشگاه تهران: 262- ص



jihatdan farqlanadi, biroq barcha tariqatlarda bosh masala bo'lgan qalb, uni poklash va Haqning nazargohiga aylantirish masalasi bilan umumiylik kasb etadi.

Mirbobo Naqshbandiyning mazkur asari tom ma'noda tariqat yo'lining soliklari uchun dasturulamal va uslubiy ko'rsatma hamda nazariy asos sifatida yozilgan o'ziga xos asar bo'lib, u o'z tadqiqotlarini kutib turibdi.

**Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li (Buxoro davlat universiteti izlanuvchisi)**  
**MILLATLARARO MUNOSABATLARDA HAMJIHATLIK MUHITINI TA'MINLASH-**  
**MILLATGA QARSHI QARATILGAN TAHDIDLARDAN HIMOYALANISH ASOSI**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlamasdan turib, millatga qarshi qaratilgan tahdidlardan himoyalaniib bo'lmagligi hamda milliy totuvlik va hamjihatlikka zid destruktiv g'oyalarga qarshi kurash tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash asosi ekanligi kabi masalalar yoritib berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье освещены такие вопросы, как обеспечение национальной духовной безопасности, незащищенность от угроз, направленных против нации, а также то, что борьба с деструктивными идеями, противоречащими национальному согласию и гармонии, являются основой обеспечения мира и спокойствия.*

***Annotation.** This article highlights such issues as ensuring national spiritual security, insecurity from threats directed against the nation, as well as the fact that the fight against destructive ideas that contradict national accord and consent is the basis for ensuring peace and tranquility.*

***Kalit so'zlar:** millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, tinchlik, xavfsizlik, tahdid, diniy ekstremizm, terrorizm,*

***Ключевые слова:** межнациональное согласие, толерантность, мир, безопасность, угроза, религиозный экстремизм, терроризм.*

***Key words:** interethnic harmony, tolerance, peace, security, threat, religious extremism, terrorism.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi.<sup>1</sup>

Yoshlar tafakkuri sofligini saqlash, ularning kayfiyatlari, orzu-umidlari, intilishlarining mazmun-mohiyatini o'rganish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish o'ta dolzarb vazifadir. Diniy ekstremizm va terrorizm ildiz otib borayotgan bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar tarbiyasiga ahamiyat qaratish eng dolzarb vazifadir. Bugungi kunda BMTning xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalari faoliyati terrorizmga qarshi qaratilgan asosiy xalqaro uyushmalar qatorida yetakchi o'rin egallaydi.<sup>2</sup>

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek: "Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to'qnashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o'choqlari kamayish o'rniga ko'payib bormoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu – zamon talabi.

Avvalo, shu yo'nalishda shakllangan tizim samaradorligini yanada oshirishimiz, ayniqsa, diniy masalalar bilan bevosita shug'ullanadigan hokim o'rinbosarlari, mutasaddi tashkilotlar mas'uliyatini yanada kuchaytirishimiz zarur. Xususan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar, diniy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilar, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari faollari – barcha-barchamiz birgalikda ish olib borishimiz lozim".<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom, T., "O'zbekiston", 2019, 295-bet.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2017, 20-sentabr.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi", 23-

Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan siyosiy kurashning o‘ziga xos usuli. U yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash oqibatida qo‘llaniladi. Terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmaganliklari uchun ham ko‘p hollarda aholining keng qatlamlarida nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Xususan, O‘zbekiston milliy ensklopediyasida terrorizmga quyidagicha ta’rif beriladi. Terrorizm (lot, terror–qo‘rqinch, dahshat) – siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo‘qotish yoki qo‘rqitish, aholi o‘rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo‘ravonlik harakatlari (ta’qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va b.).<sup>1</sup>

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri, bunday harakat tarafdorlarining “zo‘rlik davlatni parokandalikka olib keladi” degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo‘lmayotgan tinchlik hukmronlik qilayotgan jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni inlor etgan holda siyosiy masalalarni zo‘rlik bilan hal qilishga intilishda ko‘rinadi. Bunday siyosiy masalalar o‘z navbatida hududiy, etnik, diniy yoki boshqa shakl-u shamoil kasb etishi mumkin.

Hozirgi xalqaro terrorchilik markazlari mablag‘lari evaziga mavjud konstitutsion tuzumga qarshi qo‘poruvchilik siyosiy arboblar hayotiga suiqasd harakatlarini olib boruvchi tashkilotlarga uyushgan holda faoliyat ko‘satmoqda. Xalqaro statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda dunyo miqyosida 600 dan ortiq terroristik tashkilotlar mavjud. Ular deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida o‘zining manfur qiyofasini namoyish qilmoqda.

Umuman olganda, hozirgi kunda islom ekstremizmi xalqaro terrorizmning asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Shunga asosan, diniy ekstremizmga qarshi kurash hozirgi vaqda dolzarb vazifaga aylanadi.

Rossiyadagi Atom energetikasi rivojlanishi muammolari institutining ilmiy xodimi L.Bolshovning fikricha, terroristlar yadroviy materiallardan o‘z maqsadlari yo‘lida quyidagi uch variantda foydalanishi mumkin:

- ◆yadroviy qurilmalarni portlatish;
- ◆atom energetikasi obyektlarida, atom elektrostansiyalarida, atom qurilmalari elementlarini yoki atom chiqindilarini qayta ishlovchi korxonalarda qo‘poruvchilik harakatlarini amalga oshirish;

- ◆oddiy portlovchi moddalar tarkibiga radioaktiv izotoplarni kiritib portlatish yoki bunday izotoplarni changitish, purkash va boshqa yo‘llar bilan havoni zaharlash orqali amalga oshiradi.<sup>2</sup>

Qayd etish lozimki, radikallashuv, terrorizm g‘oyalarining tarqalishi jamiyatning tinchligi va osoyishtaligiga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatar va muammolardan biri hisoblanadi. Radikalizm terrorizmga olib boruvchi so‘nggi bosqich. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasidagi radikallashuv jarayoni katta tashvish uyg‘otmoqda. Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo‘lib, ular 2 milliard kishini tashkil etishini e’tiborga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekanini tushunish qiyin emas. Hozirgi kunda ekstremizm va terrorizm xalqaro hamjamiyatga ham, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekistonga ham tahdid solishda davom etmoqda.<sup>3</sup>

Milliy ma’naviy xavfsizlikni ta’minlamasdan turib, millatga qarshi qaratilgan tahdidlardan himoyalani bo‘lmaydi. Millatga qarshi tahdidlarga qarshi tizimni tashkil qilishning barcha turlari milliy ma’naviy xavfsizlikning qanday ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘lib qolaveradi. Buni biz real amaliyotda sodir bo‘layotganligining ham guvohi bo‘lib turibmiz. Chunonchi, bugun dunyo miqyosida Yer kurrasiga ega-lik qilishga da’vogarlik qilayotganlarning qirg‘inbarot moddiy qurollardan foydalanishdan ko‘ra, insonlar ongi, dunyoqarashi va qalbini egallashga bo‘lgan intilishlari ustuvor darajaga ko‘tarilib bormoqda.<sup>4</sup>

Tahlillarga ko‘ra, terrorizm bilan bog‘liq harakatlarni oqlash, qolaversa, bunday harakatlarni sodir etishga undash og‘zaki va yozma ravishda amalga oshirilishi, audio va videomateriallar, fotosuratlar,

---

dekabr, 2017.

<sup>1</sup> O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. 8-son. Solnoma–To‘ytepa. “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nash-riyoti, T., 2004, 404-bet.

<sup>2</sup> V.Pryaxin. Лишних людей на земле нет. Журнал “Международная жизнь”, Москва, 2002, № 1, с. 75.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2021, 401-bet.

<sup>4</sup> Otamurodov S. Globalashuv: millatni asrash mas’uliyati. T., “O‘zbekiston”, 2018, 251-bet.

chizmalar, belgilar yordamida tarqatilishi mumkin. Bugungi kunda esa ming afsuski internet tarmog‘i eng ko‘p ma‘lumot tarqatilayotgan vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada so‘z ketganda terrorizmni ommaviy ravishda oqlashga, targ‘ib qilishga yoki unga undashga qaratilgan materiallarni tarqatishda ishtirok etadigan shaxslarning roli ham bir xil emasligiga e‘tibor qaratish lozim. Masalan, terrorizmga da‘vat etuvchi xabarning muallifi va tarqatuvchisi boshqa-boshqa shaxslar bo‘lishi mumkin. Bunda terrorizmni targ‘ib qiluvchi matnni yaratish alohida holat, uni tarqatish boshqa holat sifatida e‘tiborga olinishi kerak. Mazkur jinoyat ommaviy ravishda sodir etilganini esa kamida ikki kishidan iborat tinglovchi bo‘lgani tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni differentsiatsiya qilish ushbu turdagi jinoiy qilmishlarga qarshi samarali kurashish, xususan, bunday xatarlarning oldini olishga xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, hamkorlik va do‘stlik bor joyda tinchlik va taraqqiyot bo‘ladi. Bugun biz Yangi O‘zbekistonni ko‘p millatli davlat sifatida tili, dini, e‘tiqodidan qat‘iy nazar, barcha fuqarolarga teng sharoit va yangi imkoniyatlar eshigini ochgan muqaddas go‘sha deb bemalol ayta olamiz.

Yangi O‘zbekistonda tinchlik va hamjihatlik muhitining nihoyatda qadrli ekanligini bir qator xorijlik mutaxassis va olimlar ham e‘tirof etib kelishmoqda. Xususan, 2022-yil 17-may kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Deklaratsiyalar muloqoti” xalqaro forumida ishtirok etgan amerikalik jurnalist Grek Mitchelning ta‘kidlashicha, O‘zbekistondagi bugungi tinchlik va hamjihatlik muhiti g‘oyat qadrli va biz bu jarayonda mamlakatingizda amalga oshirilayotgan qizg‘in islohotlarni olqishlaymiz. O‘zbekiston ko‘pmillatli mamlakat sifatida o‘z hududida diniy bag‘rikenglik va millatlaro totuvlikni ta‘minlay olayotgan davlat sifatida ham tanilgan. Bu haqda gap ketganda, yurtimizda vijdon erkinligi ta‘minlanganini, turli din vakillariga o‘z e‘tiqodini emin-erkin amalga oshirishi uchun sharoit yaratilganini ta‘kidlash o‘rinli bo‘ladi. Diniy ta‘lim olish, eng muhimi, din, avvalo, tinchlik va ezgu maqsadlar targ‘ibotchisi bo‘lishi kerakligi yo‘lidagi O‘zbekiston sa‘y-harakatlari ham tahsinga loyiq.

Bugun dunyo tahlikali bo‘lib qoldi. Turli diniy nizolar, qurolli to‘qnashuvlar, millatlararo qarama-qarshiliklarga guvoh bo‘lib turibmiz. Ana shunday sharoitda biz, barchamiz birlashishimiz, dunyoni, o‘z erkin hayotimizni turli xavf-xatarlardan hamjihatlik yo‘lidagi harakatlarimiz bilan qutqarishimiz har qachongidan-da dolzarb.

Muxtasar qilib aytganda, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashning bebaho ahamiyati xususida ko‘plab hamyurtlarimiz o‘zlarining yurak so‘zlarini izhor qilishmoqda. Ular orasida millatdoshlarimiz bilan birga, yurtimizda istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillari, diplomatik korpus vakillari ham borligi e‘tiborga molik. E‘tiborli jihati shundaki, dunyoning yirik, ko‘pmillatli davlatlari rahbarlari, taniqli siyosat va jamoat arboblari, diplomatlar O‘zbekistondagi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohalarida erishilgan yuksak natijalariga o‘zlarining xolis bahosini berishmoqda va mamlakatimizning tajribasidan foydalanishni tavsiya qilishmoqda.

---

<sup>1</sup> Jamshid Ibrohimov. IIV akademiyasi mustaqil izlanuvchisi. Terrorizm haqida qasddan yolg‘on xabar buning uchun javobgarlik aniqmi? “Huquq va burch”, 1-son, 2019.

**Begmatova Ra'no Faxridinovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Nemis tili nazariy fanlar kafedrası dotsenti; e-mail: [rano@rambler.ru](mailto:rano@rambler.ru))**

**LINGVISTIK KOOPERATSIYA VA GARMONIZATSIYANING NAZARIY TAHLILI**

***Annotatsiya.** Maqola “hamkorlik” va “uyg'unlashtirish” tushunchalarining mohiyatini tahlil qilishga, ushbu atamalarning zamonaviy tilshunoslikda amal qilishini ko'rib chiqishga bag'ishlangan.*

***Аннотация.** Статья посвящена анализу сущности понятий «кооперация» и «гармонизация», обзору функционирования данных терминов в современной лингвистике.*

***Annotation.** The article is dedicated to the analysis of the essence of the concepts of “cooperation” and “harmonization”, a review of the functioning of these terms in modern linguistics.*

**Калит сўзлар:** коммуникация, кооперация, гармонизация, прагматический омил.

**Ключевые слова:** коммуникация, кооперация, гармонизация, прагматический фактор.

**Key words:** communication, cooperation, harmonization, pragmatic factor.

Ilmiy adabiyotlarda kooperatsiya bilan yonma-yon garmonizasiya tushunchasi qo'llaniladi. Garchi ular yaqin tushunchalar sanalsalarda, ularga mutlaq sinonimlar sifatida qarab bo'lmaydi. Chunonchi, ular o'zlariga xos bo'lgan ayri xususiyatlarni namoyon qiladi.

Avvalo, kooperatsiya atamasining mohiyatiga e'tiborimizni qaratib, unga ta'rif berar ekanmiz, bizni jamiyatshunos olim Alfred Iosifovich Kreykning fikrlari o'ziga jalb qiladi. Olim bir necha integratsiya, kooperativlik, kooperatsiya, birlashma, kelishuv, hamdo'stlik va birdamlik atamalarning mazmunan yaqinligini bayon eta turib, kooperatsiyani insoniyatning fundamental belgisi sifatida ta'riflaydi. Uning aytishicha, individuallashib borayotgan odam faqat kooperativlik, ya'ni, bir-birini ma'qullash orqasidagina ruhan konsensus imkoniyatlarini yaratgan holda birlasha oladi.<sup>1</sup>

Demak, kooperatsiya muloqotning tarkibiy qismi sanalib, muloqotni shunday qurish kerakki, u uzilib qolmasligi, to'siqqa uchramasligi, silliq kechishi va ikki tomonning ham mamnunligi, qoniqishini ta'minlashi va ko'zda tutilgan maqsadga erishmasdan to'xtab qolmasligi lozim. P.Graysning fikricha, bu jarayonga suhbat kooperatsiya tamoyili<sup>2</sup> asosida kechsagina erishilish mumkin.<sup>3</sup>

“Garmoniya” so'zi esa musiqa sohasidan kirib kelgan so'z bo'lib, uyg'un, ohangdosh ma'nolarini anglatadi.<sup>4</sup> Bu bilan birga, shaxslarning o'zaro uyg'un ravishda har tomonlama mos kelishi va fikrlarning monandlashishini bildiradi. Tilshunos olimlar tomonidan muloqotda nutqiy garmonizatsiya atroflicha o'rganilgan bo'lib, biz esa uning kooperatsiyadan farqli jihatlari keltirib o'tmoqchimiz.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** V.S.Tretyakova o'z ilmiy izlanishlarida nutqiy konfliktning lingvistik spetsifikasini yuzaga chiqargan. Olimaning fikricha, garmoniya va konflikt kommunikativ aktlarda o'rganilsa, kooperatsiya esa nutqning strategiya va taktikalari sifatida tadqiq qilinadi.<sup>5</sup>

Garmoniya dialogik birlik sanalib, dunyoni bilish, komunikativ vaziyat singari kognitiv strukturalarni ham e'tiborga olish zaruratini yaratadi. Garmoniyada dinamika mavjud bo'lib, uning nutqda paydo bo'lishi, yetilib borishi, baland nuqtasi va tushish<sup>6</sup> jarayonlari yuz beradi. Kooperatsiyada esa buni ko'rsatish ancha qiyinroq kechadi, unda garmonizatsiyada bo'lganidek, uning paydo bo'lishi, pishib yetishishi, yuqori nuqtasi, pasayishi va yakuni singari darajalanish hodisalari uchramaydi. Bizningcha, garmoniya bu maqsad emas balki vositadir (1-jadval)

*1-jadval*

**Кооператсия va гармонизация darajalanuvi**

Garmonizasiya	Paydo bo'lishi	Pishib	Yuqori nuqtasi	Pasayishi	Yakuni

<sup>1</sup> Крейк А.И., Худякова Н.И. Кооперативность как фундаментальный признак человечества. Психология, социология и педагогика. 2014, 6-сон (электронный ресурс) URL:<https://psychology.snauka.ru/2014/06/3238> (дата обращения: 10.12.2021), 118-бет.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008, 137-бет.

<sup>3</sup> <https://studfile.net/preview/7021757/page:18/>

<sup>4</sup> Русча-ўзбекча луғат. М.Қ.Қўшжоно ва бошқалар. Ўзбек совет энциклопедияси редакцияси. 1-том, Т., 1983, 197-бет.

<sup>5</sup> Третьякова В.С. Речевой конфликт и гармонизация общения. Автореф. дисс. докт. филол. наук, Москва, 2003, с. 3.

<sup>6</sup> Шу манба. 7-бет.

	yetishishi			
Kooperatsiya	O'zgarishsiz			

V.S.Tretyakovaning aytishicha, garmonik muloqot bu sifattir.<sup>1</sup> Kooperatsiyaga mos maqsadlar, qarashlar va pozitsiya nuqtayi nazardan teng kelishi kerak. Lekin har doim ham dunyoqarashi teng insonlargina bir biri bilan munosabatda bo'lishmaydi. Millati va mentaliteti turlicha bo'lishi mumkin. Vaholanki, xitoylik tadqiqotchi Peng Luluning fikricha, garmoniyani saqlab qolishga katta ahamiyat karatilishi xitoy millatining farqli xususiyatlaridan biri sifatida tan olinadi va bu holatni xalqning kollektiv ideologiyasiga bog'liq ekanligini aytib o'tiladi.<sup>2</sup>

Yana bir tilshunos Yan Leyning fikricha, o'zaro muloqotda garmonizatsiya Xitoy kollektiv ideologiyasida o'zgalar yuzini asrash maqsadida qo'llanilsa, Amerika va Buyuk Britaniya singari individualistik qarashlar qadrlanadigan jamiyatda esa kooperatsiya tamoyilidan foydalanish lozim topiladi.<sup>3</sup> Bundan kelib chiqadiki, individuallashtirilgan jamiyatda dangallik qadrlanadi, kollektiv, ya'ni, jamoatlashgan jamiyatda esa yuzni asrash, ehtiyotkorlik singari munosabatlar qadrlanadi. Shunday qilib, garmonizatsiya yoki kooperatsiya tamoyilini qo'llash xalq mentalitetiga bog'liq bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kooperatsiya xususida so'z yuritar ekanmiz, lingvokulturologiya paradigmasiga nazar solish zarurati paydo bo'ladi. Lingvokulturologik aspekt inson va til diadasini jamiyat bilan chambarchas bog'labgina ish ko'radi. Bizningcha, har bir til shu xalqning tajribasi mahsulidir. Garmonizatsiya tushunchasi ustida keng tadqiq olib borgan olim Peng Luluning misoliga ko'ra, ... "piones" so'zini men tushunapman, siz esa tushunmayapsiz, demak, mening hayot tajribamda uchragan...<sup>4</sup> Bu xulosadan kelib chiqadiki, har bir xalq tilining unikal formasi uning mavjudlik shakliga ko'ra, jamoatchilik amalidan kelib chiqqan me'yorlari va avloddan avlodga o'tib kelayotgan tajribaga asoslarda va o'zgacha lingvokulturologik kodga egadir.

Lingvokuliurolrgik ta'lim – bu madaniyat tajribasini yetkazish. O'zga madaniy tajribani yetkazishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi.<sup>5</sup> Shuningdek, lingvokulturologiya kommunikativ normani ham o'rganadi. Madaniyat hamda nutq madaniyati millat mentalitetiga asoslanadi. Jumladan, nemis millatiga mansub inson o'zining talabchanligi bilan ajralib aynan suhbatda shu sohaga tegishli bilimlarni qo'llab gapirilishini va usha bilimlarga ega bo'lish ular uchun standart ekanligiga e'tibor qaratishadi. Aytaylik, futbol haqida so'z ketayotgan ekan, so'zlovchidan shu soha xususidagi boxabarlikning talabi mavjud. So'zlovchining o'zining gapirayotgan mavzusidan yaxshi va to'g'ri ma'lumotlar bera bilishi o'zaro so'zlashuvchilararo kooperatsiyaga olib keladi. Demak, kooperatsiya axborot bilan ishlash vositasidir.

Ma'lumki, tilning regulatori mavjud (regulator – boshqarib, tartibga soluvchi). Bular ritual (tartib va marosim tartibi) va an'analar, me'yor va qoidalar, etnik stereotiplar hamda milliy qonuniyatlarga asoslanganlik, kommunikantlarning nutq faoliyati davomidagi til, nutq va noverbal mexanizmlari, diskursni hosil qilishidagi o'ziga xos xususiyatlaridir.

**Tahlil va natijalar.** Y.A.Kuznesovaning fikricha, kooperatsiya tamoyillariga amal qilibgina garmonizatsiyaga erishish mumkin.<sup>6</sup> Kelib chiqadiki, garmonizatsiya nizoli muloqotlarda konfliktni yechish va muloqotning kooperativ tonini yaratish va uni ushlab qolish uchun qo'llaniladigan vosita sanaladi.

Aytilgan fikrning pragmatik ma'nosi matn yaratuvchisi va uning tinglovchisi tomonidan bir xil bo'lmaydi, balki pragmatik ma'no nafaqat so'zlovchi balki tinglovchiga ham bog'liqdir. Zero, adresat qabul qiluvchining vazifasi suhbatdosh mo'ljalini tushunib yetishi, dekodlashtirish va implikaturalarni "hisoblab chiqarishi" kerak. Zero, P.Grays ta'kidlaganidek, hisoblab chiqarish iloji mavjud.<sup>7</sup> Bundan kelib chiqadiki, garmoniya kommunikativ akt sifati shu pragmatik omilga borib taqaladi.

<sup>1</sup> Шу манба. 12-бет.

<sup>2</sup> Lulu P. Pragmatic differences between cooperative principle and politeness principle in Chinese and English commentators. Utterances international journal of English language and linguistics research, vol.7, № 1, pp. 33–46, January 2019, p. 45.

<sup>3</sup> Shu manba.

<sup>4</sup> Shu manba. 12 p.

<sup>5</sup> Махкамова Г.Т. Формирование межкультурной компетенции студентов филологического вуза (Английский язык). Пед. фанл. докт. ... дисс., Тошкент, 2011, с. 118.

<sup>6</sup> Кузнецова Е.А. Конфронтация и кооперация в речевом поведении владимира познера (на материале авторского ток-шоу). Магистерская работа, Екатеринбург, 2017, с. 26.

<sup>7</sup> Meyer K. Interkulturelle Pragmatik: Aufforderungen, Entschuldigungen und Beschwerden. Dissertation. Hamburg, 2007, p. 12.

Kuznesova Y.A. garmonizasiyani kognitiv nuqtai nazardan freym, ssenariy va janr singari kognitiv strukturalarni garmonizasiyaning pragmatik aspekti nuqtayi nazardan esa matn interpretasiyasiga to'xtalib, uning matnning yaratuvchisi va qabul qiluvchi munosabatiga ko'ra aniqlik kiritib, matn qanday so'zlovchi tomonidan tuzilayotganligi va uning qabul qilinishi muammolarini keng o'rganadi. Bu borada, asosan, P.Graysning implikaturasi ta'limotiga suyanib ish olib borganligining guvohi bo'lamiz. Bundan anglashiladiki, so'zlovchining nimani va qanday gapirayotganligi muhim sanalib, u kooperativ nazoratni o'z qo'lga olishi lozim. Lekin nazorat qo'lida bo'lsa-da, nutqiy va til qurilmalarini o'z o'rnida va muddodagidek tushunilishiga kafolat bera olmaydi. Shu sababli ham matnni yaratish va uni adekvat anglash orasida xavf paydo bo'ladi. O'z navbatida, bu xavf kooperatsiya tamoyillariga amal qilish orqali yechiladi.

Kommunikativ maqsadlar tipologiyasini keng yoritgan olim Y.A.Kuznesovning kooperatsiya va garmonizasiyani sifat turkumi sifatida qo'llaganida, kooperatsiya va garmonizatsiya atamaları sinonim sifatida qo'llaganligining guvohi bo'lamiz. Ushbu olim dialoglarni ikkiga bo'lib o'rganadi, jumladan, konfrontativ va kooperativ turlarga ajratadi.<sup>1</sup>

Ma'lumki, har bir nutq aktida suhbat ishtirokchisi u kooperatsiya yoki konflikt strategiyasini qo'llashini o'zi hal qiladi. Shu xususda olim intervyularda kooperativ provakatsiya taktikasi ham so'zlovchining emotsional holatini izdan chiqarmasligiga o'z e'tiborini qaratadi.<sup>2</sup> Zero, kooperatsiya nutq akti konfliktidan farqli ularoq, garmonizatsiyani talab qiladi. Demak, biz kooperatsiyani strategiyasi sifatida tushunishimiz ham mumkin. Zero, kooperatsiya taklif, rozilik, yon berish, ma'qullash, maqtov va boshqa taktikalaridan birini yoqi bir nechasinidan foydalanish asosida garmonizatsiyaga erishiladi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, garmonizatsiya mavhumroq ko'rinishda bo'lib, insonlarning o'zaro mos suhbatlarida, bir tomondan, ohangdoshlik singari eshitish organi bilan bog'liq bo'lib, ikkinchi tomondan, bevosita shaxsning ruhiyati bilan bog'lanadi. Kooperatsiya esa kengroq tushuncha bo'lib, maqsad bilan ish harakatning va biror-bir faoliyatning ijobiy hal bo'lishga intilish bilan bog'liqdir.

Kooperatsiya va garmonizatsiyaning o'xshashligi shundaki, ikkalasi ham birgalashib hamjihatlikda harakat qilishni bildiradi, faqat garmoniya kichikroq ruhiy holatga borib taqalsa, kooperatsiya esa ma'lum maqsadni ko'zlaganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, garmonizatsiya nutq konfliktologiyasi fanining termini sifatida ko'proq qo'llanilsa, kooperatsiya esa lisoniy antroposentrik qidiruvlar asosida izohlanadi (2-jadval)

2-jadval

	Kooperatsiya		Garmonizatsiya
1.	Ruhiyat, mentallik	Kommunikatsiyaga oid qutblashuv mavjud	Eshitish tana a'zosi
2.	Mantiq		Sifatli muloqot
3.	Strategiya		Nutq faoliyati
4.	Maqsad		Dinamika mavjud

Xodjayorov Malik Berdimurodovich (QarDU Ingliz filologiyasi fakulteti dekani;  
[mkhodjayorov@gmail.com](mailto:mkhodjayorov@gmail.com))

## MEDIALINGVISTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA METODLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi – medialingvistika nazariyasi va metodlariga bag'ishlangan bo'lib, ommaviy axborot sohasida tilning vazifalari va muammolari haqida so'z boradi.

**Аннотация.** Данная статья посвящена теории и методам нового направления современной лингвистики – медиалингвистики. В ней рассматриваются задачи и проблемы языка в сфере массовой информации.

**Annotation.** This article is dedicated to the theory and methods of a new direction of modern linguistics – medialogistics and talks about the tasks and problems of language in the field of mass information.

**Kalit so'zlar:** medialingvistika, mediamatn, ommaviy axborot vositalari, diskurs tahlil.

**Ключевые слова:** медиалингвистика, медиатекст, средства массовой информации, анализ дискурса.

<sup>1</sup> Кузнецова Е.А. Конфронтация и кооперация в речевом поведении владимира познера (на материале авторского ток-шоу). Магистерская работа, Екатеринбург, 2017, с. 59.

<sup>2</sup> Кузнецова Е.А. Конфронтация и кооперация в речевом поведении Владимира Познера (на материале авторского ток-шоу). Магистерская работа, Екатеринбург, 2017, с. 102.

**Key words:** *medialinguistics, media text, mass media, discourse analysis.*

Axborot jamiyati shakllanishining zamonaviy sharoitida mediaoqimining diskret birliklarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Shubhasiz, bunday asosiy birlik mediamatn bo'lib, uning doirasida gazeta maqolasi, radioeshittirish, televideniya yangiliklari, internet-reklama va boshqa turdagi ommaviy axborot vositalari kabi turli va ko'p darajali tushunchalarni birlashtirishga imkon beradi.

Yigirmanchi asrning 90-yillarida ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda paydo bo'lgan "mediamatn" atamasi ham xalqaro akademik doiralarda, ham milliy mediadiskurslarda tez tarqaldi. Mediamatn tushunchasining ilmiy ongda jadal mustahkamlanishi tadqiqotchilarning ommaviy axborot vositalari nutqi muammolarini, tilning ommaviy kommunikatsiya sohasida faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini o'rganishga qiziqishning ortishi bilan bog'liq edi.

Bu masalaga Teun Van Deyk, Martin Montgomeri, Alan Bell, Norman Feyerklaf, Robert Fauler<sup>1</sup> kabi mashhur olimlar katta e'tibor berib, ular ommaviy axborot vositalari matnlarini turli maktablar va yo'nalishlar: sotsiolingvistika, funksional stilistika, diskurs nazariyasi, kognitiv lingvistika, nutq nuqtayi nazaridan ko'rib chiqdilar. Olimlarning e'tiborini keng doiradagi bu ommaviy axborot vositalari tilining funksional va stilistik maqomini aniqlash, turli xil mediamatnlarni tavsiflash usullari, ijtimoiy-madaniy omillarning medianutqqa ta'siri va ta'sir qilishning lingvomedial texnologiyalari kabi masalalar jalb qildi.

Rossiyada mediamatn nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga, shuningdek, uni o'rganish usullariga quyidagi olimlar o'z hissalarini qo'shishdi: S.I.Bernshteyn, D.N.Shmelev, V.G.Kostomarov, Y.V.Rojdestvenskiy, G.Y.Solganik, S.I.Treskova, I.P.Lisakova, B.V.Krivenko, A.N.Vasilyeva.<sup>2</sup> Mediamatn konsepsiyasi mediatilshunosligining asosiy kategoriyasi sifatida birinchi marta T.G.Dobrosklonskaya tadqiqotlarida shakllantirilgan.<sup>3</sup>

Bir necha bor ta'kidlanganidek, mediamatn tushunchasi konsepsiyasining asosida verbal va media-birliklarining ajralmas birikmasi yotadi. Ommaviy axborot vositalari matnlarining bu xususiyati, xususan, mediamatn verbal va mediaxususiyatlarining kombinatsiyasi deb hisoblaydigan qarashni ko'plab ingliz mualliflari tomonidan ta'kidlangan. Shunday qilib, taniqli OAV tili tadqiqotchisi Alan Bell o'zining "Approaches to Media Discourse" kitobida shunday yozadi: "Mediamatnning ta'rifi matnga nisbatan chop etilgan yoki qog'ozda yozilgan so'zlar ketma-ketligi sifatidagi an'anaviy qarashdan tashqariga chiqadi. Mediamatn tushunchasi ancha kengroqdir: u ovoz sifatleri, musiqa va ovoz effektlari, vizual tasvirlarni o'z ichiga oladi, boshqacha aytganda, mediamatnlar, aslida, ularni ishlab chiqarish va tarqatishda qo'llaniladigan texnologiyalarni aks ettiradi".<sup>4</sup>

Mediamatnning katta hajmli ko'p darajali hodisa sifatidagi konsepsiyasi barqaror parametrlar tizimi bilan to'ldiriladi, bu bizga ma'lum bir mediamatnning ishlab chiqarish, tarqatish kanali va lingvistik xususiyatlari nuqtayi nazaridan juda aniq tavsif berishga imkon beradi. Ushbu tizim quyidagi muhim parametrlarni o'z ichiga oladi:

- 1) matn yaratish usuli (mualliflik – kollegial);
- 2) yaratish shakli (og'zaki – yozma);
- 3) ijro shakli (og'zaki – yozma);
- 4) tarqatish kanali (ommaviy axborot vositalari – tashuvchi: bosma, radio, televideniya, internet);
- 5) matnning funksional-janr turi (yangiliklar, sharhlar, jurnalistika, reklama);
- 6) tematik dominant yoki u yoki bu barqaror mediamavzusiga tegishlilik.

Keling, ushbu parametrlarning har biriga biroz batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

<sup>1</sup>Fowler R. *Language in the News: Discourse and Ideology in the Press*. London, Routledge, 1991; Fairclough N. *Language and Power*, London, Longman, 1989; Bell A. "The Language of News Media" Oxford, Blackwell, 1991; Теун ван Дейк «Язык. Познание. Коммуникация» М., "Прогресс", 1989; Montgomery M. *Introduction to Language and Society* OUP, 1992.

<sup>2</sup>Шмелёв Д.Н. *Русский язык в его функциональных разновидностях*. М., 1977; Бернштейн С.И. *Язык радио*. М., "Наука", 1977; Костомаров В.Г. *Русский язык на газетной полосе*. М., МГУ, 1971; Языковой вкус эпохи. М., 1994; Васильева А.Н. *Газетно-публицистический стиль речи*. М., "Русский язык", 1982; Рождественский Ю.В. «Теория риторики» М, Добросвет, 1997, Солганик Г.Я. «Лексика газеты: функциональный аспект» М., "Высшая школа", 1981; Трескова С.И. *Социолингвистические проблемы массовой коммуникации*. М., "Наука", 1989; Лысакова И.П. *Тип газеты и стиль публикации*. С-П., СПУ, 1989; Кривенко Б.В. *Язык массовой коммуникации: лексикосемантический аспект*. Воронеж, ВГУ, 1993.

<sup>3</sup>Добросклонская Т.Г. *Теория и методы медиалингвистики*. АДД, М., 2000; *Вопросы изучения медиа-текстов*. "Макс-пресс", 2000.

<sup>4</sup> Bell A. *Approaches to Media Discourse*. London, Blackwell, 1996.

Shunday qilib, ishlab chiqarish usuliga ko'ra, mediamatn uni ishlab chiqishda qancha odam ishtirok etishiga, shuningdek, yakuniy axborot mahsulotini taqdim etishda mualliflik ko'rsatilganligiga qarab mualliflik yoki kollegial bo'lishi mumkin. Muallif matnining illustratsiyasi shaxsiy mualliflik belgisini o'z ichiga olgan har qanday mediamaterial bo'lishi mumkin, masalan, sharhlovchining maqolasi yoki muxbirning reportaji, kollegial matnga misol sifatida axborot agentliklarining korporativ shaxslari tomonidan tarqatilgan ko'plab yangiliklar materiallari misol bo'la oladi, jumladan, Interfaks, ITAR-TASS, CNN, Reuters, BBC va boshqalar. Ba'zi hollarda nashrning korporativ xarakterining muhimligini ta'kidlash uchun tahririyat nashr etilgan materiallar mualliflarini ataylab sir saqlashadi, masalan, taniqli "The Economist" jurnalida bu odatiy holdir.

Yuqoridagi parametrlar ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, "og'zaki nutq – yozma nutq" tipologik dioxotomiyasi nuqtayi nazaridan mediamatnlarini tavsiflashda ikkita komponent ishtirok etadi – yaratilish shakli va ijro etish shakli va bu tasodifiy emas, chunki u tilning ishlashi uchun asosiy bo'lgan ushbu farq bilan bog'liq holda mediamatn mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Darhaqiqat, ommaviy axborot sohasida barqaror dioxotomiyaga og'zaki nutq – yozma nutq bir qator o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunda og'zaki shaklda yaratilgan ko'plab matnlar iste'molchiga yozma ravishda yetib boradi, dastlab, yozilgan matnlar, keyinchalik, og'zaki tarzda ishlatiladi. Gazeta yoki jurnalda chop etilgan intervyuni nutqning qaysi turiga kiritish kerak, matn o'zining tabiatiga ko'ra, og'zaki xarakterga ega mi? Yangiliklarni o'qiydigan boshlovchining nutqi-chi? Yoki jonli, tayyorlanmagan nutq illuziyasini yaratuvchi ekran orqali matnni o'qiyotgan telekommentatorning nutqi-chi? Aynan shu xususiyatlarni aks ettirish uchun matn yaratish shaklini ham, uni yangratish shaklini ham hisobga olish mantiqan to'g'ridir. Bunda sharhni o'qish – bu yaratilish shaklidagi yozma matn va ijro etish shaklida og'zaki matn, gazetada bosilgan intervyu esa yaratish shaklida og'zaki va yangratishda yozma shaklli matndir.

Mediamatnlarning tipologik tavsifi uchun tarqatish kanali, boshqacha aytganda, ushbu matn yaratilgan va faoliyat yurituvchi ommaviy axborot vositalari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir ommaviy axborot vositalari, xoh u bosma nashr, radio, televideniya yoki internet bo'lsin matnning lingvistik va format xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan maxsus vositalar to'plami bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, gazeta yoki jurnalda matnning og'zaki qismi grafik dizayn va illustratsiyalar, radioda ovozli imkoniyatlar va ovoz jo'rliigi, televizorda videoqator orqali kuchaytirilgan bo'lishi mumkin.

Matnning qaysi funksional–janrga tegishligi ommaviy axborot matnlarini tipologik tavsiflashning navbatdagi majburiy parametri. Medianutqining janrlarini tizimlashtirish har doim juda murakkab bo'lgan, bu janr tushunchasini "san'atning barcha turlarida tarixan shakllangan ichki bo'linish" ta'rifi bilan izohlanadi.

Mediamatnlarni tipologik tavsiflashning yana bir muhim parametri bu matnning mazmunli xarakteristikasi bo'lib, uning tematik ustunligini yoki ommaviy axborot vositalarida doimiy, muntazam yoritilgan mavzulardan biri – mediamatn mavzulariga tegishli ekanligini ta'kidlash imkonini beradi.

Axborot oqimining mazmun tomonini tahlil qilish barcha ommaviy axborot vositalari matnlari yoki mediakontenti tabiiy ravishda tashkil etilgan barqaror tematik tuzilmalar mavjudligini ko'rsatadi. Aytish mumkinki, ommaviy axborot vositalari dunyoning dinamik o'zgaruvchan sur'atini barqaror mediamavzulari tizimi yoki muntazam ravishda takrorlanadigan mavzular yordamida tashkil qiladi va tartibga soladi, masalan, siyosat, biznes, sport, madaniyat, ob-havo, xalqaro va mintaqaviy yangiliklar va boshqalar. Shu bilan birga, lingvomadaniy omilning ahamiyatini ta'kidlash kerak, chunki ommaviy axborot vositalari matnlarida dunyoning lingvistik va axborot tasvirlarining o'ziga xos tartibi mavjud bo'lib, u tabiiy ravishda o'ziga xos doimiy tematik komponentlar

**Babaxanova Dilarom Axmatxanovna (Namangan davlat universiteti  
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)  
GAP TURLARI VA SINTAKTIK USLUBIYAT**

*Annotatsiya. Maqolada darak, so'roq, buyruq gaplardan nutq maqsadiga ko'ra foydalanish imkoniyatlari bayon etiladi. Gap turlari nutq uslublarida neytral bo'lgani kabi, funksional xarakterga ham ega bo'lishi ko'rsatiladi. Darak, so'roq, buyruq va undov gaplar turli nutq uslublarida qo'llanishiga qarab o'ziga xosliklarga ega bo'lishi bayon etiladi, ulardan to'g'ri foydalanish esa nutqiy ta'sirchanlikni yuzaga keltirish misollar asosida ko'rsatiladi. Tasdiq va inkon gaplarning o'zbek tilida uslubiy xususiyatlar kasb etishi yoritiladi.*



**Аннотация.** В статье описаны возможности употребления изъявительных, вопросительных и побудительных предложений в зависимости от цели речи. Показано, что типы речи бывают нейтральными, а также функциональными в стилях речи. Изложено, что вопросительные, повелительные и восклицательные предложения имеют свои особенности в зависимости от их употребления в разных стилях речи, и на примерах показано правильное их использование для создания речевой результативности. Проанализированы случаи приобретения стилистических особенностей утвердительных и отрицательных предложений в узбекском языке.

**Annotation.** The article describes the possibilities of using interrogative, command sentences for the purpose of speech. Speech types are shown to be as functional as they are neutral in speech patterns. Descriptions, interrogations, commands and exhortations are described as having different meanings depending on their use in different speech styles and their correct using is illustrated by examples of speech implications. It is emphasized that affirmative and negative statements have methodological features in the Uzbek language.

**Kalit so‘zlar:** sintaktik uslubiyyat, o‘zbek tili, gap, darak gap, uslubiyyat, modal munosabat, so‘zlovchi, nutq jarayoni, ritorik so‘roq gaplar, buyruq gaplar, nutq uslublari, tasdiq va inkor gaplar.

**Ключевые слова:** синтаксическая стилистика, узбекский язык, предложение, повествовательное предложение, методология, модальные отношения, говорящий, речевой процесс, риторические вопросы, побудительные предложения, стили речи, утвердительные и отрицательные предложения.

**Key words:** syntactic stylistics, Uzbek language, speech, adverb, style, modal relation, speaker, speech process, rhetorical interrogative sentences, command sentences, speech styles, affirmative and negative sentences.

Til, ayni vaqtning o‘zida, inson madaniyatining buyuk mahsuli va rivojlanish imkoniyati hamdir. Chunki insonning inson sifatida shakllanishida uning tafakkuri va nutqi asosiy ahamiyatga ega.<sup>1</sup> Darak gaplar nutqning barcha uslublarida eng ko‘p qo‘llanadigan turidir. Ular, asosan, tinglovchiga voqea-hodisa, predmet, belgi, miqdor va boshqalarni tasdiqlab yoki inkor qilib, axborot berish vazifasini bajaradi. Shuning bilan birga, gumon, sevinch, g‘urur, achinish, orzu-istak, kesatiq, piching kabi modal munosabatlarni ifodalashga ham xizmat qiladi. Bu ma’nolar kesim formasi bilan bog‘liq. Ot kesimli darak gaplar kesimlik ko‘rsatkichi bo‘lma-ganda tasviriy xarakterda bo‘ladi. Kesimlik ko‘rsatkichi bo‘lganda, kesimdan anglashilgan leksik ma’no tasdiqlanadi, zamoni ko‘rsatiladi yoki modal munosabat ifodalanadi. **Ukam – o‘qituvchi. Ukam o‘qituvchi bo‘ldi//bo‘ladi//bo‘lmoqchi//bo‘lar.**

Gumon, piching, quvonch kabi ma’no ifodalash uchun darak gaplar maxsus ohang bilan aytilishi talab etiladi. Bu nutq vaqti va nutq jarayoniga bog‘liq.

So‘zlovchi nutq jarayonida tinglovchi axborotida bayon qilingan voqelikka munosabatini ifoda etganda, uning gapini maxsus so‘roq yoki undov bilan aynan takrorlaydi. Bunday holatda nutq dialogik formada bo‘ladi. **Hozir keldim. –Hozir keldim? Hozir keldim!** Kinoya, piching ma’nolari uchun ohangdan tashqari unli cho‘zib talaffuz qilinadi: ...**hozir keldiim? Men bajardiim?** Bunday chog‘da kinoya-piching yoki inkor ma’nosini aniqlashtirish, kuchaytirish maqsadida o‘sha gapdan so‘ng **a** yuklamasi keltiriladi. **Men ham boraman? Aaa?**

So‘roq gaplar, asosan, dialogik nutqda ishlatilib, aksariyat hollarda, javob talab qiladi. Affiks yuklamalar orqali hosil qilingan so‘roq gaplar qaror-farmonlar, hukmlar doirasidagi rasmiy ish va ilmiy uslublarda kam uchraydi.

So‘roq olmoshlari va so‘roq so‘zlar orqali hosil qilingan so‘roq gaplardan esa badiiy, publitsistik va so‘zlashuv nutqi uslublarida ko‘proq foydalaniladi.

Turlicha modal munosabat ifodalovchi so‘roq gap formalari so‘zlashuv va badiiy nutq uslubiga xos bo‘lib, rasmiy va ilmiy uslublarda deyarli ishlatilmaydi yoki kam ishlatiladi. Ohang bilan hosil qilingan so‘roq gap formalari so‘zlashuv uslubigagina xos bo‘lib, sof so‘roqni emas, alohida ottenkali so‘roq tushunchasini ifodalaydi.

So‘roq turlicha his-tuyg‘ular bilan qo‘shilgan holda bo‘lishi mumkin. Bunday tushunchani ifodalovchi gaplar ritorik so‘roq gaplar deb yuritiladi. Ritorik so‘roq gaplar ba’zan sof so‘roq gap formasi bilan, ko‘pincha, maxsus leksik-morfologik va fonetik vositalar orqali hosil qilinadi:

<sup>1</sup> A.E.Mamatov. Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi. Toshkent, “Bayoz”, 2014, 5-bet.

a) **nahot/nahotki/yuklamasi** orqali hosil qilingan ritorik so‘roq gaplar taajjub ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lib, ba‘zan javob talab qiladi, ba‘zan esa yo‘q. Javob talab qilmaganda, xitob, javob talab qilganda, so‘roq ohangi ustun bo‘ladi;

b) **-mi, -a yuklamalari** orqali hosil qilingan so‘roq gap formalari ichki va tashqi nutq jarayonida ishlatilib, odatda, javob talab qilmaydi. So‘zlovchi obyektiv olam voqea-hodisalaridan hayratga tushganda, bu voqea-hodisa kutilmaganda ro‘y berganda, so‘roq gap formasi bilan o‘ziga-o‘zi savol beradi. Bu savolning zamiridan tasdiq javob anglashilib turadi. Gap xitob ohangi bilan aytilganda, g‘azab-nafrat, afsus-inkor kabi ottenkalar, so‘roq ohangi bilan aytilganda esa o‘ylanish, hayratlanish ottenkalarini ifoda etiladi. Masalan: **Vo ajab! Bu kim-bir parishtami yo...** (hayratlanish). **Kim biladi, ko‘rishamizmi, yo‘q-mi?** (o‘ylanish). **Menga shunday javob qilasanmi?** (g‘azab, inkor etish). **Voy, nima qilib qo‘ydim? Qanday kunlarga qoldik, a?! Endi nima qilsam ekan-a? o‘qisammikan?!** (afsuslanish, o‘ylanish) kabi.

Dialogik nutqda so‘zlovchining fikri tinglovchi tomonidan tasdiq yoki aksincha, inkor etilsa yoki shubha ostida bo‘lsa, nutq ishtirokchilaridan biri inkorni inkor etsa, **-mini** ikki marta takrorlaydi: ...**umuman, aytish kerakmi-yo‘qmi?** (aytish kerak deyilmoqchi).

**Aytasanmi-yo‘qmi?!** tipidagi tuzilmalarda tasdiq ijrosiga da‘vat, tazyiq ma‘nosi anglashiladi.

Boradimi, bormaydimi o‘zi biladi tipidagi gaplarda ritorik so‘roq ottenkasi yo‘q. Bunday gaplarda **-mi** birinchi tuzilmani ikkinchisi bilan munosabatga kirishtiradi va ayni chog‘da keyingi konstruksiyadan anglashilgan voqelikka birinchi tuzilmadagi har ikki harakatning teng aloqadorligini yoki aloqasi yo‘qligini ko‘rsatadi.

Ritorik so‘roq gaplar uyushib kelishi mumkin. Bunday chog‘da voqelik inkor etiladi va ma‘no kuchaytiriladi. Ayrim hollarda so‘roq-inkor maxsus vositalar orqali yana inkor etilishi mumkin: **U seni so‘kdimi-yo‘q, urdimi-yo‘q. – U seni so‘kdimi, urdimi-yo‘q!**

So‘zlovchi tinglovchining diqqatini jalb etish maqsadida nutqi ichiga so‘roq gapni kiritadi va javobni kutmay, gapini davom ettira beradi. Bu bilan so‘roq gapda ifodalangan voqea-hodisa keyin ro‘y beradigan voqea-hodisa uchun ahamiyatli ekani uqdiriladi: **Ana u: Ko‘ryapsizmi? Ana, biz tomonga uchib kelyapti!**

Nutq emotsionalligini oshirish, ayrim voqea-hodisaning ahamiyatini bo‘rttirishda «aytmaysizmi» so‘zi bilan hosil qilingan so‘roq gaplardan foydalaniladi: **Ayrim kishilarning ruhlanib ketganini aytmaysizmi?! Ko‘rmaysizmi?! Qaramaysizmi?!**

Qiyoslang: Ayrim kishilar ruhlanib ketdi. –Ayrim kishilarning ruhlanib ketganini aytmaysizmi?! Ko‘rinadiki, bunday tuzilmalarda, avvalo, so‘zlovchining his-tuyg‘usi ifoda etilgan bo‘ladi.

So‘zlovchi ayrim hollarda o‘z nutqiga ifoda – ta‘sirchanlik berish, ma‘lum bir harakat ijrosining ahamiyatini bo‘rttirish, ta‘kidlash maqsadida darak gap tarkibiga shu darak gap kesimining oldidan **-mi** yuklamali so‘roq formasini kiritadi: ...**va‘dani bajardikmi – bajardik!**

Qiyoslang: ...**dushmani mudofaa marrasiga quvdingiz-quvdingizmi-quvdingiz.**

**Buyruq gaplar** sof buyruqdan tashqari, turlicha modal munosabatlarni ham ifoda etadi va ayrim nutq uslublari xosligi bilan o‘zaro farqlanadi. Masalan, iltimos, maslahat, xohish-istak kabi ma‘nolarni ifodalovchi buyruq gaplar so‘zlashuv va badiiy nutq uslubiga, kesimi majhul formada bo‘lgan buyruq gaplar esa rasmiy ish uslubiga xosdir. Badiiy adabiyotda nutq ta‘sirchanligini oshirish uchun so‘zlovchining o‘ziga savol berishi usulidan ham foydalaniladi.<sup>1</sup> Sof buyruq gaplar ilmiy uslubda, badiiy-tasviriy va axborot xarakteridagi matnlarda deyarli ishlatilmaydi. Bundan tashqari, kesimi buyruqni yumshatuvchi **-gin, -sin, -in** affikslerini olgan formalar ham faqat so‘zlashuv uslubiga va dialogik nutqqa xos bo‘lib, boshqa uslublarda kam uchraydi.

Buyruq gaplarni hosil qiluvchi vositalar fe‘lning buyruq formalidir. Tinch ohang bilan aytilgan har qanday buyruq gap neytral buyruqni ifoda etadi. Biroq buyruq turlicha modal munosabatlarni ifoda etishi mumkin. Bunday modal munosabatlar fonetik, leksik, grammatik vositalar orqali reallashadi:

a) **ohang orqali: Qani, ketdik, yur** (jonli nutq);

b) **-gin, -in, (-yin)** va **-sa orqali: ...tez-tez xat yozib turgin. ...tur, manavini o‘qigin, kimdan kelibdi – ...dam olish xonalarini qulflab qo‘ygin. Men ham o‘qiyin** (og‘z. so‘zl.);

d) **-chi orqali, Qani, aytib ko‘r-chi! Aytmay ko‘r-chi! Qani yozma-chi!** (og‘z. so‘zl.);

e) **takror orqali: ...ket-ket! Ko‘zimga ko‘rinma! Jo‘na, Jo‘na!** Darrov yetib bor (og‘z. so‘zl.);

<sup>1</sup> A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov. O‘zbek tili stilistikasi. T., “O‘qituvchi”, 1980, 155-bet.

f) **fe'l+bo'p orqali: ...aytmay bo'psan!** (Bunda darak gap formasi buyruq gap ma'nosini beradi). Qiyoslang: – Aytmayman – **Aytmay bo'psan.** Demak, aytasan (ayt degan ma'no);

g) **nisbat almashuvi bilan: ...olishib o'tirilsin.** Bu yerda **chekilmasin!** Qattiq gaplar **aytilmasin** (og'z. so'zl.);

h) **shaxs almashuvi bilan: Qani, kirsinlar (Gaz.) O'zlari biror gap aytsinlar** (Og'z. so'zl.).

Dialogik nutq jarayonida suhbatdoshlardan biri biror harakat ijrosini tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Bu harakatning inkori yoki tasdiqi ikkinchisi uchun zarur va shart bo'lib, birinchi gapiruvchini shu harakatni bajarishga majbur qiladi, unga tazyiq o'tkazadi. Bunday chog'da tazyiq o'tkazuvchi «fe'l+bo'psan» (bo'psiz-bo'pti) fe'l birligining tasdiq yoki inkor shaklidan foydalanadi: **Aytmayman, –Aytmay bo'psan! Aytaman. –Aytib bo'psan** kabi. So'zlovchi mansab yoki boshqa jihatdan ustun (quyi) turgan shaxsga nisbatan yo hurmat yoki hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishi mumkin. Bunday munosabat ba'zan majhul nisbat formasini qo'llash orqali ifoda etilishi mumkin: **Qani, dasturxonga qarab o'tirilsin** (hurmat). **Yuqoriga, ko'rpachaga o'tilsin** (mulozamat). **Bu yerda chekilmasin** (andisha va hurmatsizlik). Bu ma'nolar shaxs almashuvi orqali ham ifoda etilishi mumkin: **...to'rga o'tsinlar** (piching, kesatq). **Qani domla, yuqoriga o'tsinlar** (kamtarlik, hurmat).

**Undov gaplar** so'zlashuv, badiiy va publitsistik, shuningdek, inkor, chaqiriq kabilar rasmiy nutq uslubiga xos bo'lib, ilmiy uslubda, qaror-farmon, idoraviy aloqalar bilan bog'liq bo'lgan ish qog'ozlari, huquqiy hujjat va boshqalarda deyarli ishlatilmaydi.

Obyektiv olam va uning voqea-hodisalari tufayli yuzaga kelgan hayajon, his-tuyg'u va emotsional munosabatlarni ifodalovchi sof undov gaplar, asosan, monologik nutqqa xos. Yozuvchi va shoirlarning asari ham (avtor nutqi) monologik nutq tushunchasiga kiradi.

Chaqiriq, da'vat, buyruq-xitob kabi ma'nolarni ifodalovchi undov gaplar, asosan, rasmiy ish va so'zlashuv uslubiga xosdir.

Undov gaplar turlicha vositalar orqali hosil qilinadi va bu vositalar biror ottenka uchun xizmat qiladi:

1) **undov so'zlar bilan: Eh,** vaqt o'tib ketdi! (jonli nutq);

2) **kesimni birinchi o'ringa ko'chirish bilan: Yashasin tinchlik! Yo'qolsin** dushmanlik! (gaz.);

3) **ohang bilan: Shahrimiz juda ko'rkam! Baxtli yoshligimiz uchun Yaratgandan minnatdormiz!** (gaz.).

Undov gaplarda so'zlovchi o'ta kuchli his-hayajonini ifodalashi mumkin. Bunda turli vositalar undov gaplarni hosil qilmaydi, balki shakllangan undov gaplarning ma'nosini kuchaytiradi:

a) **-ki, -a, -da orqali.** Bunda **-ki** cho'zibroq talaffuz etiladi, **-a/ -ya/ -da** urg'u bilan aytiladi va bu bilan ma'no kuchaytiriladi: Naqadar go'zal**-a** bu gul! Bu gullar qanday yaxshi edi**-ya!** Shahar juda o'zgarib ketibdi**-da!** Hayot shuncha totli**ki,** aslo, to'ymaysan! (jonli nutq);

b) **qanday, qanaqa, shunday, shunchalik, naqadar, biram kabi so'zlar orqali.** Bunda tasvirlanayotgan, his-tuyg'u uyg'otgan voqelikning roli beqiyosligi ifoda etiladi: uning o'g'li **shunday//shunchalik//biram** sho'x bo'libdiki... **Qanday//qanaqa** yigitlar edi ular!

d) **takror orqali: Yo'qol! Yo'qol! To'xta, to'xta,** nima deyapsan o'zing! (jonli nutq).

Demak, darak, so'roq, buyruq va undov gaplar turli nutq uslublarida qo'llanishiga qarab o'ziga xosliklarga ega bo'ladi, ulardan to'g'ri foydalanish esa nutqiy ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi.

Tasdiq va inkon gaplar uslubiy vazifa bajaradi.<sup>1</sup> Tasdiq va inkor gaplar ham nutqda muhim rol o'ynaydi. Lekin inkor gaplar ifodalanishiga ko'ra, ma'lum uslubda oz yoki ko'p ishlatilishi bilan farq qiladi. Masalan, **-ma** vositasida hosil qilingan inkor gaplar barcha nutq uslubida erkin ishlatilsa, **emas, yo'q** va **na** so'zlari bilan hosil qilingan inkor gaplar ilmiy, rasmiy ish uslublarida nisbatan kam ishlatiladi. Shuningdek, ohang orqali va tasdiq forma bilan hosil qilinadigan inkor gaplar so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, boshqa uslublarda, deyarli, ishlatilmaydi. Bunday qo'llanishlar nutq uslublari talablari va mohiyati bilan qat'iy bog'langan:

a) inkor fe'l formalariga **-ma** qo'shish bilan hosil qilinadi. Inkor gaplar orqali yuzaga kelmagan harakat tasdiqlanadi va shu haqda axborot beriladi. Bu inkor o'tgan yoki hozirgi zamonda ro'y beradi: **ekish boshlandi – ekish boshlanmadi;**

b) inkor forma barcha mustaqil so'z turkumlariga **emas** to'liqsiz fe'lini qo'shish bilan hosil qilinadi. Bunda **emas** o'zidan oldingi so'zning leksik ma'nosini inkor etadi. **emas** fe'l formasiga qo'shilganda, **-ma** orqali hosil qilingan fe'lga sinonim bo'la oladi. **Fe'l+ma** formasi oddiy axborotni, **fe'l+emas for-**

<sup>1</sup> A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamov. O'zbek tili stilistikasi. T., "O'qituvchi", 1980, 161-bet.

**masi** biroz keskinlik ottenkasini ifoda etadi: **kelmadi-kelgan emas**. Musobaqada **g'olib chiqmadik – g'olib chiqqan emasmiz**. **Shikoyat qilmadik – shikoyat qilgan emasmiz**. **O'qiyapmiz – o'qiyotgan emasmiz**;

d) «yo'q» so'zi fe'l formolari bilan birga kelganda, harakatni inkor etadi, ko'pincha, **-ma** bilan hosil qilingan fe'lga sinonim bo'ladi. «Yo'q» bilan ifodalangan inkor biroz aniqlik-jiddiylik ottenkasini beradi. «Yo'q» mustaqil kesim bo'lib kelganda, muayyan nutq paytida muayyan makonda predmetning mavjud emasligini ko'rsatadi: Men, aslo, **o'lganim yo'q**, yov qo'lga **taslim** ham **bo'lganim yo'q** (H.O.). Bu kitobni **o'qiganim yo'q**;

e) **-na** orqali hosil qilingan inkor alohida ta'kid ottenkasini ifodalaydi – inkor gapga «**ham**» yuklamasi ma'nosini qo'shadi: **na** o'qidi, **na** yozdi. – O'qimadi **ham**, yozmadi **ham**. **Na** ishlaydi, **na** o'qiydi kabi.

Tasdiq forma orqali ifodalanadigan inkor turli qo'shimcha ottenkalar ifodasi uchun xizmat qiladi:

a) so'zlovchi ma'lum bir ish-harakat ijrosida tinglovchi (o'zga)ning imkoniyati cheklanmaganligi, ilojsizligi, majburligi kabi ma'nolarni ifodalamoqchi bo'lganda, fe'l+«bo'psan» formasidan foydalanadi: **aytib bo'psan** (aytmaysan).

Bunda fe'l inkor formada bo'lsa, tasdiqni ifodalaydi: **aytmay bo'psan** (aytasan);

b) so'zlovchi ma'lum bir harakatning yuzaga chiqishida afsus, kesatq, xohish kabi ma'nolarni qo'shib ifodalamoqchi bo'lganda, **koshki, qani endi** so'z-iboralarini qo'llaydi, gap tarkibidagi fe'l/kesim/shart mayli formasida bo'ladi. **Koshki** o'qisa. **Qani endi** muqum tomoshabinlarning bo'lsa (jonli nutq). Fe'l bo'lishsiz formada bo'lganda. Kesatq-piching ma'nosida tasdiqni, xohish ma'nosida inkorni ifodalaydi: Qiyoslang: **Koshki, kelmasa** (keladi) – **Koshki, kelmasa** (kelmasa yaxshi bo'lardi);

d) so'zlovchi tinglovchining fikrini rad etish, shu fikrga nisbatan norozilik, piching, qat'iylik ma'nolarini ifodalamoqchi bo'lganda, **-ya** yuklamasi va takrordan foydalanadi. **Keladi-ya! Keladi-ya-keladi. Aytadi-ya-aytadi**;

f) so'zlovchi tinglovchi tomonidan aytilgan ma'lum harakat (tasdiq)ning ro'y berishiga ishonmaganida, kesatganda, jiddiy niqtov bilan gapirganda, tasdiq formadagi gap orqali berilgan fikrni maxsus ohang bilan inkor etadi. Bunda, ko'pincha, gap oldidan «ha» so'zini keltiradi:

**U keladi. – Ha, keladi!** (Bunda «ha» biroz cho'ziladi va kichik pauza bilan ajratiladi, gap oxiridagi so'z urg'usi kuchaytiriladi).

Inkor forma orqali tasdiq ifodalash ham turlicha qo'shimcha ottenkalar bilan bog'liq:

a) so'zlovchi ma'lum ish-harakatni ro'yobga chiqarishda qat'iylik, albatalik ottenkasini ifodalamoqchi bo'lganda, fe'lning har ikki komponentini inkor formada qo'llaydi: Sen borgan joylarda men ham **bormay qo'ymayman** (qo'shiq). **Aytmay qo'yma. O'qimay turma, yozmay qo'yma** (og'z.so'zl.) kabi;

b) so'zlovchi ma'lum predmetning muayyan payt va o'rinda qisman mavjudligini, shuningdek, kamtarlik, tortinish, hurmat kabi ottenkalarni ifodalamoqchi bo'lganda, «yo'q+emas» formasidan foydalanadi. Bunda, avval, o'sha predmetning aksini ko'rsatuvchi predmetning bor-yo'qligi eslatilgan bo'ladi. Masalan: Daf'atan qaraganda, romandagi real hayot va fantastik olam tasvirida nomuvofiqlik bordek... tuyuladi. Lekin, unda ichki bog'lanish **yo'q emas** (gaz.). Kamchiliklar ham **yo'q emas** (gaz.). Bunday xususiyat «oz», «ko'p+emas» formasida ham mavjud...kilolab oladiganlar ham **oz emas** (gaz.).

Ma'lumki, har bir inson o'zi yashab turgan muhitida, jamiyatda ulg'ayadi, tarbiya topadi.<sup>1</sup> Shunga ko'ra, o'z nutqida gaplardan ifoda maqsadiga muvofiq'ini tanlaydi.

O'zbek tili taraqqiyotining hozirgi bosqichida nutqning vazifaviy uslublari takomilida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlaridan hamda tasdiq va inkor gaplardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida gap qurilishi boy uslubiy imkoniyatlarni namoyon etadi. So'zlovchi nutqi oldiga qo'yilgan maqsadiga ko'ra, nutq uslublarning har birida gap turlaridan o'rinli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Z.T.Xolmonova. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, TDPU, 2010, 15-bet.

Abdulkakimova Munira O'rol qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti 2-kurs magistranti),  
Uralova Oysuluv Payon qizi (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori)  
FRANS KAFKA VA NAZAR ESHONQUL HIKOYALARI QIYOSIY TADQIQI

**Annotatsiya.** Ko'rinadiki, har bir tarixiy-ijtimoiy davrda dunyoqarashlar o'zgargani singari insonga bo'lgan qarashlar va uning talqin xususiyatlari ham yangilanadi. Ushbu maqolada yangilanishlar asosida ijodkorlar talqinida ko'rilishi lozim bo'lgan Frans Kafka va Nazar Eshonqul hikoyalarida qiyosiy tadqiq asosida ko'rib chiqamiz.

**Аннотация.** Создается впечатление, что в каждый историко-социальный период, так же, как меняются мировоззрения, обновляются и взгляды на человека и особенности его интерпретации. В данной статье на основе сравнительного исследования рассказов Франца Кафки и Назара Эшанкуля рассматривается обновленная интерпретация человека писателями.

**Annotation.** It seems that in every historical and social period, just as worldviews change, views on man and his interpretation features are also renewed. In this article, on the basis of a comparative study of the stories of Franz Kafka and Nazar Eshanqul, which should be seen in the interpretation of the creators based on the updates.

**Kalit so'zlar:** hikoyalar, ijodkorlar, jamiyat hayoti, tamoyil, iste'dodli adib, hikoya qahramoni, badiiy tasvir, klassitsizm an'analari.

**Ключевые слова:** рассказы, творцы, общественная жизнь, принцип, талантливый писатель, герой рассказа, художественный образ, традиции классицизма.

**Key words:** stories, creators, social life, principle, talented writer, story hero, artistic image, traditions of classicism.

**Kirish.** Mustaqillik yillari yurtimiz hayotida jiddiy o'zgarishlar vujudga keldi. Bu o'zgarishlar adabiyotga ham sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki istiqloq mafkurasi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib bormoqda. O'zligini teran anglab yetgan har qanday jamiyatning turmush tarzida ma'naviyat markaziy o'rin etishi muqarrar.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, bugungi adabiyotimizda o'ziga xos tamoyilga aylanib borayotgan yangicha asarlarga xos talqinlar kitobxonlar va ilmiy jamoatchilikda jiddiy qiziqish uyg'otmoqda. Natijada o'zbek adabiyotshunosligida so'nggi yillar hikoyachiligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko'lami, miqyosi, ilmiy-nazariy saviyasi bu borada yaxshi samaralarga erishayotganligidan dalolat beradi.<sup>1</sup>

**Adabiyotlar tahlili.** «Ta'kidlash kerakki, hikoyabop fikrni hikoyada, qissabop fikrni qissada, romanbop fikrni romanda ifodalash kerak. Agar yozuvchi hikoyaga loyiq fikrni romanda ifodalashga intilsa yoki aksincha, romanbop fikrni qissada, qissabop fikrni hikoyada berishga urinsa, san'at asarida mazmun va shakl mutanosibliki buziladi-u albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi».

Mazkur jarayon iste'dodli adiblar Frans Kafka va Nazar Eshonqul hikoyalarida o'ziga xos tarzda aks etadi. Darhaqiqat bugungi kundagi o'zbek nasrida iste'dodli yozuvchimiz N.Eshonqulning o'rni beqiyosdir. Adib keyingi yillar mobaynida yozgan talay hikoyalarida, asosan, o'sha ma'nisiz o'tgan umr manzaralarini ko'rsatib berdi.<sup>2</sup>

Hikoyada asrga tengdosh, umri asrning alg'ov-dalg'ovlari, bema'ni maqsadlar yo'lida o'tgan, adashgan odamning fojiali qismati ifoda etilgan edi. Hikoya qahramoni mo'yqalami tomonidan yaratilgan o'z ijodiy, ijtimoiy faoliyati ibtidosi va intihosiga daxldor ikki badiiy tasvir-qorong'u to'qayzordan «Nurafshon maskan» sari maymun yetaklab chiqayotgan navqiron shijoatkor yigit va qari maymun etagida to'qayzor tomon qaytayotgan munkillagan chol surati ayni o'sha ramziy hayot yo'lining chuqurlashtirilgan tahlili bu asar bizda zamondosh-asrdosh obrazini yaratish yo'lidagi yetmish yillik tajribaning muayyan intihosi va bu boradagi yangi bosqichning boshlanishi bo'ldi.

Nazar Eshonqul mana shu davr ichida o'zining ko'pgina hikoya va qissalarini yaratdi. «Xaroba shahar suvrati», «Muolaja», «Tobut», «Istilo», «Bevaqt chalingan bong», «O'lik mavsum», «Og'riq laz-zati», «Shamolni tutib bo'lmaydi», «Tun panjaralari», «Qora kitob», «Urush odamlari» kabi bir qator hikoya va qissalari o'zligimizni anglashda bizga yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. T., "Ma'naviyat", 2000, 12-bet,

<sup>2</sup> I.Alimuhamedov. Antik adabiyot tarixi. T., "O'qituvchi", 1975.

<sup>3</sup> Muhabbat Sharafiddinova. XX asr adabiyotida absurd hayot ruhi. «Jahon adabiyoti» jumali, 1-son.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shu ma'noda, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti, xususan, hikoyachiligida badiiy ifoda va obrazlar talqini masalasini davr, jamiyat va ijtimoiy voqelik bilan vobasta o'rganishni hayotning o'zi taqozo etayotir. Ushbu masalalarning o'zbek nasrida in'ikos etganligi qay darajada o'rganilgan bo'lmasin, aynan, Nazar Eshonqul ijodi misolida chuqur o'rganilgan emas. Maqolamizda biz mazkur muammoni N.Eshonqul hikoyalari misolida tadqiq etib, bashariy qadriyatlar bosh mezon hisoblangan nazariy-estetik qarashlar asosida ilmiy umumlashtirishga harakat qilamiz. Shuningdek, o'zbek nasrining taraqqiyot xususiyatlarida Frans Kafka va Nazar Eshonqul hikoyalarining asosiy tadqiqi haqida so'z yuritiladi.

**Tahlil va natijalar.** Nazar Eshonqul ijodi Frans Kafka ijodi bilan chambarchas bog'liqligi tufayli, biz bu adiblarimizning hikolarini qiyosiy tadqiq qilamiz.

Modernizm adabiyot, san'at va estetika nazariyasida burjua jamiyatining ilg'or tafakkur rivoji bilan chambarchas bog'langan bo'lib, klassitsizm an'analarini tubdan o'zgartirish orqali namoyon bo'lgan edi. Shu tariqa u burjua ijtimoiy munosabatlarini o'zida aks ettirgani holda klassik an'analarga molik bo'lgan realizm san'ati aqidalariga ro'yi-rost qarshi chiqdi.<sup>1</sup>

Bizningcha, Kafka ijodida "Evrilish" asari adib ijodida muhim o'rin tutuvchi mashhur asarlaridan biri. Asarning ilk jumlasidayoq Kafka qiyofasi namoyon bo'ladi: "Beorom uyqudan so'ng tong saharda uyg'ongan Gregor Zamza o'zi yotgan to'shagida bahaybat hasharotga aylanganini sezdi". Bu jumla kitobxonni dovdiratib qo'yishi turgan gap. Kafka yaratgan fantastik obraz o'zining namoyishkorona va chalg'ituvchi "xunuk nafasot"i, badburush qiyofali bahaybat hasharot haqidagi taassurot evaziga kishining g'ashini keltiradi. Shunday evrilish yuz berdi deb tasavvur qilaylik-da, hikoyani o'qiyotganimizda buning "haqiqat"ligiga ko'nikaylik. O'shandagina Kafka tasvirlagani real mazmundagi hikoyaga aylanadi. Adib Gregor Zamza evrilishidan so'ng u va uning oilasida boshlangan tirikchilik tashvishlari, kelishmovchilik, noqulay holatlar haqida hikoya qilishga o'tadi. Bu esa mutlaqo odatdan tashqari, muallifning jarangsiz, nursiz tili ishtirokida davom etib, kitobxon novelladagi voqeaning haqiqatga to'g'ri kelmasligi, aql bovar qilmasligini asta-sekin unuta boradi. Bu holatning Kafka hayotidagi ba'zi bir jihatlariga o'xshash tuyulishini tanqidchi darhol anglab oladi. Sababi, Kafka ta'bi nozik, ortiqcha gapni ko'tarolmaydigan, salga xafa bo'laveradigan odam bo'lgan, shuning uchun ham tashqi olam, aniqroq qilib aytganda, eshikdan boshlanadigan dunyo unga doimo begona va qo'rqinchli bo'lib ko'ringan. Ko'chaga chiqish, hatto biron-bir ehtiyoj yuzasidan eshikdan tashqariga chiqish zarurati uni jilovlab bo'lmas darajada vahimaga solgan.<sup>2</sup>

Biroq, nur bor joyda soya bor deganlaridek, har bir erkak hayotini ayol zoti nurga to'ldiradi. Kafka hayotida ham ayollar bo'lgan. Qizig'i shundaki, ayollar uning ma'yusona chehrasiga, mungli ovozigga, o'limga mahkum his-tuyg'ulariga maftun bo'lishgan.<sup>3</sup> Nazar Eshonqul hikoyalarida esa o'z aksini topayotgan obrazlar va ularning badiiy talqinining g'oyaviy-estetik mohiyatini o'rganish va uning ilmiy-nazariy asoslarini yoritishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydik:<sup>4</sup>

- Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy tasvirning o'ziga xosligini tahlil qilish;
- qahramonlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini yoritish barobarida, badiiy idrok va ifoda yo'sinlarini tahlil qilish, nazariy jihatdan umumlashtirish;
- shaxs va umuminsoniylik masalasini o'rganish;
- qahramonlarni badiiy-estetik tadqiq etishdagi majoziy tasvir usullarini kuzatish;
- hikoyachilikdagi badiiy tajribalarda konfliktlarning botiniy shakllarini, yetakchi belgilarini aniq-lash;
- adib hikoyalarida qahramonlarni badiiy aks ettirish bilan bog'liq yuzaga kelgan tamoyillarning o'ziga xos jihatlar haqida ilmiy xulosalar chiqarish;

Yuqoridagi kuzatishlardan ma'lum bo'layaptiki, bugungi o'zbek nasri kechagi kun asorati ostida bir joyda deysinib turgani yo'q. U jamiki kam-ko'stlariga qaramay, harakatda ham mamnun, ham shakl tomonidan, yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Hozirning o'zida bu harakatning xayrli samaralarini ko'rib turibmiz. Bu hol nasrimizning ertasiga umid uyg'otadi.

Hozirgi kunda adabiy jarayonda noan'anaviy yo'nalishdagi hikoya va romanlar shakllanib kelmoqda. Xurshid Do'stmuhammad, Omon Muxtor kabi yozuvchilarimizning hikoya va romanlari o'z tasvir

<sup>1</sup> Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild, T., "Fan", 1979, 162-bet.

<sup>2</sup> Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar. T., "Fan", 1978; I jild. 7. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild, T., "Fan", 1979.

<sup>3</sup> Vladimirova N.V. O'zbek hikoyachiligida g'oya va obraz. T., "Fan", 1969.

<sup>4</sup> Nasrimiz ufqlari. T., Adabiyot va san'at nashriyoti. 1974.

yo'li, sujeti, mazmun mohiyati bilan ajralib turadi. Ularning asarlarini o'qiganimizda voqealar oddiydek tuyuladi, lekin o'quvchini, kitobxonni o'yga toldiradi. Undagi har bir obraz, narsa buyumlar ramz asosida beriladi. Qahramonlar oddiy qahramonlardan farqli o'laroq, g'ayrioddiylik bilan ajralib turadi.

Nazar Eshonqul asarlaridagi voqealar xayolda kechsada, voqelikdan ayri yaratilmagan. Yozuvchining Tun panjaralari», «Qora kitob», «Urush odamlari qissalari, Maymun yetaklagan odam, Shamolni turib bo'lmaydi», «Og'riq lazzati», «O'lik mavsumi, «Istilo, «Xayol tuzog'i», «Ochiimagan eshik», «Afr», Qaytish kabi hikoyalari bugungi nasrda o'z mavqeyiga ega. Uning till beshafqat, deb yozadi yozuvchimiz Xurshid Do'stmuhammad ba'zan me'daga tegadigan darajada qora bo'yoqlarga boy, lekin ifodalar beshafqatligi, qora rangning quyuqligi zamtida bedod tuzumi tufayli barbod bo'lgan umrga, umrlarga nisbatan rahm-shafqat to'la edi.

Nazar Eshonqul dastlabki hikoyalari bilan adabiyotga havaskor-boshlovchi qalamkash emas, professional malakadagi adabiyot sifatida kirib keldi. U oz, lekin soz yozdi. Adabiyot jamoatchilik, keng muxlislar ammasi uning hikoyalari kutadigan bo'lishdi. Kutsayam intiqlik bilan kutadigan bo'ldi.

Nazar Eshonqulning barcha asarlarida qo'lansa is qahramonning ruhly holatini bo'ntirib tasvirlashda o'ziga xos vositaga aylanadi. Ehtimol, ayrim o'rinlarda yozuvchi qora bo'yoqni haddan tashqat quyuqlashtirib yuborgandek tuyula, lekin bu tasodifiy emas.

**Xulosalar.** Ushbu yozuvchilar ijodini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, G'arb adabiyoti yoki o'zbek adabiyotining eng go'zal asarlari bilan yaqindan tanish ekanligi, Nazar Eshonqul va Frans Kafka kabi iste'dod sohiblarini e'zozlash bilan bir qatorda, ular yaratgan hikoyalardan ma'lum ma'noda ma'naviy quvvat olishini ham angladik. Shu jihatdan ular yaratgan asarlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik bordek tuyuladi. Chunki hech bir xalq adabiyoti alohida rivojlana olmasligi hech kimga sir emas. Ikkinchi tomondan, esa hikoya janrini an'anaviy shakldan noan'anaviy shakl tomon burilishida ham Nazar Eshonqulning o'rnini qayd etish lozim, deb o'ylayman. Yillar davomida an'anaviy shaklda yaratilib kelinayotgan hikoya janrini jahon adabiyoti bilan bellasha olish darajasiga olib chiqdi desak ham, mubolag'a bo'lmaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, falsafiy idrokka asoslangan psixologizm, ya'ni, ruhiyat tahlili va talqini mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida yanada shakllanishi, shubhasiz.

**Sharipova Maxbuba Baxshilloevna (BuxDU o'qituvchisi)**

#### **“ALPOMISH” DOSTONI BADIY STRUKTURASIDA MAROSIMLARNING O'RNI**

**Annotatsiya.** Maqolada marosim va doston munosabatlari, marosimlarning badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo'lgan bu lirik merosni badiiy til nuqtayi nazaridan o'rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf-odatlarini, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** В статье рассматриваются отношения между церемониями и эпосами, естественное выражение церемоний, изучение этого лирического наследия с точки зрения его художественного, эстетического и поэтического мышления, художественности языка.

**Annotation.** In the article, the speech goes on about the fact that the relationship between ceremonies and epics, the artistic expression of ceremonies, the study of this lyrical heritage in terms of its artistic, aesthetic and poetic thinking in terms of artistic language are serving as a certain source in deeply mastering national culture, life-style, customs, traditions and values of our people..

**Kalit so'zlar:** xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

**Ключевые слова:** народный эпос, фольклор, фольклороведение, любовь, национальная культура, церемония, обычаи и обряды, церемония и эпос.

**Key words:** the folk poet, folklore, folklore studying, love, national culture, ceremony, relations ceremony and poem.

Milliy xalq dostonlari asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotir. Shuning uchun ular ma'naviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanalanadi. Marosimlarga aloqador urf-odat va an'analarning bevosita dostonlarda berilishi masalasiga, doston kuylashning marosimlar bilan bog'liq tarzda davom etayotgani masalasiga ahamiyat berish kerak.

Binobarin, “Alpomish” dostonida ham buning yorqin guvohini ko'rish mumkin. Rus folklorshunosi B.Putilov “Epos va marosim” masalasiga alohida e'tibor qaratar ekan, ularning bir-biriga bog'liqligini

alohida ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Darhaqiqat, dostonlar sujetiga nazar tashlansa, B.Putilovning haq ekani ko'rinadi. Bunda, garchi olim o'z ilmiy xulosasini, asosan, rus eposchiligi nuqtayi nazaridan ilgari surgan bo'lsa-da, uning bu fikrini, hatto o'zbek dostonchiligi ham tasdiqlay oladi. Chunki qaysi bir o'zbek xalq dostoniga e'tibor qaratmaylik, unda, albatta, biror-bir oilaviy-maishiy marosim badiiy ifoda etilganligining, ya'ni tasvirlanganligining guvohi bo'lish mumkin.

Ana shundan kelib chiqqan holda, folklorshunos J.Eshonqulov: "Shuni aytib o'tish kerakki, eposning, ayniqsa, qahramonlik dostonlarining bevosita marosim bilan bog'liq jihatlari hali yetarli darajada o'rganilgan emas. Arxaik eposda, jumladan, "Alpomish" dostonida ham marosimlarning muhim o'rin tutishi va ustuvor qonuniyat kasb etishi kuzatiladi. Biroq qahramonlik eposi birgina marosimlardan kelib chiqadi yoki tug'iladi, deb xulosalash masalani o'ta jo'n hal etish bo'ladi", deb yozadi.<sup>2</sup>

"Alpomish" dostonida turli-tuman o'zbek urf-odatlar va oilaviy-maishiy marosimlari muayyan badiiy ifoda etilgan. Ushbu doston o'zbek qahramonlik eposining eng yorqin va badiiy barkamol namunasi bo'lib, uning sujeti, asosan, o'zbek xalq marosimlari tasviridan tashkil topganligi bilan alohida e'tiborni tortadi. Jumladan, unda oilada farzand tug'ilishi, tug'ruq jarayonida momo-doyalarning xizmat ko'rsatishi, farzandga ism qo'yish, uni etakka solmoq, beshik to'yi qilish, to'ydan oldin maslahat uyushtirish, to'yga jarchi qo'yish, sunnat to'yi, to'yda to'ychiga to'yona berish, o'g'il-qiz chaqaloqlarni bir-biriga atashirib beshikkertdi qilish yoki ro'mol o'rab atashirish, bolaga ikkinchi ism berish, sovchilik, sovchilarni kutish, ularga rozilik berish alomatlar, nikoh to'yidan oldin qallicqa bormoq (qallic o'yini qilish), kuyovga shart qo'yish, kuyov uchun to'qqiz tovoq, kuyov tovoq qilish, kelin-kuyovni olovdan aylantirish, qiz yashirdi, chimildiq ildi, kuyov navkar va vakil otalarni belgilash, it irillar, oyna ko'rsatar, soch siypatar, qo'l ushlatar, kuyov uluq, yuz ochdi, baqan (tayoq) tashlamoq, solim bermoq, o'lan aytmoq, to'yga dasturxon qilib borish kabi turli-tuman o'zbek urf-odatlar va oilaviy-maishiy marosimlari muayyan badiiy ifoda etilgan. Asosiysi shundaki, ana shularning tasviri doston sujetidagi voqealarni, uning motivlar strukturasi vujudga keltirgan.

"Alpomish" dostoni sujetida aks ettirilgan qaysidir bir marosim hozirgacha maishiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lsa, qaysinisidir hozirgi maishiy turmushda mavjud emas, ya'ni o'tkazilmaydi. Shu jihatdan, dostonda o'z ifodasini topgan marosimlarni uch tipga bo'lib o'rganish mumkin:

1) hozirgi maishiy turmushda o'z o'rniga to'la ega bo'lgan marosimlar (bunga sovchi qo'yimoq, oyna ko'rsatar, to'qqiz tovoq, olovdan aylanmoq va h.k.);

2) hozirgi maishiy turmushda o'z o'rnini qisman saqlab qolgan marosimlar (bunga beshikkertdi qilmoq, it irillatar, kampir o'ldi, kuyovga kelin tomonidan shartlar qo'yilishi kabi);

3) hozirgi maishiy turmushda o'z o'rnini batamom yo'qotgan marosimlar (bunga farzand tug'ilishidan oldin otaning ovga jo'nab ketishi, tushni ta'birlash marosimi va h.k.).

"Alpomish" dostonida badiiy aks ettirilgan marosim va urf-odatlar bunday tasniflab o'rganish hozirgi kunda xalqimiz hayotida saqlanib qolgan va qolmagan marosimlar haqida bilib olish imkonini yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dostonda marosimlar tasviri berilar ekan, hech qachon ular to'liq va batafsil bayon etilmaydi. Faqat unga xos eng muhim qirralar u yoki bu obraz faoliyatiga bog'lab, u yoki bu badiiy detal vositasida ifoda etiladi, xolos.

Ma'lumki, insonning tug'ilishi, uning hayotidagi har bir muhim yutug'i, kamoloti, hatto vafoti oilada maxsus marosimlar orqali qayd etiladi. Bunday oilaviy-maishiy an'analar barcha xalqlar orasida keng tarqalgan. Inson hayotiga aloqadorligiga ko'ra, oilaviy-maishiy marosimlar to'y va motam marosim guruhlariga bo'linadi.

To'y va motam marosimlari ma'lum bir oila hayotiga, insonlarning maishiy turmush sharoitiga daxldorligi tufayli oilaviy-maishiy marosimlar sirasiga kiritiladi. Ular rang-barang bo'lib, kattagina qismi to'y marosimlarini tashkil qiladi. To'y tadbirlari inson hayotidagi quvonchli daqiqalarni qayd etsa, aza marosimlari esa, aksincha, inson turmushidagi ayriliq, yo'qotish, g'amli lahzalarni qayd etadi.

"Alpomish" dostonida bu oilaviy-maishiy marosimlarning har ikkalasi bilan bog'liq urf-odatlar talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, dostonning ikkinchi qismida amakisi Boysarini qalmoqshoh Toychaxonning zulmidan qutqarishga otlangan Alpomishning alamzada Surxayil qo'llagan hiyla tufayli bandilikka giriftor bo'lishi sabab yurtiga yetti yil qaytolmagani odamlar o'rtasida u haqda "o'ldi" degan ovoza yoyilishiga olib keladi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Alpomishning yaqinlari uning qaytmaganini ko'rib, vafot

<sup>1</sup> Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. Т., "Шарқ", 1998, 76-бет.

<sup>2</sup> Путилов Б. Эпос и обряд. Фольклор и этнография. Л., "Наука", 1974, с. 93 – 94.



etganiga ishonib, aza ochadilar. Dostonda bu voqelik shunday ifoda etiladi: “O‘lib ketgan deb yurtga necha martadan ovoza bo‘lib ketdi. Endi o‘lganini aniq bilib, umidini uzib, ko‘nglini buzib, qora kiyib, bu-larning qarindoshlari aza tutib qoldi. Aza bilan bir yil o‘tdi, bir yildan keyin yil oshi berib, azasini ochdi”<sup>1</sup>.

“Alpomish” dostonida uchraydigan bu qaydlar aza tutish behad qadimiy an‘analardan bo‘lganligini dalillay oladi. Marhum xotirasiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan motam marosimi “aza tutdi” va “azadan chiqdi” yoki “aza ochdi” singari ikki katta uzvdan tashkil topadi.

O‘zbek folklorshunosligida xalqning o‘lim hodisasi bilan bog‘liq qarashlari, motam, ziyorat jara-yonlariga munosabat masalalarini maxsus tadqiq qilgan olim D.O‘rayeva odamlarning qabriston yonidan o‘tib ketayotganda yoki qabristonga kirib borishda yotganlar ruhiga salom berish odati borligini bildirib o‘tadi. Shu odat va tushunchaga muvofiq, “Alpomish” dostoni qahramoni ham qabristonda yotib qolish uchun tashrif buyurar ekan, shunday deydi:

*Assalom alaykum, ahli quburlar,  
Bir kecha mazgil-joy sizdan so‘rayman,  
Osmonda arvohtar, ko‘kda malaklar,  
Bir kecha mazgil-joy sizdan so‘rayman.  
Ruxsat bersang, mozarotlar, qo‘naman,  
So‘rasang, gapingga javob beraman.*

Xalq orasida qabristonlar – chiltonlarning manzilgoh joyi degan qarash bor. Shuning uchun doston-da ham Alpomish o‘zi tashrif buyurgan mozarotda Shohimardon pirini chiltonlar bilan suhbatda uchra-tadi. Shohimardon piri uni ko‘rib, chiltonlarga: “Bul bachcha bizning muridimiz bo‘ladi, bugun sizlarga mehmon bo‘ldi. Ko‘nglini aza qilmay, vaqtini xushlab jo‘natingizlar”, deydi. Chiltonlar esa: “Bu bachcha Shohimardon pirning muridi ekan. Bizning suhbatimizda bo‘ldi, vaqtini xushlay olmadik”, deb ilmi ka-romat bilan Chilbir cho‘lidan, Oyna ko‘lidan, baxmal o‘tovda uxlab yotgan yeridan Barchinning ruhini ta-nidan olib keldi. Alpomish uxlab yotgan yeridan buning ham ruhini tanidan oldi. Alpomishning ruhi bilan Barchinning ruhini o‘rtada bir yerga qo‘ydi. Bir kosa sharobi antahur chiltonlardan Barchinning ruhiga tegdi. Barchinning ruhi sharobni qo‘liga olib, Alpomishni ko‘rib, bir o‘zi ichgani ko‘ngli bo‘lmay, Alpo-mishning ruhiga oling-oling qilibdi... Barchinning ruhidan bu so‘zni eshitib, Alpomishning ruhi ham so‘z aytibdi. Fayzi sahar vaqtiga yetganda chiltonlar Barchinning ruhini yana taniga kirgizib qaytibdi. Alpo-mishning ruhini ham taniga kirgizibdi. Erta-mertan tong o‘tsa, Alpomishning oqshomgi ko‘rgan odamlari yo‘q, bir o‘zi qolibdi ekan”. Alpomish va Barchin bo‘lgan voqealarni tush anglab, vaqti xush bo‘libdi.

Alpomish yana bir oqshom yo‘lida uchragan cho‘ponlarning qo‘shxonasida tunab qoladi. Cho‘pon-lar: “Shu yo‘lovchi bizga aylana berdi, Qo‘ng‘irot dan kelayotgan Alpomish yeznamiz chiqib qolsa ham, ajab emas” deb, Boychiborning jilovidan ushlab, yeznasini mehmon qila boshlab, ostiga shim bilan keba-nakni to‘shab, ziyofatga qo‘yni so‘yishadi. Charchab kelgansizdir, yezna, suyanib o‘ltiring, deb xurjuni bilan unni olib kelib qo‘yishadi. Yeznasini mehmon qilib siylaydi. Boychiborni oq shuvoqqa boylaydi.

“Alpomish” dostonida odob-axloq bilan bog‘liq urf-odatlar talqini ham uchraydi. Masalan, Bar-chinning Alpomishga yuborgan choparlaridan biri Qo‘ng‘irot eliga, Boybo‘rining davlatxonasiga yetgach, Boybo‘rini ko‘rib, unga ot ustidan turib salom beradi. Bularni ko‘rib, Boybo‘ri: “Bular qanday odam ekan, beadablik bilan salom berdi menga”, deya jahli chiqadi. Choparlar Boybo‘riga Barchinning arizasi-ni chiqarib beradi. Boybo‘ri arizani o‘qib ko‘rib, kelganlar Barchinning chopari ekanini biladi. Shundan so‘ng jahlini unutib, o‘n mahramiga buyurib, choparlarni bitta-bitta otdan ko‘tarib tushirtiradi. Ularga xiz-mat ko‘rsatishni buyuradi, biroq arizani hech kimga bildirmay, olib borib, sandiqqa solib qo‘yadi. Cho-parlar yigirma kun yotib, xo‘p izzat-ikrom ko‘rishadi. Ularni rosa ziyofat qiladilar. Arizaning javobi bo‘-lavermagach, choparlar jo‘naymizga tushib qolishadi. Boybo‘ri choparlarga zar-zabar in‘om berib, “xush kelibsan” qilib, yo‘lga solib, choparga shunday gap tayin qiladi: “Bundan ketgancha, Qo‘ng‘irot muzofotidan o‘tgancha, Qalmoq viloyatiga yetgancha, yo bir o‘tinchiga, yo bir podachiga, yo cho‘lda yurgan cho‘ponga, «biz Barchinning kelgan chopari bo‘lar edik», deb og‘zingdan chiqarsang, odam buyuraman, keyningdan quvib yetadi, boshingga qamchi chotadi, badaningni bo‘zday qilib yirtadi, olib kelib dorga tortadi, og‘zingdan chiqarmay ketgin”, deb tayinlaydi.

Bu ma‘lumotlar nafaqat doston sujeti voqealaridan, balki xalqimiz orasida mehmonlarni kutib olib jo‘natish bilan bog‘liq odat va an‘analimizdan ham darak beradi. Zero, o‘zbeklar qadimdan mehmon-

<sup>1</sup> Алдомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Х.Зарифов ва Т.Мирзаев, Т., “Шарқ”, 1998, 231-бет.

do'st xalq hisoblanadi. Xalqimizda mehmon to o'zi ketishni xohlamagunicha, u ketkazib yuborilmaydi. Ikkinchidan, kelgan mehmon turli taomlar bilan rosa ziyofat qilinadi. Uchinchidan, doimo mehmon xizmatiga shay turiladi. To'rtinchidan, mehmon ketar chog'ida unga turli sovg'alar, in'om-ehsonlar beriladi. Dostonda bu an'anaviy o'ziga xos urf-odatimiz Boybo'ri huzuriga tashrif buyurgan choparlar obrazi misolida talqin etilgan.

Dostonda mehmondorchilik bilan bir qatorda, mehmonga borishning tartib-qoidalari ham badiiy yoritilgan. O'zbekona urf-odatlar bo'yicha, mehmonga shomdan keyin borish taqiqlanadi. Chunki xalqona tasavvur-tushunchalar bo'yicha, shomdan keyin ins-u jinslar uyg'onadi. Shuning uchun kech tashrif buyurgan kishidan xalq shubhalanadi. Ya'ni, kech kelgan mehmon inson ko'rinishidagi yovuz ruh ham bo'lishi mumkin, deb qaraladi. Ana shu kabi tasavvur-tushunchalarga ishora dostonning quyidagi epizodida o'z ifodasini topgan: "Alpomish aytdi: –Kun bevaqt bo'ldi, bemahal borgan mehmonning izzati, obro'yi bo'lmaydi, bugun men sizlarning qushxonalarida yotayin, ertan turib ketayin".

Xullas, "Alpomish" dostonida Qo'ng'iroq qabilasida patriarxal-urug'chilik alomatlari yemirila boshlagan davrlarda oila uchun kurashning jamiyat ijtimoiy munosabatlarida muhim rol o'ynaganligi real ko'rsatilib berilgan. Bunda oilaning barpo bo'lishida, uning mustahkamligini ta'minlashda oilaviy-maishiy marosimlarning o'rni va ahamiyati Alpomish va Barchin obrazlari munosabati misolida badiiy yoritilgan. Jamiyat va inson hayoti, maishiy turmush masalalarini o'ziga xos reallikda badiiy aks ettirgan "Alpomish" dostonida qahramonlik va go'zallik haqidagi xalq ideallari kuylangan. Doston maishiy hayot detallariga juda boy. U real hayot epizodlarini keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

"Alpomish" dostoni xalqimizning maishiy hayotini juda keng ko'lamda badiiy ifoda etganligi jihatidan alohida e'tiborni tortadi. Unda oilaviy-maishiy marosimlarning turli ko'rinishlari tasvirlangani kuzatiladi.

**Азизхонова Сарвиноз Ёкубжон қизи (ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги  
давлат Адабиёт музейи таянч докторанти; sarvinoz@gmail.com)  
АЗИМИЙ ШЕЪРЛАРИНИНГ БАДИИЯТИ ВА АНЪАНАВИЙЛИК**

**Аннотация.** Ушбу мақолада ўзбек мумтоз адабиёти тарихида камол топган, Аҳмад Яссавий издошларидан бири бўлган, XVIII аср охири – XIX аср биринчи ярмида яшаб ижод қилган ҳамда ҳикмат ёзиши анъанасининг XIX асрдаги энг ёрқин сиймоси бўлган шайх ва шоир Азимхўжа Эшоннинг "Мурод ул-ошиқин" номли девонида келтирилган шеърларининг бадийяти ва анъанавийлиги, гоёвий тематикаси, шоирнинг шеърлари зикр мажлисларида махсус мақом ва оҳанг билан ўқилганлиги ҳамда ҳикматларининг шаклий тузилиши ҳақида маълумотлар берилди.

**Аннотация.** В данной статье поэма "Мурод ул-ашикин" шейха и поэта Азимходжи Эшана, вызревшего в истории узбекской классической литературы, была одним из последователей Ахмада Яссави, жила и творила в конце XVIII в. первой половине 19 века, и был ярчайшей фигурой традиции написания мудрости в 19 веке, приводятся сведения о художественности и традиционности цитируемых стихотворений, их идейной тематике, о том, что стихи поэта читаются с особым статусом и тоном на собраниях зикра, а также формальная структура его мудрости.

**Annotation.** In this article, the poem "Murod ul-ashiqin" by the sheikh and poet Azimkhodja Eshan, who matured in the history of Uzbek classical literature, was one of the followers of Akhmad Yassavi, lived and created at the end of the 18<sup>th</sup> century – the first half of the 19<sup>th</sup> century, and was the brightest figure of the tradition of writing wisdom in the 19<sup>th</sup> century. Information is given about the artistry and traditionality of the cited poems, their ideological themes, the fact that the poet's poems are recited with a special status and tone in zikr meetings, and the formal structure of his wisdom.

**Kalit so'zlar:** diniy-ijtimoiy, tavhid, islom etiqodi, tasavvufiy-urfoniy, tariqat ta'limi, an'anaviylik, zikri jahriy, zikri ho'fiy, khilvat.

**Ключевые слова:** религиозно-социальное, монотеизм, исламская вера, мистико-мистическое, религиозное образование, традиционализм, зикри джахри, зикри хафи, хилват.

**Key words:** religious-social, monotheism, Islamic belief, mystical, religious education, traditionalism, zikri jahri, zikri khafi, khilvat.

Азимхожа эшон шоир сифатида мумтоз адабиётимиз тадрижий такомлида муҳим ўрин тутган ва гўзал бадийят намуналарига эга Кўкон адабий муҳитида камолга етди. Мумтоз адабий анъаналар асосида қалам тебратган ижодкорнинг асарларида ифода этилган мавзулар кўлами ҳақида тўхталсак. Шоир асарларининг гоёвий тематикасини мазмунан шундай таснифлаш мумкин:

I. Диний-ижтимоий: 1) ислом эътиқоди ёки тавҳид; 2) инсонпарварлик ва ахлоқий; 3) илм-маърифат.

II. Тасаввуфий-ирфоний: 1) тариқат таълими; 2) ишқий.

Азимий шеърятининг, илк (I) ғоявий жиҳати ҳақида сўз кетар экан, аввало, ўша даврдаги Қўқон хонлигидаги ижтимоий-сиёсий вазиятни кўзда тутиш керак.

Бу даврда хонликда бир қатор сокин сиёсий вазият ҳукмрон сурган бўлса-да, 1840-йилларга келиб, кетма-кет урушлар халқ бошига кўплаб талафотларни солди. Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, ўша вақтларда Қўқон хонлигида тасаввуфий маслак даъвосидаги кўплаб сохта эшон ва хўжалар пайдо бўлади. “Мунтаҳоб ул-таворих” асарида Қўқон хони Олимхоннинг (1799 – 1810) ана шундай тоифалар қураши акс этган бир неча лавҳалар берилади.

Азимхожа эшон ҳам ўз асарларида сохта пирлар ва солиқларга қарши фикрлар билдирди. Ҳақиқий тасаввуф ва ирфонни васф этди. Шеърларига нур ва зиё бағишлаган ижодкорлардан бири XVIII аср охири – XIX аср биринчи ярмида Қўқонда яшаб ижод қилган Азимийдир.

Азимхожа эшон (Азимий) тасаввуф илмининг билимдони, сўфий шоир сифатида шариат аҳкомларининг асосини ташкил этувчи иймон, салот, ҳаж амалларини бажариш вожиблиги билан бирга ман қилинган ишлардан тийилиб, яхши хулқ эгаси бўлиш, суннатларни бажариш, тариқатда эса тавба қилиш, пир йўл-йўриқлари асосида иш кўриш, Қуръондан суралар ёки дуолар ўқиб, ибодат қилиш, тажрид ва тафрида (хилват ва ёлғизланиш) бўлиш, маърифатда эса дарвешликни қабул қилиш, ҳалолликни тилаш, маърифатли бўлиш, шариат ва тариқат мақомларига риоя қилиш, яхшини ёмондан фарқлай олиш, беозор бўлиб фақирлик йўлини тутиш, сир-асрорни пинҳон тутиш, шариат, тариқат, маърифат, ҳақиқат мақомларини билиш ва уларга амал қилиб, Аллоҳнинг ваҳдатига интилиш каби ғояларни куйлаган.

Унинг “Мурод ул-ошиқин” девонидан ҳикмат, мусаддас, ғазал, наът, муножот, мухаммас, мураббаъ, мустаҳзодлари ўрин олган. Уларнинг орасида иқтибос санъати билан бирга тасаввуфий-ирфоний оҳангда ёзилган ғазал ва бошқа лирик жанрларга оид асарлар катта қисмини ташкил қилади. “Маълумки, ҳар қандай ижод намунасининг у ёки бу даражада ғояси ва бадийи шукуҳи мавжуд. Бадийи асар ғояси муаллифнинг замонасига, ижтимоий мавқеига, борлиқ ҳақидаги тушунчасига, албатта, истеъдодига боғлиқ ҳолда намоён бўлади. Ўқувчи асар билан танишиш давомида муаллиф маҳорати акс этган бадииятдан завқланса, олға сурилаётган фикр ёлкинидан руҳ олади”.<sup>1</sup>

Мумтоз адабиётдаги анъанавийлик ўзигача ижод қилган салафлар ижодидан илҳомланиш ва улардан ўрганиш билан амалга ошиб боради. Азимийнинг ҳам кўплаб мумтоз адиблар, жумладан, Алишер Навоий ижодий меросидан баҳраманд бўлгани, шубҳасиз. Бироқ, унинг асарлари орасида Навоий шеърларига татаббуъ ёки ғазалларига таҳмис боғлаганини кўрмаймиз. Фақат 189 рақамли кўлёзмада бир қайд борки, бу эса Азимий Алишер Навоий адабий меросидан ҳам ўқиб-ўрганганига далолат қилади, дейиш мумкин.

Кўлёзманинг 127<sup>a</sup>варағида эса Алишер Навоийнинг “Илк девони”даги ушбу мисралари ўрин олган:

الهي پادشاه كرددكارا (Илоҳо подшоҳо кирдикоро);

رحيما مغفرت ليك بريارا (Раҳимо мағфиратлик биру-боро);

سنكا اجوق نجان اشكارا (Санга очуқ ниҳон ошкоро).

Албатта, бу биргина деталь бўлиб, бу каби ўринлар орқали мазкур мавзуга яна-да яқинроқ кириш имкони яратилади.

Шоир шеърятдаги анъанавийлик том маънода унинг ҳикматларида яққолроқ кўринади. Маълумки, ўзбек мумтоз адабиётида Хожа Аҳмад Яссавий ва Қул Убайдий (Убайдуллоҳон) ҳикматлари машҳурдир. Азимхожа ҳикматлари эса XIX асрда ўзига хос тарзда давом эттирилганини исбот этади. Албатта, бу жиҳат Азимийни ҳам яссавий сулукидаги шоирлар қаторидан санашга асос бўлмайди. Фақат, Аҳмад Яссавийнинг бадийи адабиётдаги ҳикматлар анаънасини давом эттирган ва ўз ҳикматларини ярата олган муаллиф сифатида баҳолаш ўринлидир.

Шу ўринда айрим фактик маълумотларга тўхталиб ўтсак. Азимхожа ҳикматлари биз томонимиздан ўрганиб чиқилган девонининг 12 нусхасидан ҳам ўрин олган. Ҳикматлар ўз даврида кенг китобхонларни ўзига жалб этган. Чунки ҳикматлар алоҳида ҳолда бошқа кўлёзма баёзлар таркибида ҳам учрайди. Кейинчалик, матбаа (тошбосма) ҳолида ҳам бир неча бора чоп этилади.

<sup>1</sup> О.Жўрабоев. Ҳазиний тўра. Монография, Тошкент, “Фан”, 2007, 45-бет.

1993 йил С.Рафиддинов томонидан нашрга тайёрланган “Ҳикмати Азимхожа эшон” тўплами ҳам 1894 йил Тошкентда Каменский литографиясида босилгандир. Ушбу тўпланда жами 24 ҳикмат ўрин олган. Девон қўлёзмаларидан эса шоирнинг 29 ҳикмати борлиги маълум. Шунингдек, ушбу тўпландаги айрим ҳикматлар тўлиқ эмас ва айримлари ғазал бўлгани ҳолда чала ҳолда “ҳикмат”, дея янглиш берилган. Мисол учун, “боқ” рафли ғазал, аслида, девон қўлёзмасида беш байт бўлиб, мазкур тўпланда тўрт байт ҳолида “ҳикмат”, дея хато босилган.

Азимхожа эшон ҳикматларини С.Рафиддинов нашридан ташқари алоҳида равишда ҳикматнавислик анъаналари доирасида И.Маннопов ҳам тадқиқ қилган.<sup>1</sup> У Хожа Аҳмад Яссавийдан сўнг ўзбек тасаввуф адабиёти тарихидаги муҳим ҳодисалардан бири бўлган ҳикматнавислик мактаби шаклланиши, унда Сулаймон Боқирғонийдан бошлаб XIX асрга қадар ўнлаб шоирлар томонидан бу анъана давом эттирилгани маълум. Жумладан, Сулаймон Ҳаким ота, Ҳубби, Қул Шариф, Шамсиддин, Худойод, Иқоний, Убайдий, Байзо, Бехбудий, Фақирий, Қосимий, Шухудий, Ғизолий, Ғарибий (Қул Ғариб), Мискиний, Тож Аҳмад, Темурий, Гадоий, Нодирий, Шайдоий, Жалолиддин, Азимхожа эшон каби турли даврларда яшаб ижод қилган шоирларни санаш мумкин дейди.<sup>2</sup> Олим “Девони ҳикмат” услубида ҳикмат ёзганлардан аввалгиси Сулаймон Боқирғоний бўлса, бу анъананинг сўнгги йирик вакилларида бири Қўқонда вафот этган Азимхожа эшондир. Азимхожа ҳикмат ёзиш анъанасининг XIX асрдаги энг ёрқин сиймосидир, дея таъкидлайди.<sup>3</sup>

“XIX асрда яшаб ижод этган мутасаввиф шоир Азимхожа эшоннинг “буюк пир” асарларидан фойда олиши, ўзи ҳам яссавиёна шеърлар ёзиши, ҳатто девон тузиши Яссавий таъсири нуқтаи назаридан катта воқеадир”.<sup>4</sup> Лекин Азимийнинг бутун девонини “Яссавий таъсири”да тузилганини даъво қилиш тўғри эмас.

Ҳикмат сўзининг маъноси баъзи Қуръон тафсирида собитқадамлик, яъни сўз ва амалнинг бирлиги сифатида талқин қилинади. “У ўзи истаганга ҳикмат (фойдали билим) беради”<sup>5</sup> оятининг тафсирида кенгрок ифодаланади.

Ҳикматнавис шоирлар яссавиёна услуб ва руҳда ёзилган шеърларини анъанага мувофиқ иш тутиб, “ҳикмат” деб номлайдилар. Ўзларининг шеърлари ҳикмат эканини эътироф этадилар. Масалан, шоир ўзининг айрим шеърларини ҳеч иккиланмай ҳикмат эканини таъкидлайди:

*Мискин Азим ҳикмат айтди, мунглуб бўлуб,  
Каъба, Равза фироқида қонга тўлуб...*

Азимхожа эшон ҳикматнавис шоир сифатида тасаввуф ва тариқат масаласига доир фикрларни изчил давом эттирганини кўриш мумкин:

*Барча ишни комил тутуб шариятга,  
Бошдин кечиб, қадам қўюб тариқатга,  
Жону дилин муштоқ этиб маърифатга,  
Ҳақиқатни асрорига жўён бўлуб.*

Шунингдек, Азимий ўзининг кўп ҳикматларида ишқ сўзига муқобил “ҳубб”ни қўллаган:

*Сухбат ичра тушоли, майдек қайнаб тошоли,  
Хубб ўтига пишоли, хуш айтолук “Аллоҳ Ҳув”*

Ишқ ўтида ёниб, пишиб, Аллоҳ зикрини айтиш кераклиги ҳақидаги фикрда кўриниб турганидек, “ҳубб” сўзи қўлланган.

Зикр ва зокирлик “Девони ҳикмат”даги бош мавзулардан биридир. Шунингдек, тасаввуф таълимоти пайдо бўлгандан бери мутасаввифлар зикр мавзусига катта аҳамият бериб келганлар. Чунки зикр солиқ кўнглидаги чиркинликлардан покланишдаги муҳим воситалардан биридир.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> И.Маннопов. Ҳикматнавислик анъанаси. Монография, Тошкент, “Qaqnus media”, 2019.

<sup>2</sup> И.Маннопов. Ҳикматнавислик анъанаси, Монография, “Qaqnus media”, Тошкент, 2019, 4-бет.

<sup>3</sup> И.Маннопов. Ўша китоб.

<sup>4</sup> И.Маннопов. Ҳикматнавислик анъанаси: монография. “Qaqnus media” нашриёти, Тошкент, 2019, 47-бет.

<sup>5</sup> Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Т., 1992, Бақара сураси, 269-оят.

<sup>6</sup> Тасаввуфий луғатларда изоҳланишича, зикр – Аллоҳни ёд этиш, эслаш, хотирлаш, уни унутмаслик ва ғафлатда қолмаслик; “Аллоҳ” ёки “Ла илаҳа иллаллоҳ” калимасини қайтариш, биринчиси “лафзаи жалол”, иккинчиси “калимаи тавҳид” зикри ёки “тавҳид зикри” дейилади; тариқат аҳли муайян сўз ва ибораларни маълум пайтлар аниқ ҳисобга қўра, адабга мувофиқ ҳар кун бир тартибда такрорласа, бунга вирд ва ҳизб ҳам дейилади. Тариқат аҳли ва сўфий жамоаларнинг бир ерга тўпланиб, шайх ёки халифанинг назоратида (Аллоҳ-Аллоҳ, Ҳу-Ҳу, Ҳай-Ҳай каби) маълум сўз ва ибораларни оҳанг ва ҳаракат муштараклигида айтилиши; бу

Зикр икки хилдир. Биринчиси – зикри жаҳрий, иккинчиси – зикри хофий. Жаҳрий зикрда солиқ баланд овоз билан ёки бошқалар ҳам эшитадиган даражада зикр қилади. Бундай зикрга асосланган тариқатлар жаҳрий тариқатлар деб аталади. Яссавийликда зикрнинг ўрни ва аҳамияти каттадир. Шунинг учун бўлса керак, Яссавий издошлари ижодида зикр энг кўп ишлатилган мавзулардан биридир.

Шу ўринда ҳикматларнинг ва бу тахлит шеърларнинг зикр мажлисларида маълум оҳангга солиб ўқилганини алоҳида таъкидлаш зарур.

Бунга доир устоз О.Жўрабоевнинг қизиқ кузатиши бор.

“Азимий девони қўлёмалари билан танишар эканмиз, матн билан боғлиқ қизиқ бир ҳолатга дуч келамиз. Азимхожанинг кўпгина шеърлари, тўғрироғи, айрим мисралари ёнига “2”, “3” ёки иккита “2”, ёхуд, иккита “2” ва битта “3” рақамлари қўйилган.<sup>1</sup> Масалан:

*Эй дарду гаминг косили дунё била уқбо,*

*На манда гами оламу, на манзилу маъво, – 2*

*Улгунча хазми жонимадур ушбу таманно,*

*Васлинг тиланиб етгусидур мумини расво, –2*

*Ё Раб, хама жисмига бериб дийдаи бийно,*

*Дил турига қилсанг на булур лауза тажалло...,<sup>4</sup>*

дея бошланувчи мусаддас бандининг иккинчи ва бешинчи мисралари олдига кўрсатилганидек “2” рақами қўйилган. Бизнингча, бу мазкур мисраларни ўқиётганда икки марта қайтариш кераклигига ишорадир.

Бундай қайтариқ ишораси мавжуд Азимий шеърлари эса ўндан зиёд. Мисол учун, девоннинг 189 рақамли қўлёмза нусхасида яна 126, 266, 336, 356, 39а, 58а, 736-746, 80а, 926, 95а, 106а, 110а, 117а варақларида, 2563 рақамли нусхада 14, 23, 54, 66, 77, 81, 84-89, 91, 94, 101-103, 114-118, 121, 123, 125, 127, 130-131, 135, 142, 144-145, 154, 158, 161, 165, 172, 174, 190-191, 205-207, 232, 234-239, 243–245 саҳифаларида, 2694 рақамли нусхада 106,12а-13 а, 21а, 27а, 296,31а, 336-35а, 476, 51а-б, 526, 56а, 63а, 64а, 68а, 736, 75а, 76а, 78а, 796, 83а, 926, 96а, 97а, 986, 996, 101а, 108а, 110а, 1196 варақларда, 6354 рақамли нусхада 956, 100а-б варақлардаги шеърларнинг айрим мисралари олдига (“2”, “3” каби) рақамлар қўйилган.

Бундан маълум бўладики, Азимхожа эшон шеърлари ҳам зикр мажлисларида махсус мақом ва оҳанг билан ўқилган. Айнан қайси шеърларга урғу берилиши, ўқиётганда қай мисрага диққат этилиши, неча марта ўқиш зарурлиги, ҳар қайтарганда эса оҳангни ошириш кераклигини уқдириш ва унда оҳанг услубини сақлаш учун матнларга кўрсаткич рақамлар қўйилган. Албатта, бу каби рақамли ишора ҳамма қўлёмзаларда ҳам айнан бир ерга қўйилган эмас. Лекин, баъзи шеърлардаги ишора бир неча манбада бир хил шеърнинг бир жойига қўйилган. Масалан, “Ё Карим, ё Алим, ё Аллоҳ...” дея бошланувчи муножот-маснавий шундай шеърлардан.<sup>3</sup>

Бу тахлит ишораларга кўра қайтариқлар тасодифий бўлмай, маълум мазмуний оҳанг ва услубий меъёрни сақлаш учун эканлигига асарлар билан чуқурроқ танишиш давомида амин бўлиб борилади. Айтайлик, “Қил” радифли мусаддаснинг<sup>4</sup> ҳар банд охиридаги қайтариладиган сўнгги икки мисраси: ...

*Ўзни ўлгандин илгари ўлган ҳисоб қил,*

*Мункар-Накир саволига фикри жавоб қил –*

1-бандда битта, 2-бандда иккита, 3-бандда учта ва шу тариқа давом этиб, 7-бандда етти марта такрорланиши рақам ила ишора килинган. Ёки:

*Ислоҳимни қилсун десанг, тирим қабул,*

---

турдаги зикрлар тариқат, самоъ, ҳадра деб аталади; зикрда сўзлар ва ҳаракатларнинг муштараклиги талаб қилинади; бу турдаги зикрларда баъзан най ва бошқа мусиқа асбоблари ҳам қўлланилади (масалан, мавлавийлик, хилватийликда). Зикрда зокир зикр қилинаётгандан бошқа барча нарсдан воз кечади, бошқа нарсани хотирлай олмайди, ўзини унутади, ҳатто зикр қилаётганини фарқига ҳам бормайди; шунинг учун зикр ўзидан кетиш, ўзини йўқотиш (ғайбат, важд) ва Ҳақни топиш (вуслат, вужуд) ҳолатидир. Зикр севгининг аломати ва меъморидир; “Инсон кимни ёки нимани яхши кўрса, доимо ўшани ўйлайди”; “дарвешнинг фикри тилига чиқади”. Бу ҳақида қаранг: Uludag S.S. 588.

<sup>1</sup> Девони Азим қўлёмаларининг 189, 2563, 2694 ва 6354 рақамли нусхалари.

<sup>2</sup> Девони Азим. 189 рақамли қўлёмза, 6 варақ. 83

<sup>3</sup> Девони Азим. 2563, 2694 рақамли қўлёмза, 12а-13а варақ.

<sup>4</sup> Девони Азим. 189 рақамли қўлёмза, 74а-75а варақлар. 84

*Қулларига ит бўлгилу, итига қул, – 2*

*Тариқат адабтурур асли усул – 3*

*Ариғ адаб бирла этгин пиринг тавоф...<sup>1</sup>*

бандининг шу тарзда ўқилишидан ҳам айнан нимага эътибор берилиб, диққат марказига олиниши керак бўлган маъно англашилади (Бу ўринда шеърни солиқлар ёки тингловчилар орасида ўқигувчи хонақоҳ ҳофизига ёки зикр мажлисининг бошқарувчиси назарда тутилмода)<sup>2</sup>

Демак, Азимий ҳикматлари нафақат маъно ва мазмун жиҳатидан балки мусиқий оҳанг ва ритм нуқтаи назаридан диққатга сазовордир.

Хулоса қилганда, Азимий ижодий мероси, хусусан, унинг ҳикматлари ўз даври адабиётининг шу жанрдаги бадиият намуналари бўлиб, шоир ижодий оламининг асос жиҳатларини ўзига акс эттириш билан аҳамият касб этади. Унинг ижодий меросида 29 та ҳикмат жанридаги шеър бўлиб, улар Аҳмад Яссавий асос солган ҳикматнавислик анъанаси асосида намоён бўлган. Шу билан бирга, ушбу асарларда муаллифнинг индивидуал услуби ва баёни етакчилиқ қилади.

Азимий шеърлари, хусусан, ҳикматлари мавжуд вазн шакллари – бармоқ ва арузнинг турли кўринишларида акс этган. Уларнинг қофияланиш тарзи ҳам мумтоз қофия ҳамда ҳикматларнинг қофияларига мувофиқ ҳолда юзага келган.

---

<sup>1</sup> Девони Азим. 2694 рақамли қўлёзма, 64а варақ.

<sup>2</sup> О.Жўрабоев. Низомий Хўқандий ва XIX аср ирфоний шеърят матни билан боғлиқ бир жиҳат хусусида. Адабий матн тадқиқи масалалари. Республика ёш олимларининг илмий анжумани материаллари. Тошкент, 2009, 13 – 17-бетлар.

Тоштемиров Дониёр Эшбаевич (педагогика фанлари номзоди, доцент, Гулистон Давлат университети  
Педагогика кафедраси мудири; e-mail: doniyor120373@gmail.com)

### ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА SMART ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

***Аннотация.** Мақолада SMART технологияларининг пайдо бўлиши, жамиятдаги ўрни ва аҳамияти ҳақида маълумотлар ёртилган. Бунда SMART сўзининг пайдо бўлиши, сўзнинг маъноси ва жамият ривожланишида янги технологияларнинг ўрни ҳамда ўқув жараёнидаги аҳамияти баён қилинган. SMART сўзини ташкил этган ҳарфлар мазмуни ва моҳияти илмий манбалардан фойдаланиб матн шаклида ифодаланган.*

***Аннотация.** В статье описывается возникновение, роль и значение SMART технологий в обществе. Рассматривается вопрос о происхождении слова SMART, его значение и роль новых технологий в развитии общества, важность обучения в процессе обучения. Содержание и значение букв, составляющих слово SMART, выражены в тексте с использованием научных источников.*

***Annotation.** The article describes the origin, role and importance of SMART technology in society. It describes the origin of the word SMART, the meaning of the word and the role of new technologies in the development of society and the importance of learning in the learning process. The content and meaning of the letters that make up the word SMART are expressed in text using scientific sources.*

***Калим сўзлар:** технология, ахборот технологиялари, SMART, анъанавий таълим, электрон таълим, ақлли таълим, таълим мазмуни, таълим мақсади, таълим ўлчови.*

***Ключевые слова:** технология, SMART, информационные технологии, традиционное образование, электронное обучение, умное обучение, учебный контент, цель обучения, измерение обучения.*

***Key words:** technology, SMART, information technology, traditional education, e-learning, smart learning, learning content, learning purpose, learning dimension.*

XXI асрнинг бошланиши билан замонавий ахборот коммуникация технологиялари инсон ҳаётининг ажралмас қисмига айланди. Бугунги кунда мобил телефон, компьютер ва интернет замонавий жамиятдаги одамларнинг фаоллигида қўлланиладиган асосий воситалар қаторига киритилди.

Ахборот коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши, анаънавий ва электрон таълимнинг уйғунлашиши натижасида SMART – таълим (SMART – education, ақлли таълим) деб номланган таълим пайдо бўлди.

Ҳозирги вақтда нутқимизда “Ақлли университет”, “Ақлли уй”, “Ақлли шаҳар”, “Ақлли қишлоқ”, “Ақлли ташхис”, “Ақлли таълим”, “Ақлли технология”, “Ақлли иқтисод”, “Ақлли тиббиёт”, “Ақлли автомобиллар”, “Ақлли телевизорлар”, “Ақлли ҳаёт”, “Ақлли дунё” каби кўпгина янги сўзлар учрамоқда.

Кузатиш натижаларига кўра ривожланган хорижий мамлакатларда, хусусан, АҚШда яқин ўн йилликда SMART таълим доирасида таълимда катта инкилоб қилиш мўлжалланмоқда, Европада SMART таълим тамойилида “Ягона Европа университети”ни шакллантириш мўлжалланмоқда. Нидерландияда уй ҳароратини мутаъдиллаштирадиган ўз ўқи атрофида айланадиган “Ақлли уй” қурилди ва ишлатилмоқда. Республикамизда SMART технологиялар асосида Тошкент шаҳрида “City”лар қурилмоқда ва унда қуриладиган уйлар “Ақлли уй” номини олишга йўналтирилмоқда. Шунингдек, Самарқанд шаҳрида “SMART музей” ташкил қилинди ва ишга туширилди.

“Ақлли жамият” атамаси жамиятнинг янги сифати бўлиб, унда одамлар томонидан тайёрланган техник воситалар, хизматлар ва интернетдан биргаликда фойдаланиш, янги самара: ижтимоий, иқтисодий ва яхши ҳаёт учун бошқа имкониятлар оладиган субъектларнинг ўзаро таъсирида сифатли ўзгаришларга олиб келади.

SMART сўзи инглиз тилидаги бир нечта сўзнинг бош ҳарфларидан ҳосил қилинган бўлиб, ўзбек тилида ақлли, ақл-идрокли, технологик каби маъноларни билдиради. Бу қисқартма сўзни, дастлаб, 1954 йили Австриядан чиққан америкалик олим, иқтисодчи, публицист, педагог, XX аср

менежмент назариячиларидан бири Питер Фердинанд Друкер (1909–2005) киритган. Сўнгра 1965 йили Paul J Meyer, кейинчалик эса 1981 йили George T. Doran ўз илмий ишларида қўллаганлар.<sup>1</sup>

SMART менежмент ва лойиҳавий бошқарувда мақсадни аниқлаш ва масалаларни қўйиш учун фойдаланиладиган мнемоник аббревиатурадир. Мнемоника сўзи (қад. грец. μνημονικόν – ёдлаш санъати) мнемотехника шаклда қўлланилиб, зарур ахборотларни ёдлашни енгиллаштирадиган ва алоқа (ассоциация)лар ташкил этиш йўли билан, абстракт объект ва далилларни визуал, аудиаль тушунча ва ифодалашга алмаштириш орқали хотира ҳажмини кўпайтирадиган махсус усул ва йўллар тўпламидир. SMART куйидаги сўзларнинг бош ҳарфларидан ташкил топган:

S – specific – аниқ. Мақсад масимал аниқ бўлиши ва сиз ҳамда атрофдагилар томонидан бир хил тушунилиши лозим. SMART технологияси бўйича у бевосита нима қилиниши керак? Қачон? Қандай микдорий кўрсаткичларда? каби саволларга жавоб беришни кўзда тутди.

M – measurable – ўлчовли. Сиз ва мақсадга эришишни топширган кишилар, мақсад эришилганлиги аниқ бўладиган мезонларни тушунишлари керак. SMART технологияси шахсни, у эришиладиган натижаларда ўзининг фойдасини кўрадиган даражада мотивация қилади.

A – achievable, ambitious, aggressive, attractive – эришиладиган, эҳтиросли, тажовузкор, жозибадор.

Achievable – эришиладиган. Технологиянинг бундай мезони кўпроқ ёлланган (таклиф этилган, жалб этилган мутахассис) ходимларга тўғри келади. Мутахассисларга мақсадни узатади, лекин уларнинг ҳаракатлари эгаллаган лавозимлари доирасида чегараланган.

Ambitious – эҳтиросли. SMART технологиянинг ушбу талқин қилиниши ташкилотнинг ТОП – менежер (иш эгаси, яратувчиси ва мафкуравий раҳбар ёки ёлланган менежери – ёлланган малакали бошқарувчи)лари учундир. Улар аввалгидек эгасининг ихтиёри билан чегараланган бўлсаларда, лекин энди лойиҳа доирасида фикрлайдилар. Шунинг учун уларнинг мақсадлари катта мураккабликка эгадир, лекин ҳар қалай бу мақсад технология доирасида эришиладигандир.

Aggressive – тажовузкор. SMART технологияси бўйича мақсадга эришилганликни баҳолаш мезони тадбиркорлар учундир. Мақсад, атрофдигиларнинг фикри бўйича соғлом маъно доирасидан чиқиб кетганда, эгаси натижага эришиш учун барча ҳаракатларни амалга оширади.

Attractive – жозибадор. Якуний натижа нафақат эгасига, балки мақсадларга эришиш учун топширилган барча шахс (мутахассис ва ходим)ларга ҳам эришиш истикболларини қамраб олиши керак.

SMART технологияси раҳбар ёрдамчилари томонидан ҳам ходимларни бошқариш ва уларга вазифалар қўйилишида ҳам ишлатилади. Шу сабабали улар мақсадга эришишга шахсан қизиқишлари учун, якуний натижани ходимларнинг мотивациясига боғлаш керак.

R – relevant, resources – мувофиқ, ресурс. Relevant – мувофиқ, ушбу вазиятга мос.

SMART–мақсад, ушбу вазиятга мос бўлиши лозим. У сизнинг вазифангиз қўшилиб кетмаслиги ва бошқа мақсадлар ҳамда устуворликларнинг мувозанатига халақит қилмаслиги лозим.<sup>2</sup>

Барча масалалар босқичлар ва кичик масалаларга ажратилиши керак.

Таълимдаги энг катта хато амалга ошириладиган масалани бир йилга қўйиб, ҳар чоракка ва кундалик ҳаракат режаларини тузмасликдир. Агар шундай режалар тузилиб иш олиб борилса, сиз мақсадга эришиш йўлини яхшироқ тушунасиз. Бу қўйилган муаммони ҳал этишда унга қандай йўл билан эришишингизни аниқ тушунишингиз муҳим.

Кўриниб турибдики, SMART технологиясининг ушбу тоифаси (мезони) ҳам шахсни бошқариш билан алоқадор.

Resource – ресурс. SMART технологияси ҳозирда сизда мавжуд бўлган ресурслар (шахс, маблағ, вақт)ни ҳаққоний баҳолашга имконият беради. Таълимдаги хусусий хатоларидан бири – бир кишига турли йўналишдаги масалаларни топшириш, яъни, турли мутахассислар жамоаси ўрнига барча йўналишлардаги ишларни бир киши олиб боришидир.

<sup>1</sup> Абдуқодиров А.А. Smart–технологиясига оид тушунчалар ва унинг асосий тамойиллари. Ахборот таълим маконини такомиллаштиришда ахборот ресурслари ва технологиялари интеграцияси. Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, ТДПУ, 2019, 9 – 13-бетлар.

<sup>2</sup> А.А.Абдуқодиров. SMART технологияси ва ундан таълимда фойдаланиш имкониятлари. «Ўқув жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг долзарб муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Гулистон, ГулДУ, 2019, 4 – 9-бетлар.



T – time bound – вақт бўйича чегаралар. SMART технология ихтиёрий вақт бўйича мақсадни чегаралаш шarti билан қўйилади. Сиз мақсаднинг бажарилиш вақтини аниқ қўйишингиз ёки аниқ бир даврга боғлашингиз мумкин. Шунинг ёдда тутиш лозимки, муддатсиз мақсад бажарилмайди.<sup>1</sup>

SMART мақсадларни қўйишда инсон уларни қимматлилигини, зарурлигини сезиши лозим. Smart мақсадларни тўғри қўйиш технологияси қўйилган мақсадларни долзарблигини, унга эришиш усулларини, эришилган натижаларни ўлчаш мумкинлигини ва аниқлилигини ҳисобга олишни талаб этади. Аҳамиятли мақсадни қўйишда Қўйилган мақсадни ечиш мақсадга эришишда қандай фойда келтиради? деган савол ёрдам беради.<sup>2</sup>

Шундай қилиб, «SMART» – бу атроф-муҳит билан ўзаро таъсирда намоён бўладиган система ёки жараёни хоссасидир ва қобилияти билан система ёки жараёнга, ташқи муҳитдаги ўзгаришга тез жавоб бериш, ўзгариш қилинаётган шартларга мослашиш, мустақил ривожланиш ва ўзини-ўзи назорат қилиш; натижага самарали эришишга имконият беради.

«SMART»нинг таянч хоссаси атроф-муҳит билан ўзаро таъсир этиш ва унга мослашиш қобилиятидир. Унинг ушбу хусусияти мустақил қийматга эга ва шаҳар, университет, таълим, технология, жамият ва кўпгина бошқа категорияларга қўлланиши мумкин.

“Ақлли таълим” – бу янги таълим тизимининг асосини ташкил этадиган шундай таълим парадигмаси бўлиб, у ақлли ахборот технологияларидан фойдаланиш орқали таълим жараёнини мос равишда амалга оширишни кўзда тутди. Ақлий таълим парадигмасини амалга оширилиши ўзгачан ижтимоий, иқтисодий ва технологик муҳит билан эгилувчан ва мосланувчан таъсир ўтказиш учун зарур бўлган билим, кўникма ва компетентликни олиш учун ўқитиш ва таълим жараёнини шакллантиришга қаратилганлигини белгилаш мақсадга мувофиқдир. Ушбу компонентларга ақлли таълим ўлчовлари деб ном берилган. Ақлли таълим ўлчовлари қаторига: технологик, ташкилий, педагогик каби учта ўлчовни киритиш мумкин.

Smart – таълим тизимидан: кундузги таълим тизимида – талабаларнинг мустақил ишларини сифатли ва самарали ташкил этишда; масофали ўқитишда – ишлаётган талабаларга билим беришда; мутахассисларнинг малакаларини оширишда, аҳолининг умумий норасмий таълим тизимида муваффақиятли фойдаланилиши мумкин.

**Xajiyeva Maksuda Sultanovna (Urganch davlat universiteti, falsafa fanlari doktori, professor)**  
**ABU ABDULLOH RUDAKIYNING MA'NAViy MEROSIDA PEDAGOGIK**  
**QARASHLARINING NAMOYON BO'lishi**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Rudakiyning hayoti va ijodi va uning umumbashariy she'riyati insoniyatning barcha avlodlari ehtiyojlariga javob berishi, tojik-fors tilining rivojlanishida Rudakiyning xizmatlari, ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari ochib beriladi.*

***Аннотация.** В данной статье раскрываются жизнь и творчество Рудаки и его универсальная поэзия, отвечающая запросам всех поколений человечества, заслуги Рудаки в развитии таджикско-персидского языка, просветительских идей.*

***Annotation.** In this article, Rudaki's life and work and his universal poetry, which meets the needs of all generations of humanity, Rudaki's services in the development of the Tajik-Persian language, educational ideas are revealed.*

***Kalit so'zlar:** ilmiy matn, milliy ma'naviyat, vatanparvarlik, vatan, millat yo'lida jasorat, fidoyilik, madaniyat va sivilizatsiya, boy adabiy meros, o'zligini anglaydigan inson, yuksak axloq va ma'naviyat, ajdodlarimizning adabiy merosi, yuksak ma'naviy-insoniy g'oyalar, vatanparvarlik, milliy iftixor va g'urur tuyg'ulari.*

***Ключевые слова:** научный текст, национальная духовность, патриотизм, отвага за дело Отечества, нация, самоотверженность, культура и цивилизация, богатое литературное наследие, человек, осознающий свою самобытность, высокая нравственность и духовность, литературное наследие наших предков, высокое духовно-гуманитарные идеи, патриотизм, национальная гордость и чувство гордости.*

<sup>1</sup> Абдукодиров А.А., Тоштемиров Д.Э. Таълим муассасаларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш методикаси. Монография, Гулистон, “Университет”, 2019, 232-бет.

<sup>2</sup> Тихомиров В.П. Мир на пути Smart Education. Новые возможности для развития. «Открытое образование», 2011, № 3, с. 22 – 28.

**Key words:** *scientific text, national spirituality, patriotism, bravery for the cause of the motherland, nation, selflessness, culture and civilization, rich literary heritage, a person who realizes his identity, high morals and spirituality, literary heritage of our ancestors, high spiritual and humanitarian ideas, patriotism, national pride and feelings of pride.*

Fors va tojik adabiyotining asoschisi Abu Abdulloh Rudakiy 858-yilda Samarqandga tobe bo'lgan Panjrud qishlog'ida (ba'zi manbalarda Samarqandning Rudakiy nomi ham shundan) tug'ilgan, bu qishloq hozir So'g'd viloyatining Panjakent tumanidagi qishloq hisoblanadi. Tojik adabiyotining ming yuz yillik tarixi uning asoschisi ustoz Rudakiy nomi bilan chambarchas bog'liq. Rudakiy tojik madaniyati tarixida o'zining o'tmish tajribasi va fors adabiyoti sohasidagi yutuqlarini sarhisob qilgan birinchi ma'ruzachidir. Rudakiy fors she'riyati – qissa, ruboiy, she'r, bayt, g'azal va boshqa janrlarning asoschilaridan biri.

Rudakiy ustozning she'riy taxallusi bo'lib, uni o'zining go'zal qishlog'i Rudak nomidan olgan. Rudakiyning otasi o'z vodiysining imtiyozli tabaqasi va hurmatli odamlaridan bo'lib, o'g'li tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Boshlang'ich ta'limni o'z shahrida olgan va katta iste'dod ko'rsatgan. Rudakiy shu qadar zukko ediki, sakkiz yoshida Qur'onni to'liq yod oladi. A.Jomiy o'zining "Bahoriston asarida bu haqida shunday yozadi: «sakkiz yoshida Qur'onni xatm qilib, qorilikka o'tgan va she'r ham ijod qila boshlagan. Chiroyli ovozi tufayli ashula aytish va ud asbobini chalishga kirishib, bu san'atda mahorat ko'rsatdi»<sup>1</sup>.

Rudakiy tojik-fors adabiyoti ilm-fan va madaniyati tarixida mumtoz adabiyot rahbari, tojik-fors she'riyati asoschisi, shoirlar ustози, shoirlar sultoni malikushshua va odamushshua nomlari bilan yodga olingan. U sakkiz yoshida she'r yozishni ham boshlagan. Rudakiy kuchli aql bilan birga, go'zal va yoqimli ovozga ham ega edi. Yosh iste'dodning ovozasini eshitgan Nasr ibn Ahmad uni Buxoroga – somoniylar saroyiga da'vat qiladi. Uning iste'dodi Buxoroda nash'u namo topadi. Rudakiyning basirligi to'g'risida manbalarda turli fikrlar yuradi: bir xillari shoirning onadan ko'r tug'ilganligini ta'kidlasalar, ikkinchilari Buxoro amiri qarmatlikda ayblab, uning ko'ziga mil tortganligi haqida ma'lumot beradilar.<sup>2</sup>

Shoir musiqaga qiziqishi haqida shunday deydi:

*Rudakiy chang olib o'ynadi,*

*Boda andoz, to-u surud andoht.*

Rudakiyning sermahsul shoir bo'lgan. XI asr shoiri Rashidiy Samarqandiy<sup>3</sup> Rudakiy g'azallarining ko'payganini qayd etib, shunday deydi:

*Agar dunyo yaxshilikka to'la bo'lsa,*

*O'sha shoirlarning boshlarida Rudakiy ziynatlangan.*

*She'rlarini sanadim: o'n uch yo'l yuz ming.<sup>4</sup>*

Rudakiyning barcha bu buyuk asarlaridanendi faqat ming bayt qolgan. Kalila va Dimna hikoyasi asli hind hikoyasi bo'lib, VI asrda hind tilidan pahlaviy tiliga tarjima qilingan. Keyin arab tiliga tarjima qilingan. Rudakiy hikoyani Balamiyning tojikcha tarjimasining 33 sahifasida yozgan. "Kalila va Dimna" axloqiy asardir. «May onasi»–Xuroson shohi madhiyasiga yozilgan madhiya. "Keksalikdan shikoyat" she'ri 34 baytdan iborat bo'lib, sharh she'ri deb ataladi. Rudakiy bu she'rni hayotining eski va og'ir kunlarida yaratgan. "Keksalik shikoyati" she'rida shoir hayotining eng muhim lahzalari, ayniqsa, hayotining

<sup>1</sup> Abdurahmon Jomiy. Bahoriston (Sh.Shomuhamedov tarjimasi). Toshkent, 1997, 67 – 68-betlar.

<sup>2</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/fors-tojik-she-riyati/abu-abdullo-rudakiy-858-941>

<sup>3</sup> Although the year of Rashidi's birth and death are unknown, and little is known about him, he was one of the most famous poets of his age. Rashidi Samarkandi Abu Muhammad ibn Muhammad is one of the Persian and Tajik poets who lived in the beginning of the 11th and 12th centuries. He studied the official sciences of his time in Samarkand. More detailed information about Rashidi is provided by Herman Ette, author of "History of Persian Literature". After graduating from the madrasa and improving his poetry skills, Rashidi served in the literary circles of the Karakhanids and the Seljuks. The story of Nizami Aruzi in "Four articles on the attitude of Uncle Bukhara" confirms that he was a poet of the court of Khizor Khan Karakhanids (beginning of the 12th century) and a poet. Rashidi was very witty and eloquent, which was especially necessary for a court poet. Another interesting aspect of Rashidi's creativity and feelings is patriotism, national pride. Rashidi is primarily a poet of poetry. His poems are considered to be similar in form to Anwar's poems, but inferior in content. Rashidi was not only a poet as Anvari Tsingari, but also an astrologer, considered one of the greatest poets of his time, known as a teacher. The famous poet Zahir Faryabi is considered his student. At the end of his life, Rashidi renounced the service of the palace and worldliness in general and became isolated. Finally, he died in Tabriz, his grave was in "Makbaratushshuaro" cemetery in Sukhrob.

<sup>4</sup> Арузи, Самарканди Низами. Собрание редкостей или "Четыре беседы". Перев с персидск. С.И.Баевского и З.Н.Болдырева. М., 1963, 164 с.

past-balandlari yodga olinadi. Shoirning yana bir asari quyoshning harakati, xossalari va tabiiy xususiyatlari haqida hikoya qiluvchi “Quyosh asri” dostonidir. Rudakiyning qolgan adabiy merosi she’r, g’azal, bayt, ruboiy va masnaviydan iborat. Rudakiyning boshqa she’rlari, xususan, g’azallari ham she’rlari kabi rang-barang va mazmun jihatdan boy. Shoirning “Masnaviy”ida, asosan, hikoyat va rivoyatlar, ibratli qis-salar, ezgu insonning odob-axloqi, insoniy fikr va g’oyalari yoritilgan.

Rudakiy she’rlarida u Amir Ismoil Somoniyni qudratli podshoh, Amir Ahmad Somoniyni san’at-korning do’sti, Amir Nasr Somoniyni ziyoli shogird deb bilganini ko’rsatadi.<sup>1</sup>Rudakiyning san’ati va yu-tuqlari Xuroson amiri Nasr II Somoniy Nasr II ibn Ahmadga yetib boradi va uni o’z saroyiga taklif qiladi. Rudakiy Nasr II bilan do’st bo’ladi. Usta iblisning asoschisi deb ataladi, bu alifbo tartibida she’rlar to’p-lamining bir turi.

Rudakiy, dastlab, 864–892-yillarda Samarqandni boshqargan Nasr I Somoniy saroyiga olib boril-gan. U boy yer egalari xonadonlarida ham qo’shiq aytadi, musiqa chaladi va she’r yozadi. Rudakiy 892–938-yillarda vazirlik qilgan Abulfazl Balomiy tashabbusi bilan somoniylar poytaxti sifatida Buxoro-ga taklif qilingan. Tojik xalqining o’zligini anglash kuchayib borayotgan bir paytda Rudakiy Balamiy tak-lifini qabul qildi. Tojik xalqining bu shakllanish jarayonida Rudakiyning ishtirok etishi o’z vaqtida bo’ldi. Ismoiliy Somoniy mahkamasi bilan uchrashdi (892–907) va Ahmad ibn Ismoil (907–914) bilan bog’liq bo’lmagan. Rudakiy Nasr ibn Ahmad Somoniy, ya’ni, Nasr II (914–943) saroyida katta mavqega ega bo’-ladi.

Shuning uchun Rudakiyning o’zi aytadi:

Siz kimga buyuk va barakali bo’ldingiz?

U zotning buyukligi va marhamati Ali Somon qo’li ostida edi.

Rudakiy Nasr ibn Ahmad Somoniy dariy adabiyotining ishqibozi va targ’ibotchisi edi. U ham she’r o’qidi. Rudakiyni ko’rmadi, ya’ni uni qarindoshlaridan qaytardi. Rudakiy ko’p sayohatlarida unga ham-roh bo’lib, Nishopur, Marv, Saraxs va Hirot va boshqa ko’plab shaharlarni ko’rgan. Rudakiyning saroy-dagi ta’siri juda katta edi. Nasr ibn Ahmad va uning hududi sarkardalari va hukmdorlari shoirga she’r va hikoyalari uchun katta mukofotlar berishgan.<sup>2</sup>

Rudakiy o’z davrining barcha adiblarining tarbiyachisi va yetakchisi edi. Balx shahidlari, Murodiy, Farolovlar ana shu toifadan edilar. Ko’plab tarixiy faktlar Rudakiy she’riyatining favqulodda ta’siridan dalolat beradi. Bir kuni Nasr ibn Ahmad Hirotga safar qildi. Ob-havoning yoqimlilik va tabiatining go’-zalligi tufayli u yerda to’rt yil qolib, poytaxti Buxoroni deyarli unutib qo’ydi. O’z vatanini, xotin-qiz bo-lalarini sog’inib yurgan vazirlari, sarkardalari Buxoroni xohlardilar. Tinchlik davri bo’lgani uchun amir taslim bo’lmadi. Ustoz Rudakiydan chora ko’rishda yordam so’radilar. Rudakiy ularga qo’l cho’zdi. U Buxoro sharafiga she’r yozib, samimiyat, majoz va mubolag’a bilan ta’sirchan she’r yaratdi. Rudakiy ham o’z qullari va to’rt yuz tuya va ikki yuz quldan iborat katta boyligi bilan Buxoroga qaytib keldi.

Rudakiy, aslida, yuksak va boqiy ma’naviy qadriyatlar – vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatpar-varlik, do’stlik, saxovat va xayrixohlik tuyg’ularining buyuk shoir va xonandasi edi. Shunday ekan, Ru-dakiy hamma zamonlar shoiri, uning umumbashariy she’riyati insoniyatning barcha avlodlari ehtiyojlari-ga javob beradi desak, to’g’ri bo’ladi.

Tojik-fors tilining rivojlanishida Rudakiyning xizmatlari katta. Aynan u va uning zamondoshlari bu tilni shu darajada takomillashganki, u fan va adabiyotning me’yoriy tiliga aylanib, uning saqlanib qoli-shiga, kengayishiga sabab bo’lgan. Bugungi kunda bu til nafaqat Tojikiston, Eron, Afg’oniston va boshqa forszabon mamlakatlar xalqlariga xizmat qiladi, balki xalqaro til sifatida asrlar davomida O’rta Osiyo, Kavkaz, Kichik Osiyo, Hindiston, Pokiston ilm-fani, adabiyoti va madaniyati rivojiga ta’sir ko’rsatib kel-gan.

Rudakiy birinchi chinakam tojik xalq shoiri bo’lib, u buyuk she’riyat yaratish, buyuk axloqiy-falsa-fiy qadriyatlarni targ’ib qilish, sodda va sodda tojikcha so’z va iboralarni qo’llash orqali she’riyatimizni shoh poyiga ko’tarib, tojik va fors tillaridan ulug’vor saroy barpo etgan. adabiyot. Ming bir yuz yil mu-qaddam tojik xalqining bu mutafakkir shoiri o’zining hikmatli so’zlari bilan forsiyzabon xalqlar qalbini zabt etgan va bu iliq mehr va samimiylik xalqimiz va turli xalqlar qalbida hamon barhayotdir dunyo.

Rudakiy she’riyati tili bizning me’yor tilimiz va adabiy tilimiz bo’lib, biz deyarli o’n ikki asrdan keyin ham bugun ham qo’llaymiz va biz har kuni uning she’riyati bilan yaqindan tanishamiz. Ya’ni, Ru-

<sup>1</sup> Samarqand bosh kitobi. Rudakiy qo’shiqlar sharhi, Pupak Niktalab, 2020, 9-bet.

<sup>2</sup> Rudaki A. Poems. With translations into Russian and German (Compilers and translations by Mirzoyunus M., Heyzer A.). Khujand, “Nuri ma’rifat”, 2008, 120 p.

dakiy tili tojik xalqining jonli tili bo'lib, mutafakkir shoirning ulug' va ulug'vorligi bizning davrimizda Rudakiy she'riyatining kuylanganligida yaqqol namoyon bo'ladi. Rudakiy tadjqiqotchilar va olimlar haqli ravishda "Sosonning gavhar quyoshi", "Somon tutunining nuri" deb atashgan. Chunki aynan Rudakiy ijodi orqali IX asr – tojik adabiyotining oltin davri ko'rib chiqilib, Somoniy Rudakiyning donishmand amir va vazirlari yordamida mashhur bo'ldi. O'sha davr madaniy-adabiy muhiti Abu Abdulloh Rudakiy, Abushakuri Balxiy, Shohidi Balxiy, Murodiy, Robiya Balxiy, Xusravoniy va boshqalarning she'r va ijodi bilan mustahkamlanib, somoniylar davlati ulug'vorligini o'zida mujassam etgan.<sup>1</sup>

Rudakiy she'riyati bugun, ya'ni, o'n bir asrdan keyin har qanday forsiyzabon kitobxonga tushunarli bo'lgan juda sodda va ravon uslubda yaratilgan. Rudakiy nafaqat tojik she'riyatining shakl va mazmunini mukammallashtirdi, balki o'zining boy, bebaho va betakror ijodi bilan "Xuroson" uslubini boshlab berdi, uni Rudakiy uslubi deb ham atashadi. U ham tojik adabiyotining poydevorini mustahkamladi, bundan tashqari, butun fors adabiyotining poydevorini mustahkamladi.

Jahon mumtoz she'riyati buyuk tojik shoirining bebaho merosi bilan boyidi. Ammo, afsuski, bu bebaho so'z xazinasini va Rudakiy she'riyatining yuksak saroyi ming yillar davomida ajnabiy hujumlar natijasida vayron bo'ldi, talon-taroj qilindi. Bu so'z saroyining muhtasham ariq va arklaridan tortib, bugungi kungacha tarqoq parchalar, g'ishtlar saqlanib qolgan. Bu tarqoq she'rlarni tirik ustoz Sadridin Ayniy, Said Nafisiy, Abdulg'ani Mirzoyev va Tojikiston, Eron va Afg'onistonning zamonaviy olimlari Sharq yozma merosi xazinalaridan to'plagan bo'lib, bugungi kunda ularning soni ikki ming misradan oshadi.

Shoironing g'azallari, qo'shiq va ruboiylari, to'liq g'azal va parchalari, nihoyat, "Kalila va Dimna" qissalarining qolgan parchalari va noma'lum masnaviylari bugun o'zining yorqinligi, rang-barangligi, hayot va insoniyligi bilan bizni maftun etadi. Rudakiyning she'riy merosi o'tmish tariximizning buyuk ma'naviy xazinasidir. Bu boy merosni biz Rudakiy zamondoshlarining bizgacha yetib kelgan she'rlari bilan birgalikda tadqiq etishimiz, Rudakiyning so'zboshilik sirlarini boshqalarga aytishimiz kerak. Rudakiy ilmiy tadqiqot markazining tashkil etilishi bilan tabriklaymiz va Rudakiy devonining ilmiy matnini o'rganish va tayyorlashga oid ilk asarlarni rudakiyshunoslikning yaxshi xabari deb bilamiz. Rudakiyshunoslik ilm-fanimiz va adabiyotimizning muhim qismiga aylanishi, oliy o'quv yurtlari ilmiy markazlarida yaxshi yo'lga qo'yilishi kerak.

Darhaqiqat, adabiyotimiz tarixidagi jiddiy e'tibor va e'tibor bilan hal etilishi lozim bo'lgan muam-molardan biri bu tojik va fors tillari va adabiyotining saqlanib qolishi va rivojlanishiga Movaronunaron va Xuroson tojiklarining qo'shgan hissasi. Bu nodir va boy xazina, shubhasiz, barcha forslarning milliy boyligidir. Qolaversa, ustoz Rudakiy, Hakim Firdavsiy, Umar Xayyom, Jaloliddin Balxiy, Sa'diy va Hofiz va boshqalar kabi buyuk shoirlarimiz butun insoniyatga mansub bo'lib, tamaddun dunyosida haqiqiy shuhrat va shuhrat qozongan.

Bugungi kunda olimlar tojik va fors tili va adabiyotining paydo bo'lgan va o'sgan joyi sifatida M. Monaron va Xurosonni hisoblashlari haqida kuchli dalillar mavjud. O'sha davrning qudratli hukumatiga qarshi ilk siyosiy qo'zg'olonlar ham shu yerda bo'lib, Muqanna, Abu Muslim, Yoqub Lays va Ismoil somoniylar bu zaminda tohiriylar, safforiylar, somoniylar kabi ilk milliy davlatlarning boshliqlari sifatida tavallud topganlar.<sup>2</sup>

Ilk shoirlar, jumladan, tojik va fors she'riyati ustasi Abuabdullo Rudakiy, jahonga mashhur afsona Abulqosim Firdavsiy ham shu zamindan yetishib chiqqan va ilk ilm-fan asarlari, tarjimalar shu yerda topilgan. Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, xalqimizning ko'p yillik tarixida ko'p muvaffaqiyatsizliklarga uchragan bo'lsa-da, bu zaminda milliy ma'naviyatni, vatanparvarlik, istiqlool olovini hech kim o'chira olmadi. Vatan, millat yo'lida jasorat va fidoyilikka to'la bu sahifalar, madaniyat va sivilizatsiya sa'y-harakatlari bugun xalq uchun saboq va ibratdir. Bu mustaqil yurtimiz uchun boy adabiy merosdir. Dunyoviy huquqqa asoslangan jamiyat oldida turgan juda muhim va zarur. Chunki yangi jamiyat barpo etish uchun o'z-o'zini angelaydigan, o'zligini angelaydigan insondan yuksak axloq va ma'naviyat talab etiladi. Quvonarlisi, ajdodlarimizning adabiy merosi yuksak ma'naviy-insoniy g'oyalarga boy bo'lib, xalqda vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalashda, birdamlik va hamjihatligida muhim o'rin tutadi.

<sup>1</sup> Абуабдуллохи Рудаки. Ашъор. Тахияву тадвини матн бо мукаддима ва луғоту тавзеҳот аз Расул Ходизода ва Алии Муҳаммади Хуросонӣ. Душанбе, "Адиб", 2007, 416 с.

<sup>2</sup> Рудаки. По струнам Рудаки провел рукой... (Лирика. Переводы. Для ст. шк. Возраста. Предисл. А.Абдулова, худож. А.Хусамов). Душанбе, "Адиб", 1990, 127 с.

**Matchanova Nargiza To'liqinovna (Ma'mun universiteti Tarix va psixologiya kafedrası o'qituvchisi)  
IJTIMOIY MOSLASHUV SHAXSNI IJTIMOYLASHTIRISH MEXANIZMI SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy moslashuv tushunchasi, ijtimoiy moslashuvning mavjud mexanizmlari, darajalari va uning turlari haqida, shuningdek, ijtimoiy moslashuv muammosining o'rganilganlik darajasi to'g'risida nazariy ma'lumotlar keltirilgan.*

***Аннотация.** В данной статье представлены теоретические сведения о понятии социальной адаптации, существующих ее механизмах, уровнях и видах, а также уровне изученности проблемы социальной адаптации.*

***Annotation.** This article presents theoretical information about the concept of social adaptation, the existing mechanisms, levels and types of social adaptation, as well as the level of study of the problem of social adaptation.*

***Kalit so'zlar:** moslashuv, ijtimoiy muhit, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy aloqa, faoliyat, muloqot, o'z-o'zini anglash, pedagogik moslashuv, psixologik moslashuv.*

***Ключевые слова:** адаптация, социальная среда, социальная адаптация, социальное общение, деятельность, общение, самосознание, педагогическая адаптация, психологическая адаптация.*

***Key words:** adaptation, social environment, social adaptation, social communication, activity, communication, self-awareness, pedagogical adaptation, psychological adaptation.*

“Moslashish” tushunchasi hozirgi vaqtda bilimning ko'plab sohalarida – biologiya, falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, axloq, pedagogikada qo'llaniladi. Mohiyatan, bu muammoni o'rganish turli bilim sohaları chorrahasida bo'lib, insonni har tomonlama o'rganishda eng muhim, istiqbolli yondashuv hisoblanadi. Adabiyotlarda moslashish so'zi keng va tor ma'nosida ko'rib chiqiladi.

Keng, falsafiy nuqtayi nazardan, moslashish “...shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi ularning tuzilmalari, funksiyalari va xatti-harakatlari muvofiqlashtirilgan har qanday o'zaro ta'sir” deb tushuniladi. Ushbu jihatdan bajarilgan ishlarda moslashuv shaxs va makrojamiyatni bog'lash, shaxsning ijtimoiy mavqeyini o'zgartirish, yangi ijtimoiy rolni egallash, ya'ni moslashish sotsializatsiya bilan bog'liq.

Tor, ijtimoiy-psixologik ma'noda moslashish shaxsning kichik guruh, ko'pincha, ishlab chiqarish yoki talabalar guruhi bilan munosabati sifatida qaraladi. Ya'ni, moslashish jarayoni deganda shaxsning kichik guruhga kirishi, o'rnatilgan me'yorlarni, munosabatlarni o'zlashtirishi, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tarkibida ma'lum o'rinni egallashi tushuniladi.

Moslashuvni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, birinchidan, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga shaxs a'zosi bo'lgan kichik guruhlar vositachilik qiladi, ikkinchidan, kichik guruhning o'zi moslashishda ishtirok etuvchi tomonlardan biriga aylanadi. o'zaro ta'sir, yangi ijtimoiy muhitni shakllantirish – inson moslashadigan muhit sohasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Moslashuvni o'rganishda eng dolzarb masalalardan biri moslashish va sotsializatsiya o'rtasidagi munosabatlar masalasidir. Ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki ular shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yagona jarayonini aks ettiradi. Ko'pincha, sotsializatsiya faqat umumiy rivojlanish bilan bog'liq, moslashish esa allaqachon shakllangan shaxsning yangi aloqa va faoliyat sharoitida moslashish jarayonlari bilan bog'liq. Ijtimoiylashuv hodisasi – bu shaxs tomonidan muloqot va faoliyatda amalga oshirilgan ijtimoiy tajribani faol takrorlash jarayoni va natijasi. Sotsializatsiya tushunchasi ko'proq ijtimoiy tajriba, jamiyat, institutlar va sotsializatsiya agentlari ta'siri ostida shaxsning rivojlanishi va shakllanishi bilan bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri mexanizmlari shakllanadi.

Shunday qilib, sotsializatsiya jarayonida shaxs jamiyat tomonidan yaratilgan an'analar, me'yorlar va rollarni idrok etuvchi, qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchi obyekt sifatida harakat qiladi. Ijtimoiylashtirish, o'z navbatida, jamiyatda shaxsning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning rivojlanishi, shakllanishi amalga oshiriladi, shu bilan birga, shaxsning ijtimoiylashuvi shaxsning jamiyatga moslashishi uchun zarur shartdir. Ijtimoiy moslashuv sotsializatsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri, to'liqroq sotsializatsiya usullaridan biridir.

Ijtimoiy moslashuv – bu inson holatining integral ko'rsatkichi bo'lib, uning ma'lum bioijtimoiy funksiyalarni bajarish qobiliyatini aks ettiradi, xususan:

- atrofdagi voqelikni va o'z organizmini adekvat idrok etish;
- boshqalar bilan munosabatlar va muloqotning adekvat tizimi;
- ishlash, o'qish, bo'sh vaqt va dam olishni tashkil qilish qobiliyati;

–boshqalarning rolini kutishga muvofiq xatti-harakatlarning o‘zgaruvchanligi (moslashuvchanligi).

Ijtimoiy moslashuv jarayonida shaxsning nafaqat yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi, balki uning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlarini amalga oshirish ham amalga oshiriladi. Shaxs yangi ijtimoiy muhitga kiradi, uning to‘liq a‘zosi bo‘ladi, o‘zini tasdiqlaydi va individualligini rivojlantiradi. Ijtimoiy moslashuv natijasida jamiyatda qabul qilinadigan muloqot, xulq-atvor va obyektiv faoliyatning ijtimoiy fazilatlarini shakllanadi, buning natijasida inson o‘z intilishlari, ehtiyojlari, manfaatlarini amalga oshiradi va o‘zini-o‘zi belgilashi mumkin.

Ijtimoiy moslashuv – bu insonning turli xil ijtimoiy vositalar yordamida o‘zgargan muhitga faol moslashish jarayoni. Ijtimoiy moslashishning asosiy usuli – bu yangi ijtimoiy muhitning me‘yorlari va qadriyatlarini (guruh, jamoa, tashkilot, shaxsni o‘z ichiga olgan hudud), bu yerda rivojlangan ijtimoiy o‘zaro ta‘sir shakllarini (rasmiy va norasmiy aloqalar) qabul qilish, yetakchilik uslubi (oila va qo‘shnichilik munosabatlari va boshqalar), shuningdek, obyektiv faoliyat shakllari va usullari (masalan, mehnat yoki oilaviy majburiyatlarni professional bajarish usullari).

Bixeyvioristlar ijtimoiy moslashishni muayyan guruh xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlar yoki madaniyatdagi jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoni deb tushunadilar. Bu ta‘rif, birinchi navbatda, individual emas, balki guruhlarining moslashuvi bilan bog‘liq. Shuni ta‘kidlash kerakki, bixeyvioristlar “o‘rganish” orqali xulq-atvorni moslashuvchanligiga erishish mumkin, deb hisoblaydilar, ya‘ni o‘rganish – bu o‘zgarish. Moslashish o‘z-o‘zidan o‘zgarishni nazarda tutganligi sababli, uni o‘rganish natijasi sifatida talqin etiladi.

Demak, o‘rganish orqali xulq-atvorni o‘zgartirish masalalari shaxs va guruhning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosining keng doirasini tashkil etadi. Biroq, aksariyat ta‘riflarda asosiy e‘tibor shaxsning tashqi muhit bilan to‘qnashuviga qaratiladi, ichki jarayonlar esa e‘tiborga olinmaydi. Ijtimoiy moslashuv nazariyasining rivojlanishi N.Miller va J.Dollar (1955) asarlarida keng yoritiladi. Ularga ko‘ra, o‘qitish jarayonida kamchilik va xatolarni bartaraf etishda «o‘hshatish (immitatsiya)» juda qo‘l keladi.

T.Shibutaniga ko‘ra «...har bir shaxsga qiyinchiliklarni yengishga imkon beradigan texnika xosdir va bu metodlarni moslashuv shakllari deb hisoblash mumkin. Tananing muayyan vaziyatlar talablariga qanday moslashishini anglatuvchi «moslashish» konsepsiyasidan farqli o‘laroq, adaptatsiya yanada barqaror yechimlarni – odatiy vaziyatlarni yengishning ijobiy tashkil etish usullarini, bir qator moslashuvlar natijasida mustahkamlanib boradigan usullarni anglatadi.

N.Egamberdiyevaga ko‘ra, insonning ko‘nikish reaksiyasi shakllari ijtimoiy adaptatsiya sifatida aniqlanishi lozim. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o‘laroq, inson ijtimoiy muhit o‘zgarishlariga ko‘nika olishi va bu holatlar uchun yurish-turish reaksiyalarini ishlab chiqishi lozim. Insondagi adaptatsion mexanizmlarda hal qiluvchi rolni ijtimoiy omillar o‘ynaydi. Ilmiy-texnikaviy rivojlanish, urbanizatsiyaning tezlashishi, tabiat va kosmosni faol o‘zlashtirish, aloqa vositalarining kengayishi va kompyuterlashtirish, davlatlararo integratsiya jarayonlari insonda o‘zgaruvchan muhit sharoitlariga tez ko‘nika olish qobiliyatini shakllantirish masalasini muhimlashtiradi. Bu qobiliyat shaxs rivojining yanada hal qiluvchi ahamiyatga ega tarkibiy qismiga aylanmoqda.

A.A.Nalchajyan umumiy moslashuvchanlik ma‘lum bir xususiyatlarga ega bo‘lgan, takrorlanuvchi vaziyatlarga bosqichma-bosqich moslashuvlar natijasidir, degan fikrni ilgari surdi. Bu yondashuv bixeyvioristlar yondashuvidan farq qiladi, chunki u, birinchi navbatda, moslashish va adaptatsiya o‘rtasidagi farqni ajratadi, ikkinchidan, odatiy muammoli vaziyatlarga moslashish va umumiy moslashishni ajratish muhimligini qayd etadi.

A.G.Kovalyov ijtimoiy moslashuvning ikkita shaklini ajratib ko‘rsatadi: faol, shaxs atrof-muhitni o‘zgartirish uchun uni o‘zgartirishga harakat qilganda (shu jumladan, u o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan me‘yorlar, qadriyatlar, o‘zaro ta‘sir shakllari) va passiv–bunday ta‘sirga intilmaganda. Muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichi – bu shaxsning ma‘lum bir muhitdagi yuqori ijtimoiy mavqeyi, shuningdek, uning ushbu muhitdan, umuman, qoniqishi (masalan, mehnat va uning shartlari, ish haqi, tashkilot va boshqalardan qoniqish). Ijtimoiy moslashuvning pastligi ko‘rsatkichi – bu shaxsning boshqa ijtimoiy muhitga (kadrlar almashinuvi, migratsiya va boshqalar) deviant xatti-harakati.

I.A.Georgiyevaning fikricha, ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini ishlab chiqish, uning mohiyati faol inson faoliyatiga asoslanadi, uning asosiy nuqtasi muhim ijtimoiy voqelikni o‘zgartirish zarurati hisoblanadi. Shuning uchun shaxsning ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini shakllantirish jarayonining o‘zi individlar o‘zgarishining barcha turlaridan ajralmas bo‘lib, uchta asosiy bosqichda amalga oshiriladi: uning ijtimoiy mohiyatini tavsiflovchi faoliyat, muloqot, o‘z-o‘zini anglash.

Ijtimoiy faoliyat insonning moslashuvini tashkil etishda yetakchi va o'ziga xos mexanizmdir. Muhiimi, shaxsning ijtimoiy muhitga to'liq qamrab olinishini, faol moslashishini ta'minlaydigan muloqot, o'yin, o'qitish, mehnat kabi uning tarkibiy turlari. Shaxsning ijtimoiy faoliyatida moslashish mexanizmi xuddi shunday tabiiy bosqichlarga ega:

- shaxsning ehtiyoji;
- ehtiyotlar;
- qaror qabul qilish uchun motivlar;
- amalga oshirish va tahlil qilish.

Ijtimoiy aloqa – bu insonning ijtimoiy moslashuvining eng muhim mexanizmi bo'lib, u boshqa shaxslar va ijtimoiy guruhlar bilan aloqada ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish doirasini boshqaradi va ke-ngaytiradi.

Shaxsning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi – bu shaxsning ijtimoiy moslashuvi mexanizmi bo'lib, unda shaxsning ijtimoiy mansubligi va rolini shakllantirish va tushunish amalga oshiriladi. I.A.Georgiyevaning fikricha, shaxsning ijtimoiy moslashuvining quyidagi mexanizmlari ham mavjud:

1. Kognitiv, shu jumladan, idrok bilan bog'liq barcha psixik jarayonlar: sezgilar, hislar, g'oyalar, xotira, tafakkur, tasavvur va boshqalar.

2. Emotsional, jumladan, turli axloqiy tuyg'ular va hissiy holatlar: tashvish, hamdardlik, qoralash, tashvish va boshqalar.

3. Ijtimoiy amaliyotda ma'lum bir yo'naltirilgan inson faoliyatini taklif qiluvchi amaliy (xulq-at-vor). Umuman olganda, shaxsning ijtimoiy moslashuvining ushbu barcha mexanizmlari to'liq birlikni tashkil qiladi.

Insonning ijtimoiy moslashuvi faol yoki passiv moslashuvga, mavjud ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirga, shuningdek, shaxsning shaxsiyatini o'zgartirish va sifat jihatidan o'zgartirish qobiliyatiga asosla-nadi.

Ijtimoiy moslashish jarayoni aniq tarixiy xususiyatga ega bo'lib, u shaxsga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi yoki uni muayyan vaqt sharoitida harakat mexanizmlarini ma'lum bir tanlashga undaydi. G.D.Vol-kov va N.B.Okonskayaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy moslashish jarayoni uch darajada ko'rib chiqilishi kerak:

1. Jamiyatlar (makromuhit) – bu daraja shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy moslashuv jarayonini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ruhiy rivojlanish jamiyati.

2. Ijtimoiy guruh (mikromuhit) – bu jarayonni o'rganish sabablarini, shaxs va shaxs manfaatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni ajratib olishga yordam beradi. ijtimoiy guruh (mehnat jamoasi, oila va bosh-qalar).

3. Individual (intrapersonal moslashuv) – uyg'unlikka erishish istagi, ichki pozitsiyaning muvoza-nati va boshqa shaxslar pozitsiyasidan o'zini-o'zi qadrlash.

G.D.Volkov, N.B.Okonskayaning fikricha, moslashuvning barcha turlari bir-biriga bog'langan, ammo bu yerda ijtimoiy moslashuv ustunlik qiladi. Shaxsning to'liq ijtimoiy moslashuvi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Boshqaruv (tashkiliy) moslashuv. Boshqaruvsiz insonga qulay shart-sharoitlarni (ishda, uyda) ta'minlash, uning ijtimoiy rolini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, unga ta'sir ko'rsatish, jamiyat va shaxs manfaatlariga javob beradigan faoliyatni ta'minlash mumkin emas.

Iqtisodiy moslashuv. Shaxslar, subyektlarning iqtisodiy munosabatlarining yangi ijtimoiy-iqtisodiy normalari va tamoyillarini o'zlashtirishning eng murakkab jarayonidir. Ijtimoiy ish texnologiyasi uchun bu yerda “ijtimoiy blok” deb ataladigan narsa muhim ahamiyatga ega, shu jumladan, ishsizlik nafaqalari, ish haqi, pensiya va nafaqalar darajasining real ijtimoiy haqiqatga moslashishi. Ular insonning nafaqat fiziologik, balki ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini ham qondirishi kerak.

Pedagogik moslashuv. Shaxsning qadriyat yo'nalishlari tizimini tashkil etuvchi ta'lim, ta'lim va tarbiya tizimiga moslashishdir.

Psixologik moslashuv. Psixologiyada adaptatsiya sezgi a'zolarini yaxshi idrok etish va retseptor-larni ortiqcha yuklanishdan himoya qilish uchun ularga ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilarning xususiyatlari-ga moslashish jarayoni sifatida qaraladi.

Professional moslashuv. Shaxsning kasbiy faoliyatning yangi turiga, yangi ijtimoiy muhitga, meh-nat sharoitlariga va ma'lum bir mutaxassislik xususiyatlariga moslashishi.

Ishlab chiqarishga moslashish. Shaxslarning mehnat faolligi, tashabbuskorligi, malakasi va mus-taqilligi, kasbiy fazilatlar bilan bog'liq moslashishi.

Shunday qilib, ijtimoiy moslashuv shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini moslashtirish, tartibga solish, uyg'unlashtirish usullarini nazarda tutadi. Ijtimoiy moslashish jarayonida shaxs o'z ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlariga mos ravishda atrof-muhitga moslashuvchi va faol o'zini-o'zi belgilaydigan faol subyekt sifatida harakat qiladi. Shaxsning ijtimoiy moslashuvi mexanizmlari mavjud bo'lib, ularning shakllanishi jarayoni individlar o'zgarishining barcha turlaridan, masalan, faoliyat, muloqot va o'z-o'zini anglashdan ajralmasdir. Ijtimoiy moslashuv mexanizmlarining mohiyatida insonning faol faoliyati yotadi, uning asosiy nuqtasi muhim ijtimoiy voqelikni o'zgartirish zarurati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkin, ijtimoiy moslashuv tuzilishining yagona tasnifi mavjud emas. Ijtimoiy moslashuv turlarining yagona tasnifining yo'qligi shaxsning ushbu jamiyatda moslashishga imkon beradigan keng kasbiy, ishbilarmonlik, shaxslararo, ijtimoiy munosabatlar tizimining bir qismi bo'lgan shaxs ekanligi bilan izohlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Volkov G.D. Moslashuv va uning darajalari. G.D.Volkov, N.B.Okonskaya. Perm, 1975, c. 246.
2. Gulina M.A. Ijtimoiy ish psixologiyasi. M.A.Gulina, O.N.Aleksandrova, O.N.Bogolyubova, N.L.Vasilyeva va boshqalar. Sankt-Peterburg, "Peter", 2002, c. 382.
3. Mudrik A.V. Ijtimoiy pedagogika. Prok. stud uchun. ped. Universitetlar. Ed. V.A.Slastenina. 3-nashr, Rev. va qo'shimcha. M., "Akademiya" nashriyot markazi, 2000, 200-bet.
4. Артемов С.Э. Социальные проблемы адаптации подростков. Вопросы духовной культуры советских рабочих. Вып. 1, Свердловск, 1969.
5. Налчаджян А.А. Социально-психическая адаптация личности (формы, механизмы, стратегия). Ереван, изд-во АН Армянской ССР, 1988, с. 265.
6. Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с англ. В.Б.Ольшанского. М., Ростов-на/Д., АСТ, "Феникс", 1999, с. 539.
7. Crow L., Crow A. Understanding our behavior. The psychology of personal and social adjustment. New York, Alfred A. Knopf, 1956, p. 10.

#### Xudoynazarov Egambergan Madraximovich (UrDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini dotsenti) TALABALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari bayon qilingan. Inson fikrlashini rivojlantirishning nazariy yondashuvlari asosida tarkibiy qismlar ajratib ko'rsatilgan. Sharqda ham inson fikrlashi muammosi bir nechta allomalar qarashlari asosida tahlil qilingan. Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari mantiqiy fikrlashni rivojlanishining evristik, mantiqiy algoritmik uslublaridan foydalanishga asosiy e'tibor qaratilgan.

**Аннотация.** В данной статье изложены педагогико-психологические основы развития логического мышления будущих учителей начальных классов. Выделены компоненты, лежащие в основе теоретических подходов к развитию мышления человека. Даже на востоке проблема человеческого мышления анализировалась на основе взглядов нескольких ученых. Основное внимание в статье уделено использованию эвристических, логико-алгоритмических приемов развития логического мышления учителями начальных классов.

**Annotation.** This article describes the pedagogical and psychological foundations of the development of logical thinking of future primary school teachers. The components underlying theoretical approaches to the development of human thinking are highlighted. Even in the East, the problem of human thinking was analyzed on the basis of the views of several scientists. The main attention in the article is paid to the use of heuristic, logical-algorithmic techniques for the development of logical thinking by primary school teachers.

**Калит сўзлар:** фикрлаш, мантқиқий фикрлаш, ижодий фикрлаш, фикр, ақл, сезги.

**Ключевые слова:** мышление, логическое мышление, творческое мышление, мышление, интеллект, интуиция.

**Key words:** thinking, logical thinking, creative thinking, thinking, intellect, intuition.

Jamiyatimiz istiqbolda qanday bo'lishi yosh avlodning bilim darajasi va fikrlashiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bolani etuklikka undovchi, faol fikrlashga o'rgatuvchi hisoblanadi. O'quvchilarda davlat ta'lim standartlariga mos ko'nikma, bilim, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, umum-



madaniy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotiga tayyorlash, fikrlashni rivojlantirish, vatanparvarlik, mustaqillik tamoyillari asosida demokratiyaga sodiqlik hissini shakllantirish o'quv jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, ta'lim mazmuni va uning metodik tizimi yanada takomillashtirilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar va pedagogik amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarda ma'lum darajada bilim berish, dastlabki amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishning o'zi etarli emas. Ularda ijtimoiy tajriba, ya'ni kompetensiyalarni shakllantirish alohida dolzarflik kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonining metodik tarkibini ham boyitish, ta'lim samaradorligini ta'minlash maqsadida ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun qulay muhit yaratish nihoyatda zarur.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularda fikrlash faolligini tarkib toptirish uchun qulay davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda, fikrlash faolligi ham vujudga keladi. O'quvchining taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid dastlabki ko'nikmalari uning o'z fikrlarini mantiqiy izchillikda aniq, obrazli, ravon bayon qila olishida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni o'qitish nazariyasiga oid L.S.Vigotskiy tomonidan aniqlangan aqliy rivojlanish darajalari "to'g'ri tashkil qilingan o'qitish bolani aqliy rivojlanishiga olib keladi", degan xulosani ilgari surishga imkon berdi. L.S.Vigotskiy va P.P.Blonskiylar yoshlikda olingan ilm fikrlash qobiliyatini jadal rivojlantirishini aniqlaganlar.<sup>1</sup>

Izlanishlardan ma'lumki, inson tafakkuri insoniyat tomonidan yaratilgan bilim olish jarayonida rivojlanib subyekt uchun faol, yaratuvchanlik faoliyatidir.

Inson fikrlashini rivojlantirishning nazariy yondashuvlari quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

1. Yaxlitlik va tizimlilik.
2. Refleksivlik.
3. Tanqidiylik.
4. Innovatsionlik.
5. Qayishuvchanlik.
6. Noaniq vaziyatda o'z taqdirini o'zi belgilay olish qobiliyati.
7. Mahsuldorlik.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** – ta'lim oluvchilarning shaxsiy, individual layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish asosida ularda ma'lum bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishgina emas, balki, eng asosiysi, o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini anglatuvchi tushuncha.<sup>2</sup>

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini ta'lim oluvchilarda ong, xarakter, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi tabaqalashtirish va individuallashtirish prinsiplari tashkil etadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning an'anaviy ta'limdan farqi shundaki, u turli bilim sohalari bo'yicha shaxsning xilma-xil, mustaqil va maqsadga muvofiq faoliyatini tashkil etilishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berish orqali ta'lim oluvchining intellektual va axloqiy jihatdan samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda o'qituvchilarning bilim va malakalarni amalga oshirishni shakllantira olishi ahamiyatlidir. Turli, haqiqiy bilim va malakalar o'quvchilarda qancha ko'p hosil qilinsa, ularning fantaziyasi, fikrlashi o'sadi hamda murakkabroq bo'lgan topshiriqlarni bajara oladilar.

Insonning dunyoqarashini rivojlanishida uning tili va nutqining rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki topshiriqning yechilishi jarayonida o'quvchi topshiriqni yechish yo'llarini o'z nutqi orqali bayon qilishi, topshiriqning asosiy elementlarini ayta olishi, grafik chizmalarni chiza olishi va bilishi–o'qituvchi ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchi qanchalik darajada ko'p so'z boyligiga ega bo'lsa, uning ichki, aqliy imkoniyatlari ham yuqori darajada rivojlanadi va shakllanadi. Ijodiy jarayonda o'qituvchi, avval, topshiriqni xayoliy tasavvuri, ya'ni, aqli orqali bajaradi, reja tuzadi, keyin esa bu reja tashqi imkoniyatlar asosida amalga oshiriladi.

<sup>1</sup> Выготский Л.С. Педагогическая психология. М., "Педагогика", 1991, с. 28.

<sup>2</sup> Педагогика. Энциклопедия. III жилд, жамоа, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 400-бет.

A. Savenkov talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning quyidagi tamoyillarini sanab o‘tadi:<sup>1</sup>  
– muammoni qo‘yish va uni yechishning divergent va konvergent tiplarini qo‘llash, ya‘ni, fikrlashda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish bir tekisda emas, balki masalada muammoning qo‘yilishini rivojlantirib borish;

– o‘quv materiali oxirgi muhim axborotlar bilan yangilanganligi muammoning qo‘yilishi va yechilishini uzluksiz rivojlantirib borish;

– o‘quvchining mantiqiy fikrlashi doirasining kengayib borishi bilan uning o‘z bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olish malakasining uyg‘unligi;

– o‘quvchi o‘z hatti-harakatlari, amaliyotida yangi bilimlarni o‘zlashtirganligini ifodalay olishi;

– intellektual tashabbus ko‘rsata olish va masalani yechishda chamalay olishni bilish, bunda «intellektual tashabbus» – o‘quvchining turli o‘quv va ijodiy masalalarning yechilishida muammoni chuqurroq ko‘ra olishga, original va muqobil yechimlarni topishga mustaqil ravishda intilishida namoyon bo‘ladi;

– konformizmga yo‘l qo‘ymaslik, ya‘ni, noto‘g‘ri echimga olib keluvchi g‘oya va holatlarni yo‘q qilish;

– g‘oyalarni tahlil qilishda tanqidiy yondashuv qobiliyatlari shakllantiriladi;

– muammoni chuqurroq tadqiq qilishga intilish;

– o‘quv-biluv faoliyatida hurfikrlilikka erishish, ya‘ni, muammoni tadqiq qilishda va yechishda mustaqil izlanishga erishish;

– individuallashtirishga erishish – ta‘lim jarayonida ishtirok etayotgan o‘quvchilarning shaxs sifatlarini rivojlantirish va har bir o‘quvchini jaryonning subyekt sifatida o‘zini to‘la namoyon eta olish uchun sharoit yaratish;

– muammoli vaziyat hosil qilish – o‘quvchilar o‘rtasida muammoli vaziyat hosil qilishni o‘ylab topish va yo‘naltira olish.

Shunga asosan, biz yuqorida ta‘kidlangan tamoyillardan maqsadli foydalansak, o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlashi yuqori darajada shakllanadi.

Sharqda ham inson fikrlashi muammosi xilma-xil qarashlar negizida tahlilga tortilgan. Inson va borliq munosabatlariga, fikrlashning turli hil fanlar asosida tahliliga Forobiy keng to‘xtaladi. Uning fikricha, inson ma‘naviyatining oliy darajasi aql, ruh va fikrlash bo‘lib, ular insonning bilish faoliyatiga mos bo‘lgan shakllarda namoyon bo‘ladi.

Forobiy «Aql to‘g‘risida»gi kitobida axloqli kishining «o‘n ikki tug‘ma xislati»ni ta‘riflab, odamning fikrlash qobiliyatiga to‘xtalib o‘tadi. Forobiy fikrlash qobiliyati yuqori bo‘lgan inson barcha topshiriqlar yuzasidan o‘tkaziladigan tahlillarni tez va to‘liq tushunadigan, uning ma‘nosini o‘zlashtirib, so‘zlayotgan shaxsning maqsadi va bayon qilingan fikrining rostligini tushunadigan, quvvayi hofizasi kuchli, borliqdan qabul qilgan ma‘lumotlarining barchasini eslab qoladigan, xotirasida saqlab qoladigan, zehni sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda aniqlab oladigan, fikri va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini to‘liq va izchil bayon eta oladigan, bilimlarni oson, tez o‘zlashtira oladigan bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi.

Abu Ali ibn Sino «O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar» nomli asarda fikrlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarga batafsil to‘xtalib o‘tgan. Olimning «Tadbiri manozil» («Bolani tarbiyalash va o‘qitish») asarida o‘quvchilarning fikrlashini yaxshilash, bilim berish samaradorligini oshirishda fan yutuqlarini egallashga qiziqish yuzaga kelishi va raqobatlashish imkoniyatini yaratishda o‘quvchilarni birga o‘qitish zarurligini ta‘kidlaydi.

Olim suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga to‘xtalib, shunday deydi: «Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga o‘ylab, fikr yuritib ko‘rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do‘sting sening so‘zlaringga va nasihatlaringga e‘tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko‘chir».

Kaykovus ilmiy-nazariy bilimlarga hamisha tayanmasdan, inson o‘zining hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, maqsadga yo‘naltirilgan g‘oyalari asosida fikrlashi mumkinligini o‘g‘liga nasihat tarzidagi «Qobusnoma» asarida quyidagicha yozadi: «Ey farzand, bilginki, barcha hukmni kitob bo‘yicha qilmasdan, o‘z fikrlari bilan ham hukm qilurlar va bunday tadbirlar bilan ham ishni bilib olurlar».<sup>2</sup>

Inson fikr, aql, sezgilari vositasida bilimlarni egallanishi to‘g‘risida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy mulohazalarini bayon qilar ekan, shunday deb yozadi: «Faqat sezgi orqali, sezgi organlari bilan eri-

<sup>1</sup> Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни. "Дошкольное образование", №7, 2004, с. 6–19.

<sup>2</sup> Кайковус. Қобуснома. Тошкент, "Истиклол", 1994, 321-бет.

shilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarishda foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Istaklarga mehnat tufayli erishiladi». Uning ta'kidlashicha, hayotiy vaziyatlarda, mavjud muammolarni yechish jarayonida sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar to'g'ridan to'g'ri idrok qilinmasdan, balki fikr to'liq tashxislansa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

So'z va tafakkurni bir-biriga chambarchas bog'liq birliklar sifatida ko'rgan Alisher Navoiy o'z asarlarida fikrga mas'uliyat bilan qarash muammosi haqida "So'zni ko'ngulda pishqormaguncha, tilga keltirma, harnakim ko'ngulda bo'lsa, tilga surma" tarzida o'z qarashlarini bayon qiladi. Shoirning «Mahbub ul-qulub» asarida ham bilim olgan, ammo to'g'ri fikr yurita olmaydigan insonni «Ilmiga amal qilmagan olim ustiga kitob ortilgan eshak kabidir», deya undaylarni «nodon» deb ataydi.

Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida badan va fikr tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi. Uning ta'kidlashicha, fikr tarbiyasi «muallimning yordamiga so'ng darajada muhtojdir» va inson hayotida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarni tahlili natijasida o'qituvchilarning aqliy faoliyatini o'rganish quyidagi xulosani tasdiqladi: faqat o'qituvchining o'z aqliy faoliyati, ijodiy topshiriqlarni yechishda chuqur o'ylanishi natijasida aloqalarning rang-barangligi vujudga keladi. Ushbu aqliy faoliyatning yuqori, izchil darajasini ifodalaydi. Shunga asosan, o'quv-biluv faoliyatning jadallashuvi ta'minlanadi.

Bir nechta psixologlar ijodiy fikrlash va ijodiy faoliyat muammolarini o'rganganlar.

Ijodiy fikrlash. 1. Erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyili ustuvor bo'lgan tafakkur shakli. 2. Ichki aqliy bir-biriga bog'liq bo'lgan omillar asosidagi yangi tafakkurga ega bo'lishning mantiqiy izchilligi mahsulidir.<sup>1</sup>

Ijodiy fikrlash voqealarni tahlil etish, qiyoslash, taqqoslash, asosida fikrni takomillashtirish, uning yangi qirralarini topish, shu tariqa, bilim va tasavvur dunyosini boyitishni nazarda tutadi. Ijodiy fikrlash – insonga xos bo'lib, bu xususiyatdan mahrum bo'lganlar bamisoli hamma ishni ko'r-ko'rona bajaradigan qulga aylanib boradi. Ijodiy fikrlashga ega shaxs o'z mustaqil fikriga ega. U hayotga, odamlarga erkin munosabatda bo'lib, har qanday voqea yuzasidan o'z fikrini bayon qila oladi. Ijodiy fikrlash – insonlar jamoasini ma'naviy yangilash, odamlarning tafakkurini kengaytirish, ezgu g'oyalar tantanasini ta'minlashning muhim shartidir.

**Ijodiy faoliyat.** Muayyan sohada ish-faoliyat bilan shug'ullanuvchi insonning aniq bir maqsadga in-tiluvchanligi, maxsus hissiy holati – ilhomlanishi, ruhiy kechinmasi, shuningdek, muammoni to'liq hal etish istaklarini mujassamlashtirgan faoliyat turi.<sup>2</sup>

O'qitish jarayonida fikrlashni rivojlanishi muammolarini hal qilishning keyingi bosqichida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini boshqarish masalasi yuzaga keldi. Bunda o'qish faoliyatida fikrlash bir tomondan tayyor bilimlar ustida amallar bajarish, ikkinchi tomondan yangi sof asl tizimni yaratishga loyiq ijodiy qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi. Mahsuldor jarayonlar o'quvchilar tomonidan fikrlash layoqatini rivojlantiruvchi omil – muammoli holatlarni yechish davomida kechadi. Talabalarda faol, mustaqil, ijodiy fikrlash layoqatini rivojlantirish o'qitishning maksadga muvofiq yo'naltirilganligi, uning oldiga qo'yilgan muammoga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berib qolmasdan, ularda mustaqil ravishda o'qib o'rganish, o'ziga xos izlanishga ishtiyoq uyg'otishi maqsadida lozim ta'lim texnologiyalaridan o'rinli foydalanishlari zarur, deb hisoblaymiz.

Ayrim olimlar fikricha, mantiqiy fikrlash nazariy fikrlashning o'zi ekanligi, u empirikdan analitik, rejalashtiruvchi, refleksiv fikrlashgacha bo'lgan davrni muayyan izchillikda bosib o'tadi (R.Ataxanov, V.V.Davidov Le Txi Kxan Kxo, L.K.Maksimov va h.k.).

Matematikani o'rgatish jarayonida o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan matematik fikrlashni L.M.Fridman, umumiy fikrlash madaniyatining tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Madaniy fikrlash – shunday fikrlashki, bunda fikrlashning turli usullari va amallarining qo'llanishi ma'lum bir tartibda, qat'iy tizimda, yechilayotgan fikrlash masalasi xarakteriga to'la mos ravishda amalga oshiriladi, deydi.

<sup>1</sup> Педагогика. Энциклопедия. III жилд, жамоа, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 400-бет.

<sup>2</sup> Shu manba.

Biz “fikrlash” tushunchasiga nisbatan bir nechta yondashuvlarni tahlil qildik. Fikrlash shaxsning faolligini tavsiflovchi jarayon bo‘lib, uning uzluksiz rivojlanayotganligi faoliyatda namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quv masalalarini yechish faoliyatida namoyon bo‘ladi.<sup>1</sup>

Mantiqiy fikrlash nazariya va amaliyotni, fikrlashning konvergent va divergent turlarini uyg‘unlashtiradi hamda o‘ziga xos topqirlik bilan tavsiflanadi. Konvergent fikrlash muammoning yagona yechimini topishga qaratilgan, divergant fikrlash esa masalaning mumkin bo‘lgan barcha yechimlarini izlashga yo‘naltirilgan fikrlash tarzidir.

Biz izlanishlarimizda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mantiqiy fikrlashni rivojlanishining evristik, mantiqiy algoritmik uslublaridan foydalanishga harakat qildik. Evristik uslublar real hodisalarning matematik modellarini qurishning asosli ekanligini ko‘rsatdi, mantiqiy uslublar esa uning “qat‘iy” talablari bilan matematik model ichidagi masalani yechishga xizmat qildi.

Fikrlash jarayoni topshiriqni yechish tartibi bilan chegaralanganligi sababli fanlarni o‘rgatishda o‘quvchilarning fikrlash hodisasiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Murakkablik darajasiga ega bo‘lgan topshiriqlarni yechishda, o‘quv kursining qo‘shimcha bo‘limlarini o‘zlashtirishda, o‘qitishning muammoli izlanish uslubidan foydalanish talab qilinadi.

Muhim masalalardan yana biri o‘quv jarayonida fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish imkoniyatlarini aniqlash, maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki savol va mashqlarning didaktik asoslari, ulardan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash layoqatini rivojlantirishda foydalanish yo‘llari va shart-sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun quyidagi muammolarni hal etish talab qilinadi: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning metodik imkoniyatlarini aniqlash zaruriyati mavjud.

**Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li (UrDPI Pedagogika fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD))**

### **TALABALARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA METODLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning mazmuni nazariy asoslarini tahlil qilish, integrativ xarakterdagi texnologiyalardan foydalanishning amaliy natijalari va real hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalash metodlarini qo‘llash orqali talabalarda ijtimoiy kompetentlik darajalarini rivojlantirish asoslangan.*

***Аннотация.** Данная статья основана на анализе теоретических основ содержания использования интегративного подхода в формировании компетенций у студентов, практических результатов использования технологий интегративного характера и развития уровней социальной компетентности у студентов путем применения методов моделирования реальных жизненных ситуаций.*

***Annotation.** This article is based on the analysis of the theoretical foundations of the content of the use of an integrative approach in the formation of competencies in students, the practical results of the use of technologies of an integrative nature and the development of social competence levels in students by applying methods of simulating real-life situations.*

***Kalit so‘zlar:** kompetensiya, integrativ yondashuv, faoliyat, ijtimoiy kompetentlik, integrativ texnologiyalar.*

***Ключевые слова:** компетентность, интеграционный подход, деятельность, социальная компетентность, интегрированная технология.*

***Key words:** competence, integration approach, activity, social competence, integrated technology.*

Ma‘lumki, kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan yondashgan holda, quyidagi vazifalar bajarilishi kerak:

–kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida integrativ texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash;

–kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida didaktik materiallarning integrativ xarakterga ega bo‘lishini ta‘minlash;

–kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini turli shakllarda tashkil etish va uning samaradorligini

<sup>1</sup> Худойназаров Э.М. Бошланғич синф ўқувчиларида математик фикрлаш фаолиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг методик тизими. Монография, Т., “Наврўз”, 2019, 108-бет.

aniqlash;

–talabalarni o‘zaro hamkorlikda, guruhda faoliyat ko‘rsatishga jalb qilish, ularning muloqotga kirishishlarini ta‘minlaydigan metodlarni qo‘llash va ularni tajriba-sinovda sinab ko‘rish orqali samaradorligini aniqlash;

–kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash kabilar.<sup>1</sup>

Bu jarayonda bir qator parametrlarga tayaniladi. Bular kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan metodlarning o‘ziga xosligi, ulardan foydalangan holda talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlarini, kompetensiyalarni shakllantirishda foydalaniladigan didaktik vositalar, kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan darslarda foydalaniladigan didaktik ashyolar va h.k.

Bularning barchasi talabalarga kompetensiyalar haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini berdi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik jihatdan muhim bo‘lgan didaktik xususiyatlarga ham alohida e‘tibor qaratilishi zarur. Bu o‘rinda quyidagi vaziyatlar tashkil qilinadi: muloqot jarayoni, o‘zaro hamkorlik vaziyatlari, individual ishlash.

Kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni, asosan, talabalarni ularda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish orqali hayotga tayyorlashni nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Bunda, birinchi navbatda, talabalarining ijtimoiy hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini egallashlariga e‘tibor qaratiladi va bir qator ish turlaridan foydalaniladi. Qo‘llangan texnologiyalarga muayyan talablar qo‘yiladi:

1) guruhli ish jarayonida muloqot ko‘lamini kengaytirish;

2) kompetensiyalarning talabalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatiga egaligiga e‘tibor qaratish;

3) kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan integrativ xarakterdagi o‘quv materiallarini loyihalashda o‘qituvchining mavqeyini oshirish kabilar.

Ishlanmalarining mazmunida quyidagilarni ifodalanishiga e‘tibor qaratiladi:

–o‘quv materialining muayyan didaktik maqsadga erishilishiga xizmat qilishi;

–talabalarining kasbiy muloqot ko‘nikmalarini egallaganliklari;

–taqdim etilgan o‘quv materiallari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy hayotini ifodalashiga e‘tibor qaratishi;

–didaktik materiallarning talabalarni ijtimoiy faollikka undashga yo‘nalganligi;

–mashg‘ulotlarning talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan holda jihozlanishi kabilar.

Didaktik materiallar mazmunida talabalarda kompetensiyalarni shakllantirish hamda bilishga asoslangan faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari uyg‘unlashtiriladi. Bunda bir qator mezonlarga tayaniladi:

a) talabalarda kommunikativ kompetensiyalarning shakllanganligi;

b) talabalarga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos jihatlarini haqida aniq tasavvurning paydo bo‘lganligi;

d) talabalarda ijtimoiy munosabat tajribasining hosil bo‘lganligi. Jumladan, shaxslararo munosabatlar va o‘zaro yordam, qo‘llab-quvvatlashning vujudga kelganligi kabi.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyalarning shakllanganligi ular orasida o‘zaro dialog muhiti-ning vujudga kelishini ta‘minlaydi. Talabalarda kompetensiyalarning shakllanishi natijasida tabiiy tarz-  
dagi ishchanlik muhiti vujudga keladi.<sup>2</sup>

Integrativ xarakterdagi didaktik materiallarning o‘ziga xos xususiyati – talabalarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy taraqqiyotidan xabardor qilish imkoniyatiga egaligidadir.

Kompetensiyalarning muhim xususiyatlaridan biri – talabalarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash imkoniyatiga egaligidadir. Integrativ xarakterdagi o‘quv materiallari talabalarni o‘rab turgan atrof-muhit, ijtimoiy reallikni ifodalashi nazarda tutiladi.

Imitatsion o‘yinlar yordamida talabalarni ijtimoiy hayotdagi hamkorlik va shaxslararo munosabatlariga olib kirish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bunday o‘yinlar jarayonida talabalarining guruh bo‘lib faoliyat ko‘rsatishlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

<sup>1</sup>Sharifzoda S. Integrative methods of formation of basic competencies in students//Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32 (3). ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X. <https://orcid.org/0000-0003-4733-8204>

<sup>2</sup> Сафарова Р. ва б. Ўқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланиб, ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантириш жараёнини ташкил этиш тамойиллари ва параметрлари. Т., “Фан ва технология”, 2013, 142-бет.

Mashg'ulotlarning didaktik jihozlanishi talabalarni zarur materiallar bilan qurollantirish imkonini beradi. Mashg'ulotlar davomida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqida ma'lumot beruvchi materiallar kiritiladi.<sup>1</sup>

Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishda bir qator holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

1) talabalarda kompetensiyalarni shakllantirish uchun ularning o'quv hamda amaliy faoliyatlarini uyg'unlashtirish;

2) jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlarini targ'ib qiluvchi foto, audio, videovizual vositalardan foydalanish kabilar.

Talabalar bilan guruhli faoliyat jarayonida turli xil loyihalarni amalga oshirishga e'tibor qaratiladi.

kompetensiyalarni shakllantirishdan ko'zda tutilgan maqsad shundan iboratki, bu talabalarning ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishga yo'nalganliklarini ifodalaydi:

a) ijtimoiy tajribaning shakllanishi;

b) hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish;

d) dialogning vujudga kelishiga sharoit yaratish;

e) fikrni bayon etish uchun zarur axborotlar va dalillardan o'z o'rnida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

f) ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun barqaror mayllarni vujudga kelishini ta'minlash;

g) muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish ko'nikmasiga ega bo'lishlariga e'tibor qaratish kabilar.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan integrativ texnologiyalar muhim pedagogik ahamiyatga ega. Jumladan:

–talabalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda kompetensiyalarning muhim ahamiyat kasb etishini pedagogik jihatdan asoslash;

–kompetensiyalarni shakllantirish maqsadlariga ko'ra didaktik materiallarni tabaqalashtirish;

–kompetensiyalarni shakllantirishda o'qituvchilarning o'quv jarayonini loyihalash imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirish asosida integrativ xarakterdagi ijtimoiy kompetentlikni tarkib toptirishda mashg'ulot tashkil etdik.

Mazkur mashg'ulot quyidagicha tarkibiy tuzilishga ega bo'ldi:

1. Mashg'ulotni tashkil etish jarayonida dastlab talabalarning kichik guruhlarini shakllantirildi.

2. Talabalar bajaradigan faoliyat mazmuni izohlandi.

3. O'quv materiallarining mazmuni integrativ yondashuv asosida takomillashtirildi va o'quv dasturlari mavzulari bilan bog'landi.

4. Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari tanlandi va tizimlashtirildi.

5. Talabalar tomonidan bajariladigan vazifalar taqsimlandi.

Talabalar topshiriq mazmuni va shartlari bilan tanishtirildilar. Jumladan, bir-birlari bilan o'zaro axborot almashish asnosida, kompetensiyalarining mavjud darajasini namoyon qildilar, bir-birlariga savollar berib, javoblar qaytardilar. Bu o'rinda kompetensiyalarning mazmuni uch yo'nalishda o'z ifodasini topdi:

–birinchi yo'nalishda loyiha mazmuni;

–ikkinchi yo'nalishda loyiha ustida ishlash davri;

–uchinchi yo'nalishda loyiha natijalari.

Bu yo'nalishlar mazmun-mohiyatiga ko'ra, o'zaro bir-birini taqozo qiladi. Ularning har biri o'zida muayyan axborotlarni mujassamlashtiradi. Loyiha ustida ishlovchi talabalar o'zaro axborot almashinish, birgalikda ijodiy faoliyat ko'rsatish asosida kutilgan natijaga erishadilar.

Talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish maqsadida ular oldiga quyidagi savollar qo'yildi:

◆Siz bo'sh vaqtingizda qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanasiz?

◆Qanday kitoblar o'qish bilan mashg'ul bo'lasiz?

◆Siz tanlagan kasbning jamiyatda qanday ahamiyati bor?

◆Siz bo'sh vaqtingizda nimalar bilan shug'ullanasiz?

---

<sup>1</sup> Sharifzoda S. The use of an integrative approach in the formation of basic competencies in students as a socio-didactic necessity. Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 vol 7, issue 12, 2020 3115.

Mazkur savol-javob natijasida talabalarda kompetensiyalarning shakllanganligi, ularning kasbiy qiziqishlari, kasblarga bo'lgan munosabatlari, ijodiy layoqatlari, o'z bo'sh vaqtlarini tashkil etish usullari haqidagi ma'lumotlarni bilib oldik. Bunday savol-javoblar natijasida talabalar orasida ishchan dialog muhiti vujudga keldi. Ular o'z qiziqishlarini bayon qilishga muvaffaq bo'ldilar. Talabalar muammolarni birgalikda yechishga harakat qildilar. Jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar talabalarda madaniy-iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qildi. Ular jamiyatdagi muammolar va erishilgan yutuqlarni tushuna boshladilar.

Shu bilan bir qatorda, shaxsiy sifatlarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan o'z-o'zlari va atrofdagilarga baho berish ko'nikmalari rivojlandi. Talabalarda ijodkorlik, bilimlarni boyitish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kabi sifatlar tarkib topdi.

Taqdim etilgan integrativ xarakterdagi o'quv materiallari vositasida talabalarda shaxslararo munosabat tajribasi shakllantirildi. Ularda fan-texnika yutuqlaridan xabardorlik, yangiliklarni bilishga intilish, ijodkorlik sifatlarini egallash kabi motivlar shakllandi.

Talabalarda ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirish maqsadida real hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalash metodidan foydalanildi. Bu jarayonda talabalar hayotiy vaziyatlarga moslashishga muvaffaq bo'ldilar. Ijtimoiy hayot bilan bog'liq vaziyatlar talabalarining iqtisodiy, madaniy munosabat me'yorlarini o'zlashtirishlariga ko'maklashdi. O'zaro axborot almashinish, shaxslararo munosabatga kirishish, madaniy-estetik qarashlarini takomillashtirish imkonini berdi. Bu esa talabalarda kompetensiyalar yordamida integrativ xarakterdagi kompetentlilikni shakllantirish, ularni ijtimoiy munosabatlarga kirishishga tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida faoliyat ko'rsatishga yo'naltirish imkonini beradi. Kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni talabalarining o'zaro axborot almashinishlariga qulaylik yaratishi uchun guruhli ish usulidan foydalandik.

Kompetensiyalarning inson faoliyatining tarkibiy qismlarini rivojlantirish imkoniyatiga egaligidan kelib chiqqan holda ko'p variantli o'quv topshiriqlari tanlandi.

Integrativ yondashuv asosida talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishda eksperimentator-o'qituvchilar keng ko'lamli vazifalarni bajardilar. Bunday vazifalar sirasiga o'quv topshiriqlarini tanlash, o'quv vaziyatlarini tashkil etish, talabalarining faoliyat natijalarini tashxislash va baholash kabilar kiradi. Bu, o'z navbatida, har bir bosqichda o'qituvchi hamda talabalar faoliyatining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir.<sup>1</sup>

Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratdik:

–kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun talabalarda mavjud bo'lgan so'z zaxirasi va nutqiy ko'nikmalar darajasini aniqlash;

–o'quv materiallarini mazmun jihatdan boyitish;

–kommunikativ kompetensiyani jadal tarzda shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vaziyatlarni tashkil etish;

–talabalarni juftliklar va kichik guruhlariga ajratish;

–mashg'ulotni didaktik jihatdan jihozlash kabilar.

Mashg'ulotni didaktik jihatdan jihozlash uchun o'qituvchi zarur chizmalar, maketlarni tayyorlaydi. Mashg'ulotni maqsadga muvofiq tarzda jihozlash natijasida talabalarining vaqti tejaladi va vujudga keladigan savollarning oldi olinadi. O'qituvchi talabalarda ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan didaktik vositalarni tanlaydi va tizimlashtiradi.

O'qituvchi dars jarayonida talabalarni o'z faoliyatlari natijalari va sinfdoshlarining faoliyatlarini obyektiv baholashga o'rgatadi. Talabalarda integrativ xarakterdagi ijtimoiy kompetentlilikning shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida tashxislash metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodika doirasida talabalarga turli savollar bilan murojaat qilindi. Mazkur savollar talabalarda kompetensiyalar yordamida shakllantiriladigan ijtimoiy kompetentlilikning tarkibiy qismi bo'lgan ilmiy dunyoqarash, ijtimoiy madaniy xulq-atvor me'yorlari, kasbiy tafakkur, iqtisodiy-ijtimoiy bilimdonlik, fuqarolik faolligi, estetik did va kommunikativ ko'nikmalar, axborotlarga obyektiv va ongli munosabatda bo'lish, qadriyatlar va ajdodlar merosini e'zozlash kabi ko'nikmalarining qay darajada shakllanganligini aniqlashga xizmat qiladi.

Talabalarining ijtimoiy kompetentlilik darajalarini aniqlashga xizmat qiladigan savollar va topshiriqlar ularning o'quv-biluv faoliyatlari natijalarini nazorat qilishga yo'naltirildi.

---

<sup>1</sup> Sharifzoda S. The use of an integrative approach in the formation of basic competencies in students as a socio-didactic necessity. Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 vol 7, issue 12, 2020 3115.

Madaminov Uktamjon Ataxanovich (TATU Urganch filiali katta o'qituvchisi; [uktam9527@gmail.com](mailto:uktam9527@gmail.com)),  
Bektemirova Risolat Shukurla qizi (TATU Urganch filiali talabasi; [risolatbektemirova@gmail.com](mailto:risolatbektemirova@gmail.com))  
**WEB DASTURLASHNI MOBIL ILOVALAR VA WEB ILOVALAR YORDAMIDA  
O'RGANISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI**

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolaning asosiy mazmuni oliy ta'lim tashkilotlarida web dasturlashni o'qitish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish, bugungi kunda mavjud usullarni tahlil qilish, oliy ta'lim tizimi uchun qulay bo'lgan usulni o'rganish va takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, web dasturlashni yangi texnologiyalar asosida o'qitish orqali katta hajmdagi web ilovalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish orqali yuqori va sifatli natija olish usullari haqida batafsil yoritib berilgan.

**Аннотация.** Основным содержанием данной научной статьи является использование новых технологий обучения веб-программированию в организациях высшего образования, анализ существующих методик, изучение и совершенствование методик, удобных для системы высшего образования. Кроме того, подробно рассказывается о методах получения качественных результатов путем разработки и внедрения крупномасштабных веб-приложений путем обучения веб-программированию на основе новых технологий.

**Annotation.** The main content of this scientific article is the use of new technologies for teaching web programming in higher education organizations, the analysis of existing methods, the study and improvement of methods that are convenient for the higher education system. In addition, it is explained in detail about the methods of obtaining high-quality results by developing and implementing large-scale web applications by teaching web programming based on new technologies.

**Kalit so'zlar:** M-learning, web dasturlash, oliy ta'lim, usullar, texnologiya, ilovalar, elektron darslik, sifat, takomillashtirish, biznes.

**Ключевые слова:** мобильное обучение, веб-программирование, высшее образование, методы, технология, приложения, электронный учебник, качество, совершенствование, бизнес.

**Key words:** M-learning, web programming, higher education, methods, technology, applications, e-textbook, quality, improvement, business.

Jamiyatning turli sohalarda yangi tizimlarni paydo bo'lishi, korxonalar va muassasalarni ko'payib borishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, tarmoqlarda axborot oqimining ortib borishi mavjud tizimlar xususiyatlarini murakkablashuvi hamda raqobat muhitining ortib borishi bilan tavsiflanmoqda. Web dasturlashni o'zlashtirish davomida talabalar murakkab sohalarga mansub bo'lgan tizimlarda boshqarish jarayonlari, uning ichki tizimlari orasidagi bog'liqlar, tizim integratsiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'ladi. Olgan bilimlarini ta'lim muassasalari, ishlab chiqarishning barcha sohalarini tahlil qilishda hamda talablardan kelib chiqqan holda loyihalashda qo'llashlari mumkin.

Oliy ta'lim tashkilotlarida web dasturlashning yangi texnologiyalari bilan talabalarni tanishtirish va ushbu texnologiyalardan foydalanish orqali talaba-yoshlarning bilimlarini takomillashtirish, amaliy ko'nikmalar hosil qilish, kelajakda katta hajmdagi va turli qurilmalarda, platformalarda bir xil rejimda ishlay oladigan ilovalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bugungi raqobat muhiti shuni taqozo etadiki, web dasturlashdan keng foydalanish ko'plab qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun web dasturlashni tahlil qilish va loyihalash haqidagi bilimlarni hosil qilishni o'z ichiga oladi.

Web dasturlashni o'qitishdan maqsad talabalarga web dasturlashni tahlilini tushuntirib berish, qo'yilgan masalalarni qoyilgan masalalarni tadqiqini o'rganishdan iborat. Shuningdek, web dasturlashni yaratilishi, tizim nazariyasining asosiy tushunchalari, tizimli tahlil va texnologiya haqida tushunchaga ega bo'lishga o'rgatadi. Vazifasi sifatida talabalarga web dasturlash maqsadining qo'yilishi va vazifalarini belgilashni, tashkil etish usullari, jarayonlari va bosqichlari, vositalarni ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot ishlari, o'quv jarayonlariga tatbiq etish usullari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishdan iboratdir. Web dasturlash oliy ta'lim tizimida umumkasbiy fan hisoblanib, belgilangan kurslarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan "Axborot texnologiyalari", "Ma'lumotlar bazasi va internet texnologiyalar", "Mobil ilovalarni ishlab chiqish", "Ta'limda raqamli texnologiyalar" fanlari bilan uzviy bog'liq va shu fandan olingan bilimlarga asoslanadi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Uktam Madaminov Ataxanovich, Sadikov Mahmudjon Akmuratovich, Kutliev Sardor Pulatovich, Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Ashirova Anorgul Ismoilovna. Development and application of computer graphics trai-



Oliy ta'lim tashkilotlarida web dasturlashni o'qitish va uni optimallashtirish uchun talabalar o'zlashtirish natijasida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:


♦biznes soha uchun tizimning yaratilish asoslari va ishlash tamoyili, uning asosiy xususiyatlari, tizim turlari, ularni tashkil etuvchilari, tizimning turli xususiyatlariga ko'ra sinflanishi, ularni turli sohadagi o'rni va tizimlarni qo'shimcha xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalar turli xil tizimda mavjud jarayonlarni roli va uni tahlil qilish usullari to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishni bilishlari talab qilinadi;

♦har qanday obyektning tizim sifatida tahlil qilish, murakkab tizim modellarini qurish, tizimni tahlil qilishda matematik uslub va modellarni qo'llash, tizimlarni mavjud xususiyatlariga ko'ra sinflash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

♦tizimli tahlil maqsadining qo'yilishi va vazifalarini belgilash, tizimlarni mavjud xususiyatlariga ko'ra sinflash, matematik model qurish, tahlil qilishda matematik uslublarni qo'llash va tizimli tahlil metodologiyasini ishlab chiqish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Web dasturlashni yaxshi o'zlashtirish uchun uni bayon etish chog'ida faol o'qitish usullaridan (mumammoli holatlar hosil qilish, jamoaviy tafakkur faoliyatini tashkil etish, aqliy hujum, shaxsiy topshiriqlar berish), axborot texnologiyalardan, taqdimotlardan hamda ushbu fanga tegishli videodarslardan foydalanish, tizimlardagi real holatlarni misol orqali namoyish kutilgan natijani beradi. Talabalarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va mustahkamlash uchun amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini va uy vazifalarini bajarish vaqtida zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy vositalaridan keng foydalanishga e'tibor berish zarur. O'quv fanining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi oraliq nazoratlari semestr davomida ikki marta) va yakuniy nazorat tadbirlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Oraliq va yakuniy nazoratlar mos ravishda fanning ayrim bo'limlari yoki barcha bo'limlari bo'yicha yozma ish, amaliy topshiriq, savol-javob yoki test savollari ko'rinishida o'tkazish orqali bilim darajalarini aniqlash mumkin. Web dasturlashni o'qitishni takomillashtirish bo'yicha bir qancha usullarni keltirib o'tish mumkin.<sup>1</sup>

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim, o'z mohiyatiga, ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirishda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi. Web ilovaning dinamik qismini ishlab chiqishni o'rgatishda ancha foydalidir.



**1-rasm. M-Learning bosh oynasi.**

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi. Ilovani ishlab

ning software in information technology. 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). 3–5 Nov. 2021. DOI: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670321.


<sup>1</sup> Madaminov U., Ashirova A., Kutliyev S., Nurbek K., Fakhridin A. Didactical potential of using the electronic textbook in the process of learning computer graphics. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021.

chiqishda integratsiya qilish jarayonini tizimli yondashuv orqali tushuntirish, talabning tushunish va esda saqlab qolishini ta'minlaydi.


Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Loyiha uchun kerakli ma'lumotlarni tezda izlab topish va amaliyotga tatbiq qilishni ta'minlaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish, muammoli ta'lim, axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash, o'qitishning usullari va texnikasi, o'qitishni tashkil etish shakllari, o'qitish vositalari, kommunikatsiya usullari, teskari aloqa usullari va vositalari, boshqarish usullari va vositalari, monitoring va baholash kabi texnologiyalar web dasturlashni o'qitishning optimal usullaridan hisoblanadi.



2-rasm. Dasturning amaliyot bo'limi.



3-rasm. Dastur back end qismi.


Mavjud texnologiyalardan foydalanish va oliy ta'lim tizimi uchun yangi usullar, metodlar, texnologiyalar, dasturiy ta'minotlar ishlab chiqish o'qituvchilar uchun bir qancha yengiliklarni yaratadi. Masalan: php tilining laravel kutubxonasini o'rgatish ma'lum darajada qiyinchilik yaratadi. Sababi, bu texnologiya yangi bo'lgani uchun u haqida ma'lumotlar, videodarslar, amaliy misollar kam bo'lishi mumkin. Bu

masalani optimallashtirish maqsadida M-learning ilovalarini ishlab chiqish va undan foydalanish mumkin.<sup>1</sup>

Bu mobil ilova orqali talabalar web dasturlash haqida ko'plab foydali ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Web dasturlashning front end va back end qismlari bo'yicha nazariy ma'lumotlar, amaliy misollar, foydali havolalar keltirilgan. Ushbu mobil ilova android platformalarda ishlovchi mobil qurilmalarda ishlaydi. Dasturni ishlab chiqishda java dasturlash tilidan foydalanildi. Mobil ilovadan istalgan joyda va offline tarzda foydalanishi mumkin.


Bu dasturni yaratishda oliy ta'limda o'qitiladigan «web dasturlashga kirish» fanining mavzularidan foydalanildi. Bundan tashqari, talabalarga qulaylik yaratish maqsadida web dasturlashda qiyin bo'lgan mavzular, savollar inobatga olinib, qo'shimcha materiallar va videodarslar kiritildi. M-learning bugungi kunda eng ko'p foydalaniladigan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasida ham bu texnologiyani qo'llash orqali yuqori natijaga erishish mumkin. Sababi, fanni xohlagan vaqtda va xohlagan joyda o'rganish imkoniyatini yaratadi va jarayonni tezlashtiradi. Shu maqsatda web dasturlashni o'rganish uchun maxsus ilova ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilinib kutilgan natija olindi. Tajriba sinov ishlari Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali «dasturiy injiniring» yo'nalishi 2-kurs talabalarida ma'ruza va laboratoriya darslarida bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, Respublikaning bir qancha oliy ta'lim tashkilotlarida tajriba sinov ishlari o'tkazildi.<sup>2</sup>

Web dasturlashni o'qitishning optimal usullaridan yana biri tayyor resurslardan foydalanishdir. Bugungi kunda ko'plab materiallar, dasturiy vositalar, videodarslar, elektron kitoblar va boshqa foydali ma'lumotlar mavjud va bulardan foydalanish ham yuqori natija beradi. Misol sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:



4-rasm. Web dasturlashni o'rganish.

Ushbu web sayt orqali web dasturlashni to'liq o'rganish mumkin. Ilovada har bir termin bo'yicha alohida nazariy ma'lumotlar, amaliy misollar berilgan. Bu tizimning boshqa ko'plab tizimlardan farqi – kod natijalarini saytni o'zida ko'rish mumkin ya'ni online kompilatsiya qilish imkoniyati bor.<sup>3</sup>



4-rasm. Online compiler qismi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tashkilotlarida web dasturlashni biz yaratgan mobil ilovalar (play market dan yuklab olish mumkin) yordamida o'qitish yoki bugungi kunda mavjud bo'lgan

<sup>1</sup> Ashirova Anorgul Ismoilovna, Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Uktam Madaminov Ataxanovich, Ollaberganova Muyassar. Creating an application for training science. 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). 3–5 Nov. 2021. DOI: 10.1109/ICISCT52966.2021. 9670410.

<sup>2</sup> Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Qodirov Davronbek Rajabboy o'g'li, Avezov Mardonbek Abdullayevich, To'liboyeva Umida Gulmirza qizi. Use of visit karakalpakstan mobile app in the development of tourism in the republic of karakalpakstan. INTERNATIONAL JOURNAL ON HUMAN COMPUTING STUDIES. p-ISSN: 2615-1898. Volume: 03 Issue: 8|Oct 2021.

<sup>3</sup> Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Urazboyev Kamolbek Ulugbek o'g'li, Yo'ldoshev Quvonchbek Sultonboy o'g'li. A Program Which Can Teach Students about Java Program Language And Its Functions. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology ISSN: 2350-0328. October 2021.

elektron ta'lim resurslaridan foydalanish orqali fanni chuqur o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalar hosil qilish va talaba mustaqil tarzda web ilovalar ishlab chiqishi darajasiga yetish mumkin. Bulardan tashqari, web dasturlashni o'qitish uchun bugungi kundagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish, tayyor dasturiy vositalardan foydalanish va ularni tahlil qilish, oliy ta'lim uchun eng qulaylarini tanlash va foydalanish usullari to'liq yoritib berildi. Ushbu ilmiy ish bo'yicha tajriba sinov ishlari o'tkazildi va kutilgan natijalarga erishildi.

**Ruzmetov Ne'mat Kalandarovich (Urganch davlat universiteti dotsenti),  
Madaminov Azimbek Egamberganovich (Urganch davlat universiteti o'qituvchisi;  
e-mail: [madaminov.9290@gmail.com](mailto:madaminov.9290@gmail.com)), Kazakov Amir Xaydarovich (Urganch davlat universiteti 2-bosqich  
magistranti; e-mail: [amirkazakov1994@gmail.com](mailto:amirkazakov1994@gmail.com))**

## **VOLEYBOL TO'GARAKLARIDA YONLAMA HARAKATLANISH TEZKORLIGI VA TO'P UZATISH ANIQLIGINI SO'ROVNOMA ASOSIDA O'RGANISH NATIJALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola o'rta maktab yoshidagi bolalar uchun voleybol to'garaklari va bolalar va o'smirlar sport maktablarda o'tkazilayotgan mashg'ulotlari, o'rgatish va takomillashtirish jarayoni-ning barcha bosqichlari, yonlama harakatlanish tezkorligi va to'p uzatish aniqligini qo'shma usulda shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish borasida fikr yuritiladi.*

***Аннотация.** В этой статье основное внимание будет уделено вопросу формирования волейбольных клубов для детей старшего школьного возраста и всем этапам процесса обучения и совершенствования, ускорения боковой подвижности и точности передачи мяча совместным способом, которые проводятся в детских и юношеских спортивных школах.*

***Annotation.** In this article, the main attention was paid to the formation of volleyball clubs for high school children and all stages of the learning and improvement process, acceleration of lateral mobility and accuracy of passing the ball in a joint way, which are held in children's and youth sports schools.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy madaniyat, voleybol tizim, murabbiy, sport, jismoniy tarbiya, texnik-taktik, charchoq, tezkorlik, to'p uzatish, harakatlanish.*

***Ключевые слова:** физическая культура, волейбольная система, тренер, спорт, физическая культура, технико-тактический, утомляемость, быстрота, подача мяча, движение.*

***Key words:** physical culture, volleyball system, coach, sport, physical education, technical and tactical, fatigue, agility, passing the ball, movement.*

Millat genafonini shakllantirish va sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lmish jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish, uni xalqaro me'yor bosqichlariga olib chiqish, millatimiz hamda yurtimiz shuhratini yuksak cho'qqilarga olib chiqishga qodir sportchilar tayyorlovchi mutaxassis kadrlar, o'qituvchi-murabbiylar yetishtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu progressiv strategiyani izchillik bilan amalga oshirish maqsadida yurtimiz rahbari tomonidan bir qator konseptual farmon va qarorlar, jumladan, 2017-yil 3-iyunda "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli qaror,<sup>1</sup> 2018-yil 5-martda "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli farmon qabul qilindi. Voleybol – jismoniy tarbiya va shaxs rivojlanishining samarali va ko'p qirrali vositasi.

Voleybol bilan shug'ullanish organizmning ko'plab muhim tizimlariga samarali ta'sir ko'rsatadi va ularni yuqori darajada takomillashtiradi. Shu sabablarga ko'ra, voleybol ko'plab mamlakatlarning jismoniy tarbiya tizimida salmoqli o'ringa ega.

Voleybol BO'SMlar (bolalar o'smirlar sport maktabi), umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlarining jismoniy madaniyat fani dasturlariga kiritilgan.<sup>2</sup> O'rta maktab yoshidagi voleybol to'garaklari va BO'SMlarda o'tkazilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'rgatish va takomillashtirish jarayonining barcha bosqichlarida yonlama harakatlanish tezkorligi va to'p uzatish aniqligini qo'shma usulda shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmas ekan. Ana shu "jumboqni" o'rganish va uning asl holatini rasman aniqlash maqsadida biz voleybol bilan muntazam shug'ullanuvchi 32 nafar yosh sportchi va 18 nafar o'qituvchi-murabbiy o'rtasida ekspress-so'rovnoma o'tkazdik.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli qarori.

<sup>2</sup> Z.B. Boltayev. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, SamDU, 2019, 5-bet.

So'rovnoma natijalari 1-jadvalda aks ettirilgan. Jadvalda qayd etilgan savollarga berilgan javoblar dastlab o'tkazilgan kuzatuv natijalarini tasdiqlab bermoqda. Jumladan, "Tezkorlik, uning tarkibiy komponentlari va mohiyati haqida aniq tasavvurga egamisiz?" deb nomlangan birinchi savol o'qituvchi-murabbiylarga berilgan bo'lib, natijada 18 nafar murabbiy respondentdan faqat 8 tasi "ha" deb javob berdi. Ularning 10 nafari bu savolga aniq javob berishga o'z ekanliklarini bildirdilar.

Albatta, murabbiy-respondentlar beriladigan javoblarni o'z foydasiga mo'ljallab yozib berishlari mumkin edi. Lekin, ekspress-so'rovnomaning o'tkazishidan avval, respondent murabbiylar va respondent bolalar bilan tuman xalq ta'limi bo'limi vakili, 4 ta o'rta maktab direktorlari o'rinbosarlari ishtirokida alohida suhbat o'tkazilgan edi. Suhbatda so'rovnomaning o'tkazishidan maqsad sport to'garaklarida mavjud muammolarni bartaraf etish, o'qituvchi-murabbiylar nazariy bilimlarini ishda ajralmagan holda oshirish, ularga beminnat maslahatlar berish bo'lganligi sababli savollarga beriladigan javoblar asl holatga loyiq bo'lishi zarur ekanligi eslatib o'tilgan edi, qolaversa, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar og'zaki savol-javoblarda (ekspress-intervyu) ham qatnashishi mumkinligi ogohlantirilgan edi.

Ma'lumki, sport ko'nikmalariga o'rgatish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni takomillashtirish jarayonida qator pedagogik (didaktik) prinsiplar bilan bir qatorda, onglik va faollik prinsipini qo'llash muhimligi isbot talab qilmaydi. Chunki sport to'garaklarida shug'ullanayotgan har bir bola o'rgatilayotgan texnik-taktik ko'nikma yoki rivojlantirilayotgan jismoniy sifat haqida zarur va yetarli tasavvurga ega bo'lmog'i lozim.<sup>1</sup> U shundagina ko'nikma yoki sifatni ongli, ularning anatomik, biomexanik, kinematik va fiziologik qonuniyatlarini tushungan holda o'zlashtirishi mumkin. Faqat ongli, yetarli nazariy bilim asosida o'zlashtirilgan harakat sifati yoki ko'nikmalarini ijro etishda bola unga ijodiy yondasha boshlaydi, ana shundagina bola shu texnik usullarni yoki harakat ko'nikmasini yangi avlodini ixtiro qilishi mumkin. Juda bo'lmaganda, shu harakatlarni eng samarali va qulay (kam energiya sarflanadigan) usullarini o'ylab topishiga asos yaratiladi. Lekin, afsuski, yuqorida qayd etilganidek, so'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchi-murabbiylar ham, shug'ullanuvchi bolalar ham na texnik ko'nikma, na jismoniy sifatlarga haqida yetarli nazariy bilimga ega emas ekanlar. Mashg'ulotlarda jismoniy sifatlarga haqida nazariy bilimlar berilmasligi bolalarning javoblari bilan ham tasdiqlanadi: 32 nafar respondent-bolalardan faqat 9 tasi "ha", 23 tasi esa "yo'q" javobini taqdim etdilar.

*1-jadval*

**Respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari**

T/r	Savollar	Javollar			
		Bolalar – 32		Murabbiylar – 18	
		Ha	Yo'q	Ha	Yo'q
1	Tezkorlik, uning tarkibiy komponentlari va mohiyati haqida aniq tasavvurga egamisiz? (murabbiyga)	-	-	8	10
2	Mashg'ulotlarda jismoniy sifatlarga haqida nazariy bilim beriladimi? (bolalarga)	7	25	-	-
3	Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda voleybolning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadimi? (murabbiyga)	-	-	9	9
4	Tezkorlik sifati va texnik-taktik usullar integral tartibda shakllantiriladimi? (murabbiyga)	-	-	4	14
5	Tezkorlik sifati va texnik ko'nikmalarining shakllanish dinamikasi nazorat qilinadimi? (ikkalasiga ham)	8	24	12	6
6	O'quv-mashg'ulot jarayonida o'tkazilgan test sinovlari natijalaridan amalda foydalaniladimi?	13	19	13	5
7	Mashg'ulotlar davomida charchaysizmi?	16	16	11	7
8	Charchashni bartaraf etuvchi va ish qobiliyatini tiklovchi mashqlar qo'llaniladimi? (ikkalasiga ham)	16	18	14	4
9	Mashg'ulotlardan qoniqish hosil qilasizmi? (ikkoviga ham)	12	20	11	7
10	O'zingiz shaxsan ertalabki gimnastika bilan shug'ullanasizmi? (ikkoviga ham)	11	21	6	12

<sup>1</sup> Sh.A.Pulatov, M.A.Kadirova. Voleybol mashg'ulotlarida harakatlanish tezkorligi va to'p uzatish aniqligini shakllantirish uslubiyati. Uslubiy qo'llanma, O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, Toshkent, 2013, 17-bet.

Demak, o'quv-mashg'ulot jarayonining yillik rejasida nazariy tayyorgarlikka ajratiladigan alohida o'quv soatlaridan maqsadli foydalanmasligi ko'rinib turibdi.

Jismoniy tarbiya va sport trenirovkasi nazariyasi va uslubiyati fanlari doirasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan ko'plab mutaxassis-olimlarning fikr-mulohazalari va xulosalariga ko'ra, ko'p yillik sport mashg'ulotlarining barcha bosqichlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish strategiyasi doimo tanlangan sport turining xususiyatlariga mos bo'lish muhim va shart ekanligi ta'kidlanadi.

Qayd etilgan mantiqqa xos bo'lgan uchinchi savolga, murabbiy-respondentlarga berilganda, olingan javoblar 50 foiz "ha", 50 foiz "yo'q" ma'nosi bilan ifodalandi. Demak, taxmin qilish mumkinki, bu borada murabbiylarda mukammal shakllangan fikr, yondashuv va yo'nalish sayqal topmagan.

Boz ustiga, murabbiylarga berilgan to'rtinchi savol javoblaridan xulosa qilsa bo'ladiki, voleybolda o'ta muhim va ustivor jismoniy sifatlardan biri bo'lgan tezkorlik texnik-taktik usullar asosida shakllantirilmagan ekan. har holda bu savolga faqat 4 nafar respondent ijobiy javob yo'lladi, xolos.

O'quv-mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirilayotgan texnik-taktik ko'nikmalar yoki shakllanib borayotgan jismoniy sifatlarni me'yoriy test mashqlari yordamida muntazam nazorat qilish va olingan natijalar asosida tayyorgarlik dasturiga muvofiq, o'zgartirishlar kiritish yoki mashg'ulot yuklamalarini muvofiqlashtirish sport mashg'ulotining ustuvor shartlaridan biridir.

Ana shu ma'noda ikki toifaga mansub respondentlarga yo'llangan 5 va 6 savolga muvofiq ravishda quyidagi javoblar olindi: shug'ullanuvchi bolalar – 5-savol – "ha" 8 ta, "yo'q" – 24 ta; 6-savol – "ha" 13 ta, "yo'q" – 19 ta; murabbiylar – 5-savol – "ha" 12 ta, "yo'q" – 6 ta; 6-savol – bolalar: "ha" – 13 ta, "yo'q" – 19 ta; murabbiylar – "ha" – 13 ta, "yo'q" – 5 ta.

Ushbu ikki savolga berilgan javoblar nisbatidan shunday fikrga kelish mumkinki, agar shug'ullanuvchi respondent bolalarning javoblari murabbiylar tajribasidagi asl holatni aks ettiradi deb ishonch bildirsak, respondent murabbiylarning o'z foydalarini (obro'si, mansabi, "men"ligi) o'ylab bergan javoblarini haqiqatga loyiq deb bo'lmaydi.

"Mashg'ulotlar davomida charchaysizmi?" degan ma'noda ikki respondent guruhiga berilgan savol mantiqan ikki bir-biriga qarama-qarshi jismoniy va ruhiy xususiyatlarga egadir. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan yuklamalarni o'zlashtirishda shug'ullanuvchilar u yoki bu darajada toliqadilar, hatto ayrim holdalarda o'ta toliqish yoki zo'riqish alomatlari ham yuzaga kelishi mumkin.

Charchash, toliqish sport trenirovkasiga xos va fiziologik jihatdan o'ta foydali jarayondir. Tayyorgarlik jarayonida mashg'ulotlarni boshqarish yuklamalar hajmi va shiddatini oshira borish "yuklama – charchash – dam – tiklantiruvchi mashqlar – yuklama" shaklidagi strategik tizim asosida amalga oshiril-mog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, yuklamalar yildan yilga "to'lqinsimon" prinsipda oshira borilishi darkor. Shug'ullanuvchi ham, mashg'ulotni boshqaruvchi ham "o'z ishidan" charchash emas, balki qoni-qish hosil qilish, o'tkazilgan jarayondan manzur bo'lish, motivatsion his va emotsional tonusning kuchayishini sezishi lozimdir. Ana shu hissiyot "charchashning" ikkinchi belgisidir.

Respondentlarga taqdim etilgan 7-savol ana shu masalaga qaratilgan edi. Javoblar: bolalar – "ha" – 16, "yo'q" – 16; murabbiylar – "ha" – 11, "yo'q" – 7. Ustuvor aniqlik bilan ehtimol qilish mumkinki, shug'ullanuvchi respondent bolalar javoblari jismoniy charchash hissi bilan bog'liq bo'lsa kerak, lekin murabbiylarning javobi, asosan, ruhiy charchashni anglatadi.

O'quv-mashg'ulot jarayonida yo'l qo'yiladigan va eng keng tarqalgan uslubiy kamchilik-muammo – bu yuklamalar oralig'ida va mashg'ulotlar yakunida charchash yoki o'ta toliqish alomatlarini oldini olishga qaratilgan va ish qobiliyatini tiklashga bag'ishlangan maxsus reaksiyon mashqlarni deyarli qo'llanmasligi bilan bog'liqdir. Agar bunday tiklovchi mashqlar qo'llansa ham, tik turgan, o'tirgan yoki yurgan holda qo'llanishi odat tusiga kirgan. Ma'lumki, uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llanilgan tiklovchi mashqlar foydadan ko'ra, ko'proq zarar keltirishi mumkin. Shu ma'noda berilgan sakkizinchi savolga bolalarning 16 nafari "ha", 18 tasi "yo'q" deb fikr bildirishdi. Murabbiylar esa – "ha" 14 ta, "yo'q" – 4 ta.

Alohida ta'kidlash joizki, respondent bolalarning 32 tadan 20 nafari mashg'ulotlardan qoniqmasligi biroz tashvishga soladi. Demak, o'tkazilayotgan mashg'ulotlar hajm, shiddat yoki mazmun jihatlaridan bolalarda qiziqish uyg'otmaydi, motivatsiyani kuchaytirishga qodir emas, deb faraz qilish mumkin.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport jarayonida, umuman, insoniyatning turmush tarzida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, ayniqsa, ertalabki badantarbiya mashg'ulotlarini o'ziga odatiy ehtiyoj qilish olish sihat-salomatlik garovidir. Lekin, afsuski, amalda, hatto soha mutaxassislari, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, professional sport murabbiylari va sportchilar nafaqat ilmiy asoslangan, balki eng elementar mazmunli ertalabki "zaryadka" bilan shug'ullanishmaydi. Bunday holat biz tomonimizdan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bilan tasdiqlandi. Binobarin, ushbu so'rovnoma va olingan natijalar sport to'garak-

larida olib berilayotgan mashg'ulotlar maqsadi, mazmuni va strategik yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqishga asos bo'ladi. So'rovnomalar jarayoni tugaganidan so'ng olingan natijalar ochiqchasiga barcha respondentlar, boshqa pedagoglar va mas'ul xodimlar bilan muhokama etildi. Aynan so'rovnomalar natijalari va ularning tahlili shu ilmiy-uslubiy yo'nalishda tadqiqot hamda pedagogik tajriba o'tkazish imkoniyatlarini kuchay-tirdi.

Bo'lajak tadqiqotlarning dasturi, ularni o'tkazish tartibi, tadqiqot obyektlari va muddati, olingan natijalar asosida ishlab chiqiladigan amaliy tavsiyalarning maktab voleybol to'garagiga joriy etilish tartibi maktab rahbariyati bilan kelishib olindi.

Kuzatuv va ekspress-so'rovnomalar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, yosh voleybolchilar tayyorlash amaliyotida, jumladan, o'rta maktab voleybol to'garaklarida shug'ullanuvchi bolalarga jismoniy va texnik tayyorgarlikning uzviy bog'liqligi, maxsus jismoniy sifatlar va texnik ko'nikmalarni bir vaqtni o'zida integral xususiyatga xos vaziyatli hamda ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida shakllantirish zarurligi haqida nazariy bilimlar berilmas ekan.

Maydon bo'ylab harakatlanish tezkorligi va to'p uzatish aniqligi muntazam nazorat qilinmasligi hamda olingan natijalardan unumli foydalanish choralari ko'rilmisligi aniqlandi.

**Abdualimov Rufat Uchqun o'g'li (SamDU tayanch doktoranti)**  
**15–16 YOSHDAGI BASKETBOL VA STRITBOLCHI O'SMIRLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINING SAMARADORLIGI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada basketbol va stritbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda haftalik, oylik va yillik mashg'ulotlarda bajarilayotgan yuklamalar miqdori va sifati ko'rsatkichlari, ilmiy-metodik jihatdan keltirib o'tilgan.*

***Аннотация.** В данной статье в научно-методическом аспекте упоминаются показатели количества и качества нагрузок, выполняемых на недельных, месячных и годовых тренировках по совершенствованию физической подготовленности баскетболистов и стритболистов.*

***Annotation.** In this article, competitive activities of basketball and streetball players in weekly, monthly and annual training, the quantity and quality of performed actions and exercises, scientific methodical indicators are discussed.*

***Kalit so'zlari:** sport, basketbol, stritbol, kuch, chidamlilik, tezkorlik, texnik, taktik, integral, o'yin, mashq.*

***Ключевые слова:** спорт, баскетбол, стритбол, сила, выносливость, скорость, техник, тактик, интеграл, игра, упражнение.*

***Key words:** sport, basketball, streetball, integral, strength, speed, technical, tactical, game, tools, exercise.*

Kirish. Maktab o'quvchilarining harakat faolligi yetarli emasligi, bugungi kunda jismoniy tarbiyaning muhim muammolaridan biri bo'lib, o'quvchilarning samarali faoliyati uchun muammoning hal etilishiga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Yosh avlod jismoniy tarbiyasining bunday foydali vositalariga basketbol va uning zamonaviy turi – stritbol kiradi, ulardan muntazam ravishda mashg'ulot va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish zarur harakat ko'nikmalarni optimallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.<sup>1</sup>

Yuqori jismoniy muhitga asoslangan muvaffaqiyatli o'yin texnikasi va taktik harakatlarining bajara olish o'smirlik davrida tashkil etilganligi sababli, yuqori sinf o'quvchilari bilan to'garaklarda basketbol va stritbol vositalarini yil davomida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish katta qiziqish uyg'otmoqda.<sup>2</sup>

Basketbol va stritbol vositalarini integral qo'llash bilan o'smirlarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishi saqlanib qoladi, jismonan sog'lomlashishida, sport tayyorgarligining oshishi keng imkoniyatlar ochadi. Bunday mashg'ulotlar jarayonida inson ko'plab harakat faoliyatini namoyon etadi, bunda nafas olish tizimi, yurak-qon tomir va organizmning boshqa tizimlari va funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, texnik-taktik ko'nikma va bilimlar yaxshilanadi.

<sup>1</sup> A.A.Pulatov, F.V.Ganiyeva, B.M.Miradilov, D.T.Xusanova, F.A.Pulatov. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. «Sanostandart» nashriyoti, darslik, 2017, 348-bet.

<sup>2</sup> Арзуманов С.Г. Физическое воспитание в школе учащихся 59 классов. Ростов н/Д, «Феникс», 2008, с. 660.  
2. Лихачев О.Е. Школа современного баскетбола. Материалы Всероссийской научно-практической конференции. Смоленск, 2010, с. 68.



Basketbol va stritbolning an'anaviy jarayonining samaradorligini aniqlashda sportchilarning turli xil yuklamalarning ta'siri va sport mashg'ulotlarida ko'rib chiqilayotgan parametrlarning o'zgarish dinamikasining tabiati bo'yicha javob berish darajasini aniqlash juda muhimdir. Yosh basketbolchilarning jismoniy salomatlik darajasi, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi, ularning texnik-taktik tayyorgarligi darajasini aniqlash Samarqand shahridagi 81-umumta'lim maktabi, Jizzax viloyati 3-umumta'lim maktabi, Navoiy viloyati 10-umumta'lim maktabi sport bazasida 2021-yilning sentabrdan 2022-yilning aprel oyigacha amalga oshirildi.

Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol va stritbol vositalaridan integral foydalanish zaruriyati va imkoniyatlari to'g'risida mahalliy va xorijiy ilmiy-uslubiy adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, olimlar va mutaxassislarining dolzarb fikrlarini ochib berish.

- Bir yillik mashg'ulotlar davomida yuqori sinf o'quvchilarida basketbol va stritbol almashinuviga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash.

- To'garak mashg'ulotlarida basketbol va stritbol vositalaridan integral foydalangan holda o'quvchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi va jismoniy salomatligi darajasi ko'rsatkichlarining yillik dinamikasini aniqlash.

Tadqiqotning masadi – yuqori sinf o'quvchilarining basketbol va stritbol mashg'ulotlarini integral tarzda tashkil etish va mazmunini takomillashtirish asosida o'yin faoliyati samaradorligini oshirish.

Tadqiqot usullari va tashkil etilishi. Tadqiqot muommolarini hal qilish uchun quydagi usullardan foydalanilgan:

- adabiy manbalarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- pedagogik tajriba;
- matematik statistika.

Ushbu ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish basketbol va stritbol mashg'ulotlari asosida sog'lomlashtirish bo'yicha yillik mashg'ulotlarni integral qo'llash asosida o'smirlar va yoshlarning jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish muammosini ishlab chiqish holatini aniqlash, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislarining bunday darslarning tashkiliy-uslubiy va tarkibiy-mazmunli jihatlariga oid turli xil tasdiqlarini belgilash maqsadida qo'llanildi.

Bir yillik makrosikl doirasida basketbol va stritbol bilan integral va ketma-ket mashg'ulotlar jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish samaradorligi, bajarilayotgan mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini tezkor, joriy va istiqbolli nazorat qilish masalalari, turli sport mahoratli basketbolchilarning tayyorlanishini turli tomonlari darajasi, ushbu turdagi muntazam jismoniy faolligi jarayonida ularning salomatligini mustahkamlash imkoniyatlari ham o'rganildi.

So'rovnomada turli shaharlardagi maktablarida basketbol bilan shug'ullanadigan 12 nafar sportchi, Samarqand, Navoiy, Jizzax viloyatlaridagi maktab o'quvchilari ishtirok etdi.

Pedagogik kuzatuv va tajriba o'smirlar uchun mashg'ulot musobaqa faoliyatining tabiiy sharoitlarida amalga oshirildi:

- ◆basketbol va stritbolning an'anaviy jarayonining samaradorligini aniqlash;
- ◆mashg'ulotlarda, o'yinlarida yuklamalarning miqdori, pauzaning sabablari va davomiyligini aniqlash, sportchilarning texnik-taktik harakatlarining tuzilishi haqida ma'lumot olish;
- ◆O'zbekiston terma jamoasi a'zoliigi uchun kurash, "Barkamol avlod", hokim kubogi kabi o'yinlarda basketbolchilarning harakatlarini kuzatish orqali o'yin faoliyatining xususiyatlarini aniqlash.

Tanlangan taqsimotlarning asosiy xususiyatlari qiymatlarini aniqlash taniqli statistik usullarni qo'llash orqali amalga oshirildi

15–16 yoshli o'smirlarning olib boriladigan tajriba davomida jismoniy tayyorgarligi dinamikasi o'rganildi. 30 kun davomida o'tkazilgan testlar shuni ko'rsatdiki, jismoniy tayyorgarlik darajasida ishonchli yaxshilanish yuz berdi.

Basketbol va stritbol jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasidagi o'zgarishlar (n=12)

2-jadval

t/r	Sinov, ko'rsatkichlar	Sentabr, 2021. X±Sx	April, 2022. X±Sx	t	P
Texnik tayyorgarlik					
1	Jarima uzatishlar (soni)	4,8±0,9	5,2±1,1	0,98	>0,0
2	Masofadan otish (soni)	3,4±0,7	4,2±0,7	2,64	<0,0



3	Himoya ustunidan uzatish 3x5 m (s)	4,8±0,3	4,7±0,2	0,62	>0,0
4	Ikki qo'l bilan marraga uzatish-larni)	52,8±2,8	54,3±2,0	1,58	>0,0
Taktik tayyorgarlik					
1	Hujumli uzatishlar (soni)	10,0±3,2	10,8±2,4	0,48	>0,0
2	Raqib darvozasini tashlash (so-ni)	5,9±2,2	8,0±1,7	1,80	>0,0
3	Qalqonlar (soni)	11,3±4,2	14,7±1,6	1,39	>0,0
4	O'z shitiga tashlashlar (soni)	10,0±3,8	12,7±2,0	1,56	>0,0

O'yin texnikasini bajarishda harakatlarning to'g'ri oqilona texnikasini o'zlashtirish darajasi va raqiblar bilan to'qnashuvning turli daqiqalarida ularni samarali bajarish qobiliyati, asosan, basketbol va stritbol o'ynash samaradorligini belgilaydi.

Texnik standartlarga javob berish va o'yin harakatlarining samaradorligini aniqlash natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari blokida 2021-yil sentabr oyida erkin uloqtirishlar samaradorligi (mashg'ulotlarning boshlanishi) 6 ta zarbalar eng yaxshi ko'rsatkichi bilan guruhda o'rtacha 4,8 marta, eng yomoni 3 ta zarba, uzoq masofaga uloqtirish samaradorligi 3,4, 2 va 4 ta tortishish.

Mudofaa pozitsiyasida turli yo'nalishlarda 5 metrli uchta segmentni yengib o'tishning eng yaxshi natijasi – 4,3 s, eng yomoni – 5,2 s, farq 0,9 s va guruh o'rtacha qiymati – 4,8 s.30 soniya ichida nishonga tezkor uzatmalarning eng ko'pi 56 ta, eng kichiklari – 48 ta, farq 8 ta zarbani tashkil etdi, guruh o'rtacha korsatkich 52,8 ta.

Sportchilarning taktik tayyorgarligi hujum va himoyadagi musobaqa harakatlar samaradorligi bilan aniqlandi, ular orasida hujum paslarini bajarishda eng yaxshi natija 15 ta pas, eng yomoni – 5 ta pas bo'lib, 10 ta pas farqi va o'rtacha qiymati guruhdagi ushbu parametrlar – 10 ta uzatmalar.

To'pni qaytarib berish turli xil samaradorlik bilan amalga oshirildi: ko'pchiligida bitta sportchi 9 ta, eng kami – 3 ta, farq 6 ta, guruhdagi o'rtacha ko'rsatkich – 5,9 ta

Eng yaxshi ko'rsatkich – 18 qalqon, eng yomoni jami 5 ta, 13 qalqondagi farq va taktik tayyorgarlik mezonining guruhdagi o'rtacha qiymati – 11,3 qalqon.

Erkin to'p otish samaradorligining o'rtacha guruh ko'rsatkichi 10 marta urinishdan 5,2 marta urildi, eng yaxshi ko'rsatkich 7 marta, eng yomoni – 4 ta zarba. Topni masofadan shitga otishda quyidagi samaradorlik aniqlandi: guruhda o'rtacha 4,2 marta urish, eng yaxshi ko'rsatkich 5 ta, eng yomoni 3 ta hujum.

To'pni masofadan shitga otishda quyidagi samaradorlik aniqlandi: guruhda o'rtacha 4,2 marta urish, eng yaxshi ko'rsatkich 5 ta, eng yomoni 3 ta hujum. Nishonga tezkor to'p uzatmalarining tegishli ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lib chiqdi: eng yaxshi ko'rsatkich – 59 uloqtirish, eng yomoni – 52 ta, guruhdagi o'rtacha ko'rsatkich – 54,3 uzatish.

Hujum qiluvchi uzatishlar sonining qiymatlari oralig'i 8 tani tashkil etdi. Eng yaxshi natija 15 uzatish, eng yomoni – 7 uzatish, guruh bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich – 10,8 uzatishlar. Raqib jamoa shitiga hujumlar samaradorligi quyidagicha edi: eng yaxshi ko'rsatkich – 10 ta, eng yomoni – 6 ta, guruh o'rtacha ko'rsatkich – 8,0 ta.

Qalqon bo'lib himoya qilishda eng yaxshi natija 17 ta, eng yomoni – 12 ta ekran, guruhdagi o'rtacha ko'rsatkich 14,7 ta himoyani tashkil etdi.

Shitdagi to'pni tanlash natijalaridagi farq 7 ta, eng yaxshi ko'rsatkich 17 ta, eng yomoni 11 ta va guruhdagi o'rtacha ko'rsatkich 12,6 tanlovdan iborat.

42 haftalik mashg'ulotlarda sodir bo'lgan yosh basketbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi darajasidagi o'zgarishlar 2-jadvalda keltirilgan. Natijalar va ularni muhokama qilish. Yosh basketbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi bo'yicha ko'rib chiqilgan parametrlarning butun spektrida biroz yaxshilanish mavjud.

Eng muhimi (35,6%), to'pni boshqa bironing shitida va o'z shitida (27,0%), masofadan turib otish samaradorligi (23,5%) va qalqonlar (22,1%) yaxshilandi. Qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha takomillashtirish kamroq aniqlanadi va 2,1 dan 8,3% gacha o'zgarib turadi. Taktik tayyorgarlik darajasi texnik jihatdan (2,1–23,5%) emas, balki 8,0 dan 35,6% gacha o'zgargan. Statistika jihatdan ishonchli ijobiy o'zgarishlar sakkiztalik (2,64,  $p < 0,05$  masofadan otish) parameterlaridan biriga to'g'ri keladi. Bu an'anaviy basketbol dasturining past samaradorligini, stritbol vositalarini amalda qo'llash va uni modernizatsiya qilish zarur-

ligining ko'rsatadi.

**Masharipov Azamat Komuljonovich (Urganch davlat universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi; [azamat\\_86uz@inbox.ru](mailto:azamat_86uz@inbox.ru)),  
Sobirova Asaxon Muzaffarovna, Bekmuratov Imomali Ergash o'g'li (UrDU 2-bosqich magistrantlari)  
**TURISTIK SAYRLARDA JISMONIY MASHQLAR VA HARAKATLI O'YINLARNI  
O'TKAZISH USLUBIYATI****

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va kichik maktab yoshidagi bolalar bilan tashkil qilinadigan turistik sayr mashg'ulotlarning qisqacha mazmuni hamda sayrda jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar o'tkazish metodikasi bayon qilingan.

**Аннотация.** В данной статье изложено краткое изложение туристско-экскурсионной деятельности, организованной с детьми дошкольного и младшего школьного возраста, а также методика проведения физических упражнений и двигательных игр во время экскурсии.

**Annotation.** This article describes the summary of the tourist excursion activities organized with children of preschool age and junior school age, as well as the methodology of conducting physical exercises and movement games during the excursion.

**Kalit so'zlar:** jismoniy mashq, vosita, tavsif, turizm, majmua, yurish, harakatli o'yinlar.

**Ключевые слова:** физические упражнения, средство, классификация, туризм, комплекс, ходьба, подвижные игры.

**Key words:** physical exercises, means, classification, tourism, complex, walking, outdoor games.

Turizm tushinchasi nihoyatda keng ko'lamga ega bo'lib, turlicha talqin qilinadi va murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Turizm o'zining ijtimoiy tizimlar bilan bog'liq bo'lgan o'z tarixi hamda rivojlanish jarayonlariga ega. Turizm umumiy ma'noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Turizmning vujudga kelish omillari va davrlari ijtimoiy turmush, madaniy hayot va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Turizm uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan va samarali jismoniy madaniyat vositasi sifatida talaba-yoshlar uchun o'z hissiyotlilikini, jozibadorligini va moddiy mavjudligini yo'qotmagan va undan foydalanish jismoniy mashqlar hajmini oshirishga va funksional holatini yaxshilashga imkon beradi. Tarixan jismoniy mashqlar – o'yinlar tarzidagi, gimnastika ko'rinishidagi, sport va turizm mashqlariga turkumlangan.<sup>1</sup> Jismoniy mashqlar tarixiy jihatdan tarkib topib, metodik jihatdan gimnastika, o'yin sport va turizm sifatida shakillangandir.<sup>2</sup>

Jismoniy mashq deb jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi. Bunday harakat faoliyatlari gimnastika, o'yinlar, sport, turizm mashqlari sifatida tarixan tizimlashtiriladi, usuliyati to'plandi va to'ldirildi. Jismoniy tarbiya jarayonida ularning asosiy omilligi tarbiya tizimlarida ilmiy asoslangan. Demak, o'yin, gimnastika, sport, turizm tarkibiga kirgan jismoniy mashqlar turkumi deyish bizda ayrim hollarda noto'g'ri fikr tug'dirishi mumkin. Chunki sport turkumiga kirgan yugurish, yurish, sakrashlar jismoniy mashq sifatida o'yinlarda, gimnastika tarkibida, turizm mashqlari tarzida ham uchirishi mumkin. Mashqlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq holda foydalaniladi.

Turizm aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashi va jismoniy faolligini oshirishi mutaxassislarining qiziqishlarini oshirgan bo'lib, bu borada mamlakatimiz va xorij olimlari ilmiy izlanishlar olib borib, turizm jismoniy tarbiyaning samarali vositasi sifatida jismoniy mashqlar hajmini oshirishga hamda o'quvchi va talaba-yoshlarining jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va funksional holatini yaxshilashga imkon berishi haqida ilmiy manbalarida muhim ilmiy ma'lumotlar berganlar.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda sport turizmida, turizmni ikki yo'nalishga ajratadi: rejali va havaskorlik. Ular sayohatchilar tilida sust va faol sayohatlar. Ikkala holatda ham turizm jismoniy tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida tan olinadi.<sup>3</sup>

Turizm harakat ko'nikmalarini mustahkamlashga va tabiiy sharoitlarda jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchi-yoshlar bilan turli harakat usullaridan foydalangan holda, sayrlar uyushtiriladi. Sayr chog'ida yo'l-yo'lakay turli mashqlarni bajarish mumkin.<sup>1</sup> Jismoniy mashqlar mash-

<sup>1</sup> А.Абдуллаев, Ш.Х.Хонкелдиев. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Дарслик, Т., 2005, 71–76-бетлар.

<sup>2</sup> Л.П.Матвеев. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. Дарслик (Ўзбек тилига таржима), Т., 1975, 85-бет.

<sup>3</sup> Э.Ю.Дауренов. Туризм. Дарслик, Тошкент, 2014, 24-бет.

g'ulotida, tabiatning sog'lomlashtirish kuchlarini to'g'ri ishlata bilish kishi organizmiga jismoniy mashqlarni ijobiy ta'sirini oshiradi. Turizmda tabiatning sog'lomlashtirish kuchlaridan foydalanish ikki yo'nalishda olib boriladi:

–jismoniy mashqlar mashg'ulotini tashkil etishi va muvofiqlik sharoit sifatida o'tkazilishi, ya'ni, muhitning tabiiy omillari jismoniy mashqlar ta'sirini kuchaytiradi;

–organizmni chiniqtirishga nisbatan mustaqil vosita sifatida tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalaniladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni va kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash vazifalarni hal etish uchun turistik sayrlardan, sayrlarda jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlardan foydalanish juda dolzarbdir. Sayr vaqtida yuqori harakat faolligida o'tkaziladigan mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlar, hatto yilning sovuq fasllarida ham bolalarga yengil sport kiyimlari kiydirish bolalar orasida shamollash kasalliklarining kamayishi imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalari bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini haftasiga uch marta o'tkazish nazarda tutiladi shulardan biri sayr vaqtida o'tkazilsa, kichik maktab bolalari bilan, asosan, dam olish kunlari sayrlar tashkil qilinadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyalash samaradorligini oshirish uchun bunday ishlarni tashkil etishning turli shakllari tarbiyachi-pedagogning har kungi ish rejasiga kiritilishi kerak. Hafta mobaynida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, o'yinlar va jismoniy mashqlar navbatlashtirib turilishi lozim, turistik sayr mashg'ulotlari, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarning namunaviy haftalik rejasini 1–2-jadvalda berilgan. Bolalarning to'laqonli jismoniy rivojlanishi va sog'ligini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. Hal qilinayotgan vazifalarga, bolalarning yosh xususiyatlariga va boshqa shart-sharoitlarga qarab, bolalarning harakat faoliyati shakllari belgilanadi.

*1-jadval*

**Maktabgacha tarbiya muassasasida turistik sayr mashg'ulotlari haftalik rejasini**

<b>Kunlar</b>	<b>Sayr mashg'ulotlari mazmuni</b>
<b>ushanba</b>	Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari (sport zal yoki ochiq havoda); URM, o'yin-estafetalar, jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun majmua. Sport va harakatli o'yinlar.
<b>Chorshanba</b>	Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari (sport zal yoki ochiq havoda); URM, o'yin-estafetalar, jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun majmua. Sport va harakatli o'yinlar.
<b>Juma</b>	Hudud bo'ylab yoki belgilangan marshrut yo'nalishi bo'yicha sayrga chiqishlar. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun majmua, sayrda jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar. Musobaqalar.

*2-jadval*

**Umumiy o'rta ta'lim maktabida turistik sayr mashg'ulotlari haftalik rejasini**

<b>Kunlar</b>	<b>Sayr mashg'ulotlari mazmuni</b>
<b>Seshanba</b>	Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari (sport zal yoki ochiq havoda); URM, o'yin-estafetalar, jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun majmua. Sport va harakatli o'yinlar.
<b>Payshanba</b>	Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari (sport zal yoki ochiq havoda); URM, o'yin-estafetalar, jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun majmua. Sport va harakatli o'yinlar.
<b>Shanba</b>	Hudud bo'ylab yoki belgilangan marshrut yo'nalishi bo'yicha sayrga chiqishlar. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun majmua, sayrda jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar. Musobaqalar.

Harakatli o'yinlar aqliy faoliyatning murakkab jarayonlarini, mantiqiy fikrlash, tasavvur, xotira, diqqatni jamlay olish, tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ko'tarinki ruh bilan ta'minlangan holda, harakatli o'yinlar organizmni mustahkamlashga, uning chidamliligini oshirishga, harakatlarni koordinatsiyalash, tezkor mo'ljal olish, axloqiy sifatlarni, irodani, tashkilotchilikni tarbiyalashga ko'maklashadi. Shuning bilan birga, harakatli o'yinlar ijobiy hissiyotlarni yuzaga keltiradi, bu esa katta yuklamali mashg'ulotlarni davom ettirish istagini saqlab qolishga imkon beradi.<sup>2</sup> Bolalarni jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarga bo'lgan qiziqishi doimo yuqori bo'lib kelgan. O'z navbatida, harakatli o'yinlar shaxsni har tomonlama tarbiyalashni muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bolalar faqat


<sup>1</sup> К.Маҳкамджанов, Р.Саламов, И.Икрамов. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Дарслик, Т., 2007, 39-бет.

<sup>2</sup> В.В.Кипчакон. Quyi sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasida yakkakurash elementlari bo'lgan harakatli o'yinlarni o'tkazish usuliyati. Uslubiy o'quv qo'llanma, Toshkent, 2011, 5-бет.

dars jarayonida emas, balki sayrlarda uyushqoqlikni va turmushni yaxshi bilib olishga o'rgatadigan harakatli o'yinlar orqali ham bilim olishlari mumkin (1-chizma).

*1-chizma*

**Bolalarni sayrlar oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar bo'yicha yo'naltirilgan harakatli o'yinlarning qisqacha tavsifi**



Mashg'ulotlar, o'yin va mashqlarning hafta mobaynidagi ketma-ketligining boshqa variantlari ham bo'lishi mumkin. Bolalarning sayrlarda yo'lda yurish tartibi, oddiy turistik texnika qoidalari bo'yicha past-baland joylarda yurishlar. Shuningdek, tarbiyaviy ahamiyatda mehnat topshiriqlari bilan sayrlar, atroflarni ko'zdan kechirish, joylarni o'rganish diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish kabi tadbirlar, Bundan tashqari, badan tarbiya va harakatli o'yinlar har kuni o'tkazilishini ham unutmaslik kerak.

Turistik sayrdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarning yurak-qon tomir, nafas olish, mushak va organizmning boshqa muhim tizimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunga mashg'ulotlarga harakatli o'yinlar, o'yin-estafetalar, sport mashqlari va elementlari yugurishning xilma-xil turlari, asosiy harakatlarga doir mashqlarni kiritish bilan erishiladi. Sayrdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari vaqtida faoliyat turiari doimo navbatlashtirib turiladi: tez bajariladigan mashqlar ancha-sekin bajariladiganlari bilan navbatlashtiriladi. Bu esa butun mashg'ulot davomida bolalarning yuqori ishchanlik qobiliyatini saqlash imkonini beradi. Masalan, sekin yugurish o'yin bilan almashtiriladi, o'yin esa asosiy harakat mashqlari bilan almashinadi va hokazo.

Sayrdagi mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, umumrivojlantiruvchi mashqlar ketma-ket emas, balki mashg'ulotning turli qismida o'tkaziladi: kirish-tayyorgarlik qismidagi yurish vaqtida bolalar turli xil qo'l harakatlarini bajaradilar, sekin yugurish bir va ikki oyoqda sakrash bilan navbatlashtiriladi, asosiy qismda esa oyoq va gavdani harakatlantiruvchi mashqlar beriladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni shu zaylda bajarish vaqtni tejaydi, mashg'ulotni jo'shqinroq qiladi. Bundan tashqari, sayrdagi mashg'ulotlar vaqtida bolalar avvalgi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'rgangan asosiy harakatlarni mustahkamlaydilar.

Sayrdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchta o'zaro bog'langan qismlardan: kirish-tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi qismdan tashkil topadi. Kirish va tayyorgarlik qism saflanish va yurishdan boshlanadi. Yurish vaqtida bolalar eng oddiy qo'l harakatlarini bajaradilar (qo'llarni yuqoriga, yon tomonlarga uzatish, aylanma harakatlar qilish va hokazo). Bu mashqlarning bajarilishi yelka kamari mushaklarini rivojlantiradi, harakatlar muvofiqligini yaxshilaydi. Yurish vaqtida tarbiyachi qadamning aniqligiga, qo'l harakatlarining to'g'riligiga, oraliq masofaga rioya qilinishi va harakat yo'nalishiga e'tibor beradi. Yurishdan to'xtamay turib, sekin yurishga o'tiladi. Bolalar saflangan holda, aylana bo'ylab, bir-birini quvib o'tmasdan, bir-birini turtib yubormasdan, oraliq masofaga rioya qilib yuguradilar. Bolalar ikkinchi-uchinchi aylanganda mashq bajaradilar, tizzalami yuqori ko'tarib. juftlama qadam bilan yonlamasiga yuguradi-

lar, bir oyoqlab va ikki oyoqlab, bir oyoqdan ikkinchisiga o'tib sakraydilar, orqa bilan oldinga yuguradilar, orqaga aylanib qaytishni bajaradilar va hokazo. Bu mashqlarning barchasi oyoq, tos mushaklarini mustahkamlaydi, bolalarning fazoviy mo'ljal olishini takomillashtiradi, bundan tashqari, ularda ijobiy his-tuyg'ularini uyg'otadi. Sekin yugurish yurish bilan tugallanadi.

Yilning sovuq kunlarida mashg'ulot boshlanishida bolalar saflanmaydilar: bolalar binodan chiqishlari bilanoq qo'l harakatlarini bajarib, sport maydonchasi tomon boradilar mashg'ulotning asosiy qismida bolalar organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish, kuchni, chaqqonlikni, umumiy chidamlilikni rivojlantirish vazifalari hal etiladi. Bundan tashqari, asosiy harakatlar mustahkamlanadi va ulardan o'yin faoliyatida foydalanish ko'nikmalari hosil qilinadi. Asosiy qism sujetsiz harakatli o'yindan boshlanadi, keyin esa o'rtacha sur'atda qisqa masofaga yuguriladi. Shundan keyin bolalar sport mashqlarini o'zlashtiradilar yoki asosiy harakatlardan birini bajaradilar. Ushbu qism sujetli harakatli o'yinlar bilan tugallanadi.

Bolalarning mashg'ulotlarning asosiy qismi sport mashqlarini yoki sport o'yinlari elementini o'zlashtirishdan boshlanadi. So'ngra o'rtacha sur'atda qisqa vaqt yuguriladi. U tugaganidan keyin bolalar asosiy harakatlardan birini mashq qilib o'rganadilar. Shundan keyin bolalar yana o'rtacha sur'atda yugurtiriladi, so'ngra harakatli o'yin o'tkaziladi. lekin o'qituvchi ko'proq guruhiy metoddan foydalanadi. Bu esa pedagogning bolalarga ta'lim berishini hamda bolalarning egallangan malakalarni mustaqil ravishda takomillashtirish bilan qo'shib olib borishga imkon beradi. Bolalar yugurayotganda oraliq masofaga rioya qilishlari kerak. Bolalarda yugurishning ushbu turi murakkablashtirilib, turli to'siqlarni yengib o'tiladigan marshrut tavsiya qilinadi. Masalan, qiya tepalikka yugurib chiqish, xoda ustidan oshib o'tish, ustunlarni "ilonizi" qilib yugurib o'tish, darvozachalarga emaklab kirish va hokazo. Bu chaqqonlikni, chidamlilikni rivojlantiradi, harakat muvofiqligini yaxshilaydi. Bunda tarbiyachi-pedagog maydoncha atrofidagi to'siqlarni aytadi, bolalar maydoncha bo'ylab yugurib chiqish davomida to'siqlarni ketma-ket yengib o'tadilar. Asosiy harakatlarni, sport mashqlarini yoki sport o'yinlari elementlarini bajarishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yish mumkin emas, harakatlarning aniqligi va tugallanganligini talab etish zarur.

Mashg'ulotning asosiy qismi harakatli o'yin bilan tugallanadi. Mashg'ulotning yakunlovchi qismida sekin yugurib turib yurishga o'tiladi. Uning davomiyligini tarbiyachi-pedagog yakunlovchi qismdan oldingi harakatli o'yinda bolalarning faolligi, ob-havo sharoitlari va bolalarning tayyorgarligiga qarab tartibga soladi. Ko'p harakat qilingan o'yindan keyin sekin yugurish vaqti ikki barobar qisqartirilishi yoki u butunlay o'tkazilmasligi, bolalar esa maydoncha bo'ylab bamaylixtir yurishlari kerak.

Sayrdagi mashg'ulotlarni yilning issiq davrida boshlagan ma'qul, chunki bolalar organizmi havo haroratining pasayishiga asta-sekin ko'nikib boradi, bu esa sovuq kunlarda mashg'ulot o'tkazishga tayyorlanish imkonini beradi. Ochiq havodagi mashg'ulotlar bolalarning tabiat va ob-havoda yuz beradigan hodisalar haqidagi bilimlarini kengaytiradi, bu hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, tafakkur va nutqning (o'z tasavvurlarini tushuntirish va ifodalash ko'nikmasining) rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ochiq havoda turli xil jismoniy mashqlarni va harakatli o'yinlarni tashkil etish bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, irodaning mustahkamlanishiga, botirlik, mustaqillikning rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, o'rtoqlik tuyg'ularining o'zaro yordam tuyg'usining namoyon bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi. Nafas olish rejimining normal holatga yaqinlashishi bolalarning navbatdagi jadal mashqni bajarishga tayyorligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Odatda, bu mashq bajarib bo'linganidan keyin daqiqalar oxiri ikkinchi minut boshlarida kuzatiladi. Yurish nafas olish ritmining tezroq tiklanishiga imkon beradi.

Ochiq havodagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishning ko'p yillik tajribasi hamma bolalar moslashish davrining oxiriga kelib, tavsiya etilayotgan jismoniy yuklamalarni uddalayotganligidan dalolat bermoqda. Bayon qilingan tavsiyalarni bajarish vaqtida mashg'ulotning harakat faolligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi, bu esa bolalarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga, ular salomatligini mustahkamlashga ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida bolalarning nafas olishi ancha chuqurlashadi. Mashg'ulot jarayonida tarbiyachi-pedagog bajarilayotgan harakatlarning nafas olish bilan to'g'ri qo'shib olib borilishiga e'tibor berishi kerak: qo'llarni yuqoriga ko'tarish, yon tomonga uzatish, rostlash va gavdani bukish nafas olish bilan bir vaqtda bajarilishi kerak, qo'llarni chalishtirish, pastga tushirish, gavdani engashtirish va burish jarayonida esa nafas chiqarish lozim. Mashg'ulotlarda jadal mashqlar bilan ohista bajariladigan mashqlar doimo almashinib turishi natijasida bolalar ham og'iz bilan, ham burun bilan nafas oladilar. Burun bo'shlig'idan o'tayotgan issiq va sovuq havo oqimlarining doimo navbatlashib turishi yaxshi chiniqtiruvchi vositadir.

Sayrlarda harakati o'yinlar va harakatlarning asosiy turlariga doir mashqlarni o'tkazish bolalarning harakat faolligini samarali oshiradi, ko'nikma va malakalarning yanada mustahkamlanishiga yordam beradi, salomatlikning yaxshilanishiga ko'maklashadi. Sayrda harakati o'yin va mashqlarni o'tkazishga tayyorlanish uncha qiyin emas. Sayrga chiqqanda bolalarga zarur anjomlarni olib chiqadilar. Bular o'yinlar va o'yin-estafetalar o'tkazish uchun kerak bo'ladi. Yilning issiq davrlarida o'yinlar va mashqlarni sayrning boshlanishida ham, oxirida ham o'tkazish mumkin.

Dastlab, sujetsiz o'yin yoki estafeta o'tkaziladi. Asosiy harakatlarga doir tanish mashqlarni bajarish taklif etiladi: gimnastika devorchasiga chiqish va tushish, gimnastika o'rindiqlari bo'ylab yurish, sakrash va hokazolar. Zarur bo'lganda yordam ko'rsatish kerak. Shunday qilib, bolalar zaldagi jismoniy tarbiya mashg'ulotida harakatlarni o'rganadilar, sayrlarda hamda o'yin va mashqlar vaqtida ularni mustahkamlaydilar. Birmuncha vaqtdan so'ng, bu harakatlar estafeta yoki o'yinlar vaqtida bajariladi. Asosiy harakat mashqlari uch, to'rt marta takrorlanganidan keyin, tarbiyachi-pedagog harakatli o'yin tashkil etadi. O'yinlar sujeti bolalarning faol harakat qiladigan: yuguradigan, sakraydigan, uloqtiradigan qilib tanlanadi. Nam va shamolli ob-havo sharoitida o'yin uchun katta hajmli maydoncha tanlash, takrorlashlar o'rtasidagi vaqtni qisqartirish bilan bolalarning faolligini oshirish kerak. Bolalarning sayrdagi harakat faoliyatini tashkil etishda sport o'yinlari va mashqlariga katta o'rin beriladi. Ochiq havoda tashkil etiladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarni sport mashqlari va sport o'yinlari elementlariga o'rgatiladi. Bu ishni, asosan, tarbiyachi-pedagog olib boradi. Lekin bolalarning sport mashqlarini bajarish malakalarini egallab va sport o'yinlari o'ynashni bilib olishlari uchun ularni doimo sayrlar vaqtida takrorlash va mustahkamlab borish kerak.

Turistik sayrlar uchun haftalik rejaning har birida mustahkamlash uchun sport o'yinlari va mashqlarining bir necha turi rejalashtiriladi. Ob-havo sharoiti, sport inventarining bor-yo'qligi, bolalarning u yoki bu sport o'yini va mashqlarni egallab olish darajasiga qarab, tarbiyachi-pedagog rejada ko'rsatilgan sport turlarini hafta bo'yicha hamma sayrlarga taqsimlaydi. Ayrim hollarda, bolalar bir necha o'yin turlarini mashq qilishlari mumkin. Masalan, ba'zi birlari velosiped uchadilar, boshqalari badminton o'ynaydilar, keyin esa ular o'zaro o'rin almashadilar. Bolalar faqat sport o'yinlari elementini o'zlashtirib olishi emas, balki ularning asosiy qoidalarini, foydalanilayotgan sport anjomlarining qismlari nomini, ularni asrab-avaylab saqlashni bilishlari lozim. Agar tarbiyachining o'zi sport o'yinlarida faol ishtirok etsa, bolalarning xatti-harakatiga rahbarlik qilsa, sport o'yinlariga o'rgatish ancha tezlashadi.

Xulosa qilib aytganda, turizm jismoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatlik darajasini, uzoq umir ko'rish, madaniy hordiq chiqarish, vatanparvarlik, kasbga layoqatli qilib tarbiyalashda muhim omil va vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek turizm o'quvchi-yoshlarning tarbiyasida dolzarb bo'lgan bir-biriga yordam berish, bir-birini qo'llab-quvatlash, faol tashkilotchi hamda intizomli bo'lish, o'z burchiga sadoqat va mas'uliyatni his qilish kabi shaxsiy, insoniy sifat va fazilatlarini ham tarbiyalardi va uni rivojlantiradi.

Tadqiqot obyektlarda olib borilgan kuzatishlar turistik sayrlarda tavsiya etilayotgan yuklamalar bolalarga mosligini ko'rsatadi va butun yil davomida ochiq havoda o'tkazilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Bolalar jismoniy jihatdan ancha baquvvat bo'ladilar. Bolalar mustahkam sog'liq va katta ishchanlik qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Ochiq havoda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga birinchi bor kirishayotgan bolalar yuklamalarga sekin-asta ko'nikib boradilar, keyinchalik, ular yangi sharoitlarga moslashadilar va tavsiya qilinayotgan yuklamani ancha oson bajaradilar emotsional ko'tarinki kayfiyat va mashg'ulotlarga qiziqish paydo bo'ladi.

**Toshpulatova Shaxlo Ochilovna (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Fizika va astronomiya kafedrası dotsenti)**

### **BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHINING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA NOSTANDART TEST VA PISA DASTURIDAN FOYDALANISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak fizika fani o'qituvchisining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini nostandart va PISA testlari orqali rivojlantirish metodikasi tahlil etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется методика развития компетенции логического мышления будущего учителя физики с помощью нестандартных тестов и тестов PISA.*

**Annotation.** This article analyzes the methodology for the development of the competence of the logical thinking of the future teacher of natural science using non-standard tests and tests of PISA.

**Kalit soʻzlar:** talaba, mantiqiy fikrlash, kompetensiya, nostandart test, fizik masala, PISA.

**Ключевые слова:** студент, логическое мышление, компетентность, нестандартный тест, физическая задача, PISA.

**Key words:** student, logical thinking, competence, non-standard test, physical task, PISA.

Taʼlim tizimini modernizatsiyalashtirish shiddat bilan takomillashib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qoʻymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan oʻrin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy firlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarining oʻrni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga boʻlgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, aql konsepti, oddiy qilib aytganda, inson va uning mantiqiy salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish uchun ularda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish kabi ulugʻvor vazifalar turadi.

Respublikamiz Prezidentining farmoniga muvofiq,<sup>1</sup> umumiy oʻrta va maktabdan tashqari taʼlimni tizimli isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, oʻsib kelayotgan yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy va intellektual rivojlan-tirishni sifat jihatidan yangi darajaga koʻtarish, oʻquv tarbiya jarayoniga taʼlimning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilgʻor mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish<sup>2</sup> asosida oʻquvchilarning oʻqish, matematika va tabiiy yoʻnalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yoʻnaltirilgan taʼlim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan edi.

Maʼlumki, XXI asrda insoniyat oldida turgan muammolar ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi, shubhasiz. Jamiyatga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda zarur boʻladigan innovatsiyalarni rivojlantiradigan va ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilm egalari, salohiyatli kadrlar kerak. Aytish mumkinki, tabiiy fanlar boʻyicha savodxonlik tayanch kompetensiya sanalib, tabiiy fanlarni oʻqitishning asosiy maqsadidir. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda koʻnikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa “yoshlarni hayotga tayyorlash”da markaziy oʻrinni egallaydi.

Tabiiy fanlar boʻyicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid gʻoyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bogʻliq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar boʻyicha savodxon boʻlgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.

Demak, fizika fani boʻyicha savodxon boʻlgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan boʻladi.<sup>3</sup>

1. Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish.
2. Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash.
3. Maʼlumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish.

Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash. Bunda quyidagi qobiliyatlar namoyish etiladi:

- ◆fizika faniga tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;
- ◆izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish;
- ◆tegishli bashoratlar qilish va asoslash;
- ◆izohlovchi farazlarni taklif etish;

◆ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish. berilgan ilmiy tadqiqotda oʻrganilayotgan muammoni aniqlash ilmiy tadqiq etilishi mumkin boʻlgan savollarni farqlash berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish maʼ-


<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” PF-5712-sonli farmoni.

<sup>2</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 997-sonli qarori.

<sup>3</sup> Sh.O.Toshpoʻlatova, Sh.M.Mansurova PISA-Fizika fanidan oʻquvchilarning mantiqiy savodxonligini baholash sifatida. Navoiy, 2020.

lumotlarning obyektivligi va ishonchligini ta'minlashda quyidagi tipdagi masalalarni yechish metodikasini shakllantirishdan iboratdir:

**I. Fanlararo integratsiyaga oid PISA topshirig'i.** 1-topshiriq. Rasmda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, ipga osilgan yuk qanday balandlikka ko'tarilishini aniqlang (sm)? A) 20 B) 10 C) 15 D) 30.



1-rasm

2-topshiriq: Bunda energiyani saqlanish qonuni bajariladimi?

3-topshiriq: Ushbu sistemani matematik mayatnik deb hisoblash mumkinmi?

Yechim. Ushbu masalani hal qilishda o'quvchi Impuls saqlanish qonuni, energiyaning saqlanish qonuni va geometriyaga oid bilimlarni egallagan bo'lishlari juda muhim. Matematik mayatnik deb hisoblash mumkin emas, chunki matematik mayatnik bo'lishi uchun: jism massasi ip massasidan juda katta bo'lish kerak, shu bilan birgalikda, u kichik burchakka og'ishi kerak. Bu rasmdagi Sistema katta burchakka og'dirilganligi sabab u erkin tebranmasdan aylana bo'ylab notekis harakatda ishtirok etadi.

**II. Ijodiy fikrlashga oid PISA topshirig'i.**

Berilgan:

$v=200\text{m/s}$

$M=990\text{g}=0,99\text{kg}$

$m=10\text{g}=0,01\text{kg}$

$H=?$

Formula: Ushbu masala energiyaning saqlanish va impuls saqlanish qonuniga asoslangan holda yondashiladi.

Impuls saqlanish qonuni:

$$mv = 0 + (M + m)u \quad u = \frac{mv}{(M + m)}$$

$$E_k = E_p \quad \frac{(M + m)u^2}{2} = (M + m)gH$$

Hisoblash:

$$u = \frac{0,01\text{kg} \cdot 200\text{m/s}}{(0,99\text{kg} + 0,01\text{kg})} = 2\text{m/s}$$

$$H = \frac{u^2}{2g}$$

$$H = \frac{(2\text{m/s})^2}{2 \cdot 10\text{m/s}^2} = 0,2\text{m}$$

$$H = 0,2\text{m} = 20\text{cm}$$

Topshiriq yechimi. Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni bajariladi. Agar masala shartida havoni qarshiligini hisobga oling deyilganda ham energiyaning saqlanish qonuni bajarilardi. Chunki: Enerhiya bordan yo'q bo'lmaydi-yo'qdan bor bo'lmaydi faqatgina bir turdangi energiyadan boshqa turdagi energiyaga aylanadi.

**III. Grafikli mantiqiy fikrlashga oid PISA topshirig'i.** Ushbu grafikdan foydalanib, savollarga javob bering.


1. Bu qanday harakat?
2. Jism qancha vaqt harakat qilgan?
3. Jism qancha yo'l bosgan?
4. Jism tezligini aniqlang.

2-rasm.

Yechim. Bu topshiriqlar mexanikaning kinematika bo'limiga oid bo'lib, o'quvchi kinematikaga oid bilimlardan foydalangan holda savollarga ketma-ket javob beradi.

1-topshiriq. Vaqt o'tishi bilan grafikdagi tezlik chizig'i yuqoriga harakatlanmoqda, demak, harakat tekis va OX o'qi yo'nalishi bo'ylab harakatlanmoqda.

1-grafikdan ko'rinib turibdiki, jism  $t=8\text{s}$  harakat





qilgan.

2-jisimning bosib o'tgan yo'li  $S=5m$  yo'l bosgan.


3-jisimni harakat tezligini topish uchun bosib o'tgan yo'lni shu yo'lni bosib o'tish uchun ketgan vaqtga nisbati bilan aniqlanadi.

$$v = \frac{S}{t} \quad v = \frac{5m}{8s} = 0,625m/s$$

**IV. Sifatli masala mantiqiy fikrlashga oid PISA topshirig'i.** Qush ikkinchi daraxtga uchib borib kelishi uchun u qancha yo'l bosadi va uning ko'chishi qanchaga teng?

1-topshiriq. Qush qancha yo'l bosgan?

2-topshiriq. Qushning ko'chishi qanchaga teng?




Yechim. Ushbu masala ham kinematikaga oid bilimlarni mustahkamlaydi.

1-topshiriq. Qush ikkinchi daraxtga borib krlgach u daraxtlar orasidagi masofani ikki marta uchib o'tganligi sababli bosgan yo'li 430 m.ga teng bo'ladi.

2-topshiriq. Qush birinchi daraxtdan harakat boshlab yana birinchi daraxtga qaytib kelganligi sababli uning ko'chishi nolga teng bo'ladi, ya'ni u ko'chmaydi.

**V. Eksperimental masala mantiqiy fikrlashga oid PISA topshirig'i.** Rasmdagi taroziga osilgan sharchalarning ikkitasi bir xil moddadan va uchinchi boshqa moddadan yasalgan.



1-topshiriq. a rasmdagi tarozi muvozanatini tushuntiring.

2-topshiriq. b rasmdagi tarozi muvozanatini tushuntiring.

3-topshiriq. c rasmdagi tarozi muvozanatini nima sababdan buzulganligini tushuntiring.

Yechimi. Ushbu topshiriqlardagi savollarga javob topishda o'quvchi dinamika, statika va Arximeg kuchiga oid bilimlardan foydalangan holda, navbati bilan xulosalar chiqarishlari kerak.

1. Topshiriq. Ikkala sharcha bir xil zichlikdagi moddadan tashkil topganligi sababli ular bir xil og'irlikka ega, shuning uchun ham tarozi muvozanat holatda turadi.

2. Topshiriq. Tarozi o'ng pallasiga osilgan sharchaning zichligi ikkinchi pallaga osilgan sharchaning zichligidan kata bo'lganligi sababli muvozanat buziladi. U muvozanatni tiklash uchun chap palladagi yuk ostiga suvli idish qo'yilganda suyuqlik tomonidan Arximed kuchi paydo bo'ladi va yuk yengillashadi, natijada yuklarning og'irliklari tenglashadi.

3. Topshiriq. Zichligi kichik bo'lgan sharcha osilgan palla og'ir bo'lishiga sabab ikkinchi sharcha solingan suyuqlikka shaker yoki tuz aralastirilmoqda shu sababdan suyuqlik zichligi ortib ketishi natijasida unga ta'sir etuvchi Arximed kuchi ham ortib ketadi, shu sababdan zichligi kichik sharchali tomon og'ir bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak fizika o'qituvchisining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish kabi kelajak avlod oldida turgan global muammolardan biri chuqur mantiqiy fikrga ega, sotsiamadaniy darajasi rivojlangan avlodni tarbiyalashning asosiy bo'g'inlaridan biridir. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, bu vazifaning mukammal yechimi esa, o'z navbatida, ko'p jihatdan, yetuk pedagogik kadrlar tayyorlash masalasini qanday hal qilinishi metodik tizimga ham bog'liqdir.

**Razzoqov Davron Niyazovich (Qarshi davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi), Taymurodova Nafosat (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti magistranti)**  
**BO'LAJAK KADRLARNING UNIVERSAL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH-D AVR TALABI**

**Annotatsiya.** Kadrlar salohiyati davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim oluvchilarda universal ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy adabiyotlarda ushbu ko'nikmalarni izohlashga oid bir nechta yondashuvlar mavjud. Xususan, ko'nikmalarining "qattiq" va "yumshoq" tushunchalari qo'llanilmoqda. Ushbu mavzudagi ilmiy ishlarning tahlili tushunchalar mazmun-mohiyatidagi nozik farqlar, ta'limda ushbu tushunchalarni qo'llashning muhim sohalari va foydalanishning imkoniyatlari haqidagi xulosa chiqarishga yordam beradi.

**Аннотация.** Кадровый потенциал должен быть направлен на формирование у обучающихся универсальных навыков в соответствии с государственными образовательными стандартами. В современной литературе существует несколько подходов к интерпретации этих умений. В частности, используются понятия «жесткие» и «мягкие» навыки. Анализ научных работ по данной теме помогает сделать вывод о тонких различиях в содержании понятий, важных областях применения этих понятий в образовании и возможностях использования.

**Annotation.** Personnel capacity should be directed to the formation of universal skills in students in accordance with state educational standards. There are several approaches to the interpretation of these skills in modern literature. In particular, the concepts of "hard" and "soft" skills are used. The analysis of scientific works on this topic helps to draw a conclusion about subtle differences in the content of concepts, important areas of application of these concepts in education and possibilities of use.

**Kalit so'zlar:** kadrlar salohiyati, universal ko'nikmalar, hayotiy va moslashuvchanlik ko'nikmalari tarkibiy qismlari, ta'lim turlari.

**Ключевые слова:** кадровый потенциал, универсальные навыки, жизненно важные и компоненты навыков гибкости, виды обучения.

**Key words:** personnel potential, universal skills, vital and components of flexibility skills, types of education.

“Mamlakatimizda inson kapitalini to'laqonli rivojlantirish, oliy va professional ta'limning sifatini oshirish, mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda, aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish...” uchun barcha imkoniyatlar mavjud.<sup>1</sup>

Hech bir odam jamiyatdan ayri holda yashay olmaydi. Jamiyat a'zolari turli shart-sharoitlar taqozosi bilan turfa munosabatlarga kirishadilar. Mazkur munosabatlarning salmoqli qismi esa ish, mehnat jarayoniga to'g'ri keladi.

Oliy o'quv yurtini tamomlagan mutaxassis mehnat bozoriga kirib borar ekan, uning munosib ishga ega bo'lishi, ko'zlagan karyerasiga erishishi uchun ta'lim muassasasida olgan bilimlari kifoya qiladimi? Ta'lim muassasasida o'tilayotgan fanlardagi bilimlar muayyan dalillar, ma'lumotlar bazasini o'zlashtirish va ularni tahlil etish natijasida olinadi. Biroq ular da shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish masalalari to'liq qamrab olinmaydi. Holbuki, bugungi globallashgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda ish beruvchilar ishga olayotgan insonlarning ular qay darajada shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olishlariga e'tibor qaratmoqdalar. Ular aynan shu xususiyat orqali kompaniyasi rivojlanishi, mijozlar ishonchini oqlash va ular sonining ko'payishiga erishish mumkinligini yaxshi biladilar.

**Zamonaviy iqtisodiyotda talab katta bo'lgan ko'nikmalar turlari.<sup>2</sup>**

Kognitiv	Ijtimoiy va xulq-atvor	Texnik
Savodxonlik va matematik ko'nikmalar, shuningdek, yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalar (masalan, mantiqiy va kreativ fikrlash)	Ijtimoiy emotsional ko'nikmalar va shaxsiy xislatlar	Qo'l mehnati ko'nikmalari va usullarni bilish, materiallar, mexanizmlar va vositalar bilan ishlash qobiliyati

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-sonli qarori.

<sup>2</sup> Raqamli dividendlar. Jahon rivojlanishi haqidagi ma'ruza sharhi. Jahon banki, 2016, 33-bet.

Muammolarni hal qila olish qobiliyati, muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim	Yangi tajriba olishga tayyorlik, halollik, ekstraversiya, takt va emotsional barqarorlik	O'rta maktab tugalgandan keyingi kasbiy tayyorgarlik yoki o'qish jaryonida yoxud mehnat faoliyati jarayonida olingan texnik ko'nikmalar
Verbal savodxonlik, hisoblay olish qobiliyati, muammolarni hal qilish, xotira va fikrlash tezligi	O'zini-o'zi tartibga solish, murosalariga tayyorlik, aqlning yo'nalishi, qaror qabul qilish va shaxslararo muloqot ko'nikmalari	Muayyan kasb bo'yicha ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar (masalan, muhandis, iqtisodchi yoki IT bo'yicha mutaxassis)

Shu o'rinda "shaxslararo" so'zi orqali aynan qaysi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar nazarda tutilayotganini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilar:

1. Ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar. Ya'ni, ijtimoiy maqomi teng bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi aloqalar.

2. Xodimlarning o'zaro munosabatlari. Odatda, bunday munosabatlar xodimlar jamoaviy ishlarga jalb etilganda namoyon bo'ladi.

3. Xodimlar va ular faoliyat olib boradigan korxonalar, kompaniya mijozlari o'rtasidagi munosabatlar.

Shaxslararo munosabatlar boshqa doiradagi shaxslar o'rtasida ham mavjuddir. Masalan, ikki talaba o'rtasida yoki o'qituvchi va talabalar o'rtasida.<sup>1</sup>

Shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyat qozonish ko'p omillarga bog'liq. Ulardan birortasiga rioya etmaslik ushbu munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bugungi insoniyat axborotlashgan jamiyatda yashamoqda. Bu esa bajariladigan ko'plab ishlarni axborot texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirish imkonini beryapti. Shunday bo'lishiga qaramay, tashkilot xodimlari kundalik stressga duch kelmoqdalar. Bu hol ishning odatdagi hajmdan ortib ketishi natijasida yuzaga keladi. Ish hajmining ortishi xodimlarning kayfiyatiga va ularning o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir etadi.<sup>2</sup>

Shuningdek, bugungi kunda ko'plab insonlar vaqtni to'g'ri taqsimlashga qiynalishadi. Vazifalarni belgilangan vaqt oralig'ida bajarishga ulgurish mushkul bo'lgan holatga tushish natijasida tashkilot xodimlari va rahbarlari o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar vujudga kelishi ham kundalik hol. Shunday holga tushmaslik uchun esa xodimlar vaqtini va stressni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishlari muhimdir. Zero, bu ko'nikmalar ham shaxslararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.<sup>3</sup>

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi O'zbekistonning iqtisodiyoti bozor munosabatlarga asoslangan bo'lishi faqatgina iqtisodiy-huquqiy islohotlarga bog'liq emas. Bunda, eng avvalo, inson omili muhim rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, odamlarning dunyoqarashi hamda jamiyatga, boshqa shaxslarga munosabati ham bozor iqtisodiyotiga mos bo'lishi darkor. Aslida, ayni shu jihatlarda jamiyatga tom ma'nodagi bozor iqtisodiyoti ruhining kirib kelishiga sababchi bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti jamiyatni raqobat muhitida hayot kechirishga chorlaydi, hatto majburlaydi. Raqobat bo'lsa faqatgina moddiy ishlab chiqarishda emas, balki shaxslararo munosabatlarda zaruriy ko'nikmalarni shakllantirganlik va rivojlantirganlik darajasida ham aks etadi. Ya'ni, odamlar shaxslararo munosabatlarda qanchalik muvaffaqiyatli harakat qilsalar, o'zi ishlayotgan tashkilotlarning rivojlanishiga shunchalik hissa qo'sha oladilar. Shu sababdan ham rivojlangan mamlakatlarda ish beruvchilar aynan mana shu xususiyatga ega kadrlarni izlaydilar.

Shaxsiy rivojlanishga doir bilimlarni o'rganishdan bosh maqsad ham aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxslararo munosabatlardagi zarur ko'nikmalarni o'zlashtirish yoki ularni rivojlantirishdir.<sup>4</sup>

Bugungi sharoitda xususiy ish beruvchilar maqsadni aniq qo'ya biladigan, vazifalarni belgilangan muddatda bajara oladigan, stressga bardoshli, jamoada samarali ishlay olish va liderlik qobiliyatiga ega bo'lgan, hamkasblari va mijozlarni, fuqarolarni faol tinglab tushuna oladigan hamda ular bilan to'g'ri munosabatda bo'la oladigan shaxslarni ishga olishni istamoqdalar. Shu bois ish beruvchilar ishga olishda o't-

<sup>1</sup> Razzoqov D.N. Formation of Professional Qualities in Students. Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 9, 2021. Online: <https://academicjournal.io>, p. 141–147.

<sup>2</sup> Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. М., "Эксмо", 2016.

<sup>3</sup> Ананьева Т. Десять компетенций, которые будут востребованы в 2020 году (электронный ресурс). <https://www.tananyeva.com/single-post/2017>.

<sup>4</sup> Муслимов Н.А., Муталипова М.Ж., Абдуллаева Қ.М. Бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш технологияси. Методик қўлланма, Т., 2014, 108-бет.

kaziladigan intervyu-suhbatda bo'lajak xodimlar aynan shunday ko'nikmalarga ega ekanliklarini sinash maqsadida maxsus savollar bermoqdalar.

Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda bunga jiddiy e'tibor qaratiladi. Chunki oliy ta'lim muassasasini tamomlagan mutaxassisni u o'qigan fanlar doirasida savollar berib, ishga qabul qilish uning tashkilotda, jamoada shaxslararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etgan holda, ishlab ketishiga kafolat bo'lolmaydi. Shu sabab oliy ta'lim muassasasi tomonidan fanlar yuzasidan qo'yilgan baholarga ishonch bildirilgan holda, asosiy e'tibor ishga kirish istagidagi nomzodda shaxslararo munosabatlarda zarur bo'ladigan ko'nikmalar qay darajada ekanini aniqlashga qaratiladi.

Shunday ekan, shaxsiy rivojlanish modulidagi mavzularni puxta o'zlashtirish jarayonida quyidagi natijalarga (shaxsiy rivojlanishga) erishish mumkin bo'ladi.

- bozor iqtisodiyoti talablariga shaxslararo munosabatlar nuqtayi nazaridan javob berishi;
- karyerani muvaffaqiyatli boshlash;
- ishga kirishda intervyudan muvaffaqiyatli o'tish;
- ish beruvchilarning bo'lajak xodimlarga nisbatan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish nafaqat bo'lajak xodim, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun manfaatlidir. Buning boisi shundaki, ish beruvchi ham qaysi bir sharoitda mijozga aylanadi. Ya'ni, u ham tovar sotib olish, xizmatni iste'mol qilish uchun boshqa ish beruvchilarning xodimlari bilan munosabatlarga kirishadi, aksincha, bugungi oddiy xodim orttirgan tajribasi tufayli muayyan mansabni egallashi yoxud o'z kompaniyasiga asos solishi natijasida ish beruvchiga aylanishi mumkin.

Demak, shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar tizimi "yumshoq" ko'nikmalar, ya'ni ingliz tilida "soft skills" deb nomlanadi. Shaxsiyatida ayni ko'nikmalar ertaroq rivojlangan kishilarning karyerada muvaffaqiyat qozonish ehtimoli juda yuqoridir.

"Soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) shaxslararo munosabatlarni to'g'ri, maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va olib borishda zarur bo'ladigan malaka hamda ko'nikmalar tizimidir.<sup>1</sup> Bunday ko'nikma va malakalar "hayotiy ko'nikmalar" deb ham ataladi. Shaxs ushbu ko'nikma va malakalarni o'zida rivojlantirgani sayin uning shaxsiy rivojlanishi ham yuqorilab boradi.

"Shaxsiy rivojlanish" modulining predmetini shaxslararo munosabatlarni to'g'ri, maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va olib borishda zarur bo'ladigan malaka hamda ko'nikmalar tashkil etadi.

"Soft skills"ning "Hard skills" (qattiq ko'nikmalar)dan farqi nimada? "Soft" ingliz tilidan tarjima qilinganda "yumshoq" degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, "hard skills" tushunchasi ham mavjud bo'lib, "hard" ingliz tilida "qattiq" ma'nosini beradi. Majoziy talqinda tushuntirilsa, kompyuterning ishlashi uchun, asosan, ikkita komponent zarur. Ingliz tilida bular "Hardware", ya'ni, kompyuter qurilmasi va uning qo'shimcha qurilmalari hamda "Software", ya'ni dasturiy ta'minotdir. Kerakli dasturlar bo'lmasa, kompyuter qurilmasi shunchaki mashinaligicha qolaveradi. Shu singari inson hayoti va faoliyatida zarur bo'lgan ikkita muhim ko'nikma hamda malakalar mavjud. Bular – "hard skills" va "soft skills". "Hard skills" ta'lim muassasasida fanlarni o'zlashtirish natijasida orttirilgan hamda kasbiy-professional faoliyatni olib borish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar tizimidir. Sodaroq qilib tushuntirganda, masalan, oshpazning "hard skills" bo'yicha ko'nikma va malakalari – bu ovqat pishira olish, ovqatni mazali tayyorlay olish va h.k. Axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassisning "hard skills" bo'yicha ko'nikma va malakalari esa – bu kompyuter dasturiy ta'minoti bilan ishlay bilish, axborotni qayta ishlay olish va h.k.

Insonning "hard skills" bo'yicha ko'rsatkichi, odatda, ta'lim muassasasini tamomlagach beriladigan diplomi ilovasida aks etadigan baho yoki ballarida namoyon bo'ladi. Demak, ularni baholash mumkin va oson.

"Soft skills" esa, aytilganidek, shaxslarning o'zaro munosabatlarida zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar tizimidir. Bularga misol qilib samarali muloqot qila olish, diqqat bilan tinglay olish, empatiya, jamoada ishlay bilish, liderlik, vaqtni boshqarish, maqsad qo'yish va boshqalarni qayd etish mumkin. Ularni baholash murakkabroqdir. Odatda, ish beruvchilar ishga qabul qilishda intervyudan o'tkazish jarayonida bo'lajak xodimlarida bunday ko'nikma va malakalarning mavjudligini tekshirib ko'radilar. Ularga psixologik savollar beradilar. Bunday amaliyot, asosan, rivojlangan xorijiy davlatlarda uchraydi.

---

<sup>1</sup> Ивонина А., Чуланова О., Давлетшина Ю. Современные направления теоретических и методических разработок в области управления. Роль soft-skills и hard skills в профессиональном и карьерном развитии сотрудников". Интернет-журнал "Науковедение" <https://www.naukovedenie.ru>. Том 9, №1, 2017.

Insonga “Hard skills” va “soft skills” bir xil darajada zarurdir. Ularni ishga kirish maqsadida taqdim etiladigan rezyumeda aks ettirish intervyudan oldin ish beruvchida bo‘lajak xodim haqida muayyan tasavvurning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ko‘pgina davlatlarda “soft skills” bo‘yicha alohida modul o‘tilmaydi. Unga daxldor bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga turli fanlar kesimida e‘tibor beriladi. Holbuki, ish beruvchilar ishga oloyotgan insonlar “soft skills” bo‘yicha qanday ko‘nikma va malakalarga ega ekanliklariga ko‘proq qiziqish bildirmoqdalar.

Ta‘lim muassasasining bitiruvchisi mehnat bozorida ish topib ketgan taqdirda ham “soft skills”ga ega bo‘lmasa, mehnat faoliyatini barqaror tarzda olib bora olmaydi.

“Hard skills” shaxsning o‘zi istagan kompaniya va muassasaga ishga kirish maqsadida intervyu bosqichigacha yetib borishiga asos bo‘lsa, “soft skills” ishga qabul qilinish va muvaffaqiyatli ishlab ketishga asos bo‘ladi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda mansabdor shaxslarning bu singari ko‘nikma va malakalarga qay darajada ega ekanliklari ham dolzarb masaladir. Sababi shundaki, mansabdor shaxs rahbar bo‘lishi, ammo lider bo‘lmasligi mumkin. Chunki liderlik shaxsda alohida xususiyatlarning bo‘lishini talab qiladi. Bugungi zamon mansabdor shaxslardan aynan liderlik salohiyatini talab etmoqda. Xodimlar muassasa yoxud kompaniyada bir tanu bir jon bo‘lib ishlashlari uchun ularga lider kerak bo‘ladi. Boshliq va xodimlar o‘rtasida munosabatlar ayni shu xususiyatlar orqali to‘g‘ri tashkil etilishi mumkin. Buning aksi bo‘lsa, xodimlar ushbu tashkilotda ishlash jarayonida motivatsiya ololmaydilar va boshqa joydan ish izlashga tushadilar. Bitta shaxsni deb kompaniya ko‘pgina iqtidorli va professional kadrlardan mahrum bo‘lishi esa achinarli holdir. Boshliq va xodimlarda empatiya, ya‘ni, o‘zaro bir-birini ruhiy jihatdan tushunish ko‘nikmasining bo‘lishi ham zarur jihatdir. Shunday ekan, insonlar o‘zaro aloqaga kirishayotganda shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish o‘ta muhim sanaladi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, qattiq ko‘nikmalar axborot va bilimlarning tezkor ko‘payishi va zamonning globallashtirish natijasida tezda eskirib qolmoqda. Masalan, universitet talabasi birinchi bosqichda axborot texnologiyalari bo‘yicha fandan yangi yaratilgan dasturiy ta‘minot – “Windows”ning imkoniyatlarini o‘zlashtiradi. Ammo talaba to‘rtinchi bosqichni yakunlamay turib dasturiy ta‘minotning yangi versiyasi yaratiladi. Bunda shuni kuzatish mumkinki, oliy ta‘lim muassasasida olinayotgan bilimlar tezda eskirib qolmoqda yoki keraksiz bo‘lib boryapti. Bunga oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv dasturidan chiqarib tashlanayotgan fanlar yaqqol misol bo‘la oladi. Ammo mehnat bozorida yumshoq ko‘nikmalarga nisbatan ehtiyoj ortib boryapti. “Soft skills” bo‘yicha mutaxassislar yetishib chiqib, sohaga doir alohida kitoblar yozilmoqda. Kompaniya egalari va boshqaruvchilari xodimlari “soft skills” bo‘yicha qisqa mudatli kurslarni o‘tashlari uchun millionlab mablag‘ sarflamoqdalar.

“Soft skills”ga doir masalalar G‘arb davlatlarida chuqur o‘rganilgan. Bu borada yaratilgan asarlar va olib borilgan tadqiqot natijalari aksariyat ingliz tilida bayon etilgan. Xususan, Rendel Kayser 2017-yilda “Yuristlar uchun “Soft skills” kitobini nashr ettirdi. Unda barcha masalalar hayotiy tadqiqotlarga asoslangan holda yoritib berilgan.<sup>2</sup>

Soft skills tushunchasining kelib chiqishi AQSHda 1959-yilda harbiy sohaning rivojlantirish doir masalalariga borib taqaladi. Unga ko‘ra, harbiy xizmatchilar kompetensiyalari borasida olimlar tadqiqot olib borgan chog‘larida ko‘nikmalarni 2 turga bo‘lish maqsadga muvofiq, deb hisobladilar. Bunda ular kasbiy ko‘nikmalar (hard skills) va shaxsiy sifatlar (soft skills)ga ajratadilar. Bunga sabab urushdagi muvaffaqiyatning ko‘pgina qismini jangdagi askarlarni qanday boshqarilishiga qarab ta‘minlashini aniqlashganligidandir. O‘quv dasturlarda esa buni amalga oshirish uchun o‘rgatilmagan. U paytda fizik jismlar bilan bog‘liq ishlash ko‘nikmalari shakllantirilgan edi. Inson tafakkurida mavjud bo‘lgan o‘lchash murakkab bo‘lgan, mohiyati tushunarsiz – soft skillsga borib taqalavergan. Hozirda bo‘sh ish o‘rinlarga qo‘yilgan talablarda ham o‘zbek tilida ushbu so‘zlar tobora ko‘proq uchramoqda. Agarda bu ikki tushunchalarni sodda, lo‘nda ifodalaydigan bo‘lsak, quyidagi mazmunga ega bo‘lamiz.

Hard skills – ko‘nikmasini ta‘lim muassasasida o‘qish asosida o‘zlashtirish mumkin. Bunda xorijiy til, dasturlashtirish, avtomobilni boshqarish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni misol sifatida keltirish mumkin. Buning uchun intellektual algoritmlashtirilgan yo‘riqnomani o‘zlashtirishning o‘zi kifoya. O‘zlashtirish jarayonida ko‘proq miyaning chap katta yarim sharlari (mantiqiy) ishlaydi, IQning (intellekt koefitsiyenti) yuqori darajasi zarur bo‘ladi.

<sup>1</sup> Shu manba.

<sup>2</sup> Randall Kiser. (2017). Soft Skills for the Effective Lawyers. Cambridge. Cambridge University Press.

Soft Skills – ko‘nikmasiga ega bo‘linganlikni hech qanday diplom bilan tasdiqlab bo‘lmaydi. Bu shaxsning kirishimlili, vazminligi, kreativligi, vaziyatga ko‘ra moslasha olish, keskin vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik va adekvat ravishda harakatlarini boshqara olishidir. Ushbu ko‘nikmalarni chig‘iriqdan o‘tkazishda miyaning o‘ng katta yarim sharlari (ijodiy) ishlaydi, IQning (intellekt koeffitsiyenti) yuqori darajasi zarur bo‘ladi. EQning (emotsional intellekt) yuqori darajasiga ega bo‘lgan ma‘qulroqdir.

“Soft skills” aynan qanday ko‘nikma va malakalar tizimidan iborat?

“Soft skills”lar juda keng. Tahlillar uning predmetini quyidagilar tashkil etishini ko‘rsatmoqda:

- ◆ maqsadni belgilash;
- ◆ o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish;
- ◆ tanqidiy mushohada yuritish;
- ◆ o‘zgani holatini his etish;
- ◆ muloqot;
- ◆ moslashuvchanlik;
- ◆ stressni yengish;
- ◆ liderlik;
- ◆ jamoada ishlash;
- ◆ javobgarlikni his etish;
- ◆ muammolarga yechim topish;
- ◆ kreativlik;
- ◆ vaqtni to‘g‘ri boshqarish va h.k.

Yuqoridagilar orasida maqsadni belgilash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish, stressni yengish, javobgarlikni his etish, to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmasa-da, bilvosita shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etishga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sabab ular “soft skills” tarkibida sanalmoqda.<sup>1</sup>

“Soft skills” kishining mutaxassis sifatida shakllanishda katta ahamiyatga ega. Shaxs mehnat bozorida nafaqat professional ko‘nikma va malakalar orqali, balki yuqori saviyadagi va samarali shaxslararo munosabatlarda zaruriy ko‘nikma va malakalarni namoyish etish orqali kasbiy o‘shiga erishishi, tajriba orttirib karyera qila olishi mumkin. Bundan tashqari, odamlar har qanday mutaxassis bilan suhbatlashishda, eng avvalo, uning muomalasiga e‘tibor qaratadilar. Bu inson tabiatiga xos jihatdir. Biron inson haqidagi ijobiy taassurot ayni shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil eta olishdan kelib chiqadi.

Shuni ta‘kidlash joizki, “soft skills” davlat xizmatchilari uchun ham zarur. Davlat xizmatchilari tom ma‘noda xalqqa xizmat qilishlari uchun shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etishni yaxshi bilishlari kerak. Ular fuqarolar bilan suhbatlashish jarayonida ularga hurmat bilan muomalada bo‘lishlari, fuqarolar tomonidan aytilayotgan muammolarni diqqat bilan tinglashlari hamda vakolatlari doirasida qo‘ldan kelgancha ularga yordam berishlari zarur. Fuqarolar bilan munosabatlarga shunday ijobiy yondashuv odamlar ongida davlatga bo‘lgan ishonchni vujudga keltiradi, uni yanada kuchaytiradi.<sup>2</sup>

2016-yilda Amerika huquq tizimini takomillashtirish bo‘yicha institut tomonidan AQSHning 37 shtatidan 24 137 nafar advokat o‘rtasida so‘rov o‘tkazildi. Ulardan yuristlar uchun 147 ta ko‘nikma va malakalar orasida eng muhimlari qaysilari ekani so‘raldi. Natijalar quyidagi 10 ta ko‘nikma va malakalarni ko‘rsatdi:

1. Ma‘lumotni sir saqlay olish.
2. Majlislar va yig‘ilishlarga o‘z vaqtida kelish.
3. O‘z kasbiga sodiq bo‘lish.
4. Rostgo‘y va ishonsa bo‘ladigan inson bo‘lish.
5. Xushmuomalalik va hurmat bilan munosabatda bo‘lish.
6. Iltimos va savollarga tezda javob qaytarish.
7. Diqqat va hurmat bilan munosabatda bo‘lish.
8. Ishtiyoqi baland bo‘lish.
9. Yuqori kasbiy etikaga ega bo‘lish va bor imkoniyatni jalb etgan holda ishlash.
10. Detallarga e‘tiborli bo‘lish.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Manmohan Joshi. (2017). Soft Skills. 1st ed. [pdf]. Available at: <https://bookboon.com/en/soft-skills-ebook>.

<sup>2</sup> Ананьева Т. Десять компетенций, которые будет востребованы в 2020 году (электронный ресурс). <https://www.tananyeva.com/single-post/2017>.

<sup>3</sup> Ивонина А., Чуланова О., Давлетшина Ю. Shu manba.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo‘lajak mutaxassislar nafaqat kasbiy bilimlarga ega bo‘lishi, balki, shu bilan birga, karyerani bardavom olib borish uchun zarur bo‘lgan shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga qaratilgan universal ko‘nikma va malakalarga ham ega bo‘lishlari bugungi zamon talabidir.

**Бердиев Нор Орзиевич (Навоий Давлат Кончилик ва технологиялар университети Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси; [berdiyev-nor@yandex.ru](mailto:berdiyev-nor@yandex.ru));**

**Сапарбаева Эркиной Давлатбоевна ([saparbayeva\\_erkinov@gmail.com](mailto:saparbayeva_erkinov@gmail.com))**

### **ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР ДАВРИДА ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР ЎҚИТИЛИШИНING АҲАМИЯТИ**

**Аннотация.** *Мазкур мақолада ҳозирги бозор муносабатлари ривожланиб бораётган шароитларда мутахассис кадрларни тайёрлаш, уларнинг мутахассис ва шахс сифатида шаклланишида таъсир кўрсатувчи асосий омиллар, ижтимоий-гуманитар фанлар, миллий-маънавий қадриятларнинг ўрни в аҳамияти тўғрисида фикр юритилади.*

**Аннотация.** *В данной статье освещается подготовка кадров-специалистов в условиях современных рыночных отношений, обсуждаются основные факторы, влияющие на становление их как специалистов и личности, роль и значение социальных и гуманитарных наук, национальных духовных ценностей.*

**Annotation.** *This article highlights the training of specialists in the conditions of modern market relations, discusses the main factors influencing their formation as specialists and individuals, the role and importance of the social and human sciences, national spiritual values.*

**Калим сўзлар:** *жамият, бозор муносабатлари, таълим сифати, рақобатбардош мутахассислар, тор ихтисослик, компетентлик, гуманистик концепция, коммуникативлик, маърифат, миллий мафкура.*

**Ключевые слова:** *общество, рыночные отношения, качество образования, конкурентоспособные специалисты, узкая специализация, компетентность, гуманистическая концепция, коммуникативность, просвещение, национальная идеология.*

**Key words:** *society, market relations, quality of education, competitive specialists, narrow specialization, competence, humanistic concept, communication, education, national ideology.*

Олий ва касбий таълимнинг ҳозирги замон ёшларининг мутлақ кўпчилигида ХХI асрда ижтимоий-гуманитар фанларни таълим жараёнига қўшиш нима учун керак? Улар замонавий бозор муносабатлари шароитларига мослашишга қандай қилиб ёрдам беради мазмунидаги саволлар туғилиши мумкин. Ҳозирги замонда инсон фаолиятининг барча йўналишларининг ажралмас қисми бўлган бозор муносабатларининг мавжуд шарт-шароитларида бизнинг жамиятимиз сифатли таълимга бўлган эҳтиёж сезишини кўпчилик зиёлиларимиз англаб етади.

2017–2021 йилларда амалга оширилган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”га мувофиқ “Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини давом эттириш” муҳим вазифалар ҳисобланади.<sup>1</sup> Бу йўналишларда кейинги йилларда катта ўзгаришлар амалга оширилди ва янгиланишлар давом этмоқда.

Бозор ёндашуви бугунги кунда касбий тайёргарлик сифатини баҳолашда ҳам долзарб ҳисобланади. Жумладан, олий ва ўрта махсус таълимнинг битирувчиларининг сифат даражасига нисбатан айтиладиган “меҳнат бозоридида мутахассисларнинг рақобатбардошлиги” тушунчаси кенг қўлланилиши етарлидир.

Тадқиқотчилар рақобатбардош мутахассис сифатига қўйиладиган турлича талабларни ажратиб кўрсатадилар. Кўпчилик психологлар рақобатбардош мутахассисларни тавсифлаб уларда шаклланиши назарда тутилган компетентлик ва касбий мобиллик, мустақил таълим олиш ва малака ошириш, ташаббускорлик ва ички интизом, тадбиркорлик ва ишбилармонлик, ўз-ўзини таҳлил қилиш ва тегишли қарорлар қабул қилиш, ҳалоллик ва шахсий жавобгарлик, ўз ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш малакаларини алоҳида қайд этишади.

<sup>1</sup> “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли фармони.

Бошқалари эса рақобатбардош мутахассислар – бу ўзгарувчан бозор шарт-шароитларида ўз касбий вазифаларини бажариш учун мақсадга эришишнинг энг мақбул бўлган усул ва услубларини топишга қодир бўлган профессионаллар деб қайд қилиб қилишади.<sup>1</sup>

Бироқ барча тадқиқотчилар профессионаллар деганда, ўз фикрларини бурро ва аниқ ифода-лай олиш, саводли сўзлаш, нафақат ўз нутқи билан эътиборни жалб қилиши, шунингдек тингловчиларга таъсир қилиш малакасига эга бўлиши ҳар қандай инсоннинг касбий яроқлилигининг асосий тавсифларидан бири эканлиги тўғрисидаги қарашда яқдил бўладилар.

Ижтимоий-гуманитар фанлари мазмуни доирасида мутахассисда шундай компетенцияларини шакллантириш имкониятини тақдим қиладиги уларсиз жамиятнинг кейинги ривожланиши маънисиз бўлиб қолади. Масалан, ёзма ва оғзаки коммуникация, танқид қилиш ва ўз-ўзини танқид қилиш қобилияти, жамоада ишлаш қобилияти, шахслараро муносабатлар малакаси, бошқа соҳалардаги мутахассислар билан мулоқотга киришиш қобилияти, халқаро муҳитда ишлаш қобилияти, янги вазиятларга мослашиш қобилияти, лидерлик, лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва уларни бошқариш, ташаббускорлик ва ишбилармонлик туйғуси, сифат тўғрисида ғамхўрлик, муваффақиятга интилиш ва ҳ.к. ҳозирги даврнинг ўзгарувчан шароитларида энг зарур бўлган компетенциялар қаторига киради.<sup>2</sup>

Бозор муносабатлари даврида ҳамкорлар, шериклар ёки мижозлар билан фақат тор ихтисослик доирасида олиб бориладиган алоқалар, фақат муайян предмет устида ҳаддан ташқари марказлашув сезиларли равишда шахс, мутахассиснинг ўз-ўзини намоён қилиш қобилиятини, ижтимоий ва интеллектуал мобиллик салоҳиятини пасайтиради.

Ҳозирги даврнинг долзарб муаммоларига қараб эркин йўналиш олиш нафақат инсоннинг ўз-ўзини намоён қилишига балки унинг ахлоқий қониқишига йўл очиб меҳнатнинг маҳсулдорлигида акс этади ва албатта, корхонанинг, умуман давлатнинг иш самарадорлигига таъсир қиладиган.

Таълимнинг гуманистик концепцияси бўлажак мутахассис шахсининг ўз-ўзини намоён этиши, тузатиб бориши ва ривожланиши учун мақбул шарт-шароитларни яратиш беради. Амалиётнинг кўрсатиши бўйича коммуникатив фаолият ёндашуви мутахассиснинг ўзини намоён этиш каби табиий эҳтиёждан фойдаланиш имкониятини беради, инсоннинг ўзини ўраб турган атроф-олам билан мулоқотга интилишларини амалга оширишга таянади.

Социум – бутун тизим, инсон – ушбу тизимнинг элементи бўлиб, биз бир-биримиз билан ўзаро муносабатларга киришиб яшаш учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратамиз. Мазкур шароитлар ижобий ва салбий бўлиши мумкин. Айнан шу жойда ижтимоий-гуманитар таълимнинг масаласи қалқиб чиқади. Фаолиятнинг маълум бўлмаган муҳитида йўналиш олиш турли-туман расмий йўриқномалар асосида эмас, балки тез ва асосланган ҳолатда ўз нуқтаи назарини ҳимоя қилиши бошқариладиган динамик тизимнинг ўзига хос натижаси бўлиб ёки “фанларнинг ахборот оқими натижаси” бир бутун тизимдир.

Олий таълимда кредит-модул тизимининг босқичма-босқич жорий этиб борилиши ҳозирги вақтда энг муҳим ўзгаришлардан ҳисобланади. Бу жараёнда ижтимоий фанлар бўйича ҳам маълум ўзгаришлар кузатилмоқда. Ижтимоий фанлардан дарс ўтувчиларга, фанларнинг мазмунига нисбатан талаблар ўзгармоқда. Мазкур фанлар ўқитилишининг аҳамияти, долзарблиги кун тартибидан тушгани йўқ.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2021 йил 19 январда бўлиб ўтган йиғилишда таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанларнинг, шу жумладан, тарих фанининг ўқитилишининг аҳамияти тўғрисида алоҳида тўхталиб «Миллий маънавиятимизни ривожлантириш, уни халқимиз, айниқса, ёшларимиз ҳаётига сингдиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг аҳамияти жуда катта. Афсус, бу фанлар ривожини замондан ортда қолмоқда. Хусусан, биз учун ниҳоятда долзарб бўлган тарих фани ҳам бундан мустасно эмас. Тарихга оид илмий тадқиқот ишлари асосан баёнчилик, публицистик усулда олиб борилмоқда. Натижада олис ва яқин ўтмишимиздаги кўпгина воқеалар моҳияти, уларни юзага келтирган омиллар ва тарихий қонуниятлар очилмасдан қолмоқда», деб таъкидлаб, “...Миллий тарихни миллий руҳ билан яратиш керак. Акс ҳолда, унинг тарбиявий таъсири бўлмайди. Биз ёшларимизни тарихдан сабоқ олиш, хулоса чиқаришга ўргатиши-

<sup>1</sup> Е.А.Синкина, О.В.Тарасюк, А.М. Ханов. Формирование профессиональных компетенций бакалавров в рамках реализации сетевого взаимодействия: теория и практика. 2017, Екатеринбург, РГППУ, 2017, с. 28.

<sup>2</sup> Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Т., . 2015, 112-бет.



миз, уларни тарих илми, тарихий тафаккур билан қуроллантиришимиз зарур”, деган фикрлари ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўқитувчилари учун дастуриламал бўлиши лозим.<sup>1</sup>

Юқори даражада ўз мутахассислиги йўналишида тегишли асбий компетенцияларни шакллантириш учун ҳаракат ҳеч қачон маърифат, маданият каби қадриятларни истисно қилмайди. Бу борада жаҳоннинг машҳур арбоблари, миллиардер инсонлари, ўзимиздан етишиб чиқаётган ёшлар ёрқин мисол бўла олади. Маърифатга эришиш, миллий ва умуминсоний қадриятларнинг шаклланиши доимий китобхонлик, адабиётга меҳр, катта авлод намунаси орқали амалга ошади.

Маънавият масалаларига бағишлаб ўтказилган йиғилишда мамлакат мафкурасининг асосий ғояси ҳақида сўз юритаркан, янги Ўзбекистоннинг мафкураси эзгулик, одамийлик, гуманизм ғояси бўлишини қайд этди. “Афсуски, ҳали орамизда миллий ғоянинг, маънавиятнинг моҳиятини тўлиқ англаб етмаганлар, маънавият керакми-йўқми деб юрганлар ҳам йўқ эмас. Миллий ғоя деганда эски совет мафкурасини тасаввур қилиб, лабига учуқ тошаётганлар ҳам йўқ эмас. Бу ҳам ҳақиқат. Лекин агар мафкура одамий бўлса, инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини, унинг кадр-қимматини улуғлашга хизмат қилса, нима учун ундан кўрқиб қочиб керак? Биз яратаётган Янги Ўзбекистоннинг мафкураси эзгулик, одамийлик, гуманизм ғояси бўлади. Биз мафкура деганда, аввало, фикр тарбиясини, миллий ва умуминсоний қадриятлар тарбиясини тушунамиз. Албатта, бу юксак ғоялар осмондан тушмаган. Улар халқимизнинг неча минг йиллик ҳаётий тушунча ва қадриятларига асосланган” деган фикри ёшларнинг, олий ўқув юртларида таълим олаётган бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлик билан бир қаторда, уларда умуминсоний қадриятлар, миллий маънавият, инсонийлик ва бошқа фазилатларнинг шаклланиб боришида асосий мезон, вазифа бўлиб ҳисобланади.<sup>2</sup>

Таълимда бозор муносабатлари жадаллик билан қарор топиб бориши жараёнида ижтимоий-гуманитар фанларининг олдида турган вазифалар, касбий мутахассисларни тайёрлашда уларда зарур компетенцияларнинг қарор топтириш, жамиятда ёш авлодни маънан баркамол, жисмонан соғлом бўлиб камол топишида уларнинг фуқаролик маданиятининг шаклланишида, маънавий-маърифий тарбия ишлари ҳам асосий омил ҳисобланади. Чунки маънавият талабанинг меҳр-мурувват, адолат, тўғрилиқ, софдиллик, виждон, ор-номус, ватанпарварлик, гўзалликни севиш, ундан завқланиш, ёвузликка нафрат, ирода, матонат ва шу каби кўплаб асл инсоний хислатлар, фазилатларнинг узвий бирлик, муштарак ҳолда шакллантиришга хизмат қилса, маърифат уларнинг онгига муайян билимлар, ғоялар, эътиқод ва иймон, ахлоқ ва одоб нормаларини сингдиради ҳамда таълим-тарбия ишларини такомиллаштиради, миллий ва умуминсоний қадриятларга садоқат руҳини таркиб топтиради. Тарбия жараёнида эса талаба ижтимоий-иқтисодий тажрибаларни чуқур ўрганади.

Умуман олганда, рақобатбардош мутахассис кадрларнинг шаклланиб боришида тегишли компетенциялар мустақил таълим олиш ва малака ошириш, ташаббускорлик ва ички интизом, тadbиркорлик ва ишбилармонлик, ўз-ўзини таҳлил қилиш ҳалоллик ва шахсий жавобгарлик, ўз ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш ва бошқа малакаларининг ҳосил бўлишида ижтимоий фанларнинг ўқитилиши, уларнинг мазмуни, китобхонлик, умуминсоний ва миллий қадриятларнинг жуда катта аҳамиятга эга.

**Allaberganova Muyassar Rimberganovna (TATU Urganch filiali o'qituvchisi; [amuyassar83@gmail.com](mailto:amuyassar83@gmail.com)),  
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna (UrDU magistranti; [maqsuda060179@gmail.com](mailto:maqsuda060179@gmail.com)),  
Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o'g'li (TATU Urganch filiali talabasi; [ravshanqulovabbos3@gmail.com](mailto:ravshanqulovabbos3@gmail.com)),  
Ollaberganova Muyassar Davlatboy qizi (TATU Urganch filiali talabasi;  
[olloberganovamuyassar@gmail.com](mailto:olloberganovamuyassar@gmail.com))**

## **PEDAGOGIK DASTURIY VOSITA YORDAMIDA DIDAKTIK TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQLASH**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik dasturiy vositalar va ularning ta'lim jarayonida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Pedagogik dasturiy vositalar yordamida didaktik topshiriqlar ishlab chiqish Hot Potatoes dasturi misolida ko'rsatib berilgan.*

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-milliy-goya-deganda-eski-sovet-mafkurasini-tasavvur-qilib-labi-ga-uchuq-toshayotganlar-ham-yoq-emas/>

<sup>2</sup> <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-milliy-goya-deganda-eski-sovet-mafkurasini-tasavvur-qilib-labi-ga-uchuq-toshayotganlar-ham-yoq-emas/>

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о педагогических программных средствах и их роли в образовательном процессе. Разработка дидактических заданий с использованием педагогических программ проиллюстрирована на примере программы Hot Potatoes.

**Annotation.** This article provides information about pedagogical software and their role in the educational process. The development of didactic tasks using pedagogical programs is illustrated by the example of the Hot Potatoes program.

**Kalit soʻzlar:** JQuiz, JCloze, JMatch, JCross, JMix, TheMasher.

**Ключевые слова:** JQuiz, JCloze, JMatch, JCross, JMix, TheMasher.

**Key words:** JQuiz, JCloze, JMatch, JCross, JMix, TheMasher.

Bugungi kunda taʼlim oluvchiga bilim berishning bir nechta yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar yaratilishi bilan bir vaqtda, ularning oʻzlashtirgan bilimini baholash uchun yaratilayotgan nazorat topshiriqlarini interaktiv usullarini yaratish ahamiyatlidir.

Ushbu maqolada pedagogik dasturiy vositalar va uning tarkibiga kiruvchi Hot Potatoes dasturi imkoniyatlari va ishlash tamoyillarini koʻrsatib oʻtmoqchimiz.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida oʻquv jarayonini qisman yoki toʻliq avtomatlashtirish uchun moʻljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular taʼlim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning oʻqitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: oʻquv fani boʻyicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yoʻnaltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik taʼminot, qoʻshimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- oʻrgatuvchi dasturlar oʻquvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib, yangi bilimlarni oʻzlashtirishga yoʻnaltiradi;

- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va koʻnikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qoʻllaniladi;

- mashq qildirgichlar, avval, oʻzlashtirilgan oʻquv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

- oʻqituvchi ishtirokidagi virtual oʻquv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.<sup>1</sup>

Hot Potatoes Viktoriya universitetining ilmiy tadqiqot guruhi tomonidan yaratilgan dastur. Hot Potatoes dasturi bepul taqdim qilinadi. Hot Potatoes dasturi boshqa dasturlardan farqli tomoni barcha operatsion tizimlarga oʻrnatish imkoniyati mavjud. Hot Potatoes dasturi tarmoqda nazorat topshiriqlarini yaratish imkonini beradi. Unda yaratilgan mashqlarni brauzerlardan (Internet Explorer, Mozilla, Opera, Chrome, Yandex, Google,...) foydalangan holda ishga tushiriladi. Bu dasturda dasturlash tillaridan xabari boʻlmagan foydalanuvchi ham bemalol unda har xil turdagi interaktiv topshiriqlarni yaratishi mumkin. Dastur HTML va JavaScript tillarida ishlashni biladigan mutaxassislar uchun unda ixtiyoriy oʻzgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Hot Potatoes har xil turdagi topshiriqlar va testlarni tuzish uchun 5 ta blokli dasturlarni oʻz ichiga oladi. Har bir blok mustaqil dastur sifatida ishlatilishi mumkin.

1. JQuiz – test topshiriqlari yaratish (4 turdagi test).

2. JCloze – boʻsh joylarni toʻldirish.

3. JMatch – Moslikni topish (3 turdagi topshiriq).

4. JCross – Krossvord tuzish.

5. JMix – ketma-ketlikni tanlash.<sup>2</sup>

Barcha mashqlar oʻz-oʻzini nazorat qilish rejimida amalga oshiriladi (sinov rejimi faqat bir nechta tanlov javoblari boʻlgan savollar uchun taqdim etiladi). Topshiriqlar natijasi foiz sifatida baholanadi. Muvaffaqiyatsiz urinishlar past ballga olib keladi. Shuningdek, yaratilgan vazifalar va boshqa oʻquv materiallarini tematik bloklar, darslar va oʻquv kurslariga birlashtirish imkonini beruvchi qoʻshimcha The Masher (Tools) blokini oʻz ichiga oladi.

Hot Potatoes da 5 ta nazorat topshiriqlarini yaratuvchi dasturlar mavjud boʻlib ular quyidagilar.


JQuiz dasturida toʻrt xil turdagi test topshiriqlarini yaratish mumkin: alternativ, qisqa javobni yozish, gibrid (qisqa javobning savoli bir nechta urinishlardan soʻng alternativ savol koʻrinishiga keladi),

<sup>1</sup> Sh.Pozilova. Pedagogik dasturiy vositalar. Oʻquv qoʻllanma, Toshkent, 2019.

<sup>2</sup> <https://iowin.net/ru/hot-potatoes>


multitanlovli (bunda ta'lim oluvchi berilgan variantlardan bir nechtasini to'g'ri deb tanlab olishi mumkin).

Alternativ sinov mashqida ta'lim oluvchi javob variantlaridan biri tanlanadi. Ta'lim oluvchi to'g'ri javob berishi bilan bahosi belgilanadi (1-rasm).




1-rasm. JQuiz test topshiriqlari yaratish va natija muloqot oynasi.

JCloze dasturida nazorat topsirig'i quyidagicha tashkil qilinadi. Gapning orasiga shunday kiritish maydonchalar tashkil qilinadi, bu maydonchadagi so'zlar gapning kaliti hisoblanadi. Ya'ni kalit so'z gapni to'ldiradi. Bunday maydonchalarni xohlagancha tashkil qilish mumkin. Har bir kalit so'zga yordamchi izohlar tashkil qilish mumkin. Shu o'rinda ta'lim oluvchi yana Hint yordamchi tugmaga murojaat qilib to'g'ri javobning harfma-harf tashkil qilishi ham mumkin (2-rasm). Undan tashqari, dastur bir nechta kalit so'zlar ro'yxatini tashkil qilishi va ta'lim oluvchi to'g'ri so'zni tanlash orqali ham javob berish shaklini tashkil qilish mumkin. Buning uchun fayl konfiguratsiyasini o'zgartirish kerak.




2-rasm. JCloze nazorat topshiriqlari yaratish va natija muloqot oynasi.


JCross dasturi krossvordlar yaratish imkonini beradi. Krossvord sarlavha yozishdan boshlanadi. Keyin krossvordga kalit so'zlar kiritiladi va bu ikki xil usulda kiritilishi mumkin. Birinchisi yacheykalar-ga kalit so'zlarni o'zimiz kiritamiz, ikkinchisi avtomatik tarzda kalit so'zlarni kiritish tugmasini tanlagan holda kiritiladi. Krossvord setkasini xohlagan o'lchamda tashkil qilish mumkin (2-rasm). Nazorat topshirigini krossvord ko'rinishida tashkil qilish, sinovni qiziqarli mashg'ulotga aylantiradi. Bunda ta'lim oluvchi savollarga javob berish jarayonida, so'zlarni orfografik yozilishini ham o'rganadi.




3-rasm. JCross nazorat topshiriqlari yaratish va natija muloqot oynasi.





JMix dasturi gapdagi soʻzlar aralashmasidan topshiriq yaratadi. Bunda toʻgʻri javobni aniqlash uchun bir necha soʻzlarni toʻgʻri ketma-ketligini tashkil qilish kerak, yaʼni gapdagi ketma-ketlik aralash koʻrinishda taklif qilinadi. Bu nazorat topshirigʻida taʼlim oluvchi oʻzini oʻyin oʻynayotgandek his qiladi (4-rasm). Nazorat topshirigʻini amalda bajarish jarayonida, gaplarni grammatik tuzilishini ham avtomatik tarzda oʻrganib boradi.



4-rasm. JMix nazorat topshiriqlari yaratish va natija muloqot oynasi.




JMatch dastur mos keluvchi javoblarni topish nazorat topshirigʻini yaratadi. Chap tomonda oʻzgar-mas roʻyxat tashkil qilinadi. Oʻng tomonda esa aralash holda javoblar roʻyxati tashkil qilinadi (5-rasm). Bunda taʼlim oluvchi oʻzaro moslikni topishi kerak. Sinov mashqini boshqotirma yechishga qiyoslash mumkin.




5-rasm. JMatch nazorat topshiriqlari yaratish va natija muloqot oynasi.

TheMasher. Biz yuqorida Hot Potatoes beshta nazorat topshiriqlari yaratuvchi dasturdan iborat deb aytib o'tdik. Lekin oltinchi dastur ham bor. Unda nazorat topshiriqlari yaratilmaydi. Uning vazifasi nazorat topshiriqlari to'plamlarini bir yaxlit ro'yxat shaklini tashkil qilib, bir faylga birlashtiradi. Barcha nazorat topshiriqlarini bitta faylda bajarish imkoni paydo bo'ladi. Ro'yxatni o'qituvchi shakllantiradi.

Ya'ni, ma'lum mavzular ketma-ketligi, bob yoki paragrafga tegishli bo'lgan nazorat topshiriqlarini bir faylga birlashtirib, uni ta'lim oluvchiga taqdim qilishi yoki elektron darsliklarning sinov qismiga joylashi mumkin. Yaratilgan fayllar HTML formati ko'rinishda bo'lganligi va aksariyat elektron darsliklar shu tilda yaratilayotganligi sababli, mashqlarni biriktirishda hech qanday muammo tug'ilmaydi.



6-rasm. TheMasher yaratilgan mashqlarni biriktirish va natija muloqot oynasi.

Yuqoridagi barcha nazorat topshiriqlari nafaqat matndan iborat bo'lgan shaklda, balki jadvalli, rasmlil, ovoqli, video va gippermurojaatli ko'rinishda ham yaratilishi mumkin. Bu imkoniyatlar ta'lim oluvchi sinovini tashkil qilishning interaktivligini oshirish bilan birga, barcha fanlardan nazorat topshiriqlarini yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, ta'lim oluvchiga nazorat topshirig'ini bajarishi uchun vaqt cheklovini (  –конфигурация – таймер yordamida) tashkil qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik dasturiy vosita yordamida didaktik topshiriqlar ishlab chiqish o'qitishning barcha shakllarida yuqori sifat va samaradorlikni kafolatlaydi. Bugungi axborot texnologiyalari asrida zamonaviy axborot texnologiyalari kundan kunga rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy ta'lim jarayonining shakllanishiga ham olib keladi.

Hot Potatoes dasturi ixtiyoriy fandan nazorat topshiriqlar yaratish va o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlab borishlariga xizmat qiladi.

Nazorat topshiriqlarini turli interaktiv usullarini yaratish orqali ta'lim oluvchilar muammoli vaziyatni tushinish, yechimni izlab topish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, yechim variantlarini taqqoslash va baholashni o'rganadilar.

**Tileumuratova Gulnaz Tajibay kizi (Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilimiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining mustaqil tadqiqotchisi)  
QORAQALPOQ ADABIYOTINI O'QITISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH USULLARI**

***Annotatsiya.** So'nggi yillarda mamlakatimizda qoraqalpoq adabiyot, san'at va madaniyat, kitobxonlikka alohida ahamiyat berilayotgan bir paytda qoraqalpoq adabiyoti tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishning yuzaga kelishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu maqolada Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodidagi bolalar o'yinlari ijrosida keng amalda bo'lgan ijro etiladigan o'yin va qo'shiklarni kuzatish mumkin.*

***Аннотация.** В последние годы в нашей стране особое значение придается каракалпакской литературе, искусству и культуре, книгочтению. В данной статье рассматриваются игры и песни, которые широко используются при исполнении детских игр в каракалпакском фольклоре.*

***Annotation.** In recent years, at a time when Karakalpak literature, art and culture, reading are being given special importance in our country, the emergence of scientific research dedicated to the*

study of Karakalpak literature is of urgent importance. In this article, performed games and songs that are widely used in the performance of children's games in Karakalpak folklore have been observed.

**Kalit so'zlar:** qoraqalpoq adabiyoti, zavq-o'yin, qo'shiq, xalq og'zaki ijodida mif, afsona, rivo-yatlar, pand-nasihati, urf-odat, qissa, hikoyat.

**Ключевые слова:** каракалпакская литература, развлечения-песня, миф, легенда, сказание, наставление, предание, притча, устное народное творчество.

**Key words:** Karakalpak literature, entertainment, song, myth, legend, narratives, advice, tradi-tion, story, narrative in folk oral creation.

Hozirgi davr jahon adabiyotshunosligi yutuqlari ufqlariga nazar tashlaganda, milliy adabiyotlarda-gi janrlar tadrijiy taraqqiyoti va tipologiyasini, adabiy aloqalar, adabiyotning jamiyat oldidagi muqaddas burchi hisoblangan inson zotini ma'nan mukamallashtirish g'oyalari, xususan, bolalar folklori va yozma adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini, uning badiiy-estetik tamoyillariyu inson badiiy tafakkurini rivoj-lantirishdagi o'rnini o'rganish hamda adabiyotning umuminsoniy va milliy qadriyatlarini aks ettirish da-rajasi va holatini baholash soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan biridir.

Qoraqalpoq adabiyoti o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish, ularni o'rganish jahon adabiyotshu-nosligi va qardosh xalqlar bolalar adabiyotiga bag'ishlangan ishlar kontekstida olib qarash va shu asosda mazkur muammoga yondashish ishning nazariy va amaliy jihatdan puxta bo'lishini ta'minlaydi. Shuni e'tiborga olib, boshqa xalqlar bolalar adabiyotida mazkur masalalarga bevosita yoki bilvosita daxldor bo'lgan quyidagi ishlarni ko'rsatish mumkin. Chunonchi, o'zbek adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlardan P.Shermuhammedov, Z.Adilova, A.Safarov, S.Irisxo'jaye-va, H.Egamov, G.Djahangirov, I.Azimov, M.Jumaboyev, S.Matchonov, Q.Qahramonov, Z.Ibragimova, R.Barakayev, K.Turdiyeva, D.Rajabov, B.Jamilov, B.Ashurov kabilarning, Dog'iston bolalar adabiyotida F.Muhammedovning, tatarlarda L.Mingazovning, qozoqlarda D.Roziyeva, qirg'izlarda V.Vakulenko, udmurtlarda T.Volkova kabi olimlarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Ushbu ilmiy ishlar bolalar adabiyoti-ni nazariy masalalarini, evolutsiyasini, janr xususiyatlarini hozirgi davr nuqtayi nazaridan o'rganishda bizga nazariy asos vazifasini o'taydi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida esa bolalar folklori va yozma adabiyoti muammolari boshqa xalqlar adabiyotshunosligiga nisbatan ochilmagan qo'riq deyishga asos beradi. Zotan, unda bolalar ada-biyotiga bag'ishlangan sintezlovchi katta monografik tadqiqotlar butunlay ko'zga tashlanmaydi. Bu so-hada XX asrning 70-yillarida faqat I.Qurbonboyevning bitta nomzodlik dissertatsiyasini, S.Qazaxbayev-ni ilmiy ishlarini ko'rsatish mumkin. U ham bolalar adabiyotining barcha masalalarini qamrab ola ol-magan tadqiqotdir.

Mustaqillik yillarida qoraqalpoq adabiyoti ba'zi masalalariga bag'ishlangan T.Mambetniyazov-ni, K.Palimbetov, Z.Bekbergenovalarning kasb-hunar kollejlari mo'ljallangan darsligini ko'rsatish mumkin. Ularda ham qoraqalpoq adabiyotining nazariy masalalari, evolutsiyasi, janrlari, poetikasi masa-lalari keng yoritilmadi va biz tanlagan obyekt shu kungacha o'z tadqiqotini kutib yotgan muammolar qa-torida qolaverdi.

Shu bilan birga, Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodidagi bolalar o'yinlari ijrosida keng amalda bo'lgan "Nekke qayda" zavq-o'yin qo'shig'iga uyg'un holda yaratilgan Y.Əjimovtyñ "Qonaq boldym ayuo'g'a" atamasidagi o'yin she'rida quyidagicha savol-javob mavjud:

- Ауыу‘ qayda?
- Тог‘ауда.
- Не қылыр атыр?
- Pal jer атыр.
- Рапы қандау?
- Мазалы сондау.<sup>1</sup>

Bunday savol-javobdan maqsad bolalarda bashorat qilish, kuzatish, tafakkurni rivojlantirish qobili-yatlarini o'stirishdan iborat bo'lib, o'yin shunday mushoira tarzida davom etadi.

Taniqli olim Quo'anishbay Orazimbetovning "Hijolarning oz bo'lishi bolalar ijrosi uchun, musi-qaga solib aytish yoki ifodali o'qish uchun qulaydir"<sup>2</sup> deganidek, bunday she'rlar bolalarni qiziqtiradi,

<sup>1</sup> Əжимов Я. Ешқиниң неге сақалы бар? Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015, 64-бет.

<sup>2</sup> Оразымбетов Қ. Ҳазирги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы хэм типологиясы. Нөкис, "Билим", 2004, 65-бет.

yod olishga undaydi, bolalar zavqini oshirib, ularni tabiat va hayvonot dunyosiga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Xalq og‘zaki ijodida “Yolg‘on qo‘shiqlar” deb nomlanuvchi qo‘shiqlar turkumi mavjud. S.Ziyaovning “Tazsha balаның үкелери менен сәо‘бет” qo‘shig‘i ham o‘sha qo‘shiqlar ruhida yozilgan.

*Qozы baylap, qasqырды,  
Basып qara tasqa urды.<sup>1</sup>*

Shunday shakldagi qo‘shiq E.Akimbayevning “Өtirik pe, ыраспа?” qo‘shig‘idir. Unda:

*Aytбай da бар, qasымда,*

*Qarmaq penen usladым,*

*Bir kit, eki akula*

*Ysheo‘inde tapsырдым.<sup>2</sup>*

Duysenbay Dao‘letbayevning “Өtirik qosyqlar”ida:

*Gөjek urыр qasqырды,*

*Ао‘зы, турнын qanattы<sup>3</sup>* kabi qatorlar mavjud.

Bunday yolg‘on qo‘shiqlar bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bolada shunday qo‘shiqlar orqali uning mantiqiy fikrlash qobiliyati o‘sadi, yolg‘on qo‘shiq bilan yolg‘on ertakni qiyoslaydi, nima ustida gap ketayotgani haqida fikr yuritib, voqealar orasidagi farqni bilishga intiladi. Yolg‘on qo‘shiqlar kome-diyaga, yumorga yaqin bo‘ladi, tinglovchi uni eshitgach, jilmayishga moyillik bildiradi.

Bolaning “Tushovini kesish” odati qoraqalpoqlarda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan urf-odatdir.<sup>4</sup> Yozma adabiyotda bir qancha shoirlar, jumladan, X.Saparov, S.Abbazov, Z.Zamatdinov, Sh. Atamuratovanning bu odatga bag‘ishlab yozgan she‘rlari bor. Xususan, S.Abbazov “Təy-təy bala, təy bala” qo‘shig‘ida:

*Berman qara, həy bala,*

*Təy-təy bala, təy bala,*

*Həzirshе sen асыqра,*

Bas ayaqty, jay g‘ana.<sup>5</sup> Shunday qatorlar orqali bolani o‘ziga qaratib, unga maqtov so‘zlari aytadi, uni ilhomlantiradi, ruhini ko‘tarib, hayotda tetik va baxtli qadam tashlashga undaydi, she‘r ohanglari esa uning hayotga bo‘lgan muhabbatini oshiradi.

Qoraqalpoq xalqiga xos qadimiy urf-odatlardan biri alladir (“Besik jiri”)dir. Allaning bola tarbiyasidagi roli benihoyadir. Ulug‘ bobomiz tib ilmining buyuk sultoni Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida: “Go‘dakning orzusini ijobat qilish, rivojlantirish uchun unga ikki narsani qo‘llash zarur: birinchisi, bolani astagina tebratish, ikkinchisi, uxlatish uchun odatga aylanib ketgan, ohang bilan alla aytish. Shu ikkisini qabul qilish darajasiga qarab bolaning jismi bilan jismoniy tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan qobiliyati paydo bo‘ladi”.<sup>6</sup>

**Исмаилов Анвар Рустамович (кандидат филологических наук, доцент Самаркандского государственного института иностранных языков)**

## **СПОСОБЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация.** Мазкур мақолада олий таълим муассасасидаги чет тили ўқитувчисининг педагогик компетенциясини такомиллаштиришида инновацион ва педагогик технологияларни қўлланилишининг ўрни ва таъсири таҳлил қилинган. Муаллиф педагогик компетенция компонентлари ҳақидаги олимларнинг турли фикрларини келтириб, таҳлил қилиб, ўзининг хулосасини чиқарган.

**Аннотация.** В статье анализируется роль использования информационных и современных педагогических технологий в формировании педагогической компетенции преподавателя иностранного языка в высшем образовательном учреждении. Автором приводятся различные мнения учёных по поводу составляющих педагогической компетенции и излагается собственное заключение.

<sup>1</sup> Зияўов С. Аралымнан айырма. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1996, 21-бет.

<sup>2</sup> Акимбаев Е. Ҳэўеслик. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1997, 11-бет.

<sup>3</sup> Дэўлетбаев Д. Жаманлыққа жақсылық. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1996, 4-бет.

<sup>4</sup> Қазахбаев С. Қарақалпақ салт-дэстүр жырлары. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2012, 11-бет.

<sup>5</sup> Аббазов С. Мэўсимлердиң мэжилиси. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1997, 3-бет.

<sup>6</sup> Абу Али ибн Сино (Авиценно). «Канон врачебной науки». 1-китап, Тошкент, 300-бет.

**Annotation.** *The article analyzes the role of using different pedagogical and innovation technologies in the formation of pedagogical competence of foreign language teacher in higher educational institutions. The author enumerates different viewpoints of scientists due to the components composing pedagogical competence and makes own conclusion.*

**Калим сўзлар:** педагогик компетенция, педагогик маҳорат, педагог, инновация, технология, ўқув жараёни.

**Ключевые слова:** педагогическая компетенция, педагогическое мастерство, педагог, инновация, технология, учебный процесс.

**Key words:** pedagogical competence, pedagogical skillfulness, teacher, innovation, technology, teaching process.

Знание иностранного языка даёт педагогу возможность продуктивно общаться с иностранцами и получать новейшую информацию, касающуюся любой сферы человеческой деятельности, в том числе педагогической. Педагог со знанием иностранного языка имеет широкий спектр коммуникативной компетенции и свободно ориентируется в многонациональном сообществе, воплощая образцовые модели речевого поведения в учебно-образовательный процесс. Следовательно, обучение иностранному языку напрямую связано с его культурологическим содержанием. Именно поэтому культурно-маркированный пласт лексики, фразеологии, паремиологии необходим при составлении учебной программы по иностранному языку.

Именно такой подход к обучению иностранного языка обеспечивает успех дальнейшего общения студентов-выпускников с иностранными партнерами на уровне речевого этикета. Однако объем обучения языкового материала во много раз превышает объем культурологического материала, что негативно сказывается на балансе языковых знаний и культурологических.

Почему культура общения и речевой этикет превращаются в приоритетные аспекты обучения иностранному языку? Дело в том, что представитель нашей страны становится потенциальным межкультурным коммуникантом на международных семинарах, конференциях и соревнованиях. Коммуникант должен адекватно воспринимать культуру другого языкового общества, несмотря на своё субъективное отношение к той или иной культуре. Межкультурное общение может происходить на профессиональном или бытовом уровне с различными слоями населения. Для успешного межкультурного диалога важно знать не только иностранный язык, на котором происходит общения, но и владеть знаниями национальной культуры носителей этого языка. Здесь важно подчеркнуть, что язык общения не всегда совпадает с культурой коммуникантов международного общения. Межкультурная коммуникация протекает на основе национальной культуры языка. Однако следует не забывать о культуре родного языка, ведь только пережив родную культуру в сопоставлении с культурой страны изучаемого языка, можно почувствовать себя полноправным гражданином своей страны.

Контекст межкультурного общения требует от его участников высокого профессионализма, проявляющегося в умении не просто слышать текст или какую-либо информацию, но и оперативно извлекать из подсознания представления об иностранной культуре. Это позволит специалисту межкультурного общения правильно выбрать соответствующие коммуникативные стратегии<sup>1</sup>.

Будущих переводчиков и гидов следует обучать комплексу иноязычных компетенций, необходимых для нормального протекания международного диалога. Поэтому обучение иностранному языку невозможно без обучения культуре и этике общения. Студенческий возраст, как считают психологи, является идеальным для формирования коммуникативной компетенции и представляет собой завершающий этап юности. В рамках развития психофизических возможностей студент отличается от старшеклассника самостоятельностью, широким кругозором и осознанным поведением.

При обучении английского языка следует осведомить обучающихся о культуре речи на иностранном языке. Этот процесс следует проводить в несколько этапов:

- объяснить студентам о необходимости бережного отношения к иностранному языку (в нашем случае английскому) в процессе межкультурной коммуникации;
- разъяснить студентам важность редакторской работы над стилем высказывания на английском языке;

---

<sup>1</sup>Артамонова Е.П. Формирование иноязычной коммуникативной компетентности у будущих учителей иностранного языка на основе социокультурного подхода. Дисс. ...канд. пед. наук, Магнитогорск, 2004, с. 10.



- пропагандировать чтение художественной литературы на английском языке, играющую большую роль в обогащении словарного запаса английских слов и расширении кругозора;
- обогатить библиотеку вуза новейшими словарями и учебниками по английскому языку;
- внедрить в учебный процесс предмет «Культура речи на иностранном языке» и подготовить литературу, обучающую культуре речи и правилам поведения;
- практиковать ролевые ситуации с использованием речевых формул и выражений межкультурной коммуникации.

Такой подход к обучению имеет много положительных характеристик, которые в нашей интерпретации представлены следующим образом:

- ◆ признается важность сосуществования всех языков и культур и продвигается идея языкового и культурного разнообразия в обществе в виду современных вызовов и проблем мультикультурализма;

- ◆ целью языкового образования ставится обучение языку и формирования межкультурной, либо полилингвальной компетенции для лучшего взаимодействия в обществе, т.е. между представителями разных культур;

- ◆ дается возможность изучать необходимый репертуар языковых средств общения, а также широкий диапазон стратегий обучения и изучения;

- ◆ учитываются индивидуальные особенности обучаемых, их прежний языковой опыт и гибкость формируемой коммуникативной компетенции в соответствии контекста обучения и использования языка;

- ◆ обеспечивается развитие студента в виде активного участника общества посредством использования разнообразного языкового и культурного репертуара для выполнения определенных задач;

- ◆ используется целостный подход к языковому образованию вместо сегментного взгляда на язык, культуру и языковую компетенцию за счет овладения не только языком, но и когнитивными стратегиями (переключение с одного языка на другой, обращения к прежнему языковому и культурному опыту, преодоление культурных пробелов и интерференционных ошибок и т.п.).<sup>1</sup>

В процессе обучения межкультурной коммуникации особое внимание заслуживает знание норм поведения, а также норм иностранной культуры, которые, в свою очередь, опираются на общие знания психологии и культуры общения в целом. Знать иноязычную культуру – значит владеть знаниями о традициях, обычаях, менталитете, манере общения и системе ценностей представителей иностранного языка. Всё это может отражаться у иностранцев в соблюдении национальных традиций и обычаев, в манере одеваться, общаться, в кулинарии, ежедневном быту и т.д. Иными словами всё это является составляющими компонентами иноязычной культуры. Студенты языковых вузов, владеющие ими, смогут адекватно реагировать на ситуацию общения и новые изменения в ходе беседы.

Обучение вышеперечисленным составляющим компонентам иноязычной культуры лучше всего проводить в виде диалоговых и полилоговых общений, ролевых игр и различных дискуссий. Языковым вузам и филологическим факультетам нужно подготавливать культурно грамотных знатоков иностранного языка. Культурная грамотность человека есть компонент межкультурной компетенции. Культурная грамотность должна постоянно развиваться и обогащаться новой культурно-специфической информацией.

Несмотря на то, что вузовские программы обучения иностранному языку включают модуль «Межкультурная коммуникация» и «Литература страны изучаемого языка», они не обеспечивают студентов – будущих специалистов иностранного языка нужным багажом знаний по культуре общения и речевому этикету. Основной причиной этого пробела является недостаток количества часов, отводимых на эти курсы. Несколько лекционных занятий доносят лишь теоретическую информацию по правилам межкультурной коммуникации. Практика же требует гораздо больше знаний от собеседников межкультурного диалога. Сама же практика учит их и способствует накоплению опыта в этом ракурсе.

<sup>1</sup> Махкамova Г.Т. Идея плюрилингвализма в зарубежном опыте межкультурного образования. Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадриятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд – Шанхай, 11–12 октябрь, 2021, 121-бет.

Итак, выпускники языковых вузов и факультетов иностранного языка должны обладать следующими навыками:

- непринуждённость общения, коммуникабельность;
- знание речевых формул общения на иностранном языке;
- беглость и скорость речи на иностранном языке, а также правильный выбор лексики в соответствии с ситуацией общения;
- отсутствие страха общения на иностранном языке, т.е. отсутствие языковых барьеров;
- грамотность письма на иностранном языке;
- понимание и восприятие иностранной речи, высокая скорость реагирования на иноязычную речь;
- спонтанность речи на иностранном языке, избегание от так называемого “внутреннего” перевода с родного языка на иностранный.

Студенты языковых вузов иностранных факультетов являются будущими специалистами и потенциальными коммуникантами иностранного языка и поэтому должны обладать не только знаниями о языке, но и о культуре общения на иностранном языке. Этому их следует обучать через ситуационные проигрывания для того, чтобы они почувствовали себя в конкретной ситуации и познакомились с соответствующей моделью и нормой поведения в этой ситуации. Всё это позволит будущим специалистам иностранного языка преодолевать невербальные и стереотипные барьеры общения и накапливать опыт профессионального общения на иностранном языке.

Применение новых педагогических технологий для развития мышления студентов в профессиональном становлении будущего педагога направлено на:

- ♦выявление всех взаимосвязей и взаимодействий изучаемого материала с использованием различного вида моделирования и оценок;
- ♦чёткое, точное и всестороннее определение – рассмотрение любой системы как механизма достижения установленных целей;
- ♦прогнозирование альтернативных вариантов достижения целей и долгосрочные последствия каждого варианта;
- ♦анализ «внутренних» и «внешних» результатов поведения систем при каждой альтернативе;
- ♦органическое сочетание, координацию и интеграцию различных видов деятельности в процессах проведения исследования и реализации его результатов.<sup>1</sup>

Применение новых информационных технологий на уроке позволяет:

- ♦улучшить учебно-познавательную деятельность студентов и достичь эффективности обучения;
- ♦расширить объем выполняемой работы на занятии;
- ♦усовершенствовать систему контроля успеваемости обучающихся;
- ♦развивать навыки поисковой и исследовательской деятельности;
- ♦обеспечить доступ к различным информационным ресурсам и электронным библиотекам.

Учитывая условия пандемии, продолжающейся вот уже несколько лет, информационные технологии обеспечивают непрерывность образования в онлайн режиме.

Мультимедийные средства на занятиях иностранного языка стимулируют студентов к обучению и повышают эффективность учебного процесса. Компьютерные технологии позволяют участникам образовательного процесса (преподавателю и студентам) собирать, анализировать, применять на практике различную информацию. Интернет является проводником в интеграцию мирового научного и образовательного сообщества. Применяя компьютерные технологии, преподаватель может создавать собственные модели обучения и проверки, а также закрепления пройденного материала.

Преподаватель иностранного языка, использующий информационные и компьютерные технологии:

- ♦легко и эффективно объясняет новый материал, закрепляет его и проверяет успеваемость обучающихся;

---

<sup>1</sup> Вьюнов А.В. О необходимости педагогической технологии преподавания тактико-специальных дисциплин на основе развития критического мышления. Современные гуманитарные исследования, 2009, № 5, с. 169.

- ◆создаёт индивидуальные и групповые модели самообразования и обучения с учётом способностей и уровня успеваемости студентов;
- ◆обогащает информационную культуру студентов посредством работы с программными средствами образования;
- ◆повышает мотивацию обучающихся и предоставляет студентам возможность самостоятельного выбора форм обучения;
- ◆создаёт различные наглядности (таблицы, схемы, чертежи, рисунки, презентации и т.п.) с целью достижения положительной результативности обучения;
- ◆внедряет различные игровые ситуации и изучает аутентичные аудио и видеоматериалы;
- ◆легко и быстро создаёт электронные учебники, материалы обучения, тексты лекций и различные дидактические материалы.

Так, грамотный педагог, обладающий высокой педагогической культурой, должен уметь правильно использовать новые информационные технологии, а также интернет на занятиях иностранного языка. Такой педагог может постоянно расширять свои знания по преподаваемому предмету, развивать и совершенствовать собственную методику преподавания и внедрять информационные технологии в учебный процесс, тем самым повышая эффективность обучения. Информационные технологии способствуют быстрому и объективному контролю успеваемости студентов. Технологии помогают студентам выполнять различные задания, творчески подходить к решению задач самообразования и самоконтроля.

**Абубакирова Нодирабегим Рафисовна (преподаватель межфакультетской кафедры иностранных языков УрГУ)**

### **РОЛЬ И МЕСТО САМООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СТРУКТУРЕ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining umumiy kasbiy kompetensiyalari tarkibida o‘z-o‘zini tarbiyalash kompetensiyasining o‘rni va roli muhokama qilinadi. Shuningdek, u “o‘z-o‘zini tarbiyalash kompetensiyasi” va “umumiy kasbiy kompetensiya” atamalarini tanlashni tushuntirib, konsepsiyaning o‘ziga xos tuzilishini taqdim etadi. Bundan tashqari, ingliz tili o‘qituvchisining umumiy kasbiy kompetensiyasi mutaxassisning muvaffaqiyatli pedagogik faoliyati uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy fazilatlarining kombinatsiyasi ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining barcha tarkibiy qismlarini shakllantirishda toifaning asosi bo‘lgan kommunikativ, psixologik, didaktik, shaxsiy kompetensiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘z-o‘zini tarbiyalash kompetensiyasiga alohida e‘tibor beriladi. Bu o‘z-o‘zini tarbiyalash kompetensiyasi kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish vositasidir.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются роль и место самообразовательной компетенции в структуре общепрофессиональной компетентности будущих учителей английского языка. А также объясняется выбор терминов «самообразовательная компетенция» и «общепрофессиональная компетентность», представляя собственную структуру понятия. Указывается, что общепрофессиональная компетентность преподавателя английского языка представляет собой совокупность профессиональных и личностных качеств, необходимых для успешной педагогической деятельности специалиста. Особое внимание уделяется самообразовательной компетенции, которая тесно переплетается с коммуникативной, психолого-дидактической, личностной компетенцией, являясь базом категории при формировании всех компонентов профессиональной компетентности преподавателя английского языка. И именно самообразовательная компетенция является инструментом совершенствования профессиональной подготовки.*

Bugungi kunda shiddatli kechayotgan globalashuv sharoitida jahonning barcha mamlakatlari uchun barqaror milliy taraqqiyotga erishish, ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha jabhalarida milliy o'zlikni saqlab qolish, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini chuqur idrok etish va aholi keng qatlamlariga yetkazish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Jadid namoyandalari o'z davrida milliy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan konservatizm, dogmatizm, fundamentalizm tizimiga qarshi chiqib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini modernizatsiyalash g'oyalarini ilgari surganlar, milliy rivojlanish yo'larini ishlab chiqishga astoydil kirishganlar. Shu sababdan ham jadidlarning falsafiy merosi ijtimoiy tafakkur taraqqiyotining muhim va ajralmas bosqichi hisoblanadi.

O'zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari konsepsiyasini amalga oshirishda jadidchilik harakatining muhim yo'nalishi hisoblanadigan Xorazm jadidlarining ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, ularning g'oyaviy-falsafiy xususiyatlarini tadqiq etish va targ'ib qilish bugungi kunda falsafa fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini, ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boyligni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"<sup>1</sup>

Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlari O'rta Osiyo xalqlari tarixiga "milliy uyg'onish davri" bo'lib kirgan. Bu davrda amal qilgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-adabiy harakat muammolarini o'rga-

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.



nish hozirgi kunda ham davom etmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyoti, insonning o'zligi, Vatan mustaqilligi g'oyalari bu harakatning ijtimoiy ideali bo'lib, eskirmaydigan boqiy qadriyatdir. Bu murakkab, ko'p qirrali jarayonning ta'lim, badiiy ijod, san'at, matbuot va boshqa sohalaridagi yangicha ko'rinishlari, milliy va umumbashariy mazmundagi insonparvarlik qarashlari bugungi tadqiqotlarda tobora yorqinroq ochilmoqda. Bu jarayon – “jadidchilik harakati” sifatida keng yoyilib, uning faoliyat doirasi, voqe bo'lish xususiyatlari, o'ziga xosligi alohida diqqatga loyiqdir.

Taniqli adabiyotshunos professor Begali Qosimovning “jadidchilik yakrang emas, u Turkiston, Buxoro, Xivada turli miqyos va ko'lamda namoyon bo'lganligi” haqidagi fikrlarida ana shu turfalik nazarda tutilgan.<sup>1</sup> Bu hol jadidchilikning asosiy yo'nalishlaridan biri adabiyotga ham daxldor. Jadidlar o'zlarining g'oyalari aholi keng qatlamlari orasida tarqatish uchun matbuot, adabiyot, san'at, ta'lim va fandan samarali foydalanishga harakat qilganlar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Buxoro amirligiga nisbatan Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Soniy va mirzaboshi Komil boshchiligida usuli jadid maktablari ancha erta ochila boshladi. 1891-yil dayoq mutafakkir Komil tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochiddi. Ushbu maktab xalq o'rtasida katta e'tibor kozondi, unda, dastlab, 25 o'quvchi ta'lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda, jug'rofiya, tarix, hisob kabi aniq fanlar hamda rus tili alohida o'quv predmeti sifatida o'qitildi.

Qozondan maxsus o'qituvchi chaqirilgan edi. An'anaviy mahalliy maktablardan farqli ravishda, dars jadvali, har bir dars 50 minut va 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni, hatto Muhammad Rahimxon kelib ko'rdi, o'g'li Asfandiyorni shu maktabga o'qishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, o'quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag' ajratdi. Ma'lumotlarga qaraganda, bo'lg'usi devonbegi, Xiva xonligida jadidchilik harakatining rahnomalaridan Sayid Islomxo'ja ibn Sayid Ibrohimxo'ja, shoir va mutafakkirlar Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komil Xorazmiyning o'g'li), Ahmadjon Tabibiy, Avaz O'tar o'g'li shu maktabda rus tilini o'rganishgan.

1898-yili Xivada orenburglik muallimlar Mahmud Vafo va Abdurahmon afandilar tomonidan “usuli savtiya” maktabi ochildi. Ammo bir oylik faoliyatidan keyin “taassufning ziyoda o'ldigini anglab, Urganch shahrina ketdilar va u yerda “usuli savtiya” maktabi kushod etdilar”.<sup>2</sup>

Xiva xonligida “usuli jadid” maktablari taraqqiyotining oldini olish maqsadida 1894-yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligining faol aralashuvi bilan, dastlab, Xivada, keyinroq Urganchda rus-tuzem maktablari ochila boshlaydi. Bunday maktablarni o'z homiyligiga olgan Sayid Islomxo'ja millat ma'naviyatidan kelib chiqqan holda, ular dasturiga rus tili, riyoziyot, jug'rofiya, handasa kabi fanlar bilan bir qatorda, ona tili va adabiyot hamda musulmon dini qonunlarini kiritadi, ularning o'qitilishini o'zi nazorat qiladi. Chunki u “Turkiston viloyatining gazeti”, “Tarjimon” gazetalarida rus-tuzem maktablari mohiyati haqida kechayotgan munozaralarni kuzatib borar, bunday maktablardan general-gubernatorlik ko'zlagan maqsadlaridan to'la xabardor edi. Shuning uchun ham rus-tuzem maktablarida milliy til, adabiyot va islom ma'naviyatining o'qitilishiga katta e'tibor beradi.

Komil Avaz, “Garchi erurman toleyi Feruz” maqolasida ta'kidlaganidek, Feruz xonlikda ta'lim-tarbiya, maorif sohasida ham katta islohotlarni amalga oshirgan. 1904-yil noyabr oyida Muhammad Rahimxon farmoniga muvofiq, Urganch shahrida “usuli savtiya” metodiga asoslangan jadid maktabi ochiladi, unda Qozondan taklif etilgan pedagog Husayin Qushayev muallimlik qiladi, o'quvchilar soni 45 nafarga yetadi. 1906-yilda esa ota-onalar, maorifparvarlarning taklifiga muvofiq, Urganchda xuddi shunday maktab qiz bolalar uchun ham ochiladi va muallim etib uning rafiqasi Komila Qushayeva tayinlanadi. Ushbu maktabni Muhammad Rahimxon borib ko'radi, ta'lim-tarbiya ishlarining yangicha yo'lga qo'yilganligidan mamnun bo'ladi, Husayin Qushayevni boshdan-oyoq sarpo bilan taqdirlaydi va xonlik xazinasidan maktabga iqtisodiy yordam ko'rsatishga qaror qiladi.

Asfandiyor valiahdlilik vaqtidayoq “usuli savtiya”ga asoslangan yangi maktablarning usuli qadim maktablaridan afzalliklarini tushunib yetgan, islohotchilik faoliyati bilan ancha e'tibor qozongan yangilik tarafdorlaridan edi. 1907-yil fevralda Xiva aholisining arziga binoan, Qozon shahrining mashhur Olijon Barudiy madrasasidan ikki nafar usuli jadid muallimini taklif etadi. Bu muallimlar ishtirokida yangi maktab ochadi, shu bilan birga, maktabi rushidiya (o'rta maktab) ochish ishlarini boshlaydi: “Kelajak may oyinda, inoo'lox, maktabi rushidiya ochilajakdur. Maktabning sohibi vuzaroyi kiromdan Islomxo'ja janoblari o'lub, muallimi daxa Ahmad Nuriddii afandidir”.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Саиджоновна З. Жадидчилик ва Хоразм адабий муҳити. “Шарқ юлдузи”, 2016, 4-сон.

<sup>2</sup> Долимов У. Туркстонда жадид мактаблари. Т., “Университет”, 2006, 83-бет.

<sup>3</sup> Хивадан мактуб. ”Таржимон”, 1907, 34-сон.

Muhammad Rahimxon II (Feruz) vafotidan keyin taxtga o'tirgai Asfandiyor ham usuli jadid maktablari rivojiga katta ahamiyat berdi. Ayniqsa, devonbegi (bosh vazir) Said Islomxo'ja bunday ma'rifiy ishlarga bosh bo'ldi. Qozondan muallimlar taklif qilish, ular yordamida usuli jadid maktablari ochish davom etdi.

Sayid Islomxo'ja 1907–1910-yillarda qurdirgan madrasa (Islomxo'ja madrasasi) va minora Xivadagi eng ko'rkam va eng e'tiborli o'quv muassasasi va tarixiy obidasi hisoblanadi. Uning xonlikda, shariat – din peshvolari, ruhoniylar orasida ham e'tibori katta edi.

Vaziri akbarning tashabbusi bilan 1911-yilning 23-yanvarida Devonlar Kengashiga 10 banddan iborat islohotlar dasturidning 8-bandida “barcha maktab va madrasalarda o'qitish usuli yaxshilanadi, yangi maktablar ochiladi, ta'lim tizimiga turkiy til savodxonligi va islomiy ilmlardan tashqari, rus tili, jug'rofiya va tarix fanlari darslik sifatida o'qitiladi.”<sup>1</sup>

Jadid maktablarining Xorazm xonligi bilan Buxoro amirligida shakllanish va rivojlanish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi. Buxoro amirligida usuli jadid maktablarining keng ko'lamda tarqalishiga yuqori tabaqa – amir, qushbegi, qozikalon va mutaassib ulamolar keskin qarshilik ko'rsatgan bo'lsalar, Xiva xonligida, aksincha, bu masalada xon boshchiligidagi yuqori tabaqa farmonbardor bo'ldi, pastki tabaqa, hatto mahalliy muallimlar ancha sustlik qildi. Shuning natijasi o'laroq, jadidchilik, jadid maktablari keng quloch yoza olmadi. Jadid maktabdori, usuli jadid pedagoglari, muallimlari xalq orasidan yetishib chiqmadi, xonlik, asosan, Qozon tatarlaridan, Turkiyadan, Bog'chasaroydan darsliklar, turli o'quv kitoblari olish, muallimlar jalb qilish masalasi bilan mashg'ul bo'ldi. Bu yo'l bilangina xonlik maorifini tubdan isloh qilish mumkin emas edi.

Xiva xonligidagi mavjud ahvolga “Tarjimon” gazetasi ham taassuf bildirdi: “Bog'chasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaya yarashmayur, kelishmayur esa Xivalidan muallimlar yetishdirmali va Xivada tab' o'linajok alifbolari vujudga keltirmali. Bunda hech bir kimsa zarar ko'rmaz. Toshkand bo'yla bir chora bo'ldi.”<sup>2</sup>

Xullas, Xorazm jadidlarining ta'limni rivojlantirish borasida qilgan sa'y-harakatlari natijasida xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotida sezilarli darajada o'zgarishlar sodir bo'ldi.

#### **Karimov Habibulla Qadamboyevich (UrDU mustaqil tadqiqotchisi) GENDER TENGLIGI G'OYASINING DINIY VA TARIXIY ASOSLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender tengligi g'oyasining eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha bo'lgan davrdagi, yunon-rim faylasuflari qarashlarida va diniy ta'limotlarda gender munosabatlarning rivojlanishi qiyosiy tahlili qilingan holda xulosa qilingan.*

***Аннотация.** В данной статье обобщено развитие идеи гендерного равенства с древнейших времен до современности на основе взглядов греко-римских философов и религиозных учений путем сравнительного анализа.*

***Annotation.** This article summarizes the development of the idea of gender equality from the earliest times to the present, in the views of Greco-Roman philosophers and religious teachings, with a comparative analysis.*

***Kalit so'zlar:** Qur'oni karim, veda, buddizm, gender tenglik, faoliyat, xitba, teng huquqlilik.*

***Ключевые слова:** священный Коран, Веда, буддизм, гендерное равенство, деятельность, проповедь, равные права.*

***Key words:** Holy Koran, Veda, Buddhism, gender equality, activity, sermon equal rights.*

Gender tenglik masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan ham bog'lig'dir. Olimlar gender tenglik masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar.

Ayollar va erkaklar teng huquqliligi masalasi qadim zamonlardan buyon qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelgan. Miloddan 400 yillar avval yashagan sofist Antifont o'z asarlarida barcha odamlarning tabi-

<sup>1</sup> А.Саъдуллаев, А.Сотликов, О.Абдуллаев. Сайид Ислomхўжа (сиёсий, маданий-маърифий фаолияти). Т., 2005, 40-бет.

<sup>2</sup> “Таржимон”. 1913, 278-сон.

at tomonidan teng qilib yaratilganligi haqidagi g'oyani birinchilardan bo'lib ilgari surgan. Uning fikricha, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlar o'zlarini tengsiz holatga soluvchi qonunlar odamlarning o'zaro kelishuvi natijasidir. Shunday qilib, ayol va erkak teng huquqliligi muammosi doimo hur fikrli insonlar diqqat markazida bo'lgan. Biroq aynan ayolning erkak bilan teng huquqli ekanligini e'tirof etgan mutafakkir qadimgi yunon faylasuf olimi Pifagor edi. U odamlarning turmushi isloh qilinishi hamda falsafaning huquq va erkinlik to'g'risidagi xulosalariga muvofiqlashtirilishi kerakligi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirgan. Ushbu nuqtayi nazardan u o'zining falsafiy qarashlarida ayol va erkakning teng qilib yaratilishi haqidagi fikrini ilgari suradi.

Pifagorning maslakdoshlari esa bu g'oyani davom ettirganlar. Ular inson hayoti adolat va ma'lum chegara, ya'ni, o'z o'rnini bilish va his qilish asosida qurilishi lozimligini ta'kidlaydi. Pifagor ta'limotining inson huquqlari va erkinligi borasidagi g'oyalarni davom ettirib, "Ideal davlat" asarida atroflicha talqin etadi. O'z asarida Platon ideal davlatda ayolning o'rniga nisbatan qarashlari uning biologik va madaniy, xususiylilik va ommaviylik o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni aniqlashtiradi. U ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'zaro teng huquqlilikni e'tirof etib, insonning qanday ijtimoiy foydali mehnatni bajarishiga qodirligiga qarab, jinslar o'rtasidagi biologik tafovutlarni nomuhim tafovutlar deb izog'laydi. Ayolning reproduktiv holati ularni faqat uy-ro'zg'or ishlari bilan chegaralanib, ijtimoiy vazifalardan chetlatilishiga asos bo'la olmaydi, deb uqtiradi. Shu bois biz Platonni jinslar tengligining ilk himoyachisi deb aytishimiz mumkin. U yigit va qizlarning ta'lim olishi, erkin kasb tanlashi, o'z qobiliyatiga yarasha ijtimoiy mavqeni egallashi kabi teng imkoniyatlarni qo'llab-quvvatlagan.<sup>1</sup>

Qadimgi Hindistonda ayol turmush qurish, meros va boshqa hech qanday xuquqqa ega emasdi. Hindlarning muqaddas kitobi—"Veda"da ayol momaqaldiroqdan, o'limdan, zahardan va ilondan ham yomonroq jonzot sifatida tasvirlanadi. Buddizmning ayrim yo'nalishlarida ayollar obrazlari muhim o'rin egallaydi. Buddizmning asosiy yo'nalishi bo'lmish – axayanada ayol yaxshi, farovon hayot ichida ko'rsatilgan bo'lishiga qaramay, muqaddas yozuvlarda ayollarning ziddiyatli tasvirlanishi natijasida erkaklarning ayollarga nisbatan ikki xil munosabati aks etirilgan. Bir tomondan, ayol dono, muloyim, mehribon qilib ko'rsatilsa, boshqa tomondan esa u kishini yo'ldan ozdiruvchi, buzg'unchi mavjudot sifatida ta'riflanadi. Budda bir gal Anandaga shunday dedi: Ayolni bu dinga qabul qilmaganimizda, buddachilik (buddizm) sof holda uzoq asrlar davom etardi. Endi oramizga ayol kirgach, bu din uzoq yashaydi, deb ayta olmayman, degan.<sup>2</sup>

Xristianlikda esa, asosan, V asrgacha, ayolga nisbatan past nazar bilan qaralgan, unda ayol erkakni yo'ldan uruvchi iblisga yaqin mavjudot sifatida talqin qilingan. Rim jamiyatida nimaiki ko'ngilsizliklar, tartibsizliklar hukm sursa, uning sababini ayoldan qidirdilar. Ular tinimsiz ayollar haqida baxslashar va o'zlarinig nomaqbul ta'riflarini berib, o'z so'zlarini ma'qullashar edi. Jumladan, qirol va poplar "Ayol – iflos", deya baho berdilar. "Uning go'zalligidan ehtiyot bo'lish lozim. Zero, u fitna va g'urur uchun iblisning qurolidir", deya xitob qildilar. Ularga qo'shimcha tarzda ayrimlari ayol to'g'risida, u inson nafsiga shaytonni kiritgan, ayol erkakni Alloh taqirlagan daraxtga yaqinlashtirgan. Allohning qonunlarini buzgan, erkakni chirkinlashtirgan", degan fikrni bildirganlar. "Uning gunohkor ekani muqarrardir. Ayol qiziqarli ofatdir. Uy va oila uchun tahlikadir degan xulosa bildirgan. O'sha davrda xristianlikda (milodiy V asrda) quyidagi masalani muzokara etish uchun bir anjuman o'tkazdilar. "Ayol mavhum, ruhsiz bir jism" Ular shunday qarorga keldilar: xuddi shunga yaqin anjuman Fransiyada milodiy 586-yilda bo'lib o'tgan: "Ayol insonmi yo inson emasmi?" Natijada shunday qaror qiladilar: "Ayol inson, lekin u faqat erkakka xizmat etmoq uchun yaratilgan". Angliyada esa ayol, hatto Injilni o'qish u yoqda tursin, unga qo'l tekkiza ham olmagan. Qirol Genri VII (1509–1547) zamoniga kelibgina, ayollar Injil o'qiy boshladilar. Bu davrgacha ingliz qonunida ayollar fuqaro sanalmasdi. Ular mulk egasi sifatida haq-huquqlarga ega emas edilar. Hatto o'z mehnati bilan topgan mol-mulkni erkin tasarruf qila olmaganlar. Johiliyat davrida, ya'ni, Islomgacha Arabiston yarim oroli aholisi o'rtasida ayolning hech qanday o'rni ham, qadr-qimmat ham yo'q edi. Bu holat farzandning tug'ilishidan boshlanardi. Oilada o'g'il bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug'lsa esa oilada motamsarolik hukm surib, tezda farzandni yoqotish payiga tushishar edi. Ayolning eri oldidagi qadri erining molichalik emasdi. Johiliyat zamonida arab erkaklari ayol bilan bir xonada o'tirishmas, birga ovqatlanmasdilar. U davrda arablar uch narsada: otida, ayolda, uyda xosiyat yo'q, deb ishonishar edilar. Ba'zan esa olti yoshlarga kirganda, uni yasantirib, "qarindoshlari-

<sup>1</sup> "Tadbirkorlik va pedagogika". Ilmiy-uslubiy jurnal, 2020, 1-son, 120 – 125-betlar.

<sup>2</sup> Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya. T., BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 1998, 1 – 3-betlar.

miznikiga olib boraman”, deb cho’lda avvaldan hozirlangan chuqurga tashlab, ustidan tuprog‘ tortib yuborishardi.

Ba’zi rivoyatlarda aytilishicha, homilador ayollarni chuqurga tushirib tug‘dirishar, agar tug‘ilgan farzand qiz bola bo’lsa, uni o’sha zahoti chuqurga ko‘mib kelishardi. Johiliyat davrida erkaklar oldida ayollarning hech qanday ahamiyati yo‘q edi. Turmushga berish davrida ham ota qizining istagini hisobga olmay, yoshiga e’tibor ham qilmasdan, xohlaganiga turmushga berib yuborardi. Uylanadigan erkakning otasi yoki yaqin qarindoshi qizning otasidan uni so‘ragani borardi va bu ishga “xitba” deyilardi. Qiz uzatiladigan bo’lsa, bir mahr tayinlanar, shundan keyin turmush qurilardi.

Arablarda yana bundan boshqa bir talay botil va chirkin nikoh shakllari uchrardi. Arablarda nikoh xususida yomon ishlardan biri – o‘gay onalariga uylanish odatining hukm surishi edi. Bir arab xotinini qo‘ysa yoki o‘zi o‘lsa, katta o‘g‘li o‘gay onasiga uylanishga haqi bo‘lgan, agar u o‘gay onasiga uylanmoqchi bo’lsa, libosini o’sha xotin ustiga tashlar va shu tariqa, mahr bermasdan, unga uylanib olardi. Agar o‘g‘il istasa, o‘gay onani boshqasiga turmushga berib yuborar va mahri o‘zi olishi mumkin edi. Hatto marhumning o‘g‘li kichik bo’lsa, u ulg‘ayguncha o‘gay ona ushlab turilar va bola ulg‘aygach, masala hal etilishi kutilardi. Bu kabi xo‘rlıklardan ayol o‘z qabilasidan qochib qutulmasa, bu asoratli vaziyatdan qutulish dargumon edi. Islom dini vujudga kelishi arafasida dunyoda ikki katta davlat – Rim va Eron bir-birlari bilan raqobatlashar, boshqa xalq va elatlar ustidan hukmlarini o‘tkazishar edi. Rim nasroniy davlat, Eron esa otashparastlar yurti edi. Bu davlatlarning qonunchiligi buzuq, inson haq-huquqlari poymol edi, ichki nizolar oqibatida kuchsizlanib qolgan edilar. Arabiston yarim oroli goh u, goh bu davlatning qo‘shinlari bilan harbiy to‘qnashuvlarga duch kelib turardi.<sup>1</sup>

Islom dinining vujudga kelishi Arabistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni muolaja qiluvchi bir dastur sifatida qarshi olindi. Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom ayollar haq-huquqlariga ham katta e’tibor berdi. Islomda ayolning haqlari quyidagicha ado etilishi lozim deb ko‘rsatilgan.

1. Ayollarga yaxshi muomalada bo‘lish, ularga nisbatan xushmuomala, shirinso‘z, muloyim munosabatda bo‘lish, nohaqlik va qo‘pollik qilmaslikni targ‘ib etdi. Bu xususda Muhammad Payg‘ambar mo‘minlarning eng to‘la ishonchlisi xush xulqlisidir. Sizlarning yaxshilaringiz ayollarga, zavjalariga yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir, ayollar xususida Allohdan qo‘rqingiz. Zero, siz ularni Allohdan omonat o‘laroq olgansiz, deb ta’kidlaganlar.

2. Ayollarni urmaslik. Ayollarga munosabat to‘g‘risida Qur’oni karimda: “Xotirlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo, ularga nasihat qilingiz, so‘ng (bu ta’sir g‘ilmasa), ularni yotoqlarini tark etingiz, so‘ngra (bu ham kor qilmasa), ularni (majruh bo‘limgudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqa) yo‘l axtarmangizlar, deb qayd qilingan. “Niso” surasida aytilganidek, itoatsiz ayolni tarbiya va so‘nggi chora sifatida qattiq og‘ritmasdan urishga izn berilgan. Lekin, ma’lumotlarga ko‘ra, Payg‘ambarning o‘zi ayollarini urmagan va xotin kishini urganlarga ham qarshi turgan. “Ne bo‘ldi erkaklarga, xotirlarini qul kabi uradilar, holbuki, ayni kun so‘nggi (tun)da latiflashadilar”, degan hadis ham bu fikrning isbotidir. Ayni paytda, ayollarga ham erlariga ozor bermaslik amr etilgan. Islom huquqida, hatto urush vaqtida ayol va bolalarni o‘ldirish taqiqlangan. Payg‘ambar: “Kimki ikkita qizni voyaga yetguncha boqsa, jannatga men bilan birga kiradi”, deb ta’kidlaganlar.

3. Ayollarning ilm olishlari. Ayol va erkak musulmonlarga ilm o‘rganmoq farzdir. Qur’oni karimda faqatgina ayollarning o‘ziga xos, jismiga muvofiq kelgan (masalan, avratlarini to‘shish, bola emizish, idda muddati, taloq to‘g‘risida va hokazo) qolgan barcha oyatlar erkagu ayolga tegishli hisoblanadi.<sup>2</sup>

Musulmonlar Qur’on va sunnatga amal qilgan vaqtlarida ularning orasida ilmning barcha soxalarida dunyoga tanilgan allomalar yetishib chiqqan. Bunga o‘zimizning vatandoshlarimiz: Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ulug‘bek, Zamaxshariy va boshqa ko‘plab olimlarning nomlarini keltirish mumkin. Yangi mustaqil davlatlarning xalqaro tashkilotlar bilan ishlay boshlagani, ayollar huquqlarini himoya qilish borasida to‘plangan xalqaro tajribalardan foydalanish, mintaqa uchun yangi bo‘lgan gender tengligi g‘oyasi va zamonaviy konsepsiyalarni olib kirish va rivojlantirish imkoniyatini berdi. Bu ijobiy va salbiy vaziyatlar xotin-qizlar muammosiga yangicha yondashuvni, ya’ni, gender ta’limining ham uslub jihatidan, ham mohiyat jihatidan jiddiy moslashtirilishi zarurligini taqozo etadi. Tarixda ayollarga munosabat jaryonini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ayollar masalasi kishilik jamiyati, ijtimoiy munosabatlar, millatlar va davlatlar, madaniyat va sivilizatsiya bilan chambarchas bog‘liq.

<sup>1</sup> Azimov.A. Ayol va olam. “Huriyat”, 2017, 8-mart, 10-son.

<sup>2</sup> Shu manba.

2. Ayollar masalasini tahlil etganda oila, urf-odat, madaniyat, din ayollarning mehnat qilishi, ta'lim olishi, jamiyatni boshqarishda, siyosiy jarayonlarda qatnashishini cheklab kelganligini unutmash lozim.

3. Turli mintaqalarda ayollarga nisbatan munosabatlarning turli-tuman bo'lishi, ayol huquqlarining ham turli taraqqiyot bosqichlarida turlicha bo'lishiga olib keldi. Ayol huquqlari inson huquqi sifatida tan olinib, xalqaro hamjamiyat tomonidan alohida e'tibor talab qiluvchi soha darajasiga yetguncha ko'p asrlar davomida kurashib keldilar.

4. Ayollarning teng huquqliligi masalasi bugungi kunda inson muammosi darajasiga ko'tarildi. Endilikda xalqaro maydonda jinslar o'rtasidagi munosabat madaniyatini yuksaltirmasdan, ayollarning tengligiga erishish mumkin emas, degan yangi g'oya ilgari surildi. Shunday g'oyalardan biri gender g'oyasidir.

**Казаков Илхом Розмаатович (Қорақалпоқ Давлат университети)**  
**ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ТИЛ ВА МАДАНИЯТ АЛОҚАДОРЛИГИ ТАВСИФИ**

*Аннотация.* Ушбу мақолада тил ва маданият алоқадорлиги масаласининг ўзбек тилшунослигида ўрганилишига доир мулоҳазалар билдирилган.

*Аннотация.* В данной статье представлены комментарии к изучению вопроса языка и культуры в узбекском языкознании.

*Annotation.* This article presents comments on the study of the issue of language and culture in Uzbek linguistics.

**Калим сўзлар:** антропоцентрик парадигма, инсон омили, социолингвистика, психолингвистика, когнитив тилшунослик, лингвистик прагматика, лингвокультурология, мулоқот хулқи, миллий характер, концепт, стереотип, тил соҳиби.

**Ключевые слова:** антропоцентрическая парадигма, человеческий фактор, социолингвистика, психолингвистика, когнитивная лингвистика, лингвистическая прагматика, лингвокультурология, коммуникативное поведение, национальный характер, концепт, стереотип, владелец языка.

**Key words:** anthropocentric paradigm, human factor, sociolinguistics, psycholinguistics, cognitive linguistics, linguistic pragmatics, linguistic culture, communication behavior, national character, concept, stereotype, language owner.

Ўзбек тилшунослигида академик Алибек Рустамов томонидан тилга берилган куйидаги таъриф замирида тил инсон учун ҳамиша оламни билиш ва англаш, шу билан бирга, маданиятни ўзида акс эттириш воситаси эканлиги, маданият ҳамиша тилда воқеланишига доир ишора бор: «Тил жуда катта маърифий аҳамиятга эга. Мавжудотнинг моҳиятини, ҳақиқатини билиш «маърифат» дейилади. Тилнинг илмий аҳамияти оддий билим билан чекланмай, маърифатни, яъни билишнинг энг олий мартабасини ҳам ўз ичига олади. Дунёга келган ҳар бир бола ҳақиқий инсон бўлиб етишиши учун жуда кўп нарсаларни билиши керак. У ўзига керакли билимни кўриб, эшитиб ва ўқиб ўрганади. Эшитиб ва ўқиб ўрганиш тил воситасида амалга ошади ва унинг имконияти чексиздир. Агар тил бўлмай, ҳар бир кишининг тириклиги унинг ўз тажрибасига асосланган бўлса эди, инсон шу кунгача ҳайвон қандай яшаса, шундай яшаган ва бугунги моддий ва маънавий тараққиётга эришмаган бўларди. Тилнинг биринчи маърифий аҳамияти шундан иборатки, тил туфайли жамият аъзоларининг ҳар бирида ҳосил бўлган билим оммалашиб, унинг кўпчилик томонидан ривожлантирилишига имкон туғилади. Ундан ташқари, тил туфайли билим авлоддан-авлодга оғзаки ёки ёзма тарзда қолдирилади, натижада янги авлод ўтган авлоднинг ишини янгидан бошламасдан, уни давом эттиради. Бу билан яна тараққиёт таъминланади».<sup>1</sup>

Кейинги йилларда дунё тилшунослигида тил бирликларини антропоцентрик парадигма асосида ўрганиш ишлари жадал суръатларда давом этяпти. Ўзбек тилшунослигида профессор Н. Маҳмудов эътироф этганидек, антропоцентризм фақат тил тадқиқига нисбатланган тушунча ёки парадигма эмас, балки тилнинг моҳиятига дахлдор ҳодисадир.<sup>2</sup> Антропоцентрик аспектдаги тадқиқотларда тилни инсон омили билан боғлиқ ҳолда ўрганиш назарда тутилади. Чунки тил тизимини инсон омили билан яхлит ҳолда тадқиқ этиш натижасида турли халқлар тилларининг миллий-ма-

<sup>1</sup> Рустамов А. Сўз хусусида сўз. Тошкент, «Ёш гвардия» 1987, 7-бет.

<sup>2</sup> Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб. «Ўзбек тили ва адабиёти», Т., 2012, 5-сон, 3–16-бетлар.

даний хусусиятлари очилади. Бу ҳақида Д.Худойберганова шундай фикр билдирган эди: «Тилни антропоцентрик тадқиқ этиш муайян халқнинг миллий ўзига хослигини кўрсатиб беради».<sup>1</sup>

Ўзбек тилшунослигида шу вақтга қадар тил ва маданият муштараклиги тавсифига бағишланган бир қатор ишлар вужудга келган. Бу ишларда тил ва маданият узвийлиги масаласининг фақат у ёки бу томони эътиборга олинган бўлишига қарамай, улар тил илми ривожига улкан ҳисса бўлиб қўшилганлиги исбот талаб қилмайдиган ҳақиқатдир. XXI асрдан эътиборан тилшунослигимизда антропоцентрик парадигма асосига қурилган тадқиқотлар юзага кела бошлади. Уларда социолингвистика, психолингвистика, когнитив тилшунослик, лингвистик прагматика соҳалари қамраб олинди. Бу ишлар айнан антропоцентрик йўналишда амалга оширилмаган бўлса ҳам, уларда ушбу парадигмага хос тамойиллар ўз аксини топганлиги аён.

Мазкур тадқиқотларда она тилимизнинг миллий характери, урф-одат, анъана ва қадриятларимизга дахлдор баъзи нуқтаи назарлар билдирилганки, биз шунга асосланиб, ҳеч иккиланмасдан, уларни лингвокультурология соҳасига мансуб изланишларнинг дебочаси дейишга ҳақлимиз. Чунончи, С.М.Мўминовнинг «Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари» номли докторлик диссертациясида халқимизнинг ўзига хос тарздаги мулоқот хулқи ижтимоий-лисоний жиҳатдан ўрганилган.<sup>2</sup> Тадқиқотда мулоқот хулқининг миллий характер билан алоқадор томонлари хусусида ҳамда унинг инсон психологияси ва физиологияси билан боғлиқлигига оид қарашлар ҳам акс этган. Ана шундай нуқтаи назарни бемалол тил тизимига антропоцентрик ёндашув деб баҳолаш тўғри бўлади. Диссертант С.М.Мўминов мулоқот хулқига баҳо берар экан, муаммони миллий характер, миллат аҳолисининг ўзига хос урф-одатлари, қадрият ва анъаналарини ҳисобга олмасдан туриб мутлақо ўрганиш мумкин эмаслигини, мулоқот хулқи миллат характерининг узвий бир қисми эканлигини, улар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ ҳодисалар ҳисобланишини таъкидлаган.

Лингвокультурология соҳасига дахлдор назарий қарашларнинг ўзбек тилшунослигига кириб келишида Ш.Сафаровнинг хизматлари катта. Тилшуноснинг 2006 йилда нашр қилинган «Когнитив тилшунослик» номли монографиясида тил ва тафаккурнинг муносабати, уларнинг миллий менталлик ва миллий маданият тушунчалари билан боғлиқлиги таъкидланади. Бу хусусида олим фикри қуйидагича: «Тилнинг тафаккур билан алоқасини ҳозирча ҳеч ким инкор этган эмас (ҳатто бунга ҳаракат ҳам қилинган эмас). Бироқ тил ва тафаккур алоқасини «тенг ҳуқуқли ҳамкорлик» даражада кўрмоқ керак. Аслида, тилга ҳам, тафаккурга ҳам таъсир ўтказадиган маданиятдир».<sup>3</sup> Тилшуноснинг «Семантика» номли монографиясида концепт ҳақидаги диққатга сазовор мулоҳазалар илова қилинган.<sup>4</sup> Ишда концепт моҳиятини ёритишга йўналтирилган фикрлар ҳавола қилиниб, бу борадаги турли хил қарашлар назарий таҳлил қилинган, уларга муносабат билдирилган. Тилшунос илгари сурган «Концепт мундарижасида тил соҳибларининг дунёқараши ва бошқа турли миллий-маданий белгиларнинг акс топиши муқаррар», деган ғоя айни кунда ҳам лингвокультурологияда концепт доирасидаги қарашлар билан ҳамоҳангликни шакллантиради.

Маълумки, Ш.Сафаров дунё тилшуносларининг, хусусан, Уорф-Сепир, Гумбольдт ҳамда А.Вежбицкаянинг лингвокультурологияга берган таърифларини умумлаштирган: «Тилнинг маданият учун хизмат қилишини маданий-маънавий бойлик, ахборот манбаларини сақлаш, уларни авлоддан-авлодга етказиш ҳамда маданий тушунчалар ва концептлар, стереотип ва эталон-намуналарни шакллантиришда бевосита иштирок этишини ҳеч қачон инкор этиб бўлмайди. Тил ва маданият ўртасидаги детерминизм, яъни ўзаро бир-бирини тақозо этиш ҳақиқий «ўзарочилиқдир». Шу сабабли турли мамлакатлар олимлари томонидан тил ва маданият муносабати масаласи турли йўналишларда ўрганилаётгани табиийдир. Кейинги йилларда тилшуносликда лингвокультурологиянинг алоҳида тадқиқот йўналиши сифатида шаклланиши бу масаланинг долзарб аҳамият касб этишига сабаб бўлмоқда».<sup>5</sup>

М.Х.Ҳақимованинг «Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини» номли докторлик диссер-

<sup>1</sup> Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф., Тошкент, 2015, 5-бет.

<sup>2</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ... дис. автореф., Т., ЎзРФА ТАИ, 2000, 47-бет.

<sup>3</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, «Сангзор», 2006, 92 бет.

<sup>4</sup> Сафаров Ш. Семантика. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Тошкент, 2013, 223-бет.

<sup>5</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, «Сангзор», 2006, 65-бет.

тацияси лингвистик прагматикага оид назарий масалалар тадқиқига бағишланган.<sup>1</sup> Ушбу ишда лингвистик прагматиканинг тарихий илдизлари, умумназарий масалалари, бу йўналиш тилшунос-ликнинг қайси соҳалари билан боғлиқ эканлиги тўғрисида фикр юритилади. Матннинг семантик тузилишида иштирок этувчи прагматик мазмун турлари ўзбек тилидаги матнлар асосида ўрганилади. Ишда лингвокультурология термини ишлатилмаган. Аммо лингвистик прагматика назарияси тилнинг миллий ўзига хослигини намойиш этишда муҳим аҳамиятга эгаллиги кўрсатиб берилган.

Ўзбек тилшунослигида лингвокультурологияга оид тадқиқотлар сўнгги йилларда шакллана бошлади. Профессор Н.Маҳмудов лингвокультурологиянинг моҳияти хусусида шундай деган эди: «Лингвокультурология тилни маданият ҳодисаси сифатида ўрганади, бу дунёни миллий тил призмаси орқали ўзига хос тарзда кўриш бўлиб, бунда тил алоҳида миллий менталликнинг ифодачиси сифатида иштирок этади».<sup>2</sup> Олимнинг «Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш» номли мақоласида оламни билишнинг бевосита ҳамда билвосита манзараларини фарқлаш тамойилларига тўхтаб ўтилган. Мазкур мақолада миллий онг, миллий тил, концепт каби тушунчаларнинг изоҳи берилган. Хорижий сўз ўзлаштиришнинг икки типи (янги тушунчани ўзлаштириш ва фақат хорижий сўзни ўзлаштириш) хусусида фикр юритилиб, ўзбек тили лексикаси тараққиёти тарихида сўз ўзлаштириш жараёни билан боғлиқ бўлган ҳолатларга аниқлик киритилган.<sup>3</sup> Тилшуноснинг «Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...» номли мақоласида антропоцентрик парадигма, шунингдек, лингвокультурологиянинг моҳияти ҳамда соҳадаги муаммолар, устувор вазифалар чуқур таҳлил этилиб, илмий асослаб кўрсатилган. Манбада лингвокультурологиянинг юзага келишида асосий омиллар нимадан иборат эканлиги қайд қилинган. Фанга хос асосий тушунчалар изоҳланган, тадқиқотларда уларни қўллашдаги ҳар хилликларга барҳам бериш лозимлиги таъкидланган. Айниқса, муаллифнинг тил ва маданият ҳақидаги қуйидаги фикри лингвокультурология талқинига мансуб тадқиқотларда объектни тўғри белгилаб олишда жуда муҳимдир: «Тил ва маданият деганда, одатда, (тўғриси ҳам шу) тил орқали у ёки бу маданиятни ёки аксинча, маданиятни ўрганиш орқали у ёки бу тилни тушуниш назарда тутилади, аниқроқ айтадиган бўлсак, лингвокультурологиядаги маданиятнинг маъноси «ақлий-маънавий ёки хўжалик фаолиятида эришилган даража, савия (нутқ маданияти)» эмас, балки «кишилиқ жамиятининг ишлаб чиқариш, ижтимоий ва маънавий-маърифий ҳаётида қўлга киритган ютуқлари мажмуи (маданият тарихи, ўзбек маданияти)» демакдир. Шундай бўлгач, нутқ маданиятининг ўрганиш муаммолари бошқа, лингвокультурологиянинг ўрганиш объекти тамоман бошқадир».<sup>4</sup>

Тилшунос Д.Худойбергеновнинг докторлик ишида ўзбек тилидаги матнларнинг лингвокультурологик хусусиятлари ўрганилган. Лингвокультурологик тадқиққа кўра, матн муайян халқнинг маданий қадриятларини, миллий-ментал фикрлаш тарзини намоён этувчи лингвомаданий бирлик ҳисобланади. Таркибида метафоралар, ўхшатишлар, мақол ва фразеологик бирликлар, нутқий этикетлар мужассам бўлган матнлар ўзида миллий-маданий қадриятларни жамловчи лисоний-маданий феномен сифатида қайд қилинган. Диссертацияда прецедент бирликларнинг матн яратилишидаги ўрни, ўрганилиш тарихига алоҳида аҳамият берилган. Бадиий асарларда матн воситасида ифодаланган концепт, асосан, индивидуал бадиий концепт эканлиги қайд қилинган.<sup>5</sup> Тадқиқотчи «тил соҳиби» тушунчасиб айна пайтдаб қуйидаги маъноларда қўлланилаётганлигини таъкидлайди:

а) муайян тилда нутқий фаолиятни амалга оширувчи, яъни, нутқ тузиш ва уни идрок этиш қобилятига эга бўлган шахс;

б) тилдан мулоқот воситаси сифатида фойдаланувчи шахс, коммуникант;

в) ўз миллатининг миллий-маданий, маънавий қадриятларини акс эттирувчи лугат таркибини эгаллаган, уни намоён этувчи шахс; муайян тил вакили.<sup>6</sup> Бу хулосадан маданиятнинг қадриятлар тизими, лисоний шахс эса унинг акс эттирувчиси эканлиги англашилади.

<sup>1</sup> Ҳақимова М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фан. д-ри ...дис., Т., ЎзРФА ТАИ, 2001, 283-бет.

<sup>2</sup> Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. 3 – 16-бетлар.

<sup>3</sup> Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2015, 3-сон, 3 – 12-бетлар.

<sup>4</sup> Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2012, 5-сон, 10-бет.

<sup>5</sup> Ҳудойбергенова Д.С. Кўрсатилган иш. 240-бет.

<sup>6</sup> Ўша иш. 16-бет.

Лингвокультурологияга доир мулоҳазакор фикрлар бошқа тилшунослар ишларида ҳам кузатилади. Хусусан, профессор Э.Бегматовнинг антропоцентрик тадқиқ усули учун материал бера оладиган антропонимик бирликларнинг хусусиятларини ўрганиш қизиқтирган.<sup>1</sup> Тилшунос фикрига кўра, антропонимлар инсон хоҳиши ва фаолияти билан боғлиқдир. Уларда инсоннинг эҳтиёжи ва ижоди акс этади. Инсон номида ўтмишдаги яшаган кишиларнинг маданий-маънавий ва этник қарашлари намоён бўлади. Манбада исмлар халқнинг ижтимоий-иқтисодий ҳамда маданий-маиший турмуш тарзи билан бевосита алоқадор эканлиги уларни антропоцентрик тамойилга кўра тадқиқ этиш имконини вужудга келтириши кўрсатилган. Хуллас, ўзбек тилшунослигида бундан кейин ҳам тил ва маданият алоқадорлиги талқинига доир ишларни давом эттириш бугунги кун тартибидagi эътиборталаб масаладир.

**Tilovova Gavhar Abdaxatovna (ToshDAU dotsenti; e-mail: [gavhar.tilovova@mail.ru](mailto:gavhar.tilovova@mail.ru))**  
**O‘RMONCHILIK TERMINLARINING KO‘P TILLI ELEKTRON LUG‘ATINI TUZISH**  
**MASALALARI**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola o‘rmonchilikka oid terminlarning ko‘p tilli illyustrativ elektron lug‘atini tuzishning muammo va yechimlariga bag‘ishlanadi. Shuningdek, maqolada o‘zbek tilshunosligida elektron lug‘atchilikni rivojlantirish va turli sohaga oid lug‘atlarning o‘zbek tilida shakllantirish masalalari yoritilgan.*

**Аннотация.** *Данная статья посвящена проблемам и решениям создания многоязычного иллюстрированного электронного словаря лесоводческих терминов. В статье также освещается разработка электронных словарей по узбекскому языкознанию и создание словарей на узбекском языке по различным направлениям.*

**Annotation.** *This article is dedicated to the problems and solutions of creating a multilingual illustrated electronic dictionary of forestry terms. The article also covers the development of electronic dictionaries in Uzbek linguistics and the creation of dictionaries in Uzbek for various fields.*

**Kalit so‘zlar:** *elektron lug‘at, mobil ilova, lug‘atshunoslik, terminologiya, terminlar, tizimli tillar, ko‘p tilli, qurilmalar.*

**Ключевые слова:** *электронный словарь, мобильное приложение, лексикография, терминология, термины, системные языки, мультиязычность, устройства.*

**Key words:** *electronic dictionary, mobile application, lexicography, terminology, terms, system languages, multilingual, devices.*

Elektron lug‘atchilik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1980-yillardayoq elektron lug‘atlar asosida katta bilimlar bazasini yaratish mumkinligi tahmin qilingan. Keyinchalik, buning uchun ko‘plab resurslardan, birinchi navbatda, korpuslardan foydalanish zarurligi e‘tirof etilgan,<sup>2</sup> Aynan elektron lug‘atlarni yaratuvchi Leipzig Corpora Collection (LCC) loyihasida bir tilli lug‘atlar internetdan olingan matnlar asosida tuzilgan.<sup>3</sup> Elektron lug‘at – bu kompyuter dasturining bir qismi sifatida ishlaydigan maxsus mashina formatidagi lug‘at. Bugungi kunda turli lug‘atlarning elektron versiyalari keng tarqalgan. An‘anaviy lug‘atlardan farqli o‘laroq, elektron lug‘at matn va grafikalar bilan bir qatorda, video va animatsiya fragmentlari, ovoz, musiqa va boshqalarni o‘z ichiga olgan to‘liq mediaobyektlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Elektron lug‘atning muhim xususiyati uning gipermatnli qurilmasidir. So‘zlar, iboralar yoki rasmlarga o‘rnatilgan havolalar foydalanuvchiga matn yoki rasmni tanlash va tegishli ma‘lumot va ommaviy axborot vositalarini darhol ko‘rsatish imkonini beradi. Lug‘at yozuvi elementlar orasidagi ierarxik aloqalarga ega bo‘lgan aniq mantiqiy tuzilishga ega. U yoki bu ma‘lumotlarga qiziqish bildirgan foydalanuvchi ma‘lum bir parametрни so‘raydi va maqolaning alohida qismlariga kirish huquqiga ega bo‘ladi. Binobarin, elektron lug‘at yaratuvchilari foydalanuvchiga kerakli ma‘lumotlarni osongina va tez olish imkonini be-

<sup>1</sup> Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2013, 3-сон, 35 – 39-бетлар.

<sup>2</sup> Ide N., Véronis, J. Machine Readable Dictionaries: What have we learned, where do we go. Proceedings of the International Workshop on the Future of Lexical Research. Beijing, China, 1994, p. 137–146.

<sup>3</sup> Goldhahn D., Eckart T., Quasthoff U. Building Large Monolingual Dictionaries at the Leipzig Corpora Collection: From 100 to 200 Languages. LREC, Istanbul, Turkey, 2012, vol. 29, p. 759–765.



ruvchi juda ko'p sonli lug'at yozuvlarini taqdim etishi mumkin va ommaviy foydalanuvchi uchun lug'at yozuvlarini alifbo tartibida joylashtirish muammolari asosiy ahamiyatga ega emas.

Elektron lug'atlar qog'ozdagi variantlariga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega, bu tegishli bozorning tez o'sishida namoyon bo'ladi. Elektron lug'at bosma lug'atchilikning asosiy qarama-qarshiligini tubdan chetlab o'tishi mumkin. Bosma lug'atlar qancha ko'p ma'lumot taqdim etsa, undan foydalanish shunchalik qiyin bo'ladi. Shuning uchun bosma lug'atlar ikki toifaga bo'linadi. Birinchisi mashhur, nisbatan qulay, ammo juda oddiy. Ikkinchisi batafsil akademik nashrlar, ular har doim ham siz izlayotgan ma'lumotni tezda olishga imkon bermaydi. Zamonaviy elektron lug'atlar nafaqat bosma lug'atlarga qaraganda ancha katta, balki ulardan kerakli so'z yoki iborani bir necha soniya ichida topish mumkin bo'ladi.

O'rmonchilik terminologiyasi o'zbek tilida yangi o'rganilayotgan soha bo'lganligi bois, shu soha terminlarini yaxlit bir tizimga solish nafaqat, nemis va o'zbek tillarida balki, ingliz va rus tillari misolida ham dolzarb ahamiyat kasb etib turibdi. Leksikografik nuqtai nazardan terminlarni jamlash, o'rmonchilikka oid terminlarni alohida lug'at shakliga keltirish o'zbek leksikografiyasining oldida turgan muhim masaladir. Tabiiyki, o'zbek leksikograflari tomonidan ushbu sohaning lug'atini tuzishga qanday zaruriyat tug'ildi, degan savol o'rinli. Bunga quyidagi qator omillar sabab bo'lmoqda:

1. Urbanizatsiya jarayonining keskin jadallashuvi.
2. Ko'kalashzor yerlar va hududlarning vayron qilinishi, o'simliklarning yo'qotilishi.
3. Daraxtlarning kesilishiga qo'yilgan moratoriylarga nisbatan bepisandlik.
4. Yildan – yil global isishning, havo haroratining keskin ko'tarilishi.
5. Yashil olam, o'simliklar dunyosining saqlab qolishda tafakkurning, ayrim insonlar fikratida yuqori sari yuksalishi o'rniga, pastga qarab qulashi.

Agarda bunday omillarni sanash kerak bo'lsa, buning oxiri ko'rinmaydi va mavjud muammolarning yechimi tobora chigallashib boraveradi. Leksikograflarning ekologik va tabiiy muammolar bilan qanday o'zaro bog'liqligi bo'lishi mumkin, degan savol ham o'rinli, albatta. O'zaro bog'liq jihatlar bor va aynan lug'atshunoslarning zimmasidagi vazifa bu bog'liqlikni yanada mustahkamlaydi. Masalan, so'zning izohi, semantikasi, mohiyati va muhimligi lug'atlarda leksikograf orqali o'quvchiga yetkazib beriladi. Manzarali daraxt va butalarning keskin kesib tashlanishi natijasida yo'qolib borayotgan o'simliklarning nomi, rasmi, ko'rinishi lug'atlarda o'z aksini topishi lozim. Aksincha, yashil o'simliklarga qirg'in bo'lmasdan oldin bu ishlar amalga oshirilishi lozim edi. Bu o'ta mashaqqatli va ko'p vaqt talab qiladigan vazifadir. Shuning uchun ko'p tilli (o'zbek, ingliz, rus, nemis tillari) o'rmonchilik terminlarining illustrativ elektron lug'atini, o'rmon terminologiyasining ma'lumotlar bazasini yaratish hamda uni internet orqali nashr etish rejalashtirilgan.

Elektron lug'atning afzalliklari shundan iboratki, unda resurslar hajmi chegaralanmaydi. Foydalanuvchi lug'atdan istalgan joyda, masofadan turib, muntazam, uzluksiz foydalanishi mumkin. Ko'p tilli lug'atlarda qidiruv tizimi orqali kerakli termini, leksikani topish imkoni mavjud bo'ladi. Shuningdek, yildan yilga rivojlanib borayotgan zamon va texnik taraqqiyot asrida bosma lug'atlarga bo'lgan ehtiyojlarining kamayib borayotganligi aniq namoyon bo'lmoqda. Albatta, lug'atshunoslik ortida yuzlab zahmatkash, fidoiy va katta sabrli tilshunos olimlarning ulkan mehnati yotadi. Lug'atlarni chop etishga ketgan mablag' va qog'ozlarning sarfi, minglab adadda nashr etilishi bugungi kunda kitoblarning faqat kutubxonalardan o'rin olishiga zamin bo'ladi. Elektron lug'atlar bosma lug'atlarni foydalanuvchi tomonidan ko'tarib, olib yurib foydalanishiga imkon qoldirmayapti.

Shuningdek, elektron lug'atlarda foydalanuvchi terminlarni qaysidir chet tilidagi leksikani bir lahza qidirib topishi va ba'zan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilib berish imkoniyatiga ham ega bo'lishi mumkin. Agar o'ylab qaraydigan bo'lsak, bunday so'zlovchi lug'atlar hech qaysi kitob javonlarida mavjud emas. Bunday imkoniyatlarni insonlar kompyuter, noutbuk, mobil telefonlari orqali amalga oshiradilar. Masalan, mobil qurilmalarning imkoniyati tobora taraqqiy etib borayotganligi sababli ular ta'lim vositasi sifatida keng qo'llanilishi an'anaviy va noan'anaviy ta'limda asosiy o'rinni egallab bormoqda. Ta'lim olishning zamonaviy usullarida bosma lug'atlarning biri, bu mobil texnologiya asosida ta'lim olish bo'lib, u kun sayin rivojlanib bormoqda. Elektron lug'atlar mashg'ulot jarayonida chet tillarni o'rganishda quyidagi texnologiyalar asosida til egallashga imkon yaratadi:

–mobil jihozlar (telefon yoki cho'ntak kompyuter)ni (asosiysi internet tarmog'iga kirish mumkinligi) bilan bilim olish va almashish texnologiyasi;

–bu mobil aloqa vositalari (mobil telefon va kommunikatorlar) yordamida o'quv jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan texnologiya;

–bu shunday jarayonki, masofaviy ta’limda shaxsiy o’qitish jihoz (noutbuk, cho’ntak kompyuteri yoki mobil telefon)laridan foydalanish tushuniladi.<sup>1</sup>

Bu qurilmalar ko’pgina foydalanuvchilar uchun axborot olish, bilimlarni shakllantirish, fikr almashish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Darhaqiqat, bu vositalar talabalarning ma’lumotlar olishida asosiy vositalardan biri bo’lib xizmat qiladi. Talabalar smartfon yoki planshetlar orqali ta’lim resurslariga doimo ega bo’lishni xohlashadi. Bugungi kunda talabalarning ko’pchiligi internetga ulanishda shaxsiy va portativ kompyuterlarga nisbatan mobil texnologiyalarda ulanishlar soni bir necha barobarga oshib ketdi. Ta’lim oluvchilar doimo ta’lim resurslariga ega bo’lishni xohlashadi. Shu nuqtayi nazardan, elektron lug’at va mobil ilovalar ko’p afzalliklarga ega. Talabalar ta’lim ma’lumotlari va tizimlariga mobil aloqadan foydalangan holda yondashsalar, bu texnologiyalar o’quv jarayonining o’zini ancha yaxshilashi va boyitishi mumkin. Mobil ilova va elektron lug’atlar orqali ta’lim oluvchilarning turli sohalaridagi bo’shliqlari to’ldiriladi. Birinchi navbatda, mobil vositalardan foydalanuvchilar, ayniqsa, turli oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan minglab talabalarning sohalar bo’yicha yangi atamalarga bo’lgan ehtiyoji qondiriladi. Bundan ilmiy salohiyatning yetarli darajada oshishiga erishiladi.

Yuqorida aytib o’tilganidek, internetda ko’p tilli elektron lug’at va ma’lumotlar bazasini yaratish juda ko’p mehnatni va vaqtni talab etadi. Bu jarayonlarni bosqichma-bosqich quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**1-bosqich.** Ushbu bosqichda leksikograflar va soha mutaxassislarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Lug’atshunos leksikani topishi mumkin, ammo so’zni illustrativ aks ettiruvchi rasmini to’g’ri variantini topa olmasligi mumkin. To’plangan leksikaga rasmlarning muvofiqligi bevosita mutaxassis tomonidan belgilanadi. Rasmlarni to’plashda manzillarga borish, respublikaning turli hududlarida o’rmonchilik sohasiga yangi kirib kelgan leksika, albatta, birinchi navbatda, mutaxassis nutqida qo’llanadi, shuning uchun mutaxassisning ishtiroki katta ahamiyatga ega.

**2-bosqich.** Bu bosqichda lug’atshunos olimlardan to’plangan o’zbek tilidagi so’zlarning ingliz, rus va nemis tilidagi muqobillarini to’g’ri topish va jadvalga solib borish talab etiladi. Buning qiyin tomoni shundaki, ayrim daraxtlar, o’simliklar Markaziy Osiyo hududida o’sadi va ular Yevropa hududida uchramaganligi sababli uning nomlanishida muammolar tug’ilishi mumkin. Shuningdek, mos keluvchi evkivalentni tanlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holatda yana mutaxassisga murojaat qilinadi. Mutaxassis o’simlik tanasi, bargi, guli, mevasi va danagining shakli, ranggi, shu bilan birga qaysi hududlarda o’sib rivojlanishiga qarab (tilshunoslikda motiv belgilari deyiladi), uning boshqa tillarda qaysi so’zlarga yaqinligini belgilab bersa, tilshunos shu nom boshqa tilga o’zgarmasdan, shu tarzda o’zlashishi kerakligi haqida aniq xulosalar taqdim etadi. Shu tariqa, ikkinchi bosqich taqsimlash jarayonining oxirgi bosqichiga yetib kelinadi.

**3-bosqich.** So’nggi bosqich eng murakkab jarayonlarga tayyor holda, lug’atshunos, soha mutaxassisi va informatsion texnologiyalar mutaxassisi, ya’ni dasturchilarning ilmiy hamkorligi ostida amalga oshiriladi. Dastlab, elektron lug’atning alfavit yoki tematizatsiya tarzida tuzish shartlari kelishib olinadi. Yakuniy qarorga kelingandan so’ng, asosiy bazani yaratish vazifasi dasturchilar zimmasida qoladi. Dasturchilar yozayotgan kod va shriftlar lug’atni shakllantirishda xato kiritilsa, u holda ko’zlangan maqsadga erishilmaydi. Qidiruv tizimi elektron lug’at va mobil ilovaning sosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun barcha elektron bazalar qidiruv tizimiga ega bo’lgani kabi rejalashtirilgan elektron lug’at ham ushbu tizimdan xoli bo’lmaydi. Tillar miqdori to’rtta, yozuvlar soni ham to’rtta.

1-jadval

Ozbekcha	Inglizcha	Ruscha	Nemischa	Rasm
uchqat, shilvi	Honeysuckle	ЖИМОЛОСТЬ	Aalbaum	

Ma’lumki, o’zbek, ingliz, rus va nemis tillarining yozuvlari bir-biridan farq qiladi. Uning Frontend, ya’ni kompyuter lingvistikasida foydalanuvchiga ko’rinadigan “sahna oldi” qismining o’ziga xos ko’ri-

<sup>1</sup> Tilovova G.A. Xorijiy tillarni o’qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish. Harbiy sohada chet tilini o’qitishning samaradorligini oshirishda nazariy va amaliy asoslar. Toshkent, 2022, 136-bet.

nishdagi variantlari xilma-xil. Bizning lugʻatning tahminiy koʻrinishdagi Frontend qismi quyidagicha belgilanadi.

Aslida, lugʻatda ranglar aks ettirilmaydi. Hozir lugʻat koʻrinishi oʻquvchida aniq taassurot qoldirilishi uchun bu ranglardan foydalanildi. Elektron lugʻat yaratish lugʻat tuzish prinsiplariga amal qilingan holda, soʻzning grammatik belgi va xususiyatlari bilan toʻliq beriladi. Masalan, oʻzbekcha soʻzning ustiga sichqoncha bilan bosilganda, ushbu soʻzning ot turkumiga mansubligi, belgilangan tilga tarjimasini namoyon boʻladi. Biroq genetik jihatdan bir-biriga yaqin boʻlmagan tillarning nomutanosibligi ajralib qoladi. Masalan, nemis tilida rod kategoriyalari boʻlganligi tufayli, soʻzning grammatik belgilari quyidagicha kiritiladi. Masalan, Aalbaum<sup>1</sup> leksikasi mujskoy rodga tegishli boʻlib, bazada *der* rod belgisi, (*e*)s qaratqich kelishigida qoʻshimcha olishi va Bäume koʻplik shakli bilan yaqqol koʻrinadi. Bunday qoidalarga amal qilish, ayniqsa, nemis tilida juda muhim. Chunki nemis tili grammatikasida toʻrtta kelishik mavjud boʻlib, uchta rodga tegishli boʻlgan otlar bevosita shu kelishiklarda uch xil, yaʼni turlicha turlanadi. Nemis lugʻatshunosligiga koʻra, genitiv kelishigida soʻzning qanday turlanishga ega boʻlishi, qaysi qoʻshimchani olishi aniq koʻrsatilishi shart. Yuqoridagi printsipting ingliz tilida unchalik ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Ammo rus va nemis tillarida har bir soʻzning rod kategoriyasi alohida beriladi.

Elektron lugʻatning ishlab chiqilgandan soʻng foydalanuvchiga qulaylik jihatlari birma-bir taqdim etiladi.

–sohaga oid leksikani toʻrtta tilda oʻrganish imkoniyati mavjud;

–barcha darajadagi oʻrganuvchilarga toʻgʻri keladi;

–turistlar uchun juda qulay, chunki tillar tanlovi keng;

–taʼlimga yangi texnologiyalarni jalb qilish imkonini beradi;

–mobil ilovalar kitoblar, kompyuterlar va boshqa vositalarga nisbatan ixcham va kichikroq hajmga ega;

–taʼlim olishda ishtirok etayotgan talabalar tomonidan foydalanishini baholash mumkin;

–tezda tillardan tillarga tarjima qilish imkoni bor.

Yana bir jihatni taʼkidlash joizki, COVID-19 pandemiyasi butun dunyo boʻylab koʻplab oʻzgarishlarni keltirib chiqardi va ular tez orada tilda ham oʻz aksini topdi. Barcha tillarga yuzlab yangi soʻzlar kiritilib keldi. Bir qator soʻzlar maʼnosi oʻzgarib, boshqa soʻzlar, ayniqsa, tibbiy soʻzlarning aksariyati umumiy tilga oʻtishi kuzatildi.

Elektron lugʻat muharrirlari tildagi yangi oʻzgarishlarni zudlik bilan hujjatlashtirish va ularni elektron lugʻat yozuvlariga kiritishni muhim vazifa deb bilishadi. Barcha tillarda shu qariyb uch yildan beri COVID-19 pandemiyasi bilan bogʻliq atamalarni yigʻish va ularni leksikografik jihatdan tavsiflash boshlangan.<sup>2</sup> Buning uchun birinchi marta yangi soʻzlarni aniqlash va mavjud lugʻat yozuvlarini qayta koʻrib chiqish va yangilash ishlari amalga oshirilmoqda. Bosma lugʻatlardan farqli oʻlaroq, elektron lugʻatlarga yangi soʻzlarni kiritish, kerakli oʻrinlarda tahrirlash ishlari tez va sifatli kechadi. Bu ham elektron lugʻatning bir yutugʻi, qolaversa, afzalligini belgilaydi.

Elektron lugʻatning foydalanuvchiga qulay boʻlmagan jihatlari keltiriladi.

–elektron ilovaga yangilanishlarni kiritib boʻlmaydi;

–leksika hajmi cheklangan boʻlishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan maʼlum boʻladiki, elektron lugʻatlarning afzallik tomonlari juda koʻp. Ular taʼlimda zamon bilan hamnafaslikni koʻrsatib qolmasdan, til oʻrganishda raqamli texnologiyaning oʻrnini ham munosib belgilab beradi. Jarayonlar keyingi maqolalarda batafsil yoritib boriladi.

**Roʻziev Yarash Bozorovich (Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD; e-mail: [varasch@mail.ru](mailto:varasch@mail.ru))**

### **OʻZBEK TILIDA OʻZLASHTIRMA NUTQ VA GAP**

*Annotatsiya. Oʻzbek tilida oʻlashtirma nutq deganda koʻchirma gapdan sintaktik va morfologik yoʻl bilan hosil boʻluvchi oʻzlashtirmalik nazarda tutiladi. Oʻzlashtirmalikning birinchi turida koʻchirma gap ham shaklan ham mazmunan oʻzgarishga uchraydi. Koʻchirma gap shaklan birikma aniqrogʻi birikmali toʻldiruvchiga aylanadi. Shunga koʻra, fikr anglatuvchi til birligi murakkab tushuncha bildiruvchi*

<sup>1</sup> Tilovova G.A., Imyaminova Sh.S. Oʻzbekcha-nemischa-ruscha-lotinchacha oʻrmonchilikka oid soʻzlar lugʻati. T., ToshDAU tahririyat-nashriyot boʻlimi, 4-bet.

<sup>2</sup> <https://www.dwds.de/themenglossar/Corona>

*birikma shaklini oladi. Muallif gapida esa bayon nohissiy bo'lganda faqat uning kesimi vazifasidagi fe'l (de+di, de+gan edi, de+r edi va b.)ning o'zagi o'zgaradi (ayt+di, ayt+gan edi, ayt+ar edi va hokazo).*

**Аннотация.** *Несобственно-прямая речь в узбекском языке относится к типу речи, образованной синтаксически из производного предложения. При этом типе несобственно-прямой речи производное предложение изменяется как по форме, так и по содержанию. Словосочетание превращается в составное дополнение. Соответственно языковая единица, выражающая мысль, принимает форму сложного соединения, выражающего сложное понятие. В авторской речи при высказывании без эмоции изменяется только основа глагола (de+di, de+gan edi, de+r edi и др.) (ayt+di, ayt+gan edi, ayt+ar edi и др.).*

**Annotation.** *The indirect speech refers to the assimilation formed syntactically from the derived sentence. In this type of indirect speech, the derived sentence changes both in form and content. The phrase turns into a compound, more precisely, a compound complement. Accordingly, the language unit expressing thought takes the form of a compound expressing a complex concept. In the author's speech, when the statement is insensitive, only the stem of the verb (de+di, de+gan edi, de+r edi, etc.) is changed (ayt+di, ayt+gan edi, ayt+ar edi, etc.).*

**Kalit so'zlar:** *o'zga nutq, ko'chirma nutq, o'zlashtirma nutq, matn, mikromatn, makromatn, muallif nutqi, xabar manbasi, eshiltirilgan semasi, sintaktik vosita, morfologik vosita, nutq fe'li, til qurilishi, tejamkorlik.*

**Ключевые слова:** *чужая речь, прямая речь, косвенная речь, текст, микротекст, макротекст, авторская речь, источник сообщения, сема слышимости, синтаксические средства, морфологические средства, речевой глагол, языковая конструкция, экономия.*

**Key words:** *foreign speech, direct speech, indirect speech, text, microtext, macrotext, author's speech, message source, audibility seme, syntactic means, morphological means, speech verb, language construction, economy.*

O'zgaralar nutqi nutqning alohida turi bo'lib, nutqiy vaziyatning alohida ko'rinishi hisoblanadi. Bunday holda monologda so'zlovchi (yozma nutqda muallif)ning nutqiga boshqa birovning nutqi, dialogda esa boshqa birovlarining nutqi qo'shiladi. So'zlovchining o'z nutqi obyekt bo'lib borliqdagi voqea-hodisa va faktlar xizmat qiladi. O'zining monologik nutqi vositasida so'zlovchi tinglovchi (adresat)ga borliq haqida axborot, ma'lumot beradi. So'zlovchining dialog tarzidagi o'z nutqi esa nutqiy amal (nutq akti) ishtirokchilarining borliq haqidagi suhbatidan iborat bo'ladi.<sup>1</sup>

O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul, ya'ni sintaktik va morfologik yo'l bilan ifoda etiladi. Birinchi tur deganda ko'chirma gapdan sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalik nazarda tutiladi. O'zlashtirmalikning bu turida ko'chirma gap ham shaklan ham mazmunan o'zgarishga uchraydi. Ko'chirma gap shaklan birikma, aniqrog'i, birikmali to'ldiruvchiga aylanadi. Shunga ko'ra, fikr anglatuvchi til birligi murakkab tushuncha bildiruvchi birikma shaklini oladi. Muallif gapida esa bayon nohissiy bo'lganda faqat uning kesimi vazifasidagi fe'l (**de+di**, **de+gan edi**, **de+r edi** va b.)ning o'zagi o'zgaradi (**ayt+di**, **ayt+gan edi**, **ayt+ar edi** va hokazo).

Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan, kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi: *Ol+gan+i+ni ayt+di. Ol+ish+i+ni ayt+di. Ol+moq-chi+lig+i+ni ayt+di. Ol+gan+i haqida gapir+di* va hokazo.

Sho'ro davrida o'zlashtirmalikning, asosan, ana shu turi nazariy jihatdan tadqiq qilinib, oliy va o'rta ta'limga tatbiq etildi, ya'ni qoidalashtirilib, kodifikatsiya qilindi. Bu tur ko'chirma gap bilan qiyosan, u bilan bitta umumiy sarlavha (o'zga gap) ostida o'rganildi.

O'zlashtirmalikning o'zbek tili sintaktik qurilishiga xos-xos emasligi masalasida bahslashildi.<sup>2</sup> Mazkur ishlarda o'zga gapning tuzilishi, mazmuni va qo'llanishiga nisbatan mualliflarning munosabati bir xil emas. Chunonchi, ayrim tilshunosning fikriga ko'ra, ba'zi ko'chirma gap avtor gapiga nisbatan mustaqilligini saqlaydi. Shu bois uni bog'langan qo'shma gap deyish mumkin. Ikkinchi xil ko'chirma gap esa avtor gapini izohlab keladi va unga nisbatan ergash gap vazifasini bajaradi. Binobarin, bunday ko'-

<sup>1</sup> Зикриллаев Ф.Н. Рух ва тил. Тошкент, "Фан", 2018, 335 – 336-бетлар.

<sup>2</sup> Иминов А. Ўзлаштирма гап борми? "Ўзбек тили ва адабиёти", 1990, 3-сон, 3-бет.

chirma gap ergash gapga aylangan bo'ladi.<sup>1</sup> Akademik G'.Abdurahmonov fikriga ko'ra, o'zlashtirmalikning birinchi turi zohiran sodda, mazmunan qo'shma gapga teng keladi. Shunga ko'ra, unda ikkita fikr ifodalanadi. Bu, ayniqsa, noqardosh tillar bilan qiyoslaganda yaqqol seziladi: *Kitob olganini aytdi. – Он сказал, что (он) покупал книгу. – Er sagte, daß er ein Buch gekauft hat.* O'zlashtirma gapning oliy o'quv yurti darsligida sodda gap shaklida bo'lishi e'tirof etiladi-yu qo'shma gap bahsida beriladi.<sup>2</sup> Bu rus tiliga taqlid oqibatidir. Chunki rus tilida o'zlashtirma gap ergashgan qo'shma gap shaklida bo'ladi.

Ko'chirma va muallif gapidan bitta sodda gap hosil bo'ladi. Til faktlariga murojaat qilamiz:

*U har safar devor oshganda, endi kolxozda “katta qoziq” bo'lganini aytib, Mehriга shon-shuhrat va'da qilar edi.*<sup>3</sup>

Ushbu misol murakkab sodda gap, kesimi mazmunan ikkita, uyushib kelgan. Ammo shaklan o'zbek adabiy tilining sintaktik qurilishi inobatga olinganidan birinchi qism predikativ shaklga ega emas (*aytib*). Bu shakl gapning oldingi qismini keyingi qismi bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Yozuvchi so'z bog'lovchi (*va*)ni qo'shimcha bog'lovchi (*-ib*) bilan almashtirgan. Natijada ikkala qism uzviy bog'langan. Shu nazarda tutilmasa muallif gapi kesimining to'liq shakli qo'llanib ega, kesim munosabati ifodasini topadi: *U ...aytar edi*. Bundan tashqari, shu bitta gap alohida abzas qilib berilgan. Bu bilan gapda ifodalanagan fikrni mikromatnning boshqa qismidan ajratib ko'rsatib unga o'quvchining diqqati jalb qilingan.

Endi ushbu misolning ruscha tarjimasini olib ko'raylik. *Добавим, что Зулфикаров не ограничивался вещественными дарами. Во время своих посещений он стремился также и поддерживать дух Мехри, говоря, что теперь он в колхозе большой человек, и намекая при этом, что-нибудь достанутся почести и даже слава* (206).

Tarjima ham alohida abzas qilib berilgan. Ammo uning hajmi asl nusxadan ikki baravardan ham katta. Buning boisi tarjimadagi birinchi gap asl nusxada yo'q. Bir necha so'z va birikma ham qo'shilgan. Bundan tashqari, o'zlashtirma gap uyushiq kesimining har biri mustaqil predikativ shaklga ega bo'lganidan ikkita o'zlashtirma gap hosil bo'lgan. Shunga ko'ra, tarjimada o'zbek matniga xos tejamkorlik aks etmagan. Ayni paytda, asl nusxada abzasning boshida qo'llangan sifatdosh birikma orqali yozuvchi o'quvchining diqqatini Zulfiqorov bilan Umidaning munosabati milliy axloq qoidalariga oddiy so'zlar qo'llanidan (*во время своих посещений*) ifoda asl nusxada nazarda tutilgan ta'sir kuchini yo'qotgan.

Nemischa tarjimadagi abzasning hajmi ruscha tarjimaga mos. Chunki birinchi gap qo'shilgan aniqrog'i oldingi abzasdan bu yoqqa ko'chirilgan. Boshqa ko'p jihat ham rus tiliga aynan o'xshash. Faqat abzasning o'zlashtirma gap qismida nemis tilining o'ziga xos grammatik xususiyati (qarang: 2.1) inobatga olingan. Nutq fe'li (*erklärte*)dan keyin bog'lovchisiz ergash gap qo'llangan bo'lib, so'z tartibi mustaqil sodda gapdagidek. Birinchi kesim prezens konyunktiv (*sei*), ikkinchi kesim imperfekt konyunktiv shakli orqali ifodalangan: *Es ist hinzuzufügen, daß Sulfikarows Geschenk nicht nur materieller Art waren. Während seiner Besuche bemühte er sich auch, Mechris moralische Verfassung zu helfen, indem er erklärte, er sei jetzt in der Kolchose ein großer Mann, und irgendwann einmal würde auch ihr, Mechri, mit seiner Hilfe Ehre und Ruhm zuteile* (112–113).

Bitta sodda gapda ikkita ko'chirma gap o'zlashtirib bayon qilinishi mumkin: *Qalandarov byuro sostaviga taklif qilgan nomzodlaridan Usmonjon Umarov o'tmaganini, uning o'rniga Ismoiljon Normatov o'tganini* eshitib, garchi shu odamni taklif qilish esiga kelmaganiga ichidan achinsa ham, jon-poni chiqib ketdi (85).

Bu misolda ham muallif gapining kesimi fe'l bo'lsa-da, noto'liq predikativ shaklga ega. Fe'l o'zagi xabarning o'zlashtirilganini anglatib, qo'shimchasi (*-ib*)gapning oldingi qismini muallif gapining to'liq shakllangan kesimi bilan bog'laydi (*jon-poni chiqib ketdi*). Muhim farq shuki ikkita ko'chirma gap o'zlashtirilganidan birikmali to'ldiruvchi ikki marta qo'llangan. Nutqiy maqsad talabi bilan gap tarkibidagi yetakchi so'zlarning valentligi voqelanganidan o'zlashtirma gap ancha kengaygan. Yana o'zlashtirma xabar abzasning birinchi gapi, abzas esa bo'limning birinchi abzasi ekanligi nazarda tutilsa, unga mantiqiy urg'u tushgan deyish mumkin. Muallif gapining egasi atoqli ot (Qalandarov) bilan ifoda etilgan bo'lib, tasvirlangan voqea-hodisa shu shaxsga daxldor. Nutqiy vaziyat talabiga ko'ra, yozuvchi atigi ikkita gapni alohida abzas qilib, Qalandarovning salbiy munosabatini yuqori darajada birinchisida lug'aviy vosita, ik-

<sup>1</sup> Назарова Х. Эски ўзбек ёзма ёдгорликларида кўчирма гапларнинг қўлланиши. Тошкент, 1959, 9-бет.

<sup>2</sup> Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1987,

<sup>3</sup> Mazkur maqoladagi tahlilga tortilgan misollar A.Qahhorning “Sinchalak” asari va uning ruscha (Ptichka nevelichka) hamda nemischa (Sekretär Saida) tarjimalaridan olindi.

kinchisida, bundan tashqari, grammatik vosita hamda nolisoniy omil (yozuvda undov belgisi) orqali ifodalangan (Bu gap misolda berilmagan).

Ruscha tarjimada asl nusxadagi bayon tarzi o'zgartirilgan. Oqibatda atigi ikkita gap oltita katta-kichik gapga aylanib, o'n bir qatorli abzas hosil bo'lgan. Tarjimon abzasning boshidan oxirigacha diqqate'tiborni Qalandarovning salbiy xususiyatini bo'rttirib bayon qilishga qaratgan. Shu bois to'rt o'rinda undov belgisi qo'yilgan. O'zlashtirma xabardan atigi noto'liq kesim ravishdosh shaklida (*uznav*) berilgan, xolos. O'zlashtirmalikni ifodalash uchun xoslangan to'ldiruvchi ergash gapdan foydalanilmagan. Ism familiyasi keltirilgan shaxsdan bittasi tushirib qoldirilgan, ikkinchisining faqat ismi aytilgan va hokazo. Xullas, yozuvchining o'ziga xos uslubidan asar ham qolmagan. Mana o'sha abzas:

*Узнав о случившемся, Каландаров был не в себе. В конце концов он, пожалуй, мог бы и сам выдвинуть кандидатуру Исмаилджана, черт с ним, пусть бы был в бюро, он, Каландаров, вовсе не такой злопамятный, каким его считают! Его бесил не сам факт избрания Исмаилджана, а то, что он, Каландаров, внес предложение – хорошее или плохое, другой вопрос – и это предложение было отвергнуто! Он внес, а Саида отвергла! Вес свой гнев он теперь сосредоточил именно и персонально на Саиде. А остальные тоже хороши, уже готово, пошли у нее на поводу!* (175–176).

Nemis tarjimoni ruscha matnga asoslanganidan ko'pchilik qusur aynan takrorlangan. U ham o'zlashtirma gap qo'llamagan. Muallif gapining kesimini to'liq predikativ shaklda (*erfuhr*) ishlatgan, xolos. Yozuvchi uslubiga rioya qilmaslik oqibatida abzasga gap soni rus tilidagidan ham bitta ko'paygan. Qo'llangan iboralardan ayrimining ma'nosi rus tilidagidek asl nusxadan keskin farq qiladi. Masalan: *ichida achinsa ham – chert s nim – der Teufel sollte ihn holen!* va b. Boshqa xato va qusurlar ham borligidan abzasni to'liq keltiramiz:

*Als Kalandarow erfuhr, was vorgefallen war, geriet er außer sich. Schließlich hätte er auch selbst Ismaildshan – der Teufel sollte ihn holen! – nominieren können. Sollte er doch in die Leitung hinein, er, Kalandarow, war gar nicht so übelnehmerisch, wie man glaubte! Nicht so sehr, daß Ismaildshan gewählt war, brachte ihn in Hornisch als vielmehr das: Er, Kalandarow, machte einen Vorschlag – ob gut oder schlecht, war eine andere Sache, – und dieser Vorschlag wurde einfach abgelehnt! Er machte ihn, und Saida lehnte ihn ab! Sein ganzer Zorn richtete sich jetzt speziell und persönlich gegen Saida, und die anderen, natürlich, die waren gleich bereit, ließen sich von ihr ins Schlepptau nehmen!* (75).

O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul bilan ifoda etiladi: biri sintaktik, biri morfologik. Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan, kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi.

**Xolboyeva Dilshoda Sapar qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti 2-kurs magistranti),  
Uralova Oysulov Payon qizi (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori)  
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLAM LISONIY MANZARASINING FRAZEMALAR  
ORQALI IFODALANISHI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida olam lisoniy manzarasining frazemalar orqali ifodalanishi, leksik va frazeologik ma'nolarning parallel ravishda kelishi, ingliz va o'zbek tillari frazemalari milliy-madaniy xususiyatlarini chog'ishtirib o'rganish haqida batafsil bayon etilgan.

**Аннотация.** В данной статье подробно описывается выражение языкового ландшафта мира через идиомы в английском и узбекском языках, параллельное возникновение лексических и фразеологических значений, изучение национально-культурных особенностей идиом английского и узбекского языков.

**Annotation.** This article describes in detail the expression of the linguistic landscape of the world through idioms in English and Uzbek languages, the parallel occurrence of lexical and phraseological meanings, the study of national and cultural characteristics of idioms of English and Uzbek languages.

**Kalit so'zlar:** chog'ishtirish, lisoniy manzara, frazema, leksik ma'no, tagtizim birlik, eksplitsit shakl.

**Ключевые слова:** сочетание, языковой ландшафт, словосочетание, лексическое значение, структурное единство, эксплицитная форма.

**Key words:** combination, linguistic landscape, phrase, lexical meaning, structural unity, explicit form.

**Kirish.** Til sistemasida mavjud bo‘lgan frazeologik tagtizim birliklari funksional nuqtayi nazardan so‘zlar kabi, narsa va hodisalarni nomlashda, kommunikativ munosabatlarni bajarishda faol ishtirok etadi. Bir qator frazeologik iboralar uchraydiki, ularning shakllanishida ishtirok etgan so‘zlar – komponentlarning konkret yoki ko‘chma ma‘nolari ba‘zilarida implitsit, ba‘zilarida esa eksplitsit shaklda namoyon bo‘lib turadi.<sup>1</sup> Ular frazema komponenti sifatida o‘zlarining ma‘no va shakl planlarini saqlab qolgan. Bunday holatlar ikkinchi yo‘nalish tarafdorlarining fikrlarini e‘tirof etishga asos hisoblanadi.<sup>2</sup> Xuddi shunday leksik va frazeologik ma‘nolarning parallel ravishda kelishi qator paremeologik birliklarda ham mavjudligini kuzatamiz. Misollardan ko‘rinib turibdiki, har bir tilning frazeologik fondida semantik nuqtayi nazardan shakllanishiga ko‘ra, turli iboralar mavjud ekan, ba‘zi iboralarda komponent o‘zining so‘z maqomini yo‘qotgan bo‘lsa, boshqa bir iborada o‘z ma‘nosini saqlab qolgan.<sup>3</sup>

**Adabiyotlar.** Til dunyoni idrok etishning umuminsoniy qonuniyatlari asosida voqelanishini alohida ta‘kidlash lozim. Chunki insonning mantiqiy tafakkur qobiliyati, ular yer yuzining qaysi burchagida bo‘lishidan qat‘iy nazar, umumiylikka egadir. Agarda ushbu umumiylik mavjud bo‘lmasa, turli qit‘alarda yashovchi, turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar bir-birini tushunmagan, anglamagan, o‘zaro muloqotga kirisholmagan bo‘lar edilar. Buning yorqin isboti sifatida tillarda mavjud bo‘lgan to‘liq ekvivalent leksik birliklar qatorida frazeologik birliklar ham shaklan, ham ma‘nan bir xilda mavjudligidir.<sup>1</sup>

Barcha tillarda mavjud bo‘lgani kabi, ingliz tili lug‘at boyligining leksik birliklari qatoridan minglab frazemalarning o‘rin olganini ko‘ramiz. Bu birliklar asrlar davomida ingliz xalqining milliy-madaniy hayot tarzini, ijtimoiy taraqqiyotini tarix zarvaraqlariga muhrlab kelayapti. Tadqiqotimiz jarayonida frazemalarning bir qator xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Frazeologiya” atamasi yunoncha “frama” (phrasis – ifoda, nutq o‘rami) so‘zidan olingan bo‘lib, bu atama turlicha ma‘nolarni anglatadi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki xil ma‘noda: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami ma‘nosida hamda shunday birliklarni o‘rganuvchi soha ma‘nosida keladi. Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilmdir. Jahon tilshunosligida frazeologiya tez taraqqiy etib kelayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Jumladan, birgina turkiyshunoslikda frazeologiyant sistemali ravishda o‘rganish o‘tgan asrning 40–50 yillaridan boshlandi. Shu davrda turli tillardagi frazeologik birlikdarni grammatik, leksik-semantik jihatdan o‘rganish sohasida muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi. Taniqli frazeolog olim N.N.Amosova ta‘kidlaganlaridek, “Bu lingvistik sohaning shakllanishi va taraqqiyoti ko‘plab frazeolog olimlarning turli tillar bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari”dir. Frazeologizmlar ham xuddi so‘zlarga o‘xshab shakl va ma‘no birligiga ega hisoblanadi.

Frazeologiya tilshunoslik fani bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Bu bo‘lim tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma‘lumot beradi. Frazema ko‘chma ma‘noli turg‘un birikmadir. Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma‘noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi va hokazo.

Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta‘sirchan vosita sifatida qo‘llaniladi. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnda tadqiq va tahlil etilishi muhimdir. Frazeologizmlar badiiylikni ochib beruvchi unsur hisoblanadi. Badiiy nutqqa o‘zgacha joziba, ko‘tarinki ruh, yengillik baxsh etadi. Frazeologizmlar biron narsa-hodisani atash, nomlash vazifasini bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Adabiy tilning sofliigi va ta‘sirchanligini ta‘minlovchi vositalardan biri frazeologizm sanaladi.

Olamning obrazini to‘g‘ridan to‘g‘ri reflekslar vositasida anglab bo‘lmaydi, uni faqat o‘ziga xos obrazlarni “o‘z boshidan kechirish” orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini “odatdagi” bilish orqali anglab bo‘lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. A.K.Kamenskiy olamning lisoniy manzarasini “mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so‘zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so‘zli hosila” sifatida umumiy shaklda izohlagan. M.Xaydeggerning qayd qilishicha, “manzara” so‘zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o‘ylaymiz, “olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi”. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o‘rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo‘ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o‘ng chap, sharq-g‘arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va hokazo. Uning

<sup>1</sup>Djumabayeva J.Sh. Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonomiya. Monografiya, Toshkent, 2007, 126-bet.

shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Til sistemasida mavjud bo'lgan frazeologik tagtuzim birliklari funksional nuqtayi nazardan, so'zlar kabi narsa va hodisalarni nomlashda, kommuni-kativ munosabatlarni bajarishda faol ishtirok etadi. Har bir tilda frazeologik tagtuzim mavjud bo'lib, uning birliklari tilning lug'at boyligini oshirishda, predmet va hodisalarni nomlashda, kundalik muloqot jarayonida so'z kabi doimo qo'llanadi. Bunday til birliklarida xalqlarning milliy-madaniy o'ziga xosligi, udumlari, mentaliteti, tarixi bir umrga muhrlangan. Xalq yangi-yangi tushunchalarni nomlash, ifodalash, turli ijtimoiy holatlarni voqelantirish maqsadida yoki mavjud tushunchalar, voqeliklarning turli qirralarini ochish niyatida shakl jihatidan qisqa, lekin chuqur ifodali ma'noga ega birliklarni yaratadi. Bu, albatta, o'sha xalqning ko'p yillik tajribasidan o'tgan, o'sha millat, elat, qavm uchun tushunarli bo'lgan iboralaridir. Ushbu frazeologik birliklar, odatda, biron narsani nafaqat oddiygina nomlaydi, balki uning konnotativ (stilistik) bo'yoqdorligi, gapiruvchining borliqqa bo'lgan munosabatini ham baholaydi, shu boisdan ham frazeologik ma'no tilda o'ziga xos ma'no hisoblanadi.<sup>1</sup>

**Tahlil va natijalar.** Olamning lisoniy manzarasini ifodalashda frazemalar noyob til unsurlari hisoblanadi. Ularning frazeologik ma'no strukturasi nafaqat lingvistik informatsiya, balki, ekstralingvistik ma'lumotlar ham mavjuddir. Har bir xalq yangidan yangi tushunchalarni nomlash, ifodalash, turli ijtimoiy holatlarni voqelantirishi maqsadida chuqur ifodali ma'noga ega bo'lgan frazeologik birliklar yaratadi.

Bundan tashqari, En fe'l suffiksi qadimgi davr ingliz tilida an, -ian, -nian formalarida qo'llanilgan. Masalan, swetan, gladian qadimgi davrda bu suffikslar ot va sifatlardan yasalgan. Hozirgi ingliz tilida -en suffiksi yangi fel so'zlarni yaratishda keng qo'llanilmoqda. Masalan, quienten-tinchlanmoq, broden-kengaymoq, lighten-yengillatmoq, fattensemirmoq.

Qadimgi davr ingliz tilida ar, -ian, -nion suffikslaridan ot va sifat so'zlarga birlashtirib oson yangi fel so'zlarni yasash mumkin edi. Lekin hozirgi ingliz tilida bunday xususiyat yo'q. Hozir -en suffiksi faqat sifat so'zlarga qo'shib fe'l yasaydi. Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning, asosan, ikki usuli ajratiladi: 1) affiksatsiya (yoki morfologik) usuli; 2) kompozitsiya (yoki sintaktik) usuli; O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksatsiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: mevali daraxt, serhosil yer kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so'zlar bo'lib, ular meva o'zagiga li, hosil o'zagiga ser affiksalarini qo'shish orqali yasalgan so'zlardir. Ikki va undan ortiq so'z formalarining (ko'pincha, mustaqil so'zlarning qo'shib (yoki tizilib), bir so'zga aylanishi kompozitsiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan, belbog, oshqazon, mehmondo'st, so'z boshi, bir yuz o'n, ahd qilmoq, biroz va boshqalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ingliz va o'zbek tillarida leksik derivatsiya hodisasini qisqacha ko'rib chiqsak. Derivatsiya, ya'ni, so'z yasalishi – asos va hosila struktura munosabatini taqozo etuvchi jarayon hisoblanadi. Ushbu xususiyat asosga xos qaysi leksik-semantik komponentning yasama so'z uchun ichki forma vazifasini o'tashini aniqlash imkonini beradi. So'z yasalishida bu tillararo musharak bo'lsa ham, asos so'zga xos leksik-semantik komponentlardan qay birining ichki forma sifatida tanlanishi har bir tilning milliy xususiyati, shuningdek, har bir shaxsning individual dunyoqarashi bilan bog'liq holda amalga oshadi.<sup>2</sup>

Frazemalar har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon etuvchi til birligi sifatida ham noyob hisoblanadi. Turli tillar tizimlariga mansub bo'lgan, geografik jihatdan bir-birlaridan uzoq joylashgan, to'g'ridan to'g'ri turli ijtimoiy, siyosiy, diniy aloqalarga kirishmagan ingliz va o'zbek xalqlari frazemalarining chog'ishtirma tadqiqi ular orasidagi bir qator allamorf va izomorf xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.<sup>3</sup>

Frazeologik birliklarni noyob namunalar sifatida o'rganish, qiyosiy-chog'ishtirma, tasnifiy, tavsifiy tadqiqotlar olib borish, shu bilan birgalikda, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning semantikasidagi izomorf va allomorf xususiyatlarni aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Rahmonov, G'. O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati. Fil. fan. fal. dok. dis., Farg'ona, 2018.

<sup>2</sup> Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, "Sharq", 2010.

<sup>3</sup> Orifjonova Sh.G'. O'zbek tilida lug'aviy graduonomiya. Filol. fan. nomz. dis. avtoref., Toshkent, 2004. 22 b.

<sup>4</sup> Shirinova N.D. O'zbek tilida predmetlik va belgi-xususiyatma'nolarini farqlash vositalari. Filol. fan. nomz. dis., Toshkent, 2010.



Ingliz tili frazemalarining umum Yevropa madaniyati, taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligi va qadimiy mifologik adabiyotlar qahramonlarining nomlari bilan mushtarakligi o'zbek tilidan farqli jihatlarini ko'rsatadi. Ingliz tili frazemalarining o'ziga xos tomonlaridan biri eponim frazemalar shakllanishidagi shaxs nomlari va ular bilan bog'liq narsalar orqali ifodalanishidir. O'zbek tili frazemalar zaxirasida qadimiy qahramonlar bilan bog'liq bo'lgan frazemalar juda kam uchraydi.

**Xulosalar.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ingliz va o'zbek tillari frazemalari milliy-madaniy xususiyatlarini chog'ishtirib o'rganish orqali insonlarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, qaysi makonda yashashi, qaysi tilda gapirishidan qat'iy nazar, ularda umumiy mantiqiy mushtaraklik mavjudligini shakl plani ham, ma'no plani ham to'liq ekvivalent bo'lgan frazemalar tahlili misolida ingliz va o'zbek tili paramiyalarini chog'ishtirish orqali ko'rish mumkin. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuuri-mizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir. Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi.

**Бекбутаева Хосият Якубовна (Термиз Давлат Педагогика институти 2-курс магистранти),  
Кодирова Муқаддас Тоғаевна (филология фанлари бўйича фалсафа доктори)  
ИНСОН ОБРАЗНИ ИФОДА ЭТУВЧИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ЧОҒИШТИРМА  
ТАДҚИҚИ**

**Аннотация.** Умримиз давомида атрофимизда кўплаб ижтимоий-тарихий, интеллектуал ва ҳиссий маълумотларни тўплаймиз. Ҳозирги кунда бизнинг мулоқотимизга ўзгача кўрк берувчи фразеология бўлими кўплаб олимлар диққат-эътиборига тушиб улгурган десам, адашмайман. Олимларнинг фикрларига кўра фразеологик бирликлар маданият ҳодисалари сифатида тушуниши билан боғлиқ бўлиб, уларнинг маданий хусусиятлари улар иштирок этган гапларда ўрганилади. Мазкур мақола инглиз ва ўзбек тилларида шахс характерини ифодаловчи фразеологик бирликларнинг семантик таҳлиliga бағишланди.

**Аннотация.** В течение жизни мы собираем вокруг себя много социально-исторической, интеллектуальной и эмоциональной информации. Не будет ошибкой, если отметим, что раздел фразеологии, придающий нашему общению особый вид, привлек внимание многих ученых. По мнению ученых, фразеологизмы относятся к пониманию как явления культуры, а их культурологические особенности изучаются в предложениях, в которых они фигурируют. Данная статья посвящена семантическому анализу фразеологизмов, выражающих личность, в английском и узбекском языках.

**Annotation.** During our lifetime, we collect a lot of socio-historical, intellectual and emotional information around us. I would not be wrong to say that the department of phraseology, which gives a special look to our communication, has attracted the attention of many scientists. According to scientists, phraseological units are related to understanding as cultural phenomena and their cultural characteristics are studied in the sentences in which they are involved. This article is dedicated to the semantic analysis of phraseological units expressing personality in English and Uzbek languages.

**Калим сўзлар:** ҳодисалар, фразеологик бирликлар, нутқ, умумлаштирилган маъно, лексик-семантик бирлик, метафора, парадигма.

**Ключевые слова:** события, фразеологизмы, речь, обобщенное значение, лексико-семантическая единица, метафора, парадигма.

**Key words:** events, phraseological units, speech, generalized meaning, lexical-semantic unit, metaphor, paradigm.

Халқнинг маданий тил бойлигини акс эттиришда фразеологик бирликлар маълум бир тилда сўзлашувчи ва уларнинг дунёқарашининг ўзига хос хусусиятларини очиқ беришга ёрдам беради. Фразеологик бирликлар тилнинг ўзига хос бирликлари сифатида XX аср бошларида тилшуносларнинг диққат марказига тушди ва ушбу сўз бирикмаси илмий тадқиқот объектига айланди.

Дастлаб, XX асрнинг 20-йилларида фразеологизм ҳажмини, объектини таниқли рус олими В.В.Виноградов мустақил тилшунослик фразеологиясини бир бўлим сифатида ажратди ва нутқ

фаолиятига нисбатан фразеологик бирликларни ўрганди. Бу билан В.В.Виноградов фразеологик бирликни фразеологизмнинг асосий объекти сифатида белгилайди.<sup>1</sup>

Ҳар бир тилнинг фразеологизмларида халқнинг барча ўзига хосликлари ва унинг дунёқараши акс этади. В.А.Маслованинг фикрича, «тилнинг фразеологик фонди халқнинг маданияти ва менталитети ҳақидаги энг қимматли манбадир, унда халқнинг афсоналари, урф-одатлари, маросимлари, байрамлари, одоб-ахлоқи ва ҳоказолар мужассамлашган».<sup>2</sup>

Хаммамизга маълумки, ҳозирда “фразеология” атамаси тилдаги фразеологик бирликлар тўпламига ёки уларни ўрганаётган лингвистик бўлимга мурожаат қилиш учун ишлатилмоқда. Шубҳасиз, олимлар ушбу бирликларга турли хил таърифлар ва уларни таснифлаш учун турли мезонларни тақдим этишган.

Фразеологик бирликлар ўзларининг тўлиқлиги, ишлатилиш қулайлиги, ихчам ва нафислиги билан бошқа тил бирликларидан катта фарқ қилади. Улар тил бирлиги сифатида ифодаланади ва нутқнинг таъсирчанлигини оширади. Ўзбек тилшунос олимлари орасида Ш.Раҳматуллаев, М.Содиқов, М.Абдурахимов, Б.Юлдашев, М.Х.Ҳалиқова, К.Д.Тўхтаева, Ш.Абдуллаев ва Г.Эргашевалар ҳам фразеология бўлимига ўз ҳиссаларини қўшишди. Улар ўзларининг “фразеологик бирликлар” ҳақидаги илмий ва назарий тушунчаларини баён қилдилар. А.Маматов таърифига кўра, фразеологик бирликлар ўз таркибида сўзларнинг ёки сўзларнинг бирикмасидан иборат бўлган барқарор лексик-семантик бирлик бўлиб, умумлаштирилган маънони англатади.

Ш.Раҳматуллаев ўзбек тилида фразеологизмлар бўйича тадқиқотчи бўлган. Олим фразеологик бирликларни семантик жиҳатдан ажратиб, уларни уч турга ажратди: фразеологик яхлитлик, аралашма ва кириш. Ш.Раҳматуллаевнинг фикрига кўра, бу сўзларнинг маъноси фразеологик яхлитлик деб аталадиган ушбу тушунчаларга асосланган иборанинг маъносига боғлиқ. Масалан, *to stich before the wedding; earthly sky*.

Демак, Ш.Раҳматуллаевнинг сўзларига кўра, иборанинг маъноси ундаги сўзларнинг маъносига боғлиқ эмас ва улардан келиб чиқмайди. Сўзнинг маъноси ва ундаги маънолар ўртасида потенциал боғлиқлик йўқ. Ушбу атамалар фразеологик қора танлилар деб аталади. Масалан: *in the mouth of his ears he was wearing a reversal, his watery watermelon fell off his cheeks*.

Тилшуносликда фразеологизмларнинг денотатив ва коннотатив маъноси ажратиб ўрганилади. Денотатив маъно (аташ маъноси) деб фразеологизмнинг объектив, коннотатив маъноси эса субъектив маъносидир. Баъзи тилшунослар коннотатив маънони денотатив маънога қўшимча маъно сифатида таърифлайдилар. Тилшунос олим Апресжаннинг фикрига кўра, коннотация, яъни, семантик ассоциациялар, маълум сўзнинг анъанавий миллий, шунингдек, бир қанча экстралингвистик (тилга боғлиқ бўлмаган) омиллар таъсиридаги маъносидир. А.И.Федоров ФБлар коннотациясини экспрессивлик билан боғлаб қуйидагича таърифлайди. Фразеологизмлар янги бир ҳодисани аташ учун эмас, балки тилда аллақачон мавжуд бўлган предмет воқеа-ҳодиса ҳаракат ва сифатнинг образли-эмоционал баҳосини аниқлаштириш учун яратилади.<sup>3,4</sup>

Денотатив ва коннотатив маъно бир-бирига узвий боғлиқ. Коннотатив элементни аташ маъносидан ташқарида ифодалаб бўлмайди. Ҳар қандай вербал ва фразеологик белгилар объективликни акс эттирувчи реал ҳодисаларни бевосита ёки билвосита субъектнинг воқеа-ҳодисаларга нисбатан ҳис-туйғулари ва баҳоси орқали ифодалайди.<sup>5</sup>

Таҳлил учун мисоллар инглиз ва ўзбек фразеологик ва паремиологик луғатлардан тўпланган. Ушбу бирликлар тарихий-этимологик, қиёсий ва дискриптив методлар орқали иккала тил миқсолида ўрганилган.

Тарихда ўзининг алоҳида хусусиятлари, кўрсатган жасоратлари ва бажарган ишлари билан ном қолдирган шахслар фразеологик бирликларда ҳам намоён бўлади. Инглиз ва ўзбек тилларидаги антропоним компонентли фразеологик бирликларни ажратишимиз мумкин:

<sup>1</sup> Мусаев Қ. Бадий таржима ва нутқ маданияти. Т., 1996; Саломов Ф. Тил ва таржима. Т., “Фан”, 1966.

<sup>2</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание, М., “Academia”, 2004, 204 с.

<sup>3</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз., 2-е изд., перераб., М., “Высшая школа”, Дубна, изд. центр «Феникс», 1996.

<sup>4</sup> Semantic structures of English phraseological units and proverbs with proper names. Dissertation paper. SamSIFL. N.Ochilova, 2014

<sup>5</sup> Мелерович А.М. (2008). Семантическая структура фразеологических единиц современного русского языка. Кострома: КГУ им. Н.А.Некрасова, 484 с.

1. Ижобий коннотацияли фразеологик бирликлар. Инглиз тилида «**all Sir Garnet**» – «**Оти бор Алпомиш**» – жасоратли, мард. Алпомишнинг куч кудрати ва буюк жасорати, «**the admirable Crichton**» фразеологизми эса бекиёс Крихтон ўқимишли киши деган манони билдириб, ўзбек тилидаги «**Афлотун мия**» умумий маънода ҳисобланади. Одатда, бу иборалар жуда ақлли донишманд кишиларга нисбатан қўлланилади.

2. Салбий коннотацияли фразеологик бирликлар. «**Маҳмуднинг қадами етган ерда ўт ўсмас**» мақолида Маҳмуд Ғазнавийнинг золим ва қонхўрлиги назарда тутилган. «**Бўжи келди бўжи келди Чингиз билан жўжи кеди**» мақолида эса Чингизхон бошчилигидаги мўғулларнинг Ўрта Осиёга хужуми халқнинг нафратини кўзғатгани мақол таркибидаги бўжи сўздан осонгина англаниши мумкин. Баъзан тарихий шахслар ўз хатти-ҳаракатлари билан бутун жаҳонга машҳур бўлишади ва бошқа тиллар фразеологик фондида ҳам улар ҳақида ФБлар мавжуд бўлади. Инглиз тилидаги «**somewhere to the right of Genghis Khan**» – ўнг қанот радикал қарашлари тарафида бўлиш, ушбу бирлик ҳам Чингизхоннинг шафқатсиз юришлари ва характери асосида пайдо бўлган. «**Jack Ketch**» – жаллод, XVIII асрдаги инглиз жаллодининг исмидан келиб чиққан.<sup>1</sup>

Сўзнинг тўғри ва кўчма маънолари, кўпинча, бошқа сўзларнинг комбинацияси билан бирга келади. Масалан, the door to the house, sour-sour fruits. Кўчма маъно: sour-nonsense (бемаънилик). Фразеологизмлар – тилнинг юқори маълумотли бирликлари. Уларни “безак” деб ҳисоблаш мумкин. Шундай қилиб, фразеологик бирликлар бўйича ҳар бир асар ҳар сафар янги ва ўзига хос хусусиятлар билан ажралиб туради. Инглиз фразеологияси бой ва чуқур тарихга эга. Тилшунос Е.Д. Поливанов биринчи бор сўзларнинг лексик ва расмий маъноларининг морфологиясини, сўз бирикмаларининг синтактик маъносини ўрганади. Ажратиб бўлинмаган бирликларда функционал ва семантик жиҳатдан қараладиган сўз туркумлари анъанавий равишда фразеологизмнинг мавзуси сифатида қаралиши бир неча бор таъкидланган. Аммо шунини таъкидлаш керакки, яқин орада инглиз ва америкалик тилшунослар орасида фразеология бўлимини тўғри илмий текширишга уриниш бўлмаган, қоида тариқасида, баъзи бир қизиқишларга норози бўлган турли хил сўзлар, сўзлар гуруҳи ва гапларни тўплаш билан чекланиб қолинган. Уларнинг келиб чиқиши, услуби, ишлатилиниши ёки уларга хос бўлган бошқа хусусиятларнинг кўриниши ўрганилмаган. Ушбу бирликлар одатдагидек идиома сифатида тавсифланади, аммо бу ибораларни лингвистик бирликларнинг ёки сўз туркумлари алоҳида ўзига хос синфи сифатида текширишга ҳаракат қилинмаган.

А.В.Кунин томонидан тақдим этилган таснифни бирлаштириб, биз фразеологик бирликларни намуна олиш йўли билан ажратдик ва таҳлил қилдик.

1. Барқарор сўз бирикмалари ва иборалар, умуман, бўлинмайдиган хусусиятларга эга эмас ва улар таркибидаги сўзларнинг маъносига боғлиқ бўлмайди. Бунга мисоллар:

To kick the bucket – жон бермоқ; To be all thumbs – қўпол, бесўнақай одам; Grin like a Cheshire Cat – оғзи қулоғида (оғзини таноби қочди).

Бу каби фразеологик бирликларнинг умумий маънолари инсонларнинг сифатлари ҳақидадир.

2. Фразеологик бирликлар – кўчма маъноли гапда маъно жиҳатидан бўлинмаслигини сақлаган ҳолатда ҳам қўлланилади: Too much to be painted the devil blacker than he is (жуда бўрттирилган).

Фразеологик бирликларни тушуниш учун уларнинг таркибий қисмлари кўчма маънода олиниши керак. Масалан, “make a mountain out of a molehill” ибораси – бу бизнинг “пашшадан фил яшаш” фразеологик бирлигимизга тенг бўлиб, “molehill” сўзи “жуда кичик нарса” ва “mountain” сўзи “жуда катта” маъноларини бермоқда.

3. Фразеологик бирикмалар – эркин ва фразеологик жиҳатдан бир-бирига яқин маъноларни ўз ичига олган собит бирикмалардир. Буларга мисоллар: A bosom friend – қадрли дўст; As red as a turkey cock – хўрознонг тожидек қизил; As bold as a lion – шердек жасур; As an obstinate as a mule – ешшакдек қайсар.

Хулоса қилиб айтганда, фразеологик бирликларнинг таржимасини инглиз ва ўзбек тилларидаги таржималар билан кузатдик. Таржима соҳасида миллий тилларни таржима қилиш ва ривож-

<sup>1</sup> Challenges of translating phraseological units. Procedia – Social and Behavioral Sciences 70 (2013), 1487 – 1492. Akdeniz Language Studies Conference 2012 (source: ScienceDirect). Victoria Subbotina, Kazakh-British Technical University, English Language Department. Almaty city, Kazakhstan Academic Research, Uzbekistan 72www.ares.uz

